

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTNI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**MAKTABGACHA TA`LIM TASHKIOTLARIDA
O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLAR**



TOSHKENT – 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTNI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**BOLALAR MAKTABGACHA TA`LIM
TASHKILOTSIDA O'TKAZILADIGAN
HARAKATLI O'YINLAR**

*(Metodistlarga, yo'riqchilarga, kichik, o'rta, katta va tayyorlov
guruh tarbiyachilari uchun o'quv qo'llanma)*

TOSHKENT – 2022

Annotatsiya

Ushbu qo'llanmada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilar bilan harakatli o'yinlar hamda gimnastik mashqlarni tashkil etish yo'nalishi bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlari, jismoniy tarbiya yo'riqchilari hamda malaka oshirishga kelgan tinglovchilar uchun mo'ljallangan.

Mualliflar

F.Xo'jayev jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
“Sport boshqaruvi” kafedrasi professori, p.f.n.

Taqrizchilar

A.N.Abdiyev pedagogika fanlari doktori, professor

B.I.Ne'matov pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ushbu qo'llanma Institutning “2” martdagi 2022-yildagi 2-sonli Kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

Sog‘lom avlodni kamolga etkazish va tarbiyalashning turli yo‘l-yo‘riqlari, o‘ziga xos usullari mavjud. Ayniqsa bolalarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilish, badan tarbiyasi va sport bilan shug‘ullantirish, turli milliy harakatli o‘yinlarni o‘rgatish ota-onasiga, yo‘qriqchilar va murabbiylar oldida muhim vazifa hisobolanadi. Bola tarbiyasidagi bu jixatlar davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir. Prezidentimiz bu massalani davr talab darajasida xal qilishga alohida e’tibor berib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya, turizm, sportning boshqa milliy turlari va shakllarini amaliyotga joriy etish, ayniqsa, milliy sport o‘yinlarini boyitish va shular asosida yoshlarimiz o‘rtasida keng tashviqot olib borishni kun tartibidagi dolzarb masalalar sifatida e’tirof aytib o‘tdilar. Darhaqiqat milliy harakatli o‘yinlar, sport turlari ham xalq qadriyatlariga daxldor bo‘lib, ularni yig‘ish, boyitish va bolalarga taqdim etishni sog‘lom avlodni tarbiyalash yo‘lidagi muhim va zaruriy vazifalardan biridir.

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqorida aytilgan masalalarni rivojlantirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-soni Qarori “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 418-sonli Qarori, “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 13-martdagi 391-sonli Qarori, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinchoqlar, jixozlar va boshqa texnik vositalar bilan jixozlash me’yorlarinining tasdiqlash, to‘g‘risidagi 2018-yil 7-mart 7-sonli qarori va shunga o‘xshash qarorlar qabul qilingan.

Ana shulardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarda xalq va milliy xarakatli o‘yinlarni bolalar tarbiyasilagi ahamiyati qanday? Birinchi navbatda ta’kidlashning istar edikki, bu o‘yinlar diqqat ermak uchun o‘ynalmaydi. Zero, bu zukko xalqimizning asrlar mobaynida jamlangan ma’naviy javoxirlari majmuidir. O‘zbek elining donishmandchiligin qarachig‘i, har bir o‘yin avvalo sodda, qiziqarli tuzilgan bo‘lib, uning asosiga xalqona ohang, milliylik, mehr-oqibat, jasorat, mardlik, vatanparvarlik, fidoiylik, insoniylik tuyg‘ulari singdirilgandir. Ta’lim va tarbiyaning bunday uyg‘unligi etuk insonni tarbiyalash uchun dasturi amal bo‘ladi.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlari taklid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o'zgacharoq faxmlaydi, kuzatiladi. O'yindagi ba'zi narsalarni o'yiniga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo'ladi. Shuning barobarida unda xodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi.

Bolalar tabiat xodisalari, jonivorlar hayoti va xarakatlariga taqlid qilib, o'ynar ekan, shu qatorda ularning ma'nosini anglay boshlaydi. Asta-sekin hayotiy tajriba ortiradi. Qiyinchiliklarni engishga o'rganadi. Unda harakat ko'nikmalariga hosil bo'ladi va tasavvuri tobora boyib boradi.

Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchun uchungina emas, balki ularga, aqliy, ma'naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plashib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar maqsadga erishi uchun farosati va tadbirkorligini, qat'iyatini ko'rsatish, jamiyat oldida faqat o'zining emas, balqi o'rtoqlarining hatti harakatlari uchun ham javobgralik hissini sezsa olishni o'zida shakllantirib borishi zarur.

Harakatli o'yinlar masalan yurish, yugurish, sakrash, irg'itish yoki uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bilan harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Harakatlarning shakllanishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etib boradi, yurak va nafas olish tizimini faoliyati yakunlanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma maktabgacha ta`lim tashkilotlarni tarbiyachilari, instruktorlari yoki yo'riqchilari uchun mo'ljallangan.

HARAKATLI O‘YINLARNING KELIB CHIQISHI TARIXI

Kichik yoshdagи o‘smirlar tarbiyasida harakatli o‘yinlarning ahamiyati

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda ibridoiy ovchilar hayotida ovchilik o‘yinlari muxim o‘rin tutgan. Ba’zi ma’nbalarda ular ovdan oldin o‘tkazilishi yozilgan bo‘lsa, boshqalarida ovdan so‘nggi o‘yinlar haqida fikrlar bayon etilgan. Agar bu ma’lumotlarni chuqurroq taxlil etadigan bo‘lsak, unda ovchilik o‘yinlari ovdan oldin ham, undan so‘ng ham o‘tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o‘yinlar – avvalda mashq (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruxiy va jismoniy tayyorgarlik) vazifasini o‘tagan hamda jiddiy o‘ziga xos kichik ibridoiy odamlar o‘ljani osongina qo‘lga tushirish, unga yaqinlashishni o‘rganishgan, buning uchun niqob kiyib, xayvon qiyofasiga tushishni, uning yurish-turishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday o‘yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o‘rgatishgan. Shu boisdan ham u o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tab, bir tomondan, ovchilar maxoratini o‘stirishga yordam bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid san’atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Ayrimlari ov va mehnat jarayonini, ba’zilari esa tabiat stixiyalariga taqlid shaklida, boshqalari jangovorlikni, afsungarlikni, imo-ishora va pontomima sa’natini eslatadi. Dastlabki paytlarda shavqinli betartib o‘yinlar bora-bora musiqaviy oxang pantomim hamda plastik harakatlar orqali amalga oshirila boshlangan keyingi davrlarda, bunday etnografik talqindagi o‘yinlar turli shakllarga ko‘chib “Ayiq o‘yini”, “Dev o‘yini”, “Maymun o‘yini”, so‘ngra “Pishiq o‘yini”, “Ot o‘yini”, “Yumron qoziq o‘yini”, “Echki o‘yini”, “Bo‘ri o‘yini”, “Kaltak o‘yini”, “Burgut o‘yini”, “It o‘yini (irrilatar o‘yini)”, “Quyon o‘yini”, “Tulki o‘yini”, “Jak-jaku o‘yini” kabi ko‘pgina o‘yinlar, pantomimalari avloddan-avlodga o‘tib suyak surib kelayotgani ma’lum. Ular bevosita, yoxud bilvosita bolalar folklor o‘yinlariga aloqadordir. Shu tariqa “o‘yin” so‘zi turkiy xalqarining o‘ynamoq so‘zi bilan bog‘liq holda (uy, aql, xikmat ma’nolarni beradi). Aql faqimni, harakat va imo-ishoralar vositasida ifoda etmoqlik esa o‘yinlarning dunyoga kelishida muximdir.

O‘zbek an’anaviy bolalar folklor o‘yinlarining mavzu qamrovi, ijro uslublari juda keng. Ijtimoiy hayot, kishilar munosabatlarining biron bir jabxasi yo‘qli, ular o‘yinlar nazariga tushmagan bo‘lsin. Xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, polizchilik, madaniyati deysizmi, kasb-hunar va ilim-bilim sohasi deysizmi, falsafiy, estetik, ahloqiy yohud ta’lim-tarbiya, ahloq-odob bobidagi qarashlari deysizmi-barchasi an’anaviy o‘yinlarga mavzudir. Xususan, o‘zbek bolalar folklor o‘yinlari boshdan oyoq ma’naviy, ma’rifiy, ahloqiy tushunchalar bilan yo‘g‘rilgan. Xalqimizning ming-ming yillarda bosib o‘tgan

tarixiy yo‘lida, tajriba-sinovlardan qayta-qayta o‘tib, yaxlit va mukammal xolga kelib, bizgaga etib kelgan bolalar folklor o‘yinlarning mazmuni yo‘nalishiga qarab quyidagicha turlarga bo‘lish mumkin.

Mavsumiy bolalar folklor o‘yinlari: ilk bahor, yoz, qish mavsumlarida o‘ynaladigan folklor o‘yinlar.

Marosim bolalar folklor o‘yinlari: rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an’anaviy bayramlarda o‘ynaladigan o‘yinlar.

Oilaviy-maishiy bolalar folklor o‘yinlari: “Mehmon-mehmon”, “Kelin tushirish”, “Kelin-kuyov”, “Ona bola”, “Ovqat pishirish”, “Uy jixozlash”, “Qo‘g‘irchoq o‘yini”, “Non yopish”, “Er-xotin”, “Alla-alla”, “Beshik bezash”, “Beshikka belash” va boshqalar.

Jismoniy harakatli bolalar folklor o‘yinlari: “Quvlashmachoq”, “Kes-kes”, “Ko‘rpa yopildi”, “Ziyrak”, “G‘oz-g‘oz”, “Koptokni quvib et”, “Olar soka”, “Oq suyak”, “To‘p-tosh”, “Sinish”, “Chiqildo³”, “Chopish”, “Zuv-zuv”, “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Eshak mindi”, “Lanka”, “Ot o‘yini”, “Qiz quvdi” va boshqalar.

Mantiqiy bolalar folklor o‘yinlari: tez aytishlar, topishmoqni topish o‘yinlari, sanimoqlar, aytishuvlar, savol javoblar, o‘ylab topishlar, xotirani tiklashlar, chandalashlar va boshqalar.

Hayvonlar va tabiat xodisalari bilan bog‘liq bolalar folklor o‘yinlari. Ermak bolalar folklor o‘yinlari. Musiqa o‘yinlari.

Xalq o‘yinlari, jumladan bolalar folklor o‘yinlari, eng qadim vaqtarda boshlab xalq xayoti tarzini, ma’naviy-ma’rifiy, jismoniy tayyorgarligini, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan xolda shu kunimizga qadar o‘sib, mazmun maqsadiga ko‘ra teranlashib bizga etib kelgandir. Boshqa san’at turlaridan farqligi o‘laroq o‘yinlarda xalq ruxiyati, psixologiyasi, koloriti, yosh avlod tarbiyasiga bo‘lgan munosabatida yorqin aks etadi. Tarixiy ma’nbalarga qaraganda, kechki poleolit davrida (taxminan miloddan 40-41 ming yil ilgari) er yuzining shmoliy qismida Totemga oid “Ayiq bayramlari” bo‘lgan. Totem – ayiqqa bag‘ishlangan afsonalardan bu bayram haqida ba’zi ma’lumotlarni topish mumkin (ularning birida ayiq odamlarni ofatdan saqlab qoladi, buning evaziga qobilining eng go‘zal qizini ayiqqa turmushga berishadi. Ular o‘rtasidagi to‘y tasviridagi “Ayiq bayramiga” oid ba’zi elementlarini bilsa bo‘ladi). Shuni eslab o‘tish kerakki, “Ayiq bayramlaring variantlari va elementlari Sibir xalqalarining ba’zilarida XX asr boshlarida ham saqlangan va bunday bayramlarda ayiq obrazidagi kishi bosh qaxramon bo‘lib, u ayiq xarakterini qilib, raqsga tushib yurgan.

O‘rta Osiyoda esa “Ayiq o‘yini” (pontomimik raqs sifatida) keyingi vaqtлага etib kelgan. Xatto xozirgi kunda ham O‘zbekiston Respublikasi xududida va shuningdek Turkiya, Xindiston, Kavkaz kabi joylarda ko‘chalarda ayiq o‘ynatib yurgan odamni ya’ni ayiqchini ko‘rish mumkin. Ular odamlar g‘ovjum joylarda

kichik tomosha ko'rsatib yurishadi. Balki bu qadimgi ayiq o'yinidan bizgacha etib kelgan elementlarning bir bo'lishi ham mumkin.

Mehnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dexqonchilikka o'tishi (Bu jarayon O'rta Osiyoda miladdan oldingi III ming yillik oxiri II ming yillik boshlariga to'g'ri keladi) ana shu yangi soxaga oid odat, marosim va o'yinlarni vujudga keltira boshladi.

Ma'lumki, dexqonlarning xayotida eng quvonchli voqe - bu xosilni yig'ish va yangi noz-nematlarni totib ko'rish jarayoni bo'lgan. Yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiatni, dexqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bunday ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilgan, "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, keng ma'noda aytganda, bayram xolatini vujudga keltirgan. Broiza davrlaridan boshlab o'troq dexqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida baxorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda xosilning yg'ib olish yakuniga bag'ishlangan bayramlar va o'yinlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Demak insoning "Birinchi kasbi" - ovchilik asosida – "Ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa uning dexqonchilikka o'tishi va u bilan shug'ullanishi natijasida "Mexnat o'yinlari" shakllanib, yangi mehnat o'yinlari va bayramlari uchun zamin yaratgan.

Harakatlari o'yin haqida asosiy tushuncha

O'yin - tarixiy tashkil topgan ijtimoiy voqe, mustaqil faoliyat turi, kishiga xosdir. O'yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan bolalar o'yinlari, stol o'yini, doira bo'lib o'ynaladigan o'yin, harakatlari o'yinlar, sport o'yinlari. O'yin o'zi-o'zini bilish vositasi, o'yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiyyi ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo'lishi mumkin.

O'yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har xil extiyojlari bilan rivojlanadi: o'yin-kulgi, dam olishda, ma'naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o'rin egallaydi.

O'yin faoliyati - nafaqat madaniyatni bir elementi xisoblanadi, balki u bolalar va o'smirlarni tarbiyalashda ham foydali vosita xisoblanadi. U hardoim maqsadga yo'naltirilgan va turli-tuman maqsadli yo'l-yo'riq hamda asoslangan harakat bilan o'ziga xos xususiyatni ko'rsatib turadi. O'yin faoliyati ko'proq mehnat bilan umumiylikka ega, ayniqsa bolalik davrida. Biroq o'yin jarayonida xayotiy extiyojlarni qondirish uchun kishi moddiy boylikni yarataolmaydi.

O'yin-juda ham quvnoq jo'shqin faoliyatidir, shuning uchun u yoshlar va bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishda katta boylik kasb etadi. O'yinni turli-tumanligi katta-kichiklar orasida ayniqsa o'smirlar va bolalar o'rtasida eng keng

tarqalgani bu harakatli o‘yinlardir. Ular esa ushbu o‘quv qo‘llanma fani xisoblanadi.

Harakatli o‘yinlarni o‘ziga xos fazilati o‘yinni mazmuni harakatni rolini yorqin ifoda qilish xisoblanadi (yugurish, sakrashlar, uloqtirish, otish, to‘pni uzatish va ilib olish, qarshilik ko‘rsatish va b.q). Bu harakatlantiruvchi harakatlanish uni mazmunini asoslab beradi (mavzu, g‘oyasi). U o‘yinda qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida, turli-tuman qiyinchiliklarni, to‘siqlarni engib o‘tishiga yo‘naltiriladi.

Harakatli o‘yinlarni orasida xaqiqatdan ham (elementar) harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari bilan farq qiladi. Xaqiqatan ham (elementar) harakatli o‘yinlar o‘ynovchilarining o‘zlarini ixtiyoriy ravishda o‘rnatilgan, maqsadga shartli ravishda erishishga yo‘naltirilgan, o‘zida ongli ravishda tashabbuskorlik faoliyatini mujassamlashtirgan bo‘ladi. O‘ynovchilarining maqsadga erishishda faol harakatlantiruvchi harakat talab qiladi, uni bajarishi o‘ynovchilarini o‘zlarining ijod qilishiga va tashabbuskorligiga bog‘liqdir (nishonga tezda yugurib borish, nishonga tez otish, “Raqibiga” tez va epchillik bilan etib olish yoki undan qochib ketish va x.k).

Bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish

Tarbiyachilar, yo‘riqchilar harakatli o‘yinlarni tashkilotchisi va rahbarlaridir. Biz quyida ular uchun harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish qoidalari xususida batafsil ma’lumot berib o‘tamiz.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, harakatli o‘yinlar bolalarni jismoniy jihatdan o‘qib-o‘sishlariga, chiniqishlariga organizm va umumiylar qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishni yordam beradi.

Bolalarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan zarur bilimlarni berish va ulardan kerakli xarakat malakalarini hosil qilish lozim. Ularda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy hislatlarni tarbiyalash zarur. Bundan tashqari, bolalarda turli o‘ynlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg‘otish, harakatli o‘yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o‘tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish shart.

Ularni o‘tkazishdan tarbiyachi yoki yo‘riqchi tashkilotchilik va tarbiyaviy roli juda ma’suliyatlidir.

O‘yinni to‘g‘ri tanlash va bolalar bilim to‘g‘ri o‘tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o‘yin turini tanlashning o‘zi hamma vaqt xam tarbiyaviy vazifani bajaravermaydi.

Bunday harakatli o‘yinlar tashkil qilish va o‘tkazish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi juda muhim. O‘yin rahbari bolalarni yaxshi bilgan, har bir o‘tkaziladigan o‘yining mazmun va qoidasi bilan mufassal tanishgan, o‘qitish jarayonida esa yuksak pedagogik mahoratini namoyish qila olgan taqdirdagina har bir o‘yinni ta’lim-tarbiya nuqtai nazardan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish mumkin.

Tarbiyachi-yo‘riqchi o‘yinlarni o‘rgatish jarayonida pedagogikani didaktik tamoyillaridan foydalanishi va ularning doimo amalga oshirilishiga erishish lozim. Yo‘riqchi tarbiyalanuvichlarga yoki bolalarga o‘yinni o‘rganish jarayonida, uning mazmuni, vazifalarga va qoidalari tushuntirib beradi. O‘yinga ongli munosabatda bo‘lish, uni to‘g‘ri o‘rgatish o‘z hatolari va muvafaqiyatlarini to‘g‘ri tushinishi, harakatlarini o‘rtoqlarining harakatlariga taqqoslab tahlil qilish imkonи beradi. O‘yining o‘tkazish uchun bolalardan hakamlar va hakamlarning yordamchilarini tayinlamoq lozim. Yo‘riqchi o‘rgatadigan va bolalar tushunib qiladigan harakatlar ularda tashkilotchilik ko‘nikmalarini tarbiyalashga yordam berishi kerak. Yo‘riqchi boalar o‘ynini qiyinchiliklarini engish bilan bog‘langan holda, uni sekin-asta murakkablashtirib borishi lozim. Bu bolalarning irodasini mustahkamlaydi.

Yo‘riqchi o‘yinni o‘tkazishga kirishishdan oldin o‘yinga aniq vazifalarini belgilab chiqadi, bu vazifalar bolalarning yoshiga ya’ni ularni bajarishga qurbi etadigan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

O‘yinni tashkil qilish va o‘tkazishda imkon boricha bolalarning tashabbuskor bo‘lishiga erishish va o‘yinda faol ishtirok etishlari uchun ularni rag‘batlantirib turish xam yaxshi samara beradi.

Bolalar ijodiy faollik ko‘rsatib o‘yin uynar ekanlar, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib, tarbiyalanmoqdalar. Bir maqsad yo‘lida o‘rtog‘iga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o‘rtoqlari bilan birga, biror masala yuzasidan qaror qabul qilishi – ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi. Agar bolalar o‘yinni ilgariroq o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, o‘yin paytida ularning faolligi yana ham ortilishi mumkin. O‘yin paytida bolalarning faol bo‘lishi tarbiyachining o‘yinni o‘tkazishga qanchalik tayyorgarligiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, har bir o‘yining o‘ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bo‘ladi. Yo‘riqchilarimiz shuni yaxshi bilishlari kerakki, to‘sinq yoki qiyinchiliklarni engish bilan bog‘liq bo‘lmagan, ya’ni ancha-muncha kuch-quvvat sarflanishni talab qilmaydigan o‘yinlar bolalarda qiziqish uyg‘otmaydi.

Juda oson yoki aksincha, haddan tashqari og‘ir o‘yinlar ham qiziqarli o‘tmaydi, ular bolalarni zeriktiradi. Yo‘riqchi o‘yinlarni o‘rgatishda dastlab onsonlaridan boshlab, asta-sekin qiyinlariga o‘tishi lozim. Oddiy va guruhga bo‘linmasdan o‘ynaladigan o‘yinlar oddiy o‘yinlar hisoblanadi. Bunday o‘yinlarni o‘ynash oson. Guruhlarga teng bo‘lishib o‘ynaydigan o‘yinlar sal murakkab va juda murakkab o‘yinlardir. Bunday o‘yinlarning qoidalari boshqa o‘yinlarning

qoidalariga qaraganda qiyinroq bo‘ladi. Shu boisdan ham tarbiyachilar yoki yo‘riqchilar hamma vaqt engil o‘yinlardan murakkab o‘yinlarga, tanish o‘yinlardan notanish o‘yinlarga o‘tishi ko‘zda tutishlari kerak. Shunda bolalar o‘yinga qiziqadilar. Yangi o‘rganiladigan o‘yinlar turiga ko‘ra tanish o‘yinlarga o‘xshash bo‘lishi kerak. Ammo bunday o‘yinlarda ham bolalarga noma’lum bo‘lgan qoidalar va ba’zi bir harakatlar mavjud bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘yinlar asta-sekin murakkablasha boradi. Bu esa bolalarda yangi harakat ko‘nikmalarni hosil qilishga va ilgari o‘rgatilgan texnika elementlarini takomillashtirishga yordam beradi. Harakat ko‘nikmalarining shuningdek, o‘yinda ilgari ortirilgan bilimlarning puxta o‘zlashtirishga erishish uchun mashqlrani doimo takrorlab va mustahkamlab borish zarur. Ammo xadeb bir xil o‘yinlarni takrorlayverish ham maqsadga muvofiq emas.

Yo‘riqchi bolalar o‘yinini doimo tekshirib borishi lozim. Shunda o‘yindagi kamchiliklar va xatolarni aniqlash hamda ularni o‘z vaqtida to‘g‘rilash mumkin bo‘ladi. Bolalarning o‘yinlarni puxta o‘zlashtirishlari ularga bu o‘yinlardan boshqa joylarda mustaqil ravishda foydalanish imkoniyati beradi.

Harakatli o‘yinlarni bolalarni yoshiga mos holda o‘tkazish

3 yoshli bolalarning harakatlari ma’lum darajada cheklangan bo‘lib, ularning diqqati doimo chalg‘ib turadi. Shuning uchun boalarga oddiy va ular oson tushunadigan o‘yinlarni o‘rgatish kerak. Bunday o‘yinlarda qush va xayvonlar yoki ularning rasmlari o‘yinchoqlar, ertaklardan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi. Bu o‘yinlar albatta mazmunli va ibratli bo‘lishi shart.

Shu yoshdagi bolalarni o‘yiniga o‘rgatishda mashqlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday o‘yinlarda mazmun bo‘lmaydi, ularga oddiy topshiriqlar masalan bayroqqni olib kelish, qo‘g‘irchoqni jiringlatish, koptokka etib olish kabi topshiriqlar. Xarakatlar esa (yurish, yugurish va boshqalar) bolalarga tanish hamda qiyinchilikdan bajarmaydigan bo‘lishi lozim.

Mazmuni bolalarga tanish bo‘lgan va xarakatlarga singdirib yuborilgan o‘yinlarni kichkintoylar juda qiziqib o‘ynaydilar. Bu esa kichkintoylarning harakat qobiliyatini rivojlantirish, ularni ochiq joyda to‘g‘ri yurishga o‘rgatishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Faollik va mustaqillika tarbiyalash yordam beradi.

4 yoshli bolalar bilim doirasini kengaytirish va harakatida tajribalar ortish bilan harakatli o‘yinlarning mazmuni ham o‘zgarib beradi. Qush va hayvonlar harakatiga, transport turlariga turli narsalarga taqlid qilib bajarilgan harakatlar o‘yinlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. O‘yinlarda bolalarga buyumlarni topish, shaklini (kub, doira, kvadrat shaklini) eslab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ranglarni ajratish, tovushlarni farqlash kabi topshiriqlar berishni boshlash

bilan ularning murakkab o‘yinlarni o‘ynashga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga erishish mumkin.

Bu yoshda harakatlarni rivojlantirish uchun qo‘yiladigan o‘yin shartlari bilan bolalarning idrok etishda farq bo‘ladi. Asta-sekin bolaning vazifani bajarishga munosabati o‘zgaradi. Masalan 3 yoshga qadam qo‘ygan bolalar o‘yinda ko‘rishga mas’uliyat sezmagan bolalar (masalan, bo‘ri bitta quyonni tutadi, uni tutib olgandan keyin u bilan birga yugurib o‘ynab ketadi, boshqa quyonlarga esa e’tibor bermaydi), endi bolalar o‘zlariga yuklatilgan vazifani tushunadigan bo‘ladilar (endi bo‘ri quyonni tutib olgandan keyin uni to‘xtadi, o‘yiga olib kelib, shundan keyin boshqa quyonlarni tuta boshlaydi). O‘yinda ko‘pincha tarbiyachi boshlovchilik qiladi.

O‘qishdagi harakatlarining mazmunli bolalrga tushunarli va qiziqarli bo‘lishi juda muhim. Bu ularning faoliyatini, faolligini o‘yinga nisbatan ishtiyoqini oshiradi, harakatlarga his-hayajon va jo‘shqinlik bag‘ishlaydi.

To‘rt yoshga qadam qo‘ygan bolalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda harakatlarni ancha murakkablashtirish (kubiklar o‘yinga chiqish, ustida cho‘qqayib o‘tirish, undan tushish, stul tagida emaklab yurish va hokazo) hamda har harakatlarni bir biriga qo‘sish kerak bo‘ladi (koptokni uzoqqa irg‘itib orqasidn quvib etib olib kelish, chivvinni tutish uchun irg‘ishlab sakrash va hokazolar). Bunday murakkab harakatli o‘yinlarda ishtirok etgan bolalar bir-birilaridan o‘zib ketishga harakat qiladilar.

Bu xildagi o‘yinlar hamisha ham birgalikda o‘ynaydigan o‘yinlar hisoblanadi. Bu o‘yin mashqlardan, ayniqsa ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Bunda ko‘pchilik bo‘lib ashula aytib o‘tkaziladigan o‘yinlar va qofiyali so‘zlar jo‘rligida o‘ynaladigan o‘yinlar keng qo‘llaniladi. Bunday o‘yinlar orqali bolalarni hamjihatlikka va harakatlarni birgalashib bajarishga o‘rgatib borish mumkin.

5 yoshli bolalarning harakatli o‘yinlari mazmunlarning barining, tevarak atrofida, hayotda uchraydigan voqealar to‘g‘risida ularning tasavvuri va bilimi oshib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolalarning o‘yin vaqtida faol harakat qilishi ko‘p jihatdan, ularning malaka va ko‘nikmasiga, tevarak-atrofni yaxshi bilishga, harakatlarni sabot, chaqqonlik, ndroq va hamkorlikda bajarishga bog‘liq bo‘ladi. Aksariyat o‘yinlarda bitta boshlovchi bo‘ladi, lekin ba’zan bu vazifani o‘yinchilarning 2-3 tasi bajarishi ham mumkin.

O‘rta guruh uchun mo‘ljallangan harakatli o‘yinlarni ba’zilarni mazmuniga va bajariladigan vazifa ta’sviriga ega bo‘lmaydii. Bunday o‘yinlarga musobaqa tushni kiritish ham mumkin.

Ko‘pincha qofiyali so‘zlar o‘yin mazmunini ochib beradi va uni to‘ldiradi. Harakat uchun ishora xizmatini o‘tadi. So‘zlar ko‘pchilik bo‘lib aytilsa, yana ham yaxshi bo‘ladi.

6 yoshli bolalar bilim doirasi kengayib boradi. Binobarin, harakatli o‘yinlarning mazmuni ham shunga monand murakkablashadi.

O‘yin qoidalari ham murakkablashib borishi tufayli ularni bajarishda aniqlik, diqqat e’tibor, sabr toqatga o‘rganish, ortiqcha harakatlarni cheklash (aniq bir yo‘nalishda yugurish, o‘z vaqtida o‘yindan chetga chiqish va hokazo) talab etiladi. O‘yin qoidasi intizomning tarkib topishga yordam beradi.

Ma’lumki, harakatli o‘yinlarda ishtirok etish uchun bolalarni guruhlarga bo‘lishi kerak bo‘ladi, bunda ko‘pincha o‘g‘il bolalar o‘g‘il boalalr bilan, qizlar faqat qizlar bilan guruhlashishga intiladi. Bu o‘yining borishiga va natijasiga ta’sir etadi. Shuning uchun tarbiyachi kuchliroq bolalarni nimjonroq bolalar bilan, o‘g‘il bolalarni qizlar bilan guruh-guruh qilishi maqsadga muvofiqidir.

Bunda o‘g‘il va qiz bolalarning odob-ahloqli bo‘lishi yaxshi tarbiya topshishi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari o‘g‘il bolalar qizlardan qolishmaslik uchun ancha tashabbuskor bo‘ladilar ham qizlarni hurmat qilishga o‘rganadilar.

Harakatli o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati va mazmuni

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning faoliyati rang-barang bo‘lib, ular mustaqil harakatli o‘ynashni yoqtiradilar.

O‘yin – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatidir. Rossiyalik pedagogi A.S.Makarenko aytganidek, o‘yin bola uchun bilish manba‘idir. O‘yin jarayonida bolalar egallay bilishlari qiyin bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni osongina o‘zlashtirib oladilar, narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar. Ular tevarak-atrofdagi ko‘rgan narsalarini o‘yinda ifodalash orqali turli harakatlarni bajaradilar, ya’ni yuradilar, yuguradilar, sakraydilar, o‘rmalaydilar, biron buyumni irg‘itadilar. Natijada ularning qaddiqomati, muskullari va sezgi organlari rivojlanadi, organizmining hayot faoliyati yanada yaxshilanadi. O‘yinda bolaning irodasi, o‘z harakatlarini o‘yin qoidasiga bo‘ysundira-olish ko‘nikmasi o‘sadi, u o‘zini qo‘pol hatti-harakatlar qilishdan tiyadi, zarur bo‘lganda chaqqon harakat qilishga o‘rganadi, oqibatda unda jismoniy sifatlar tarkib topadi.

Harakatli o‘yinlar, ayniqsa, musobaqa xarakteridagi o‘yinlar bolalardagi kuch-quvvat, chaqqonlik, epchillik, tezkorlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantiradi va takomillashtiradi.

“O‘yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy vositasi bo‘lishi kerak”, - degan edi Ye.A.Arkin.

O‘yinlar bolalarda o‘z harakatini o‘rtoqlarining harakatlari bilan moslashtira olish qobiliyatini rivojlantirishga, shaxsiy manfaatini jamoa manfaatlariga bo‘ysundira olishga yordam beradi, sabr-toqatni, o‘zini tuta bilishni, zveno, komanda muvaffaqiyati uchun mas’uliyat sezsa bilish hissini tarbiyalaydi. Harakatli o‘yinlar qoidalarini bajarishning majburiy ekanligi bolalarni intizomli qiladi, ularda tashkilotchilikni tarbiyalaydi. Umuman, bolalar jamoa holda o‘ynar ekanlar, ular bu jarayonda jamoada o‘zini qanday tutish qoidalarini o‘rganadilar, uyushqoqlik bilan o‘yin o‘ynash ko‘nikmalarini hosil qiladilar. O‘z zimmalariga tushgan rollarni bajarishda katta mas’uliyatini his etishga odatlanadilar.

Ko‘pchilik harakatli o‘yinlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, turli hayvonlarni, qushlarni taqlid qilish va odamlarning haqiqiy harakatlarini takrorlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bolalar o‘yin yordamida o‘zlari uchun zarur bo‘lgan foydali harakatlarni egallab oladilar va uni tinmay mashq qiladilar. Harakatli o‘yinlar qoidalarini bajarishning majburiy ekanligi bolalarni intizomli qiladi, ularda tashkilotchilikni tarbiyalaydi.

Bola o‘ziga zavq uyg‘otadigan yorqin, ohangdor narsalar bilan o‘ynashga intiladi. Bola sezgi organlari orqali idrok etgan tevarak-atrofdagi narsa va tabiat hodisalarining izlari uning xotirasida tasavvur tarzida saqlanib qoladi. Tarbiyachi maktabgacha ta`lim tashkilot bolalari bilan o‘yin tashkil qilganda, albatta ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish va “Dastur”¹ talabiga javob beradigan o‘yinlardan foydalanishi zarur. Masalan, kichik guruxda, bolalarning oddiy harakatlarini – yurish, chopish, sakrash, irg‘itish va ilib olish malakalarini tarbiyalash qo‘yilgan.

O‘yin jarayonida 3-4 yoshli bolalar ko‘rsatilgan tomon yurish, yugurishga belgilangan joydan chiqib ketmaslikka o‘rganib boradilar va boshqa kerakli harakatlarni o‘zlashtiradilar. “Dastur” asosida 4-5 yoshli bolalar uchun belgilangan harakatli o‘yinlar mazmuni va o‘tkazish metodikasi berilgan.

¹ “Болалар боғчасида таълим-тарбия программаси”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1988й.

HARAKATLI O‘YINLAR MAZMUNI

Yurib va yugurib o‘ynaladigan o‘yinlar

Yugurib keling oldimga

Bolalar maydonchaning bir tomonida terib qo‘yilgan stullarda o‘tiradilar. Tarbiyachi qarama-qarshi tomonda turadi. U: “Yugurib keling oldimga, hammangiz – hammangiz, yugurib keling oldimga!” – deydi. Bolalar tarbiyachiga qarab yugurishadi. Bolalar tarbiyachining yonida to‘plangach, u maydonchaning narigi tomoniga ketadi. U tomondan turib, yana: “Yugurib keling oldimga!” – deb, bolalarni chaqiradi. O‘yin to‘rt-besh marta takrorlanadi. Keyin, tarbiyachi: “O‘yingizga yuguring – deb, murojaat etadi. Bolalar shu zahotiyoy o‘z stullariga qarab yugurishadi. Tarbiyachi: “Yugurib keling oldimga!” – deb chaqiradi. Bolalar yana uning yoniga yugurib borishadi. Yugurganda bir-birlarini turtmasligi, itarishmasligi, halaqit bermasligi kerak.

KO‘RSATMALAR. O‘yinga qatnashishni istagan bolalarni komandaga bo‘lish mumkin: bir komanda o‘ynaganda, ikkinchi komanda tomosha qilishi mumkin. Keyin ular o‘rin almashishadi. Dastlab bolalar hohlagan stulni egallashlari mumkin, lekin bir necha bor o‘ynaganlardan keyin, tarbiyachi bolalarning o‘z stullariga borib o‘tirishlarini aytadi. Kim noto‘g‘ri o‘tirsa, o‘yindan chiqariladi. O‘z joyiga ko‘proq to‘g‘ri o‘tirgan komanda engib chiqadi.

Qushcha va uning bolalari

Bolalar besh-oltitadan bo‘lib, guruh-guruhga bo‘linadilar. Har bir guruh o‘z uychasiga – iniga ega bo‘ladi: (bo‘r bilan chizilgan doira, polga tashlab qo‘yilgan katta chambarak, ikki uchi qo‘shib qo‘yilgan arqoncha va hokazolar in bo‘lishi mumkin). Bolalar cho‘qqayib o‘tirishadi – qushchani ifodalashadi: don cho‘qishadi, erni titkilashadi. Tarbiyachi qushcha bo‘ladi. Uning: “Qani uchdik, qanot qoqdik, uchaylik katta sayr qilaylik”, - degani bilan bolalar inlaridan qanot qoqib uchib chiqadilar va uzoqroq kelishga harakat qiladilar. Tarbiyachi: “Sayr tamom bo‘ldi, endi uyga qaytamiz”, - deb qichqiradi. Shunda hamma bolalar xayrashib o‘z inlariga uchib keladilar. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

METODIK KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi bolalarning – qushcha bolalari singari harakat qilishlarini kuzatib boradi. Begona inga kirish mumkin emasligini eslatib turadi. Qushchalarning uzoqroqqa uchishlarini da’vat etib turadi.

Kim sekinroq

O‘yinning maqsadi. Bolalarni barmoq uchida sekin yurishga o‘rgatish.

O‘YIN MAZMUNI. Bolalar tarbiyachi bilan birga bir tomonga borishadi. Kutilmagan vaqtida tarbiyachi: “Qani hozir biz kim juda sekin, oyoq uchida yura olishini bilib olamiz”, - deydi. (Qanday yurish kerakligini ko‘rsatib beradi). Bolalar iloji boricha oyoq uchlarida shovqin chiqarmasdan yurishga harakat qiladilar. Ular belgilangan tomonga qarab yuradilar. Tarbiyachi bilintirmasdan chetga chiqib: “Endi hammangiz menga qarab choppinglar”, - deydi. Bolalar tarbiyachiga qarab chopadilar va uni o‘rab oladilar. Tarbiyachi ularni quchoqlab gaplashadi va bir vaqtida sezdirmasdan sekin yurib boradi. Mashqni to‘g‘ri bajargan bolalarni maqtaydi, qolganlarini huddi shunday bajarishga undaydi. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

METODIK KO‘RSATMALAR. Ba’zi bolalar oyoq uchida yurganda boshini tabiiy ravishda, ikki elkasi orasiga engashtiradi. Shu holatda sekin yurish mumkin deb o‘ylashadi. Tarbiyachi albatta bunday holatni kuzatib, bolalarning bu xatosini tuzatib borishga harakat qilishi lozim.

Mushuk va sichqonlar

Bolalar – sichqonlar inlarida (xona devori bo‘ylab yoki maydonchaning yon tomonlarida qator qilib qo‘yilgan skameyka yoki stillarda) o‘tiradilar. Maydoncha burchaklaridan birida mushuk o‘tiradi. Mushuk vazifasini tarbiyachi bajaradi. Mushuk uxbab qoladi, sichqonlar esa xona bo‘ylab yugurib yurishadi. Biroq, mana birdan mushuk uyg‘onadi, qaddini rostlab keriladi, miyovlaydi va sichqonlarni tuta boshlaydi. Sichqonlar tez yugurib qochadilar va o‘z inlariga kirib yashirinadilar (stillardan o‘z joylarini egallaydilar). Hamma sichqonlar in-iniga kirib ketgandan so‘ng mushuk yana bir marta xonada maydoncha) bo‘ylab aylanadi. Keyin joyiga qaytib keladi va uhlaydi. O‘yin to‘rt-besh marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Sichqonlar mushuk ko‘zini yumib uyquga ketgandan keyingina o‘z inlaridan chiqishlari va mushuk miyovlaganidan keyin inlariga qaytishlari mumkin. Tarbiyachi barcha sichqonlar inlaridan chiqishini kuzatib turadi. O‘yinda o‘yinchoq – mushukdan ham foydalanilsa bo‘ladi. Kubiklardan inlar yasash mumkin. Bu holda bolalar kubiklar ustiga chiqib o‘tiradilar. Turli rang-barang kubiklardan foydalaniladi. Bolalar o‘z inlarining ranglarini eslab qolishlari kerak.

Bayroqchaga qarab yuring

Tarbiyachi bolalarga ikki hil: qizil va ko‘k bayroqchalar tarqatib chiqadi. U bir qo‘lida qizil, ikkinchi qo‘lida ko‘k bayroqcha ko‘tarib qo‘llarini yon tomonga uzatadi, bolalar qo‘llaridagi bayroqcha rangiga qarab tegishli tomonlarga erkin ravishda o‘tib, ikki guruhga ajraladilar. Shundan keyin tarbiyachi maydon bo‘ylab o‘ynab, yugurishni taklif etadi. Bolalar o‘ynayotgan paytda tarbiyachi boshqa tomonga o‘tib oladi va: “Bir, ikki, uch – tez bu yoqqa uch!” – deydi-da, qo‘llaridagi bayroqchalarini yon tomonlariga uzatadi. Bolalar uning yonida

to‘planadilar va qo‘llarida qanday rangda bayroqcha bo‘lsa, o‘sha rangdagi bayroqcha tomoniga o‘tib qator turadilar. Hamma bolalar yig‘ilib bo‘lgach, tarbiyachi bayroqchani yuqoriga ko‘tarib hilpillatishni taklif qiladi. O‘yin to‘rt – besh marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi ishora qilmasdan avval maydon bo‘ylab yugurib ketish mumkin emas. Tarbiyachi bolalarning dam o‘ng, dam chap tomonga yig‘ilishlari uchun bayroqchalarni u qo‘lidan bu qo‘liga olib almashtirib turadi. O‘yinga qo‘sishimcha signal va topshiriqlar kiritish mumkin. Masalan, “To‘xta!” signal bo‘yicha barcha o‘ynovchilar to‘xtashlari va ko‘zlarini yumushlari yoki turgan joylarida aylanishlari, yohud raqsga tushishlari mumkin. Mana shu vaqtda tarbiyachi bildirmasdan joyini almashtirib, boshqa joyda turib oladi. Bolalar signal bo‘yicha yana tarbiyachi tomonga qarab yuguradilar. Bayroqchalar o‘rniga bolalarning qo‘liga tegishli rangdagi ro‘molcha yoki bayroqcha, kubik berib qo‘yish mumkin, yo bo‘lmasa ularning qo‘llariga rangli lentachalar bog‘lab qo‘yishlari mumkin.

O‘z rangingni top

Tarbiyachi bolalarga uch – to‘rt xil rangdagi: qizil, ko‘k, sariq, oq, bayroqchalar tarqatadi. Bayroqchalari bir xil bo‘lgan bolalar xonaning turli burchaklarida oldindan tarbiyachi tomonidan belgilab qo‘yilgan o‘z bayroqchalari tagida to‘planadilar. Tarbiyachining: “O‘ynab kelinglar” – degan signali bo‘yicha bolalar hona (maydoncha)ning turli tomonlariga qarab tarqalib ketadilar. Tarbiyachi: “O‘z rangingni top”, - deyishi bilan bolalar tegishli rangdagi bayroq yonida to‘planadilar. Tarbiyachi qaysi guruh oldinroq to‘plaganini ta’kidlab o‘tadi. Shundan keyin o‘yin yana besh-olti marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yin bir necha marta takrorlanib, bolalar uni yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan keyin tarbiyachi sayr vaqtida bolalarga to‘xtashni va ko‘zlarini yushmanishni taklif qilishi mumkin. O‘zi esa bu vaqtda xona burchaklarida turgan bayroqchalarni almashtirib qo‘yadi.

Tramvay

Bolalar juft – juft bo‘lib, qo‘l ushlashib, qatorda turadilar. Bo‘s sh qo‘llari bilan uchlari bog‘lab qo‘yilgan chilvirni ushlab turadilar, ya’ni ayrim bolalar chilvirni o‘ng qo‘llari bilan, boshqalari esa, chap qo‘llari bilan ushlab turadilar. Bu tramvay bo‘ladi. Tarbiyachi xonadagi burchaklarning birida uch hil rangdagi: sariq, qizil, yashil bayroqchalarni ushlab turadi. Ular tarbiyachi (svetoforgacha) yugurib borgach, rang o‘zgarib qolmaganmikin, deb unga qaraydilar. Agar ilgaridek, yashil rang turgan bo‘lsa, tramvayning harakati davom etadi. Maboda qizil yoki sariq bayroq ko‘tarilgan bo‘lsa, ular to‘xtaydilar va yo‘lni davom ettirish mumkin bo‘lishi uchun yashil rang bayroq paydo bo‘lishini kutib turadilar.

KO'RSATMALAR. O'yin davomida bolalar ko'cha harakati bilan tanishtiriladi. Agar o'yinda qatnashayotgan bolalar uncha ko'p bo'lmasa, ularni juft-juft qilib emas, bir qatorga saflash mumkin. O'yin mazmunini kengaytirish ham mumkin: yo'lda tramvay to'xtab, passajirlarni olishi mumkin: Passajirlar bekatda tramvay kelishini kutib turadilar. Tramvay bekatga yaqinlashganda yurishni sekinlashtiradi va to'xtaydi. Ba'zi passajirlar chiqishi uchun bolalar chilvirni ko'tarib turadilar. Chilvir oxiriga qo'ng'iroq bog'lab qo'yilgan bo'ladi. Safning ohirida turgan bola (konduktor) qo'ng'iroq chaladi, tramvay qo'zg'aladi.

Pahmoq kuchuk

Bolalardan biri pahmoq kuchukni ifoda etadi. U polda boshini oldinga o'tkazilgan qo'llarini qo'yib yotadi. Qolgan bolalar asta uning atrofiga to'planishib shu iboralarni aytishadi:

*Pahmoq kuchuk yotadi,
Qarang xurrak otadi.
Bilib bo'lmaydi aslo,
Uyg'oqmi u, uhlar yo.*

*Sekin kelib uyg'otsak,
Qiziq ish bo'lsa kerak.
Pahmoq kuchuk yotadi,
Qarang xurrak otadi.*

Bolalar kuchukni uyg'ota boshlaydilar, uning tepasiga kelib engashib, otini aytadilar, chapak chaladilar, hurkitadilar. Kuchuk irg'ib o'rnidan turib ketadi va bolalarga qarab qattiq vovullaydi. Bolalar har tomonga qochib ketadilar. Kuchuk ularning ketidan quvalaydi, birortasini ushlab olishga harakat qiladi. Hamma bolalar har tomonga qochib, bekinib olganlaridan so'ng, kuchuk yana erga yotib oladi va uxlaydi. O'yin uch-to'rt marta takrorlanadi.

KO'RSATMALAR. Agar kuchukni tarbiyachi ifodalaydigan bo'lsa, u stulda yoki skameykada o'tiradi, "uxlaydi".

Poezd

Bolalar bittadan (bir-birlarini ushlamasdan) qator bo'lib turadilar. Birinchi bola parovoz bo'ladi. Qolganlari esa vagonlar vazifasini bajarishadi. Tarbiyachi gudok beradi va poezd harakatga keladi. U dastlab sekin, keyin tezroq, yana tezroq va nihoyat juda tez yuradi, ya'ni bolalar yugurib ketadilar. "Poezd stansiyaga yaqinlashib qoladi", - deydi tarbiyachi. Bolalar asta-sekin qadamlarini sekinlashtiradilar va poezd sekin to'xtaydi. Bolalar o'ynagani poezddan tushadilar: ular dala bo'ylab tarqalib ketadilar, gullar, mevalar, qo'ziqorin va boshqa narsalar

terib yuradilar. Gudokni eshitib ular yana qator bo‘ylab saflanadilar. Poezd harakati tiklanadi. O‘yin to‘rt-besh marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Bolalar dastlab istagan tartibda qator bo‘ylab turadilar, yil oshiriga kelib esa qatordagi o‘z o‘rinlarini eslab qolishga, o‘z vagonlarini topishga odatlanadilar. O‘yin mazmunini o‘zgartirish ham mumkin. Masalan, poezd daryo yonida to‘xtashi mumkin. Unda bolalar sayr qilishi, baliq tutishi va dam olishlarini ifodalashlarini aytadi.

Kalhat va ona tovuq²

O‘ynovchilar o‘z oralaridan kalhat va ona tovuqni saylaydilar. Qolgan bolalar jo‘jalarni tasvirlaydilar. Kalhat o‘ziga in yasamoqda. Ona tovuq o‘z bolalari bilan sayr qilib kalhat yoniga kelib qoladi. Kalhatni ko‘rib, u shu so‘zlarni aytadi:

*Kalhat yonida yuraman,
uch so ‘m pulni saqlayman.
Bir so ‘zi,
Bir tiyindan.*

Kalhat in yasashni davom ettiradi, in atrofida yuradi, qanotlarini qoqadi, jo‘jalarga boqadi. Ona tovuq jo‘jalari bilan uning yoniga yanada yaqinlashib gapga tutadi:

- *Kalxat, kalxat aytchi, nima qilmoqdasan?*
- *Chuqur kovlamoqdasan.*
- *Nima izlaysan?*
- *Bir tiyin tanga izlamoqdaman.*
- *Bir tiyin tanga senga nega kerak?*
- *Ignar sotib olaman.*
- *Ignar senga nega kerak?*
- *Xaltacha tikish uchun.*
- *Xaltacha senga nega kerak?*
- *Toshchalar ni qo‘yish uchun.*
- *Toshchalar senga nega kerak?*
- *Sening bolalaringga qarab otish uchun.*
- *Nima uchun?*
- *Mening polizimga kirmasliklari uchun.*
- *Baland devor yasagin, agar devor yasab bilmasang, tutib olishga o‘rgangin.*

² “Детское подвижные игры народов СССР” китобидан олинган М.: «Просвещение». 1988 г.

Ona tovuq shu so‘zlarni aytishi bilan kalhat jo‘jalarni tutishga kirishadi. Ona tovuq ketidan qator bo‘lgan jo‘jalar tutqich bermaydilar. Ona tovuq kalhatni: “kish, kish, sen eyaolmaysan, bolalarimni tutolmaysan”, - deb navbatdagisini tutmoqchi bo‘ladi. Bir necha jo‘jani tutgach o‘yin boshqatdan boshlanadi.

O‘YIN QOIDASI. Jo‘jalar saf tortib, bir-birlarining belidan ushlaganlaricha ona tovuq ketiga saflanadilar va kalxatga tutqich bermaslikka harakat qiladilar. Kalxat safdagisi jo‘jalarning eng oxirgisini ushlashi shart. Yiqilgan jo‘jalar tezlik bilan joylaridan turib, joylarini egallashlari kerak. Ona tovuq o‘z bolalarini himoya qiladi, kalxatni qo‘li bilan itarmasligi shart. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

Pufakcha

Bolalar oyoq uchida chukkalagan holda, ikki qo‘llarini polga yoki erga tegizib turadilar. Tarbiyachining “Pufak shishmoqda”, - deyishi bilan qo‘llarini ikki tomonga yoyyadilar. Tarbiyachining “Pufak uchdi” - deyishi bilan yuguradilar va o‘z atrofida aylanadilar. Tarbiyachining: “Pufaklardan havo chiqdi” - iborasini eshitishlari bilan o‘tiradilar va xuddi havo chiqqanidek “t-s-s-s” deyishadi. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

O‘YINNING MAQSADI. Berilgan signal (belgilangan vaqt ichida) vaqtida harakatlarni to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, nozik harakatlar qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Sakrab o‘ynaladigan o‘yinlar

Tekis yo‘l bo‘ylab

Bolalar erkin holda to‘planishadi yoki qator bo‘lib safga turib o‘ynagani ketadilar. Tarbiyachi muayyan marom va quyidagi so‘zlarni aytadi:

*Tep-tekis yo‘l ustidan,
Tep-tekis yo‘l ustidan,
Tashlaymiz qadam,
Bir-ikki, bir-ikki,
Mayda toshlar ustidan,
Mayda toshlar ustidan;
Borayotib biz birga,
Tushib ketdik chuqurga!*

“Tep-tekis yo‘l ustidan” so‘zlari aytilganda bolalar qadam tashlab boradilar. Tarbiyachi: “Mayda toshlar ustidan, mayda toshlar ustidan”, - deyishi bilan ular ikkala oyoqlarida sakrab sal oldinga siljib boradilar. “Tushib ketdik chuqurga” so‘zlarini eshitish bilanoq, cho‘kkalab o‘tirib oladilar. “Chuqurdan chiqib oldik”, - deydi tarbiyachi. Bolalar o‘rinlaridan turadilar. Tarbiyachi she’rni yana takrorlaydi.

U shu taqlidda she’rni bir necha bor takrorlaganidan so‘ng quyidagi boshqa so‘zлarni aytdi:

*Tep-tekis yo ‘l ustidan,
Tep-tekis yo ‘l ustidan,
Yuraverib charchadik,
Yuraverib charchadik,
Yuringlar, uyga ketdik,
Yuringlar, uyga ketdik,
Mana, uyga ham etdik,
Mana, uyga ham etdik.*

She’r tugagandan keyin bolalar uylariga qarab yuguradilar (uy qayerda bo‘lishini – skameykami, tortilgan to‘g‘ri chiziq orasimi yoki boshqa bir joyda bo‘lishi mumkin).

KO‘RSATMALAR. Harakatlarni har-xil qilib o‘zgartirish mumkin, lekin ular she’rga muvofiq kelishi zarur (“mayda toshlar ustidan” – degan jumla bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa hatlab yoki bir oyoqdan hatlab o‘tish). Buning uchun u she’rning har bir satrini ko‘p marta yoki oz marta takrorlaydi.

Ariqdan sakrab o‘tish

Polga yoki (erga) taxta tashlab qo‘yiladi (eni 25-30 sm., uzunligi 2-2,5 metr). Bu ariqchaning ko‘prigi bo‘ladi. Ariqchaning narigi qirg‘og‘ida lola qizg‘aldoqlar, bo‘tako‘zlar, boychechaklar va boshqa rang-barang gullar ochilib yotadi (gilam ustiga yoki toza erga har-xil rangdagi lahtak qiyiqlari tashlab qo‘yiladi). Bolalar ariqning narigi qirg‘og‘iga o‘tadilar va gul teradilar (cho‘kkalab o‘tiradilar, engashadilar, gul terish harakatlarini bajaradilar), keyin uyga qaytib keladilar. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi bolalarning faqat ko‘prikdan o‘tishlarini kuzatib “Ariqdan suv tez oqadi, chuqur, ehtiyyot bo‘lib o‘tinglar, oyoqlaringizni ho‘l qilmanglar”, - deb turadi. Bolalar ko‘prikdan o‘tish vaqtida juda ehtiyyot bilan harakat qiladilar. Ikki parallel chizilgan chiziq yoki ikki ipcha ustidan taxtani ko‘prik sifatida qo‘yiladi. Bolalar shu taxta ustidan ehtiyyot bo‘lib o‘tish harakatlarini o‘zlashtirib olishlari kerak.

Qushchalar inlarida

Ochiq havoda (xonada) maydonchaning bir tomonida bolalar uncha baland bo‘limgan (15-20 sm.) predmetlar (taxta, kubik, brusok, stulcha, yashchik...) ustida o‘tiradilar. Tarbiyachining: “Tashqarida quyosh chiqib hamma joyni yoritmoqda, qani hamma chumchuqlar o‘z uylaringdan chiqinglar don, non, qurt va chuvalchanglarni, emish narsalarni qidiringlar”, - deydi. Bolalar o‘z “inlaridan”

sakrab tushadilar (uchadilar, yugurib qanot qoqadilar – ikki qo'llarini ikki tomoniga qilib silkitadilar), o'tirishadi, donlarni cho'qishadi, qurtlarni barmoqlari bilan kovlab olishadi va hokazolar. Tarbiyachining: “Yomg‘ir yog‘di!. Hammaning uyg‘a uchinglar”, - deyishi bilanoq hamma chumchuqlar inlariga yashirinadilar. O‘yin to‘rt-besh marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinni o‘tkazishdan oldin, o‘yinda qatnashuvchi bolalar uchun etarli darajada kubiklar, brusoklar, yashchiklar. Stulchalar tayyorланади. Ularni xonaning yoki maydonchaning bir tomoniga oralarini keng qilib, bolalar o‘ynaganda bir-biriga halaqit bermaydigan darajadagi masofada joylashtiriladi. Tarbiyachi qanday sakrash kerakligini ko‘rsatadi, qaytib bola joyiga chiqib o‘tirishga yordamlashadi. O‘yinni takrorlashda tarbiyachi bir so‘z bilan “Quyosh” va “Yomg‘ir” deb signal beradi. Bolalar belgilangan signalga qarab to‘g‘ri harakat qilishni bilishlari kerak.

Chivinni tut

Bolalar uzatilgan qo‘lgacha keladigan masofada davra qurib turadilar. Tarbiyachi doiraning o‘rtasida turadi. Uning qo‘lida (uzunligi 1-1,5 m.) hivich bo‘lib, uning uchida qog‘ozdan yasalgan chivin ip bilan bog‘lab qo‘yilgan bo‘ladi. Tarbiyachi ipni bolalarning boshlaridan sal yuqoriroqda aylantiradi. Chivin ustlaridan o‘tayotganda, bolalar uni ikki qo‘llab tutmoqchi bo‘lib sakraydilar. Chivinni tutgach bola: “Men chivinni tutdim”, - deydi. O‘yin yana davom etadi.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi o‘yin vaqtida bolalar sakrab-sakrab doirani toraytirib qo‘ymasliklarini kuzatib boradi va zarur bo‘lganda tanbeh berib turadi. Tarbiyachi chivinni aylantirar ekan, uni dam tushirib, dam ko‘tarib aylantiradi. Bolalar harakat qilganlarida bir-birlarini itarmasliklari zarur.

Do‘ngdan-do‘ngga

Bolalar ikki guruxga bo‘linib, maydonchaning (xonaning) ikki tomonida qarama-qarshi turadilar. Ular o‘rtasida maydon bo‘ylab doirachalar – do‘nglar (do‘nglar orasidagi masofa har xil 5-7-10 va hokazolar sm.) chiziladi. Tarbiyachi goh u, goh bu tomonagi bolalardan bir nechtasini chaqiradi. Ular do‘ngdan-do‘nga sakrab, maydonchaning ikkinchi tomoniga o‘tadilar. Bolalar sakraganda, tarbiyachi mashqlarni to‘g‘ri bajarayotganliklarini, harakatlarni to‘g‘ri qilayotganliklarini kuzatib turadi. So‘ngra boshqa bolalar sakraydilar. Hamma bolalarning sakrab bo‘lishlarini kutadi. O‘yin yana boshdan boshlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinda har-xil topshiriqlar, do‘ngdan-do‘nga ikki oyoqlab, bir yoqda, yo u yoqdan buyoqqqa sakrab o‘tilishi aytildi. Bajaradigan harakatlarni bolalarning o‘zlari xoxlab olishlari mumkin. Bolalarni ikki

komandaga bo‘lib o‘ynatish mumkin. Harakatlarni yaxshi bajargan komanda yutgan hisoblanadi. O‘yin to‘rt-besh marta takrorlanadi.

Mushuk va chumchuqlar

Bolalar maydonchaning (xonaning) bir tomoniga polga (erga) bir qator qilib qo‘yilgan skameykalarda yoki katta kubiklarda tikka turadilar. Ular tomdagi chumchuqlarni ifoda etishadi. Nariroqda mushuk o‘tiradi (tarbiyachi mushuk rolini bajarishi mumkin). Mushuk “xur, xur” qilib uxbab yotadi. Chumchuqlar tomdan pastga sakrab tushadilar, qanotlarini rostlab har tomonga uchib ketadilar. Qanot qoqib uchganlarida mushuk uyg‘onib qoladi: U (miyov-miyov)lab, chumchuqlarni tutu boshlaydi. Tutilgan chumchuqlarni mushuk o‘z uyiga olib ketadi. O‘yin besholti marta takrorlanadi. Keyin rollar almashinishi mumkin.

KO‘RSATMALAR. Bolalar sakrayotganlarida oyoq uchlarida, engil sakrashlari kerak. Tizzalarini bukib, balandroq sakrashga harakat qiladilar. Tarbiyachi bolalarning qanday sakrayotganliklarini kuzatib turadi.

O‘rmalab o‘tish va tirmashib chiqish o‘yinlari

Sichqonlar omborxonada

Bolalar sichqonlarni ifoda etadilar. Ular maydonchaning (xonaning) bir tomonida qo‘yilgan stul, skameykalarda, kubiklarda tippa-tik turadilar yoki o‘tiradilar, sichqonlar o‘z inlarida bo‘ladilar. Qarama-qarshi tomonda 40-50 sm, balandlikda arqoncha tortilgan bo‘lib, o‘rtasida qo‘ng‘iroq osilgan, uning orqasi omborxonada bo‘ladi. O‘yinda qatnashayotgan bolalarning chap tomonida mushuk rolini bajarayotgan tarbiyachi o‘tiradi. Mushuk uxbab qoladi, sichqonlar esa omborxonaga yugurishadi. Omborxonaga kirish vaqtida ular arqoncha tagidan engashib, o‘rmalab o‘tish uchun harakat qiladilar. Sichqonlar omborxonada cho‘qqayib o‘tiradilar va qotgan non kemiradilar. Bir sichqon to‘satdan qo‘ng‘iroqqa tegib ketadi, birdan mushuk uyg‘onadi va sichqonlarni quvlab ketadi. Sichqonlar omborxonadan qochib chiqadilar va inlariga qarab qochadilar. Inlariga kirib yashirinib ulgurgan sichqonlarni mushuk tutmaydi, (mushuk sichqonlarni tutgan kabi harakat qiladi holos). Shundan so‘ng mushuk o‘z joyiga borib yotib oladi va xurrak ota boshlaydi. O‘yin besholti marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Arqoncha tagidan o‘tayotgan bola ipga tegib ketmaslik uchun harakat qiladi. Ko‘proq engashib o‘tishga harakat qiladi. Arqonchaga tegsa mushuk uyg‘onadi, shuning uchun bola juda ehtiyyot bo‘lib engashib o‘tadi.

O‘YIN MAQSADI. Bolalarni juda ehtiyyotkorlik bilan asta-sekin yurishga o‘rgatish.

Maymunchalar

Tarbiyachi bolalarga bittadan yoki ikkitadan bo‘lib gimnastika devorchasiga yaqinlashib, yuzlarini unga o‘girib turish va undan uch-to‘rt pog‘ona ko‘tarilishni taklif qiladi. Bu bolalar maymunchalar bo‘ladilar. Boshqa bolalar maymunchalarning daraxtdan qanday qilib meva terishayotganliklarini o‘tirib yoki tik turib tomosha qiladilar. So‘ngra daraxtga boshqa maymunchalar chiqishadi. O‘yin hamma bolalar maymuncha bo‘lib daraxtga chiqib bo‘lganlarigacha davom etadi.

KO‘RSATMALAR. Bolalar narvonchadan qo‘rqmasdan chiqib tushishni o‘rganganlaridan keyin topshiriq murakkablashib boradi. Ya’ni gimnastika devorchasining bir tomonidan ikkinchi tomonga (bir shohdan ikkinchi shohga, bir daraxtdan ikkinchi daraxtga) o‘tish taklif qilinadi. O‘yinning mazmunini o‘zgartirish mumkin. “Kim ko‘p yong‘oq teradi”, “Ovchilar”, “Chumchuqlarni tutamiz” va hokazolar. Tarbiyachi o‘z navbatida ziyraklik bilan bolalar o‘yinini kuzatib boradi, harakatlarini tekshirib ehtiyyot bo‘lishlarini aytib turadi.

O‘YIN MAQSADI. Bolalarda o‘rmalab chiqish malakasini o‘stirish va ularni qo‘rqmaslikka, chaqqonlikka o‘rgatish.

Ehtiyyot bo‘l

Bolalar uzunasiga qo‘yilgan o‘z stullarida turadilar. Tarbiyachining ko‘rsatmasi bilan birma-bir stullarning ustidan to‘rt oyoqlab (qo‘l va oyoqlariga turgan holda) emaklab borishadi. Stulning oxirigacha kelgach bola tik turadi va sakrab erga tushishi kerak.

KO‘RSATMALAR. Bola stulga chiqish vaqtida tarbiyachi yordamlashib turadi. Emaklash vaqtida shoshilmasdan emaklashni aytadi. Bola yarim engashgan holda ham yurishi mumkin.

O‘YIN MAQSADI. Chegaralangan va erdan (15-20 sm) balandlikda emaklashga mashq qilish, ehtiyyotkorlikka va epchilikka o‘rgatish.

Quyonchalar

Maydonchaning (honaning) bir tomoniga bo‘r bilan (5-6) ta doirachalar chizib qo‘yilgan bo‘ladi. Bu quyonlar uchun inlar bo‘ladi. Ularning oldiga stulchalar qo‘yiladi. Qarama-qarshi tomonda qorovulning uyi bo‘ladi (tarbiyachi o‘tirgan stul). Uy bilan quyonlar o‘rtasida o‘tloq bo‘lib, quyonlar shu erga chiqib o‘ynashadi. Tarbiyachi o‘yinda ishtirok etuvchi bolalarni gurux-guruxga bo‘ladi. Har bir guruhda 3-4 bola bo‘lib, polga chizilgan doirachalardan bittasini egallaydilar. Bolalar tarbiyachining ko‘rsatmasi bilan cho‘qqayib o‘tiradilar (quyonlar doira ichida). Tarbiyachi navbat bilan inlar oldiga kelib ularni o‘tloqqa qo‘yib yuboradi. Quyonlar birin-ketin inlaridan doira ichidan emaklab chiqadilar,

so‘ng yugurib ketadilar va o‘tloqda irg‘ishlab, sakrab, chopqillab o‘ynashadilar. Oradan bir muncha vaqt o‘tgandan keyin tarbiyachi: “Kataklaringizga yuguring”, - deydi. Quyonlar shoshiladilar. Har biri o‘z katagiga qaytib, yana stul ostidan emaklab o‘tadi. Qorovul ularni yana o‘ynagani chaqirib yubormagunicha kataklarida o‘tirishadi. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Stullardan yoki yarim doiralardan foydalanish mumkin, ularning tagidan emaklab o‘tadilar. Ustunga o‘rnatilgan yog‘ochdan yoki ikki ustunga tarang qilib bog‘langan ip tagidan engashib yoki emaklab o‘tish mumkin. Bolalar yugurishganda bir-birlarini itarishmasliklari zarur. Tarbiyachi ularning harakatlarini kuzatib turadi.

Kurk tovuq va jo‘jalar

O‘yinda qatnashayotgan bolalar jo‘jalarni, tarbiyachi esa tovuqni ifodalaydilar. Kurk tovuq va jo‘jalar o‘z uylarida bo‘lishadi. Ustun yoki stullar orasida 35-40 sm, balandlikda arqoncha tortilgan bo‘lib, jo‘jalarning uyi hisoblanadi. Bir chekkada (uyning to‘rida, maydonchaning eng chetki tomonida) katta qush yashaydi. Kurk tovuq arqonchaning tagidan engashib o‘tadi va bolalarga don qidirib ketadi. Don topgach bolalarini “qu-qu-qu” deb chaqiradi. Uning ovozini eshitib jo‘jalar ham arqon tagidan o‘rmalab o‘tishadi. Tovuqning yoniga “chi-chi-chi” deb yugurishadi. Hammalari birga o‘ynashadilar, engashadilar, cho‘qqayib o‘tirishadi, sakrab-sakrab qanot qoqadilar va don cho‘qiydilar. Tarbiyachining: “Katta qush uchib kelyapti”, - degan so‘zlarini eshitib, hamma jo‘jalar tezlik bilan qochib ketadilar va uylariga yashirinadilar. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Jo‘jalar katta qushdan qo‘rqib uylariga qochib kelayotganlarida tarbiyachi bolalarning arqonchaga urilib ketmasliklari uchun ularni kutib turadi. Keyinchalik, bolalar tovuq va katta qush rolini o‘zları bajarishlari mumkin.

O‘YIN MAQSADI. Bolalarning diqqatini, kuzatuvchanligini o‘stirish.

Chiziqni bosma

Tarbiyachi polga (maydonchada bo‘lsa, erga) ikki parallel (2-3 m) to‘g‘ri chiziq chizadi. Ularning orasi 40-50 sm bo‘lishi kerak. O‘yinga qatnashuvchilar ikki chiziq orasidan, chiziqqa tegmasdan ketma-ket to‘rt oyoqlab, emaklab kelishadi. Chiziqning oxirigacha borishadi va gavdasini tik tutib qo‘lini ko‘taradi, keyin o‘z joyiga borib o‘tiradi. O‘yinda polga qo‘yilgan taxtalardan ham foydalanish mumkin. Guruhdagи hamma bolalar chiziq orasidan o‘tib bo‘lgach, o‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

O‘YIN MAQSADI: chiziqqa bosmaslikka, chaqqon emaklash ko‘nikmalarini o‘stirish.

Qorovul

O‘yinga qatnashuvchilar uxlaganga o‘xshab gilamga cho‘zilib yotishadi. Qorovul qo‘liga cho‘p olib, uxbal yotgan bolalar orasida yuradi. Qo‘lidagi cho‘p bilan uxlagan bolalarni turtib: “Mening ketimdan tizilinglar”, - deydi. Tayoqcha tekkan bolalar qator bo‘lib tizilishgach, qorovul to‘satdan: “Qorong‘i tushdi” – deb qichqiradi. Hamma o‘ynovchilar darrov yotib olishadi. Qorovul kuzatib turadi.

O‘YIN QOIDASI: Berilgan buyruq chaqqonlik va tezlik bilan so‘zsiz bajarilishi shart. Hammadan keyin yotgan bola qorovul rolini bajaradi.

O‘YIN MAQSADI: Tezlik bilan safga tizilish va o‘z joylarini topaolphishga o‘rgatish.

Kim ko‘p tasma tera oladi³

Ikki ustun yoki poyaga ip bog‘lanadi. Shu ipga 8-10 sm, uzunlikda rang-barang tasmachalar osib qo‘yiladi. Osilgan tasmachalar va ko‘tarilgan qo‘l orasidagi masofa 10-15 sm, bo‘lishi kerak. Tarbiyachining signali bilan ikki komandanik ikki bola chiqib, osilgan lentachalarni sakrab-sakrab tera boshlaydi. Har qaysi bola iloji boricha ko‘proq qilib lentachalar terib olishi kerak. Sakrab-sakrab tasmachalar terish 2-3 min, davom etadi. Ko‘proq tasmachalar tergan bola komandasini yutgan hisoblanadi. O‘yin hamma bolalar tasmachalar terishiga qatnashib bo‘lgach, tamom bo‘ladi. Har ikki komanda tergan tasmachalarining soni hisoblanib beriladi.

O‘YIN QOIDASI: Bolalar sakrashganlarida bir-birlarini turtmasliklari kerak. Tarbiyachi bolalar bir-birlarining qo‘llarida lentachalarni tortib olmasliklarini kuzatib turadi.

O‘YIN MAQSADI: Joyida turib baland sakrash ko‘nikmasini takomillashtirish.

Irg‘itish va ilib olish o‘yinlari Xaltachani kim irg‘ita oladi?

Bolalar zal (maydoncha)ning bir tomonida polga chizilgan to‘g‘ri chiziq yoki tashlab qo‘yilgan arqonchaning narigi tomonida turadilar. O‘yinda qatnashayotgan har bir bola bittadan xaltacha oladi. Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar sal engashgan holda xaltachani irg‘itadilar. Har bir bola o‘z xaltachasini qayerga tushishini diqqat bilan kuzatib turadi. Navbatdagi signal berilishi bilan bolalar xaltachalarini olib kelgani yugurib ketadilar, borib xaltachalarni oladilar-da, xaltacha tushgan joyga o‘zlari turib oladilar. Tarbiyachi xaltachani hammadan uzoqroqqa irg‘itgan bolani ta’kidlab o‘tadi. Bolalar dastlabki joylariga qaytib

³ Эстон халқ ўйини “Детские подвижные игры...”, М.: «Просвещение», 1988.

keladilar. O‘yinni guruhlarga bo‘lib o‘tkazgan ma’quldir. Bir guruh o‘yinga baho berilib bo‘lgandan keyin, ikkinchi guruh o‘yinga tushadi. O‘yin 6-7 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinni guruhlarga bo‘lib, musobaqa formasida o‘tkazish mumkin. Xaltachalarni tarbiyachining topshirig‘i bilan o‘ng yoki chap qo‘li bilan ham irg‘itish mumkin.

Keglini urib yiqitish⁴

O‘yinchilar (guruhdagi bolalarning yarmi) chiziq orqasida bir qator (safga) bo‘lib saflanadilar. Shu chiziqdan 3-5 metr narida bolalar soniga teng keglilar tizib qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir o‘yinchida ikkitadan o‘rtacha kattalikdagi koptok (to‘p) bo‘ladi. To‘pni poldan dumalatib, keglini yiqitish kerak. Birinchi dumalatilgan to‘p bilan keglini urib yiqita olmagan, ikkinchi marta to‘pni yumalatadi. So‘ngra signal bo‘yicha yugurib borib, keglilarni turg‘azib qo‘yadilar, to‘plarni yig‘ib, dastlabki holatga qaytadilar. O‘yin davom etadi. Har bir o‘yinchi nechta keglini yiqitganini tarbiyachi sanab boradi.

KO‘RSATMALAR. Koptokni oyoq bilan tepib dumalatish mumkin emas. Keglini bola qo‘li bilan engashgan holda irg‘itishi mumkin. Har bir bolaning keglini urib yiqitishi uchun 2-3 tadan kegli qo‘yilishi bilan o‘yinni o‘zgartirib murakkablashtirish mumkin.

To‘pni ilib ol

Bolalar davra qurib turadilar. Tarbiyachi o‘rtada turib oladi. Uning qo‘lida (18-20 sm. diametrli) to‘p bo‘ladi. Tarbiyachi: “Anvar (Sevara, Xolida,...), to‘pni ilib ol!” – deydi. U bolaga to‘pni otadi. Bola to‘pni ilib, yana tarbiyachiga otadi.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi bolalar to‘pni ikki qo‘llab past tomondan otishlarini aytadi. Ilib olayotganlarida qo‘llarini sal oldinga uzatib, to‘pni ko‘kraklariga bosmay, barmoqlari bilan olishlarini kuzatib turadi.

Doiraga tushir

Bolalar davra qurib turadilar. O‘rtaga katta chambarak qo‘yiladi yoki doira arqonchadan yoki polga chizib yasalgan diametri 1-1,5 metr bo‘lgan doira chiziladi. Doiradan 2-3 qadam masofada bolalar qo‘lida ichiga qum to‘ldirilgan hالتاچالار bo‘ladi. Tarbiyachining “Tashla!” deyishi bilan barcha bolalar xaltachalarini doiraga tashlaydilar. So‘ngra tarbiyachi: “Haltachalarni ko‘tarib olib kelinglar!” – deydi. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi.

⁴ Пластмассадан ёки ёғочдан ясалган фигуранлар.

KO'RSATMALAR. O'yinni bolalarni komandaga bo'lib, musobaqa formasida ham o'tkazish mumkin. Haltachalarни uzoqqa otgan va tezda olib kelgan komanda yutgan hisoblanadi. Haltachalarни ikki martadan tashlash mumkin.

Buyumni saqla

O'yinchilar aylana hosil qilib turadilar. Aylana o'rtasida tarbiyachi turadi. Har bir bolaning oyog'i ostida polda kubik yoki shaqildoq qo'yiladi. Tarbiyachi o'yinchilardan birining yoniga kelib kubikni olishga harakat qiladi. O'yinchi o'tirib, kubikni qo'llari bilan yashiradi. Tarbiyachi ketgach, bola turadi. Tarbiyachi kubikni ololmasa, boshqa bolaning kubigini ko'zlab, uning yoniga birdan borib qoladi va kubikni olishga harakat qiladi. Bola darrov o'tirib, kubikni qo'li bilan yashiradi.

KO'RSATMALAR. Tarbiyachi kubiklarni faqat olayotganday harakat qiladi, lekin olmaydi. Bu harakatni bir-ikki marta takrorlagandan keyin, u kubikni olishi mumkin. Bir-ikki bolaning kubigini olgach, tarbiyachi uni bolalarga yana qaytarib beradi va tezroq yashirishlarini aytadi. O'yin 4-5 marta takrorlanadi.

Yelkaga tegizib irg'itish⁵

O'yin uchun 100-150 gr. qum solingan xaltachalar olinadi. O'yinchi belgilangan doira markazida turib, xaltachani qo'l kafti bilan ushlagan va elkasiga tegizganicha, gavdasini orqaga bilinar-bilinmas holda engashtirib butun kuchi bilan irg'itadi.

O'YIN QOIDASI. Xaltacha tushgan joy belgilanadi. Kim xaltachani uzoqroq irg'itsa shu yutgan hisoblanadi. Bolalarning belgilangan chiziqdan chiqib ketmasliklarini tarbiyachi kuzatib turadi.

BOShQA VARIANTI. O'yinchi bolalarni ikki komandaga bo'lib musobaqa yushtirish mumkin. Bunday o'yinda xaltachalar bolalar soniga to'g'ri bo'lishi kerak. Tarbiyachi: "Bir, ikki, uch!" – deb komanda berganda bolalar xaltachalarini tashlaydilar. Ikkita doira: chizilgan bo'lib, har bir komandanidan ikkita bola qatnashishi (navbat bilan) xaltachani tashlashlari mumkin.

Chaqqon bug'u ovchisi

Maydonchada bug'uning shakli (karton qog'ozdan bug'u yasaladi) qo'yiladi. Bug'u ovchilari qator (saf) bo'lib, bug'udan 3-4 metr uzoqlikda turishadi. Navbat bilan bolalar bug'uga qarab to'p (o'q)ni otadilar. Har bir tekkan o'q uchun bola (ovchi) bayroqcha oladi. Kim ko'proq bayroq olaolsa, shu bola chaqqon ovchi bo'ladi.

⁵ Оситин ҳалқ үйини «Детские подвижные игры...».

KO'RSATMALAR. Tarbiyachi bug‘ining shaklini karton qog‘ozdan yasashi mumkin, yoki bug‘i o‘yinchog‘idan foydalanish kerak. Kaftga to‘g‘ri keladigan to‘p olinadi. To‘pni otish vaqtida, bola qo‘lini pastdan (doira shaklida) elkadan sal ko‘targan holatda irg‘itadi. To‘pni irg‘itganda belgilangan chiziqdan chiqmasligi kerak. Tarbiyachi bolalarning o‘yin qoidasiga rioya qilishlarini kuzatib turadi.

Tevalar atrofni bilish o‘yinlari

Toping-chi nima qichqirayapti

Bolalar doira markaziga orqa o‘girib davra qurib turadilar. Tarbiyachi doira ichida bo‘ladi. U o‘yinga boshchi tayinlaydi. Boshchi ham doiraning o‘rtasiga turib oladi va qandaydir birorta uy hayvonlariga yoki qush ovoziga taqlid qilib qichqiradi. Shundan keyin hamma bolalar doira ichiga qarab o‘griladilar. Tarbiyachi kimni taklif qilsa, o‘scha bola hozir nima qichqirganligini topadi. So‘ngra yangi boshlovchi tayinlanadi. O‘yin 5-6 marta takrorlanadi.

KO'RSATMALAR. Agar bola bu ovoz qanday hayvon yoki qushga tegishli ekanligini topaolmasa, tarbiyachi unga yordamlashadi.

O‘YIN MAQSADI. Diqqat qilib tinglab turishni tarbiyalaydi. Eshitish organi bilan ovozlarni (tovushlarni) to‘g‘ri idrok qila bilishni (sezgi organlarini) o‘stiradi.

O‘z o‘yingni top

Bolalar tarbiyachi yordamida o‘zlariga uy tanlaydilar (skameyka, erga chizilgan doirachalar). Bir uychada 2-3 bola bo‘lishi mumkin. Tarbiyachi signal berishi bilan bolalar o‘z uychalaridan chiqib, maydonchada kapalak tutishadi (o‘z oldilarida va oyoqlari orasidan chapak chaladilar, quyonlarni (ikki oyoqda sakraydilar), samolyotlarni) qo‘llarini yonga uzatgan holda chopadilar, (qushlarni) qanot qoqishib uchadilar) tasvirlab harakat qilib o‘ynaydilar... Tarbiyachining: “O‘z uyingni top!” deyishi bilan o‘z uylariga (xatosiz bajarishlari kerak) kirib oladilar.

KO'RSATMALAR. O‘yin oldidan tarbiyachi uy o‘rniga skameyka (stul) yoki bo‘r bilan doirachalar chizib qo‘yadi. Hamma bolalar o‘z inlariga borib turadilar. Juda diqqat bilan o‘z uylarini bilib olishlarini tarbiyachi uqtiradi.

Baraban

Tarbiyachi doira hosil qilib turishni taklif qiladi. Bolalardan birini chaqirib, chiroyli barabanni mana shu so‘zlar bilan beradi.

Tabriklashdi Sobirga, (Vovaga, Olyaga),

Yangi baraban.

Shunday chiroyli,

*Yangi baraban,
Qanday yaxshi baraban!, - deydi.*

Sobir, (Vova, Olya..) barabanni qattiq uradi. Bolalar tarbiyachining ko‘rsatmasi bilan orqaga tisariladilar. Bundan keyin barabanni sekin uradi. Shunda hamma bolalar unga yaqinlashib keladilar. Tarbiyachi ham bolalar bilan hamma harakatlarni bajarib boradi. Baraban boshqa bolaga beriladi. O‘yin yana qaytadan boshlanadi.

O‘YIN MAQSADI. O‘yin qoidasini o‘z vaqtida va chaqqonlik bilan bajarish ko‘nikmalarini o‘stirish.

Ona tovuq

Tarbiyachi “Ona tovuq” rolini bajaradi. Jo‘jalarni o‘ynovchi bolalar soniga qarab bo‘linadi. Bolalardan kattarog‘i mushuk qilib tayinlanadi. Mushuk xona (maydoncha)ning bir burchagida stulchada o‘tiradi. Ona tovuq va jo‘jalar esa xona (maydoncha) bo‘ylab sayr qilib yuradilar. Don, non o‘shoqlarini cho‘qiydilar, tovuqning “qu-qu”, “qu-qu” deyishi bilan jo‘jalar uning yoniga chopib keladilar. Keyin tarbiyachi (ona tovuq) yurib, shu iboralarni aytadi:

*Ona tovuq sayrga,
Jo‘jalari bilan chiqdi.
Qo-qo, deb ularga,
Ketib qolmanglar dedi.*

Mushuk yaqinlashib:

*Yo‘l bo‘yida supada,
Mushukcha mudramoqda,
Shu choq ko‘zin ochadi,
Jo‘jalarni tutadi.*

Shundan keyin mushuk ko‘zini ochadi, keriladi va miyovlaydi. Joyidan turib bolalarni quvlay ketadi. Jo‘jalar uylariga (belgilangan joyga) yugurib ketadilar. Ona tovuq (tarbiyachi) har tomonga qanot qoqib (qo‘llarini silkitadi), jo‘jalarini himoya qiladi va shunday deydi: “Ket mushuk! Jo‘jalarimni senga bermayman!”.

O‘YIN MAQSADI. Bolalarning kuzatuvchanliklarini o‘stirish... o‘yinni takrorlaganda ona tovuq rolini bolalardan biri bajarishi, tarbiyachi esa jo‘jalar bilan o‘ynab, bolalarning harakatlarini kuzatib boradi. Qo‘lga tushgan jo‘ja, aksincha, mushuk rolini bajarishi mumkin.

Tulki va tovuqlar⁶

⁶ Татар халқ үйини. “Детские подвижные игры...”

Maydonchaning (xona) bir tomonida “tovuq xonada” tovuq va xo‘rozlar, ikkinchi tomonida esa tulki yashaydi. Tovuq va xo‘rozlar sayr qilib, maydonchada (xonada) yurishadi, don, turli hasharotlarni cho‘qishadi. Ularni ko‘rgan tulki juda ayyorlik bilan oyoq uchida yaqinlashadi, shu onda xo‘rozlar “Qu-qu-qu-uuu!” – deb qichqirishadi. Hamma tovuqlar qanot qoqib, tovuq xonaga qarab yugurishadilar. Tulik tovuqlardan birini tutishga harakat qiladi. Tutilgan tovuq tulki rolini bajaradi. O‘yin bir necha bola tulki rolini o‘ynab bo‘lguncha shu xilda davom etadi.

KO‘RSATMALAR. Bolalar chopganlarida bir-birlarini itarmasliklari, ehtiyyot bo‘lib chopishlari kerak. Xo‘rozning qichqirishini juda diqqat bilan tinglashlari kerak. Tulki hech kimni tuta olmasa, yana o‘zi tulki rolda qoladi. U oyoq uchida, juda ehtiyyotkorlik bilan harakat (yurish) qilishi kerak.

Obruchlarni yumalatish

O‘yinda ishtirok etuvchilar zvenolarga bo‘linadilar va chizilgan chiziqning narigi tomonida saf tortib turadilar. Safda birinchi bo‘lib turgan bolalarining qo‘lida chambarak bo‘ladi, oldinda, bulardan 10-15 metr uzoqlikda bayroqchalar yoki keglilar o‘rnatilgan bo‘ladi. Tarbiyachining: “Qani, yumalat!” – degan komandasini bilan safda birinchi turgan bola chambarakni bayroqchalar tomon yumalatib borib, tayoqchalar yordamida chambarakni bayroqchaga tegizmasdan uning atrofidan aylanib o‘tadi, keyin o‘z qatoriga qaytib keladi va chambarakni navbatdagi bolaga beradi. Chambarak va tayoqcha olgan bola chambarakni yumalatib bayroqcha tomon yugurib ketadi. Safning oxirida bola topshiriqni bajaraganidan keyin o‘yin tamom bo‘ladi. Oldin tugatgan zveno g‘olib chiqadi.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi chambarak bilan tayoqchani qabul qilgan bola safdan chiqib ketmasligini kuzatib turadi. Chambarakni itarib borganda uni ochirmasligini aytib turadi.

Kim chaqqon

O‘yinga tayyorlanish: o‘ynovchilar doira hosil qilib tiz cho‘kib turadilar. Boshqaruvchi doira o‘rtasida turadi. O‘yin tasviri: signal berilgan doirada o‘tirganlar imo-ishora qilib, bir-birlari bilan so‘zlashadilar va tezda joylarini almashtiradilar. Shu vaqt boshqaruvchi joy almashtirayotganlaridan birining joyini egallahsga harakat qiladi. Joysiz qolgan bola doira o‘rtasiga tushib, onaboshchilik qiladi. O‘yin yana davom etaveradi. Kimki doira ichiga sira tushmasa yoki kam tushsa, o‘sha birinchi o‘rinni egallagan hisoblanadi.

O‘YIN QOIDALARI. 1. Joy almashinayotgan vaqtida boshqaruvchidan boshqa bolalar ularning joyini egallashi mumkin emas. 2. Boshqaruvchi joy

almashinayotganlarni tutib olmasligi kerak. 3. Bir vaqtning o‘zida 2,4,6 bola joy almashishi mumkin.

Kim birinchi⁷

O‘ynovchilar maydonchaning (xonaning) bir tomonida qator bo‘lib turishadi. Ikkinci tomonida chegaraning oxirini ko‘rsatadigan bayroqcha qo‘yiladi. Tarbiyachining komandasini bilan qatnashchilar bayroq tomon yugurishadi. Kim birinchi bo‘lib etib kelsa, shu bola yutgan hisoblanadi.

KO‘RSATMALAR. Maydonchaning bir boshidan to bayroqqacha bo‘lgan masofa 15-20 metr keladi. Tarbiyachi og‘zaki: “Chopinglar”, deyishi yoki bayroqcha bilan silkitib, chapak chalib komanda berishi mumkin. Umuman, tushunarli qilib signal berish yo‘lini tarbiyachining o‘zi hal qilishi mumkin. Tarbiyachi bolalar chopishganda, bir-birlarini itarmasliklarini kuzatib turishi kerak.

O‘YINNING MAQSADI. Bolalarning intizomliligini, kuzatuvchanligini va to‘g‘ri, qoida bo‘yicha harakat qilishlarini tarbiyalash.

Turnalar

O‘yingga tayyorlanish: o‘ynovchilar bir necha guruhga bo‘linadilar. Har qaysi guruhda bittadan “bo‘ri” tayyorlanadi. Qolgan bolalar “turna” bo‘ladilar.

O‘YIN TASVIRI. Har bir guruhda bolalar bir-birlarining bellarini ushlab zanjir hosil qiladilar. Zanjir boshida turgan boshqaruvchi “bo‘ridan” bir metr masofada turadi va va quloch yoyib “turnalarni” himoya qiladi. Bo‘ri zanjir “turnani” ushslashga harakat qiladi. Barcha “turnalar” oldinga “turna” harakatiga qarab, uning orqasiga yashirinadilar. Agar “bo‘ri” ohirgi turnani ushlab olsa, u vaqtida yangi boshqaruvchi “turna” saylanadi.

O‘YIN QOIDASI. Eng oldinda turgan boshliq “turna” istagan yo‘nalishda harakat qila oladi. 2. “Bo‘ri” eng oldingi “turnaga” qo‘l tekkiza olmaydi. 3. Agar zanjir uzilib ketsa, qo‘lini qo‘yib yuborgan “turna”, “bo‘ri” rolini bajaradi.

O‘YINNING MAKSADI. Uyin koidalariga rioya kilishga, jamoa bulib uynashga urgatadi. Ziyaraklikni, kuzatuvchanlikni, chakkonlikni tarbiyalaydi.

O‘yinchoqni top

Bola kuzini yumib turadi. Shu vaktda tarbiyachi uyinchoqni yoki biron predmetni yashirib kuyadi.” Uyinchoqni kidir” deyishi bilan bola kuzini ochib, uyinchoqni kidira boshlaydi. Uyinchoqni topgandan keyin, uyin boshkatdan boshlanadi. Uyin 4-5 marta takrorlanadi.

O‘YIN MAQSADI. Kuzatuvchanlikni, chidam va tokatni ustirish.

⁷ Татар халк ўинни, “Детские подвижные игры...”.

Ro‘molchani top

Bolalar doira shaklida utirishadi, ularning orasi 2-3 kadam masofada buladi. Boshkaruvchi doira tashkarisida koladi. U kuliga rumolcha yoki chupcha olib doira buylab bolalar atrofida aylanadi. Shu vaktda u bolalarga bildirmasdan, doirada utirgan bolaning ustiga rumolchani kuyib, yugurishni davom etadi. Rumolcha orkasida kuyilgan rumolchani sezib kolsa, rumolchani olib boshkaruvchining orkasidan yuguradi. Boshkaruvchi esa bush kolgan joyga utirib olishga xarakat kiladi. Agar u bush joyni egallab ulgursa rumolchani olgan bola boshkaruvchi rolini bajaradi.

O‘YIN QOIDASI. Doira atrofida utirgan bolalar orkalariga karamasliklari va boshkaruvchi rumolchani kimning orkasiga kuyganlikning aytmasligi kerak. Rumolchani olgan bola boshkaruvchinig orkasidan kuvlar ekan rumolchani boshka bola orkasiga kuyishga xarakat kilishi kerak. Uyin kupchilik bolalar ishtirok etishigacha davom etadi.

O‘YIN MAQSADI. Kuzatuvchanlikni, diqqat va sezgirlikni oshiradi.

Predmetni izlab top

Maydoncha (xona)da ikkita predmetni yashirib ko‘yiladi. Undan oldin belgilangan bola maydon bo‘ylab chopib yuradi. Predmet yashirilgandan keyin, bolaga signal beriladi. Tarbiyachi yashirilgan predmetni yoniga kelib chapak chaladi va ashula aytadi. Shu vaktda bola tuxtaydi va yashirilgan predmetni qidira boshlaydi. Agar predmetni topa olmasa maydoncha bo‘ylab yugurishni yoki sekin yurishda davom etadi. Yana tarbiyachi chapak chalganda yoki ashula aytganda to‘xtaydi va predmetni qidira boshlaydi. Predmetni baland ko‘tarib tarbiyachining yoniga keladi va tarbiyachi bilan yura boshlaydi. Uyin 5-10 min davom etadi. Uyinni komandalarga bo‘lib o‘tkazish ham mumkin. Har ikkala komandadan bittadan bola chikib, predmedlarni qidirishadi. Predmetlarni birinchi bo‘lib topgan bolaning komandasini yutgan hisoblanadi.

O‘YIN MAQSADI. Chidamlilik, kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqat turini, sezgirlikni tarbiyalash.

Ko‘r ayiq

O‘ynovchilar ma’lum doira ichidan joy olishadi. Har qaysi o‘yinchining qo‘lidi ikkitadan tayokchalar. O‘ynovchilar o‘z orasidan ayiqni saylashadi va kuzini rumol bilan boylashadi. Bolalar tayoqchani bir-biriga urib tovush chiqarishadi. Ayiq polvon tovush chiqqan tomon borar ekan, o‘ynovchilardan birini tutishga harakat qiladi. Kimni tutsa o‘sha bola ayiq polvon bo‘ladi.

O‘YIN QOIDALARI. Ayiq polvon ko‘zini ochmasligi,o‘ynovchilar esa doira chegarasidan chiqmasligi kerak. Agar ayiq polvon ancha vaqt hechkimni tutolmasa o‘ynovchilar ichidan yangi ayiq polvon saylanadi.

Tayoqchani izlab topish

O‘yin qatnashchilari uzun yog‘ochning ikki tomoniga turib, ko‘zlarini yumishadi. Boshqaruvchi qisqa tayoqchani(uzunligi 10sm) olib chetga uloqtiradi. Hamma tayoqchani qayerga tushganiini diqqat bilan tinglab turishadi. “Qidiringlar” deyishi bilan bolalar tayoqchani qidira boshlaydilar. Tayoqchani topgan bola sekingina, sezdirmasdan yog‘och yoniga kelib, tayoqcha bilan yog‘ochga taq-taq qilib uradi. Bu bola yutib chiqqan hisoblanadi. Agar bolalar tayoqcha kimdaligini sezib kolishsa, uni tutishga harakat qilishadi. U vaqtida ushlagan bolaga tayoqcha o‘tadi. Endi u tayoqchani olib boshqa bolalardan qochadi.

O‘YIN QOIDASI.ushlangan bola juda tezlik bilan boshqa bolalarga tayoqchani berishi shart.

To‘p bilan o‘ynaladigan uyinlar

Kichkiina bolalar to‘p bilan o‘ynashni juda yoqtirishadi.lekin ularning harakatlari asosan bir xilda ijro etiladi. Shuning uchun ham, tarbiyachining asosiy vazifasi bolalarni kerakli, zarur bulgan harakatlarni bajarishga ya’ni ilib olish va irg‘itish, ushlab olish va belgilangan joyga tushurish (setkaga to‘g‘ri tushurish)ga o‘rgatishdir. Quyidagi biz tavsiya qilayotgan o‘yin va mashqlar bolaning chamalab olish, harakat koordinatsiyasini boshqara olishini, fazoda mo‘ljal ola bilishini, chaqqonlik va epchilligini tarbiyalaydigan turli muskullarni mustahkamlaydigan mashg‘ulotlar bazasida tashkil topadi. Bu o‘yin va mashqlarni sifatli natija berishi tarbiyachinig mahoratiga, tajribasiga va ijodiy yondashishiga yordam beradi. Tarbiyachi o‘yining turli metod va usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, shunday formalardan biri: “to‘p maktabidir” . “to‘p maktabi” da olib boriladigan o‘yin va mashqlar asta –sekin va sistemali ravishda mo‘rakkablashib boradi. Albatta, o‘yinni guruh bolalarining yoshi, individual xususiyatlari hisobga olgan holda o‘tkazish zarur.

Quyidagi kichkintoylar uchun “To‘p maktabi”dan uncha murakkab bo‘limgan o‘yin va mashqlar guruhsini tavsiya etamiz:

1. guruh mashqlari:

1. To‘pni ilib otish, ikki qo‘l bilan ushlab olish.
2. To‘pni yuqoriga ilib otish, chapak chalish va ilib olish.
3. To‘pni erga urib olish va ikki qo‘llab ilib olish.
4. To‘pni erga urib olish, chapak chalish va ushlab olish.

2. guruhi mashqlari:

1. To‘pni devorga urib olish, va ikki qo‘llab ilib olish.
2. To‘pni devorga urib olish, chapak chalish va ushlab olish.
3. To‘pni devorga urib olish, erga sakragach, ikki qo‘llab ushlab olish.
4. To‘pni devorga urib olish, chapak chalish, to‘p erga tushib sakragach, ikki qo‘llab ushlab olish.

To‘pni uzoqroqqa irg‘it

Bola erga chizilgan chiziq ustida turgan holatda to‘pni oldinga qarab irg‘itadi. To‘p tushgan joyni tarbiyachi belgilab qo‘yadi va bolaga to‘pni yana irg‘itishni taklif etadi. To‘pni irg‘itish harakati to‘pning katta-kichikligiga bog‘liq bo‘ladi. Agar to‘p katta bo‘lsa, bola uni ikki qo‘llab ushlaydi va yuqoriga ko‘tarib, bosh ustidan zarb bilan irg‘itishi lozim. Agar to‘p kichikroq (bir qo‘lga sig‘adigan to‘p) bo‘lsa, bola uni bir qo‘liga olib, pastdan yuqoriga ko‘targan holda siltab irg‘itishi lozim. Bola harakatni ijro etgandan keyin, tarbiyachi uni rag‘batlantiradi va yana bir marta takrorlashni taklif etishi mumkin. O‘yinni komandalarga bo‘lib o‘tkazish ham mumkin.

To‘pni ilib ol

Tarbiyachi 1,5-2 m. uzoqlikda turgan holda to‘pni ushlagani deb engilgina qilib irg‘itadi. Bola to‘pni shu on ilib olishi va yana tarbiyachiga qaytarib otishi kerak, o‘yin vaqtida tarbiyachi: “Ushla, irg‘it, tushirma, ehtirot bo‘l, balli, juda yaxshi” – degan so‘zlar bilan bolaning harakatlarini boshqarib boradi. O‘yin 4-5 marta takrorlanadi. O‘yinda guruhdagi bolalarning hammasi qatnashishi lozim.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachi tomonidan aytildigan har bir so‘z muloyim, qilib, sekin ovoz bilan aytilishi va bolaning bajaradigan harakatlariga to‘g‘ri kelishi kerak. Bolaning to‘pni ushlab olish va irg‘itish ko‘nikmalarining mustahkamlanib borishiga qarab, bola bilan tarbiyachining orasidagi masofa uzoqlashib boradi. (1,5 metrdan to 20-30 metrgacha). Agar ikki tomon o‘zaro to‘pni bir-biriga otishib va ilib olishib o‘ynashganda, tarbiyachi ularning harakatlarini kuzatib borishi kerak. Noto‘g‘ri bajarishgan harakatlarni to‘g‘irlab borishi lozim. To‘pni ilib olganda, bola qo‘llarini oldinga cho‘zib, to‘pni ilib olishini uqtirib turadi.

To‘pni ilib ot va ilib ol

Bola to‘pni yuqoriga qarab otishi va ilib olishi kerak. Bola bu harakatni bajarganda, tarbiyachi uning necha marta irg‘itishi va ilib (to‘pni tushurmaslikka harakat qilishi lozim) olishini sanab turadi. Bolalarni komandalarga bo‘lib ham o‘yinni o‘tkazish mumkin. Har bir bola bajarishi kerak bo‘lgan harakatlarni 2-3 marta takrorlaydi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinni quyidagi mashqlar bilan bajarish mumkin: to‘pni yuqoriga qarab irg‘itish: to‘pning erga to‘shishini kutish va erga tushib urilgach uni tutib olish. To‘pni erga urib olish, ushlab olish va yuqoriga irg‘itish va yana ilib olish va xokazolar.

To‘pni baland qilib irg‘it

Bola to‘pni iloji boricha balandga qarab irg‘itadi. Bolalarni qiziqtirish uchun tarbiyachi “qani kim to‘pni yuqoriga qarab irg‘itadi” deydi. Tarbiyachi bolaning necha marta to‘pni irg‘itishini va ilib olishini sanab turadi. Agar bola tupni tushirib qo‘ysa boshqa bola o‘yinga qiradi. O‘yin 4-5 marta takrorlanadi. Bu o‘yinda bolaning diqqati, ixtiyoriy xarakatlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Ip ustidan irg‘itish

O‘ynovchi tarang qilib ip tortilgan ikki qo‘lini ko‘tarib turgan bolaning qarshisida turadi va to‘pni shu ip ustidan irg‘itadi. O‘ynovchi va ip ushlagan bola orasidagi masofa 1,5 m keladi. O‘ynovchi to‘pni ikki qo‘llab bosh ustidan ipga tekkizmasdan ip ustidan oshirib irg‘itadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi. Tarbiyachi ip ushlagan bola orqasida turib to‘pni ilib olishi va o‘yinchiliga bola yana qaytadan “ilib ol” deb irg‘itishi mumkin. U bolalarni harakatini kuzatib boradi va qilgan xatolarini aytib turadi.

To‘g‘ri mo‘ljalga ol

Bola (o‘yinchiliga) bo‘lmagan to‘pni oladi va avvaldan belgilab qo‘ygan chiziqdandan turib, to‘pni 1,5-2 m uzoqlikda turgan yashchik yoki katta kuti ichiga qarab irg‘itadi. O‘yin 4-5 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMA. O‘yin boshida tarbiyachi to‘pni muljalga 3-4 marta tushurish kerakligini aytadi. O‘yin musoboqa formasida, ikki komandaga bo‘lib ham o‘tkazishi mumkin. Mo‘ljalga ko‘proq tushirgan komanda yutgan hisoblanadi. Bolalar to‘pni irg‘itayotganda belgilangan chiziqdandan chiqmasligi tayinlanadi.

Obruchga tushurgin

Bola buyi qatori obruch quyiladi. (TARBIYACHINING O'ZI SHU BALANDLIKDA obruchni ushlab turishi mumkin). 1,5 m uzunlikda chiziq chizib qo'yiladi. Bolalar shu chiziqda turib to'pni obruch ichiga qarab irg'itadi. Agar bola hech bir qiyalmasdan to'pni obruch ichiga tushirsa ular orasidagi masofani yanada uzoqlashtirish bilan o'yin murakkablashtirilishi mumkin.

Predmetlarni irg'itib o'ynaladigan o'yinlarning hammasida, bolalarning bir qo'llab qanday irg'itsalar, ikkinchi qo'li bilan ham shunday irg'ita olish ko'nikmalarini o'stirib borish zarur. Lekin, chap qo'l bilan mo'ljalga olib irg'itish ancha qiyin. Shuning uchun chap qo'l bilan irg'itishda ilib olishda mo'ljallangan masofasi 0,5m. bo'lishi kerak. Bola chap qo'l bilan irg'itish malakasini hosil qilgach masofa sal uzunroq bo'lib borishi mumkin.

O'RTA GURUHDA OLIB BORILADIGAN HARAKATLI O'YINLARNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Besh yoshli bolalar uch to‘rt yoshli bolalarga nisbatan ancha mustaqil va faol bo‘ladilar. Ularning harakatlari ancha chaqqon, izchil, epchil bo‘ladi. Hayot tajribalari nisbatan keng va mazmunli bo‘lib, narsa va predmetlar, fazo bo‘shlig‘ida o‘zining turgan joyini aniqlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ularni endi oddiy harakatlar o‘zi qoniqtirmaydi, balki harakatlarning natijasi qiziqtiradi: tez va chaqqon yuradi, chopadi, kim uzoqroq sakraydi, to‘pni ilib oladi va hokazolar. Shuning uchun ham besh yoshli bolalar bilan harakatli o‘yinlar tashkil qilganda, bu o‘yinlar ancha murakkab va mazmunli bo‘lishi lozim. Qo‘yiladigan talabalar ham ancha murakkablashadi. O‘yin jarayonida qo‘yiladigan talabalarni, o‘yin qoidalarini bolalar so‘zsiz bajarishlari talab qilinadi. Besh yoshli bola ko‘p harakat qilishni, tez chopishni, jamoa bo‘lib o‘ynashni va musobaqa elementlari bor o‘yinlarni ko‘proq yoqtiradi. “Dastur” asosida harakatli o‘yinlar (to‘p, doira, sakraydigan ip, bayroqchalar va boshqalar) predmetlar bilan tashkil qilinadi. Lekin, bola har qancha mustaqillik namoyon qilmasin, tarbiyachi har doim bola o‘yiniga rahbarlik qilib borishi lozimdir. Chunki bola hali mustaqil o‘zi tashkil qila olmaydi, rollarni bo‘lishda, o‘yin qoidalariga bo‘ysunishda, harakatlarni to‘g‘ri bajarishda ojizlik qiladi. Yaxshi tashkil qilingan harakatli o‘yinlar, bolaning jismoniy sog‘lom bo‘lib o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadi, to‘g‘ri idrok qila bilish, kuzatuvchanlik, esda saqlab qolish, ya’ni faol qobiliyatni tarkib toptiradi. Shu bilan birga o‘z muvozanatini saqlay olish, harakatlarini idora qila bilish, epchil va chaqqon harakatlar qila bilish qobiliyatini o‘stiradi va takomillashtiradi. Quyidagi tasvirlangan o‘yinlarning barchasi “Dastur” mazmunini tashkil qiladi.

Hurmatli kitobxonlar bu kitobda harakatli o‘yinlarning turlari, mazmuni va olib borish metodikasi bilan tanishasizlar.

Yugurish o‘yinlari

Samolyotlar

O‘yin sport zali yoki sport maydonida o‘tkaziladi. Qatorning turishi samolyot shakliga o‘xshagan bo‘lishi kerak. Rahbarning: “Uchishga tayyorlaning!” - degan signali bilan bolalar qo‘llarini samolyot paraklariga o‘xshatib harakatlantiradilar. “Uchinglar!” komandasi berilganda esa, bolalar quloch yozib har tomonga yugurib ketadilar. “Samolyotlar, erga qo‘ninglar!” komandasi bo‘lganda esa, o‘ynovchilar o‘z joylarini topib, qatorga turadilar. Rahbar qaysi qator tezroq saf tortgani va qaysi bola o‘z o‘rnini egallaganini kuzatib turadi. Birinchi bo‘lib, o‘z joyini topgan bola birinchi o‘rinni egallaydi.

KO‘RSATMALAR. O‘ynovchilar faqat “Uchinglar!” komandasi berilgandan keyingina parvoz qilishlari mumkin.

Uysiz quyon

Ikki boshqaruvchidan boshqa o‘yinchilar 3-5 kishilik guruhlarga bo‘linadilar. Har qaysi guruh qo‘l ushlashib aylana hosil qiladi. Aylanalar maydonchaning har er har erida bir-biridan 3-6, qadam narida bo‘ladi. Har qaysi aylana uy hisoblanib, uning o‘rtasiga birinchi raqamli o‘yinchilar turib, quyon nomini oladilar. Boshqaruvchilardan biri ovchi, ikkinchisi esa uysiz quyon bo‘ladi. Tarbiyachining signali bilan uysiz quyon ovchidan qochib ketadi va u o‘zi yashagan uyaga kirib olishi mumkin, ammo u erdag'i quyon tezda qochib chiqishi lozim, ovchi bo‘lsa, undan chiqqan quyonni ta’qib qilishda davom etadi. Ovchi quyonni tutib olsa, u holda ular o‘rin almashadilar.

KO‘RSATMALAR. Ovchi quyonga qo‘lini tegizgandan keyin u tutilgan hisoblanadi. Quyon uzoq vaqt uyaga kirmasdan qochib yurishi mumkin emas.

O‘rmondag'i ayiq

Maydonchaning bir tomonida ayiq ini chizib qo‘yiladi. Ikkinci tomonda bolalar yashaydigan uy aks ettiriladi. Tarbiyachi inida o‘tiradigan ayiqni tanlaydi: “Bolalar, boringlar, o‘ynab kelinglar!”, - deyishi bilan bolalar uylaridan chiqib, o‘rmonga o‘ynagani ketadilar, qo‘ziqorin teradilar, kapalak to‘tadilar va hokazo (engashadilar, rostlanadilar va boshqa shu singari taqlidiy harakatlarini qiladilar). Ular xor bo‘lib, quyidagicha ashula aytadilar:

*Ayiq ini oldida,
Qo‘ziqorin teramiz,
Ayiqvoy o‘kirganda,
Bizlar qochib ketamiz.*

“O‘kirganda” so‘zidan so‘ng ayiq uylariga qochib ketayotgan bolalarni quva boshlaydi. Ayiqning qo‘li tekkan bola tutilgan hisoblanadi: ayiq uni o‘z iniga olib borib qo‘yadi.

Uy chegarasidan o‘tgandan keyin bolalarni ushslash mumkin emas. Ayiq bir necha o‘yinchini tutib olgandan keyin o‘yin yana boshqatdan boshlanadi. Endi ayiq vazzifasiga boshqa bola tayinlanadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinning boshqacha ikkita ayiq bilan o‘ynaydigan turi ham bo‘lishi mumkin.

O‘z juftingni top

Tarbiyachi bolalarga har xil rangdagi bayroqchalardan bittadan tarqatib chiqadi. Ishora bo‘yicha – childirma ovozi chiqishi bilan yoki chapak chalinishi bilan bolalar bayroqchalarni boshlaridan yuqori ko‘tarib, xilpiratib yugurib ketadilar. Keyingi signal bo‘yicha, ya’ni childirma bir necha zarb berib urilganda

yoki ketma-ket chapak chalinganda yoki “o‘z juftingni top” degan so‘zlar aytilishi bilan bir xil rangdagi bayroqchali bolalar juft-juft bo‘lib, o‘zlariga sherik topib oladilar. Har bir juft erkin qandaydir shaklni aks ettirib turadi. O‘z juftini topolmay qolgan bolalarga qarab barcha o‘ynovchilar baravariga shunday deb murojaat qiladilar:

*Ha, bo‘l Ahmad anqayma,
Sherik tanla, lallayma.*

Shundan keyin bolalar maydon bo‘ylab yana yugurib ketadilar. O‘yin 5-6 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinda o‘yinchilar soni toq bo‘lishi ham mumkin, u holda tarbiyachi o‘yinda ishtirok etadi. Tarbiyachining qo‘lida hamma rangdagi bayroqchadan bo‘lishi kerak. O‘yin takrorlangan vaqtida u bir necha bolaning bayroqchasini almashtirib beradi. O‘yinda ishtirok etayotgan bolalar signal bo‘yicha o‘zlariga har xil sheriklar tanlashlari kerak.

Otlar

Bolalar teng ikki zvenoga bo‘linadilar. Bir hillari toychalarni ifoda etsalar, boshqalari otboqar vazifasini bajaradilar (otboqarlarning qo‘lida jilov bo‘ladi). Maydonning bir tomonida otxona chizilib, toychalar o‘sha erda turadi. Ikkinci tomonda otboqarlar uchun joy belgilab qo‘yiladi, maydon esa o‘tloq bo‘ladi. Tarbiyachi: “Otboqarlar, tezroq o‘rningizdan turingiz, otlarni egarlangiz”, - deydi. Mana shu signal bo‘yicha otboqarlar otxonaga qarab yuguradilar va otlarni egarlaydilar (har bir otni istagi bo‘yicha tanlaydi yoki tarbiyachining ko‘rsatmasi bo‘yicha harakat qiladi).

Egarlangan otlar bir-birining orqasidan ketma-ket turadi va signal berilishi bilan sekin yurib ketadi, yuguradi yoki lo‘killab chopadi. Tarbiyachining “Etib keldi, otlarni bo‘shatinglar!” – deyishi bilan otboqarlar to‘xtaydilar, otlarning egar – jabduqlarini echib oladilar va uni o‘tloqqa qo‘yib yuboradilar-da, qaytib o‘z joylariga kelib turadilar. Otlar o‘tloqda sekin o‘tlab yuradilar, qirt-qirt o‘t yuladilar. “Otboqarlar, otlarni egarlangiz!”, - degan signal berilishi bilan yana har bir otboqar o‘z otini tutib keladi (ot qochishga harakat qiladi, uning qo‘lidan chiqib ketmoqchi bo‘ladi). Barcha otlar tutib kelib egarlangach, bir-birining ketidan saf bo‘lib turadilar va o‘yin qaytadan tiklanadi. O‘yin uch-to‘rt marta takrorlanadi. Shundan keyin tarbiyachi: “Otlarni otxonaga olib borib qo‘yingiz, endi ular dam olishsin”, - deydi. Otboqarlar otlarni otxonaga olib boradilar va egar jabduqlarini echib oladilar.

KO‘RSATMALAR. O‘yinda yugurishni yurish va boshqa har xil sakrash harakatlari bilan almashtirib turish kerak. Turli harakatlarga taklid qilish bilan o‘yinni rang-barang qilish mumkin: poyga o‘tkazish, o‘rmonga o‘tin kesgani

borish. Agar otlardan birortasi otboqarga hadeb tutqich beravermasa uni tutishda yordam berish kabilar.

Shiqildoqni chal

5-6 bola maydonchaning bir tomonida bir qator bo‘lib turib oladilar. Qarama-qarshi tomonda skameykada (to‘sinda) bir-biriga teng oraliqda shiqildoqlar qo‘yilgan (bolalar soniga qarab). Tarbiyachining signali bo‘yicha (bir, ikki, uch... chop), bolalar shiqildoqlar tomon chopadilar, ularni boshlari ustiga ko‘tarib shaqillatadilar. Kim birinchi kelgan bo‘lsa, o‘sha bola hisobga olinadi. Keyin bolalar joylariga qaytadilar va boshqa bolalar chiqadilar. O‘yin boshqatdan boshlanadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. O‘yinni murakkablashtirish mumkin: to‘sislarni kesib o‘tish bo‘yicha topshiriq berish mumkin – arqonning ustidan o‘tish yoki tagidan o‘tish, obruchning ichiga kirish, yo‘lga qo‘yilgan keglilardan chopib o‘tish.

Qushlar va mushuk

Yerga doira shakli chizib qo‘yiladi. (diametri 5-6 metr). Doiraning markazida tarbiyachi tanlagan bola – mushuk turadi. Qolgan bolalar doiradan tashqarida turishadi – ular qushchalar bo‘lishadi. Mushuk uxbol qoladi, qushchalar doira ichiga kirib don cho‘qishadi. Mushuk uyg‘onib qoladi, qushchalarni ko‘radi va ularni tuta boshlaydi. Qushchalar doiradan uchib chiqishga shoshiladilar. Mushukning qo‘li tekkan qushcha (o‘ynovchi) tutilgan hisoblanadi va doiraning o‘rtasiga borib turadi. Mushuk 2-3 qushchani tutgandan keyin tarbiyachi yangi mushuk tayinlaydi. Tutilgan qushchalar barcha o‘ynovchilarga qo‘shilib ketadilar. O‘yin 4-5 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Mushuk qushchalarini ehtiyoj bo‘lib tutadi (ularni changallab olmay, faqat qo‘lini sal tegizib qo‘yadi). Agar mushuk ancha vaqtgacha hech kimni tuta olmasa, tarbiyachi unga yordam berish uchun yana bitta mushuk tayinlaydi.

Qopqonlar

O‘yin maydon yoki sport zalida o‘tkazilishi mumkin. Ikki bola qo‘lini yuqori ko‘tarib, bir-biri bilan qo‘l ushlashib, “qopqon” bo‘lib turadilar. “Rahbar” qator oldida turib, safdagi bolalarni “qopqon” tagidan olib o‘ta boshlaydi va “bir, ikki, uch”, - deb komanda berib turadi. “To‘rt”, - deganda “qopqon” yopiladi. Tutilgan bolalardan yangi “qopqon” yasaladi. O‘yin davomida (ma’lum muddatda) biron marta qopqonga tushmagan birinchi o‘rinni egallaydi.

KO‘RSATMALAR. “To‘rt”, - deyilgandan so‘ng “qopqon”ni uzib o‘tish man etiladi.

Rangli avtomobillar

Bolalar xona devori bo‘ylab turadilar. Bu garajdagi avtomobillar bo‘ladi. O‘yinda ishtirok etayotgan har bir kishining qo‘lida bayroqcha (qalpoq, kartondan yasalgan ko‘k, sariq yoki yashil rangdagi doira) bo‘ladi. Tarbiyachi xonaning markazida o‘ynovchilarga qarab turadi. Unda tegishli rangdagi uchta bayroqcha bo‘ladi. U bayroqchalardan birini (ba’zan ikkita yoki har uchala bayroqchani ham ko‘tarishi mumkin), - mana shu rangdagi narsasi bo‘lgan bolalar maydoncha bo‘ylab yugurib ketadilar, yurib borayotgan avtomobilga taqlid qiladilar, “dit-dit” latadilar. Tarbiyachi bayroqchani tushirganidan keyin avtomobillar to‘xtaydi, aylanib buriladi va o‘z garajlariga qarab jo‘naydi. O‘yin 4-6 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Tarbiyachining qo‘lida qizil bayroqcha bo‘lishi ham mumkin. U kutilmaganda qizil bayroqchani ko‘taradi, - barcha avtomobillar bu signal bo‘yicha to‘xtashi kerak.

Sakrash o‘yinlari

Quyonlar bilan bo‘ri

O‘ynovchilar quyonlarni, ulardan biri bo‘rini aks ettiradi. Maydonchaning bir tomonidan quyonchalar o‘z uychalarini belgilashadi. Qarama-qarshi tomonda bo‘ri – jarlikda yashirinadi. Tarbiyachi bunday deydi:

*O‘tloqda quyonchalar,
Dikir-dikir o‘ynashar.
Bo‘ri yo‘qmikin deya,
Asta qarab qo‘yishar.*

Tekstga muvofiq harakat qilib quyonlar uychalaridan sakrab-sakrab chiqadilar, maydoncha bo‘ylab yugurib, dam ikki oyoqlab sakraydilar, dam cho‘qqayib o‘tirib o‘t yuladilar. Tarbiyachi “bo‘ri” so‘zini aytishi bilan bo‘ri jarlikdan sakrab chiqadi va quyonlarni quvlab ketadi. Bo‘ri ularni tutishga (qo‘lini tegizishga) harakat qiladi. Quyonchalar o‘z uylariga qochib ketadilar. Bu erda endi bo‘ri ularni tutishi mumkin emas. Tutilgan quyonlarni bo‘ri o‘z iniga – jarlikka olib ketadi. O‘yin qaytadan tiklanadi. Kelishib olinganiga muvofiq bo‘ri 2-3 quyonni tutgandan keyin bo‘ri vazifasiga boshqa o‘yinchilari tayinlanadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Har bir quyon o‘z inini egallaydi. Quyonlarning umumiy uychasi ham bo‘lishi mumkin. Dastlab bo‘ri vazifasini tarbiyachi ifoda etishi ham mumkin.

Kul rang quyon yuvinyapti

Barcha o‘ynayotganlar davra qurib turadilar. Quyon qilib tayinlangan bola davra o‘rtasida turadi. Bolalar bunday deydilar:

*Quyonjon yuzini yuvar,
Balki mehmonga borar.
Avval burnin,
Keyin og ‘zin, -
Chaydi u rosa.
Quloqlarin ham yuvib,
Artindi toza!*

Quyon tekstga yarasha harakatlar qiladi. Keyin u bolalardan birortasining oldiga ikki oyoqlab sakrab-sakrab keladi. Quyon kimning oldiga kelib to‘xtagan bo‘lsa, o‘sha bola doiraning o‘rtasiga kelib turadi. O‘yin 5-6 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Doirada bir vaqtning o‘zida bir necha quyon 4-5 bola turishi ham mumkin. Ular o‘yin topshiriqlarini baravar bajaraveradilar. Bu bolalar faolligini oshiradi.

Tulki tovuqxonada

Tovuqlar tovuqxonadagi qo‘noqdan joy oladilar (bolalar maydonchaning bir tomoniga qo‘yilgan stillarda turishadi). Maydonchaning qarama-qarshi tomonida tulkinining ini bo‘ladi. Maydonchaning qolgan barcha qismi hovli hisoblanadi. Tulki inida o‘tiradi, tovuqlar esa hovli bo‘ylab yuradilar, yuguradilar, qanot qoqadilar, don chuqiydilar. Tarbiyachining “Tulki!” degan signali bo‘yicha tovuqlar qochib ketadilar, o‘z inlariga bekinib oladilar va qo‘noqqa uchib chiqadilar, tulki esa qunoqqa chiqib ulgurmagan tovuqlarni tutib olishga va ulardan birini o‘z iniga olib qochishga harakat qiladi (asta-sekin qo‘lini tegizadi). Tutilgan tovuqni tulki iniga olib ketadi. O‘yin qaytadan tiklanadi. Tulki belgilangan miqdordagi tovuqlarni tutib bo‘lgach, o‘yin tamom bo‘ladi. O‘yin 4-5 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Stillar, kublar va boshqa shu kabi buyumlar qo‘noqsifatida xizmat qilishi mumkin.

Emaklash va tirmashish o‘yinlari

Podachi bilan poda

Bolalar podani ifoda etishadi (sigir, buzoqlar). Podachi tayinlanadi. Unga podachi kiyadigan telpak, qo‘liga tayoq va qo‘bizcha beriladi. Poda molxonada to‘planadi. Podachi uzoqroqda turadi. Tarbiyachi bunday deydi:

*Cho ‘pon ertalab turib,
Karnay chalar: “Du-du-du-du!”.
Sigir – buzoq jo ‘r bo ‘lib,
Ma ’rashar: “Mo-mo-mo-oo!”.*

“Du-du-du-du” ovozini eshitishi bilan podachi qo‘liga nayni olib chala boshlaydi. “Mo-mo-mo-oo!” tovushidan keyin buzoqlar ma’rashadi. Keyin bolalar cho‘kkalab turishadi va podachi tomon emaklab borishadi. U sigir – buzoqlarni dalaga (maydonchaning narigi tomoniga) haydaydi. U erda poda bir oz boqilgach, podachi ularni yana molxonaga qaytaradi.

KO‘RSATMALAR. O‘yin uchun keng joy kerak. Bolalar bir joyda g‘uj bo‘lib turmasliklari lozim.

Mushukchalar va kuchuk bolalar

Bolalar ikkita zvenoga ajralib mushuk va kuchuk bolalari bo‘ladilar. Mushuk bolalari gimnastika devori oldida, kuchuk bolalari esa maydonning boshqa tomonidagi gimnastika skameykasi ortidagi uychalarida o‘tiradilar. Tarbiyachi mushukchalarga engil va asta yugurishni taklif etadi. “Kuchukchalar!” signal bo‘yicha esa kuchuk bolalari skameykadan oshib o‘tib, mushukchalar tomon “vov-vov”, - deb, yuguradilar. Shu vaqt mushukchalar esa “miyav”lab gimnastika devori tomon yugurib unga tirmashadilar. Kuchukchalar esa uylariga qaytadilar. 2-3 o‘yindan so‘ng bolalar rollarini almashtirib o‘yinni davom ettiradilar.

KO‘RSATMALAR. O‘yin uchun keng maydon tanlash kerak. Skameyka va gimnastika devorining mustahkamligi tekshirilishi kerak. Agar gimnastika devorchalarining pog‘onalari kam bo‘lsa, o‘yinga hamma bolalarni taklif qilish shart emas.

Qushlar uchadi

Bir gala qushlar maydonchaning bir chetiga to‘planadi (bolalar tarqalib turishadi), ular bir nechta zinapoyasi bo‘lgan gimnastika devorchasi qarshisida turishadi. Tarbiyachining “Qani uchaylik!” degan signali bilan qanot qoqadilar va maydoncha bo‘ylab uchib ketadilar. “Bo‘ron” degan signali berilishi bilan qushlar daraxtlarga tomon uchadilar (devorchalarga chiqadilar). Tarbiyachi: “Bo‘ron tindi” deyishi bilan qushlar daraxtlardan sekin, yana ucha boshlaydilar. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Gimnastika devorchasidan tushayotganda sakrash mumkin emas. Agar devorcha zinapoyalari kamroq bo‘lsa, o‘yinga barcha bolalarni baravar jalg qilmaslik kerak. Devorcha o‘rniga stul, skameyka va boshqa buyumlardan ham foydalanish mumkin.

Uloqtirish va ilish o‘yinlari

Ot-il

Bolalarning har biri qo‘liga bittadan koptok ushlab xona yoki maydoncha bo‘ylab tarqalib turishadi. Tarbiyachining “Boshlang!”, - degan ishorasi bo‘yicha bolalar qo‘llaridagi koptokini tepaga irg‘itib, uni yana ilib ola boshlaydilar. Har bir bola koptokni necha marta erga tushirmsandan ilib olishini sanaydi.

KO‘RSATMALAR. Bolalarni ikkita-ikkita qilib turg‘izish ham mumkin. Ba’zilari koptokni otib-ilib tursalar, boshqalari sanab turadilar, yoki o‘ynovchilardan bir-ikkitasi davra o‘rtasiga chiqib, koptokni tashlab berib turadi. Hamma bolalar topshiriqning to‘g‘ri bajarilishini kuzatib turadilar. Bu o‘yinni musobaqa tariqasida ham tashkil qilish mumkin: koptokni kim ko‘p otib, ko‘p ilib olish uchun musobaqa o‘tkaziladi. Quyidagi mashqlarni kiritish ham mumkin: koptokni tepaga irg‘itgach erga tushishini kutib turish, erga urilib qaytib chiqqandan so‘ng ilib olish, koptokni erga urib ilib olish, koptokni tepaga balandroq otib, chapak chalish va koptokni ilib olish, koptokni tepaga otish, tezda chir aylanish va koptok erga urilib chiqqach, uni ilib olish.

Koptokni teshikdan o‘tkaz

O‘ynovchilarning kichik bir guruhi (2-8 kishi) bolaning tepada qo‘li bilan tortib turgan to‘rning ikki tomonida (to‘rdan kamida 1-1,5 m masofada) turadi. Keyin bolalar koptokni bir-birlariga ota boshlaydilar. Agar o‘yinda to‘rt va undan ortiq bola qatnashayotgan bo‘lsa, bir bola koptokni to‘rdan oshirib irg‘itadi, koptokni tutib (ilib) olgan bola uni o‘z yonidagi sheringiga tashlaydi, u esa koptokni yana to‘rdan oshirib otadi.

KO‘RSATMALAR. O‘ynovchilar koptokni o‘yin sharti bo‘yicha to‘rdan muayyan usul (ikki qo‘llab pastdan yoki boshdan) bilan oshirib tashlaydilar.

Komandalar o‘zaro bir-birlari bilan musobaqalashadilar: tarbiyachi yoki bolalardan birortasi to‘rning qaysi tomonida koptok ko‘proq erga tushganligini hisoblab boradi.

To‘qmoqni (ur) yiqit

O‘ynovchilar chiziqning narigi tomonida turadilar, chiziqdan 2-3 m. narida har bir bola qarshisiga to‘qmoq qo‘yiladi. Bolalarning qo‘llarida koptok bo‘ladi. Bolalar signal bo‘yicha qo‘llaridagi koptokni to‘qmoqqa qarab yumalatib, uni urib yiqitishga harakat qiladilar. Navbatdagi signal berilishi bilan ular borib koptoklarni olib keladilar, yiqitilgan to‘qmoqlarni turg‘azib qo‘yadilar. O‘yin takrorlanadi. Har kim o‘zicha to‘qmoqni necha marta urib yiqitilganligini hisoblab boradi.

KO‘RSATMALAR. O‘yin topshirig‘ini har xil qilib berish kerak. Koptokni o‘ng qo‘l bilan, chap qo‘l bilan, ikki qo‘llab yumalatish lozim. Koptokni oyoq bilan yumalatib yuborish ham mumkin.

Bo‘shliqda chamalash o‘yinlari

Kim ketdi

Bolalar davra qurib yoki yarim doira shaklida turadilar.

Tarbiyachi o‘yinda qatnashayotgan bolalardan biriga o‘z yonida turgan (5-6) bolalarni eslab qolishni, keyin honadan chiqib turishni yoki burilib ko‘zini yumib turishni taklif qiladi. Bolalardan biri yashirinib oladi. Keyin tarbiyachi: “Qani, topchi, kim yo‘q?”, - deydi. Agar bola topsa, uning o‘rniga boshqa bola tayinlanadi. Agar topa olmasa, yana o‘girilib turadi va yashiringan bola joyiga qaytib turadi. Keyin topuvchi bola uning nomini aytishi lozim. O‘yin 4-5 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Bolalar safdan chiqib, yashiringan kim ekanligini aytib bermasliklari kerak. Hech kim yashirinmasligi ham mumkin. U holda qidirib topuvchi bola hamma joy-joyida turganligini aytishi kerak.

Qayerga yashirilganini top

Bolalar xona bo‘ylab turadilar. Tarbiyachi bolalarga bayroqchani ko‘rsatib, hozir uni yashirib qo‘yishni aytadi. Bolalar o‘girilib, yuzlarini devorga burib turadilar. Tarbiyachi bayroqchani yashiradi va “Bo‘ldi”, - deydi. Bolalar yashirilgan bayroqchani qidiradilar. Bayroqchani birinchi bo‘lib topgan bola o‘yin takrorlangan vaqtida uni yashiruvchi bo‘ladi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Agar bolalar bayroqchani uzoq vaqtgacha topa olmasalar, tarbiyachi yashirilgan joyga kelib turadi-da shu atrofdan qidirib ko‘rishni taklif qiladi. Bayroqchani bola yashiradigan bo‘lsa, tegishli joy topishda unga yordam berish kerak.

Top gapirma

Bolalar maydonchaning bir tomonida yuzlarini tarbiyachi tomonga qaratib turadilar. Tarbiyachining signali bilan ular o‘girilib devorga qarab turadilar. Shu paytda tarbiyachi ro‘molchani yashirib qo‘yadi. Keyin bolalar ko‘zlarini ochishadi, tarbiyachi tomon burilishadi va ro‘molchani qidira boshlashadi. Ro‘molchani topgan bola uni topganligini bildirmasdan sekin tarbiyachining yoniga keladi va uning qulog‘iga ro‘molchaning qayerdaligini aytadida, qatordagi o‘z joyiga kelib turadi (yoki stulga, skameykaga kelib o‘tiradi).

O‘yin bolalarning ko‘pchiligi ro‘molchani topmaguncha davom etaveradi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

KO‘RSATMALAR. Bolalarga kim ro‘molchani topsa, uni turgan joyidan olmaslik kerakligini va hatto uni topganligini hech kimga bildirmaslikka harakat qilishi zarurligi tushuntirilishi lozim.

Bekinmachoq

Boshqaruchi daraxt, devor yoki biror narsaga yuz o‘girgan holda ko‘zini yumib, qirqqacha sanaydi. Bu vaqtida barcha o‘ynovchilar yashirinib bo‘ladilar. Sanoqdan keyin onaboshi bekingan bolalarni qidira boshlaydi. U o‘ynovchilardan birortasini ko‘rishi bilanoq, uning otini aytib o‘zining dastlabki joyiga yuguradi-da, devor yoki daraxtgaga “falonchi pistonchi joyda” deb chapak chala boshlaydi. Tutilgan bola keyingi o‘yinda boshqaruvchi bo‘ladi. Agar nomi atalgan bola yugurib borib boshqaruvchi oldin uning joyiga turib olsa, yana avvalgi boshqaruvchi o‘z o‘rnida qoladi. Biror marta ham topilmagan (tutilmagan) bola birinchi o‘rnini olgan hisoblanadi. Belgilangan joydan tashqariga chiqib yashirinish mumkin emas.

KO‘RSATMALAR. O‘yin uchun shunday joy tanlash kerakki, u erda bolalar yashiringanda ularni bekitib turadigan narsalar bo‘lsin.

Onaboshi topib, nomi atalgan bola onaboshidan oldinroq, kelib daraxt yoki devorga chappalashga harakat qiladi.

Ermak o‘yinlari

Obruchdan - obruchga (gardish)

Bolalar ikki guruhga bo‘linib, qarama-qarshi tomonga turib oladilar. Ular o‘rtasiga butun maydoncha bo‘ylab doirachalar chizadilar (ular orasidagi masofa turlicha: 10, 20, 30, 40 sm. bo‘lishi mumkin). Tarbiyachi maydonchaning u yoki bu tomonidan bir necha bolalarni chaqiradi. Bolalar doirachadan-doirachaga sakrab, maydonchaning boshqa tomoniga etib boradilar. Hamma ishtirokchilar sakrayotganlar mashqlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarayotganliklarini kuzatib turadilar. Keyin ishtirokchilar sakraydilar.

KO‘RSATMALAR. Vazifani turlicha qilish mumkin: doiradan-doiraga ikki oyoqlab sakrash. Bolalarni ikki komandaga ajratish mumkin va ularga qaysi komanda tez yaxshi sakrayotganini tushuntirish kerak.

Bog‘la ech

Bu o‘yinda 10-12 ta bola ishtirok etadi. Bolalar 2 qatorga parallel bo‘lib, turib oladilar. Komandanidan 2-3 m. uzoqroqda ikkita stulcha qo‘yilgan, stulchalarga rangli lentalar bog‘lab qo‘yiladi. Signal bo‘yicha birinchi turgan bolalar shu lentalarni ehib, o‘zidan keyingi bolaga beradi, o‘zi esa uning orqasiga turib o‘tib oladi. Lentani olgan bola yugurib borib stulchaga lentani bog‘lab ketadi. Boshqa bolalar ham huddi shu vazifani bajaradilar. Boshlovchi bola birinchi bo‘lib tursa, shu komanda yutib chiqqan bo‘ladi.

KO'RSATMALAR. O'yin uchun keng joy tanlanadi. Yugurib kelgan bola qo'lini keyingi bolaga tegizgandan keyingina, u bola yugurishi mumkin. Bolalar lentani qattiq bog'lab qo'ymasliklari kerak.

Koptokni uzat

Ishtirokchilar doira hosil qiladilar, ular orasidagi masofa bir qadam bo'ladi. Tarbiyachi o'ynovchilardan biriga koptok beradi va signal bo'yicha bolalar koptokni doira bo'ylab bir xil yo'nalishda bir-birlariga uzatadilar. Uzata turib shunday deydilar:

*Bir, ikki, uch! Koptokni tez ol!
To'rt, besh, olti! Mana u bu erda!
Yetti, sakkiz, to'qqiz! Kim otishni biladi?*

"Men!"

"MEN!" –degan o'ynovchilar qo'lida koptok bo'lsa doira o'rtasiga chiqib shunday deyishadi: "Bir, ikki, uch – yugur!".

Bolalar turli tomonlarga tarqalib, yugurib ketadilar, boshqaruvchi esa (joyidan qimirlamasdan) ularga koptokni otadi. Koptok qaysi bolaga tegsa, o'sha bola o'yindan chiqib ketadi. Tarbiyachi: "Doiraga tezroq yugur", degandan keyin bolalar doira bo'lib turib oladilar va o'yin boshqatdan boshlanadi. Lekin boshqa tomonga beriladi. O'yindan "chiquan" bolalar, yangi doira hosil bo'lganda o'yinga qatnashadilar.

KO'RSATMALAR. Koptokni faqat tarbiyachining signali bo'yicha berish mumkin. Boshqaruvchi qaysi bolaga koptok bilan tegsa, u tezda belgilangan joyga o'tishi kerak.

O'zbek xalq o'yinlari

Oq terakmi, ko'k terak

Bolalar barobar ikki komandaga bo'linib, zal yoki maydonning ikki qarama-qarshi tomonida saf tortib, komanda a'zolari bir-birlari bilan qo'l ushlashib turadilar. Rahbarning signali bilan komandalardan biri ikkinchi komandaga qarab: "Oq terakmi, ko'k terak?" – deydi. Ikkinci komanda ularga javoban: "Bizdan sizga kim kerak?" – deydi. Birinchi komanda: "falonchi kerak", - deb qarshi komanda bolalaridan birining nomini aytadi. Nomi aytilgan bola komanda tomonga yuguradi. U qo'l ushlashib turgan bolalarning qo'lini uzishi kerak. Agar uzolsa, shu qo'li uzilgan bolalardan birini o'z komandasiga olib ketadi. Agar uza olmasa, o'zi shu komandada qoladi. Belgilangan vaqt ichida qaysi komanda ko'proq bola to'plasa shu komanda yutgan hisoblanadi.

KO'RSATMALAR. Qo'llarni (zanjirni) bir zarba bilan uzish kerak. Takror urinishga yo'l qo'yilmaydi. Zanjir faqat ko'krak bilan urib uziladi. Komanda bir paytda raqib komandaning ikki-uch o'yinchisini chaqirishi mumkin.

Kim tezroq olib keladi⁸

O'yinda 12-15 ta bola ishtirok etadi. O'ynovchilar chizilgan chiziqcha bo'y lab turib oladilar. Tarbiyachi to'pni oldinga otadi. Bolalar chiziqdan o'tib, to'pni tutishga harakat qiladilar. To'pni ushlay olgan bola, to'p bilan chiziq tomon yugurib ketadi. Yo'lda yugurib kelayotganida o'ynovchilardan kimning qo'li tegsa, ushlagan bola koptokni erga tashlashi kerak. To'pni xohlagan o'yinchi olishi mumkin. Kimki to'pni chiziqqacha qo'ldan bermay olib kelsa, u boshqaruvchi bo'ladi va to'pni otish huquqiga ega bo'ladi. Kim ko'p boshqaruvchi bo'lsa, o'sha bola yutgan hisoblanadi.

Bo'ri va echki

Sanoq o'yini bilan bolalar bo'ri va echkini saylaydilar, qolganlari esa cho'pon bo'ladilar. Cho'ponlar qo'l ushlashib aylana bo'y lab harakat qilishadi. Aylana ichida echki o'tlab yuradi. Bo'ri echkini tutishi lozim, lekin echkini tutib olish uchun doira ichiga faqat darvoza orqali kirishi kerak (ikki bola qo'llarini yuqori ko'targan holda harakatda darvozani aks ettirishadi), echki esa, xoxlagan joyida o'tlab yuradi. Bo'ri echkini ushlab olgandan keyingina o'yin qaytadan boshlanadi. O'yin qoidasi: bolalar doira bo'lib, qo'l ushlagan holatda harakat qilishadi. Echki faqat doira ichida o'tlab yuradi. Bo'ri esa echkini faqat doira ichida ushlab olishi shart.

Qo'zichoq

O'yinchi bolalar doira bo'y lab harakat qilishadi, qo'zichoq esa doira ichida turadi. Doira bo'y lab harakat qilishar ekan, bolalar shu gaplarni aytishadi:

*Qo'zichog'im, oppog'im,
Oppoq dumli dumbog'im!
Senga bizlar suv berdik,
Yemish berib o'stirdik.
Sen bizlarni shohlama!
Bizlar bilan o'ynagil!
Va bizni tez ushlagil!*

Bu jumlalarni bolalar aytib bo'lishlari bilanoq, hammasi har tomona qarab yugurib ketishadi. Qo'zichoq ular orqasidan quvlab tutishga urinadi. Tutilgan bola qo'zichoq rolini bajaradi.

⁸ Бу ўйинларнинг ҳаммаси “Детские подвижные игры народов СССР” китобидан олинган. М.: Просвещение, 1988.

O‘YIN QOIDASI: hamma bolalar faqat so‘zlar aytilib bo‘lgandan keyingina har tomonga qochishlari mumkin. O‘yin besh-olti bola qo‘zichoq rolini bajarishigacha davom etishi mumkin.

Kunduz va kechasi

Orasi uch-to‘rt metr bo‘lgan ikki chiziq chiziladi. Shu ikki chiziqlarning birida qizlar va ikkinchisida o‘g‘il bolalar turishadi. O‘yin boshi ikki komanda markazida turadi. O‘g‘il bolalar komandasiga “Kechasi”, qizlar komandasiga – “Kunduzi” deb nomlanadi. “Kechasi” degan komanda berilishi bilan o‘g‘il bolalar qizlarni tuta boshlaydilar. “Kunduz” komandasiga berilishi bilan qizlar o‘g‘il bolalarni tuta boshlaydilar. Komanda berilishi navbatma-navbat o‘zgarib turadi. Bolalar bir-birlarini itarmasdan, tutishlari kerak.

O‘YIN QOIDASI. Tutilgan bolalar qarama-qarshi komandalarga o‘tadilar. Har bir komandada uchta-to‘rtta bola qolguncha o‘yin davom etadi.

“Qopqon” harakatli o‘yini

O‘yin o‘ynovchilar ikki teng bo‘limgan guruhga bo‘linadilar. O‘zлari tahminan (o‘ynayotgan bolalarning uchdan biri) doira – qopqon hosil qiladilar. Boshqalari sichqon bo‘lib doirada tashqarida bo‘ladilar.

Qopqon hosil qilib turgan boalalar, bir-birlarining qo‘llaridan ushlab, goh chap tomonga, goh o‘ng tomonga yurib quyidagi she’rni aytadilar.

“Sichqonlardan xalok jon
Ketdi ular kurib
Tumshug‘ini tiqdi haryon,
Xaryon qiron keltirib.

Qochib ko ‘ring ayyorlar,
Tushasiz endi qo ‘lga
Sizni tezroq, ov qirar
Tutib boring bir yo ‘la!

She’r tugagach, bolalar yurishdan to‘xtaydilar va ushlagan qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar. Sichqonlar qopqon ichiga kirib, shu zaxotiyoy qilinchi tomondan qaytib chiqadilar. Tarbiyachining “Paq” deyishi bilan doirada turgan bolalar qo‘llarini pastga tushuradilar va cho‘qqayib o‘tirib oladilar – qopqon bekiladi. Doiradan chiqib ulgurmaganlar – “Sichqonlar” tutilgan hisoblanadilar. Tutilganlar ham doiraga qo‘silib turadilar (qopqonning hajmi kichiklashadi). Sichqonlarning ko‘p qismi tutilgan, bolalar rollarini almashadilar, o‘yin qaytadan boshlanadi.

O‘yini oxirida tarbiyachi chaqqon sichqonlarni – doirada biror marta ham qolmaganlarni alohida aytib o‘tadi.

“Tup kimda?” kam harakatli o‘yin

O‘ynovchilar doira hosil qilishadi. O‘yin boshlovchi aylanadi. U o‘rtada turadi. Qolganlar bir birlariga zinch turib qo‘llarini orqada tutadilar.

Tarbiyachi kimgadir to‘p beradi (diametr 6-8 sm) bolalar orqadan doira bo‘ylab bir-birlariga to‘p uzatadilar. O‘yin boshlovchi to‘p kimda ekanligini topshiga harakat qiladi. U “qo‘llar!” deb kimga murojaat qilgan bo‘lsa, o‘sha bola

ikki qo‘lini oldinga uzatib turadi, ya’ni bu bilan qo‘lida to‘p yo‘qligini ko‘rsatishi kerak. O‘yin boshlovchi topgan bo‘lsa, u to‘pni olib doiraga turadi, qo‘lida to‘p bo‘lgan bola esa endi o‘yin boshlovchi bo‘lib qoladi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“Tez qatorga” o‘yin mashqi

Bolalar uch qatorga sarflanadilar (mo‘ljal olish uchun turli rangdagi buyumlar-kubiklar, keglilar qo‘yish mumkin), tarbiyachisining ishorasi bilan bolalar turli tomonlarga yugurib ketadilar (childirmadan foydalansa bo‘ladi). Keyingi ishora berilganda (25-30 soniyadan keyin) childirmani uch marta o‘riladi.

Har bir qatordagi o‘z o‘rnini topib turishi kerak. O‘z o‘rnini tezda topib turgan qator o‘yinda g‘olib keladi. O‘yin 2-marta takrorlanadi.

“Pingvinlar”

O‘ynovchilar doira bo‘ylab turadilar. Har bir bolaning qo‘lida bittadan xalqacha. Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar xalqachalarini tizzalari orasiga qilib oladilar va doira bo‘ylab ikki oyoqlab sakraydilar (bolalar orasidagi masofa, ular bir birlariga xalaqit bermasliklari uchun 0,5 mdan kam bo‘lmasligi lozim). Sakrash oldidan bir tomonga qarab bajariladi, keyin to‘xtab, aylanib boshqa tomonga takrorlanadi.

“Tegizmay qolma”

Bolalar ikkita-uchta doira bo‘lib turadilar, har bir bolaning qo‘lida bittadan xaltacha bo‘ladi. Doiraning o‘rtasiga bolalardan 2,5 m masofadan – gardish qo‘yiladi. Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar xaltachani gardishga otadilar va unga tushurishga harakat qiladilar. Tarbiyachi xaltachani gardishga tushurgan boalalrning nomini aytadi, so‘ngra bolalar xaltachani olgani yuguradilar (ikkita-uchtagacha xaltacha olish mumkin). Mashq 3-4 marta takrorlanadi.

“Ko‘prik bo‘ylab”

Chizimcha yoki reykaldardan yo‘lakcha hosil qilinadi (eni 15 sm). Tarbiyachi bolalarga undan oyoq uchida qo‘lni belga qo‘yib qat’iy muvozanat va to‘g‘ri qomat saqlab o‘tishi taklif etadi 2-3 marta bajariladi.

“Tutuvchalar” harakatli o‘yini (tasma bilan)

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar doira bo‘lib turadilar; Xar bir bolada beliga qistirilgan rangdor tasma bo‘ladi. Tutuvchi doirani o‘rtasida turadi.

O‘yin tasnifi. Tarbiyachi “Bir, ikki, uch – tutib ol!” buyrug‘idan so‘ng. Bolalar maydoncha bo‘ylab yoyilib yuguradilar. Tutib oluvchi o‘yinchilarni quvlab kimningdir tasmasini tortib olishga intiladi. Yana tarbiyachining “Bir, ikki, uch – doiraga tez yugur!” degan ishorasiga binoan hamma bolalar doira bo‘lib turadilar. Tarbiyachi tasmasini oldirgan, ya’ni yutkazgan bolalar qo‘lini kutarsin deydi va ularni sanaydi. Tutib oluvchi tasmalarni egallariga qaytarib beradi, yangi tutib oluvchi tayinlanib o‘yin yana takrorlanadi.

“Shakl yasa” harakatli o‘yin

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport maydonchada yoki sport zalda o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan bolalar butun zal yoki maydon bo‘ylab yugurib ketadilar. Keyingi ishoraga binoan (childirmaga urishi) barcha o‘ynovchilar taqqa to‘xtatb qandaydir holatni ifoda etadilar. Tarbiyachi kimlarni yasagan shakllari ma’qul bo‘lganini (ancha muvaffaqiyatli chiqqanini) aytib o‘tadi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi (boshlovchi ham tanlash mumkin, u kimning yasagan shakli yaxshiliginini aniqlanadi).

“Topginu, ammo indama” o‘yini

Tarbiyachi oldindan qandaydir buyumni berishadi va uni nimaligini topishni taklif etadi. Uni ko‘rib qolgan bola tarbiyachini yoniga kelib sekingina nomini aytadi. Ko‘pchilik bolalar topshiriqni uddalaganlaridan keyin, pedagog ham bu kim ishga diqqat-e’tibor bilan qaraganligini qayd etadi. Qatorda bittadan bo‘lib yurish.

“To‘pni uzat” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar uch-to‘rt komandaga bo‘linib saflanadilar. Birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilarning qo‘lida bittadan katta (diametri 20-25 sm) to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan to‘p ikki qo‘llab (boshdan oshirib) orqada turganga uzatiladi. Safda oxirida turgan o‘ynovchi to‘pni olishi bilanoq tezda saf oldiga yugurib kelib turadi va to‘pni yana orqaga uzata boshlaydi. Mashqni bajarishni birinchi bo‘lib tugatgan va to‘pni qo‘lidan bir marta ham tushirib yubormagan komanda g‘olib chiqadi. Mashq ikki marta takrorlanadi.

“Tegib ketma” o‘yini

O‘yinga tayyorlanishi. Keglilar 40 sm oralatib (5-6 ta) birbiriga parallel holda ikki qator qilib terib chiqiladi. O‘ynovchilar ikki qator bo‘lib turadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachi topshiriqni tushutiradi va uni har bir komandan dan ikkitadan o‘yinchilar bajaradilar. Keyin bolalar ikki saf bo‘lib, ketma-ket bo‘lib keglilarga tegib ketmay “ilon izi” tarzida yugurib o‘tadilar. Safdag‘i barcha bolalar yugurishni tugatganlardan keyin, safda birinchi bo‘lib turgan bola qo‘lini ko‘taradi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“Biz quvnoq bolalarmiz” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar maydonning bir tomonida chiziq orqasida turadilar. Maydonning qarama qarshi tomonidan ikkinchi chiziq o‘tkaziladi. Maydonning o‘rtasida tutuvchi turadi.

O‘yin tavsif. Tarbiyachini ishorasi bo‘yicha o‘ynovchilar xor bo‘lib mana bunday deydilar.

*“Bolalarimiz ko‘p quvnoq,
Chopishga chanqoq – chanqoq*

Qani, quvlab eting-chi, Bir, ikki, uch - tuting-chi!"

“Tutib ol!” so‘zi yangrashi bilan bolalar maydonning ikkinchi tomoniga yugurib o‘tadilar, tutuvchi ularni ushlab oladi. Tutuvchi kimni ushlab olishga ulgursa, uutilgan hisoblanadi va chiziqdan tashqariga chiqadi hamda yugurib o‘tganda bir marta ishtirok etmaydi. Yugurib o‘tish ikki marta takrorlangach boshqa tutuvchi tayinlanadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

“Qarmoq” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar doira hosil qilib turadilar, tarbiyachi uning o‘rtasida qo‘lida uchiga qumli halta bog‘langan arqon ushlab turadi. Tarbiyachi qo‘lidagi qumli xaltaga boylangan arqonni doira bo‘ylab, erga tegartegmas qilib aylantira boshlaydi, bolalar esa xaltachalarni oyoqlariga tegizmaslikka harakat qilibi, ikki oyoqda yuqoriga sakrab turadilar. Xaltachani ikki-uch bor aylanatirgach, tarbiyachi bir oz dam beradi va shu paytda xaltacha oyog‘iga tekkan bolalarni hisoblab chiqib, aytadi hamda sakrashni bajarishga doir zarur ko‘rsatmalar beradi.

“Qo‘lga tushma o‘yini”

O‘yinga tayyorlanish. Yerga yoki polga doira chiziladi yoki arqon bilan belgilanadi. Doiraning o‘rtasida 2-3 ta boshlovchi turadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan bolalar doira ichiga turib ikki oyoqda sakraydilar, boshlovchi yaqinlashgach orqaga qarab sakraydilar.

Agar birorta o‘yinchiga boshlovchining qo‘li tegsa uutilgan hisoblanadi, ammo o‘yindan chiqib ketmaydi. 30-40 soniyadan so‘ng o‘yin to‘xtatiladi, utilganlar hisoblab chiqiladi, hech ham tutilmaganlar o‘ynovchilardan yangi boshlovchi tayinlanadi va o‘yin takrorlanadi.

“To‘pni devorga ur”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar 3 m masofada devorning (bu fanerdan yoki taxtadan yasalgan bo‘lishi mumkin) oldiga qator bo‘lib turadilar, har bir bolaning qo‘lida bittadan kichkina to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan boalalr to‘pni devorga otadilar va u erga tushib sakragich, ikki qo‘llab ilib oladilar. 8-10 marta takrorlanadi.

Mashq bajarishni sur’ati o‘rtacha. O‘yin kichik-kichik guruhgacha bo‘lingan bolalar guruhi bilan bajariladi.

“Tezda ol harakatli o‘yini”

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zal yoki sport maydonda o‘tkaziladi. Bolalar doira hosil qilib turadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan buyumlar (o‘rtaga kubiklar, tosh va boshqa narsalar qo‘yiladi) atrofidan yuradilar yoki yuguradilar. Qo‘yilgan buyumlar bolalarning soniga qaraganda bir-ikkita kam bo‘ladi. Keyin “Tezda ol”

ishorasi berilishi bilan har bir bola buyum olib, uni boshi uzra ko‘tarishi kerak. Kimki buyum ola olmagan bo‘lsa, u yutqizgan hisoblanadi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“Pingvinlar bo‘lib sakrash”

O‘yinga tayyorlanish. Zalning o‘rtasiga ey va 1,5-2 m masofaga bir nechta g‘o‘lachalar tashlab qo‘yiladi (g‘o‘lachalar o‘zaro parallel joylashtiriladi). Bolalar qo‘llanmalar oldida ikki qator bo‘lib turadilar, tarbiyachi ikki bola ishtirokida mashqni ko‘rsatadi va juftlashtiradi, so‘ngra uning ishorasiga binoan birinchi juftlik keladi (har bir qatordan bittadan bola) va topshiriqni bajarishga kirishadi va boshqalar.

Yey tagidan o‘tishda asosiy diqqat yaxshilab bukchayishga ya’ni boshni iloji boricha tizza tomon engashtirishlariga qaratiladi. Yey tagidan o‘tgach har bir bola bittadan xaltacha oladi, uni boshiga o‘tishda to‘g‘ri qaddi-qommatni saqlashga (boshini va gavdani to‘g‘ri tutishga) va xaltachani tushirib yubormaslikni harakat qiladi.

So‘ngra bolalar ikki qatorga saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasisha ko‘ra tizzalar orasiga qisib olingan xaltalar bilan belgilangan joygacha (kubiklar, bayroqchalargacha) sakrab boradilar, xaltachani qo‘lga olib, o‘z komandasining keyingi o‘ynovchisiga berish uchun yuguradilar. Mashqni tez va to‘g‘ri bajargan “Pingvinlar” komandasi g‘olib chiqadi.

“To‘pni ushlab ol o‘yini”

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda va sport maydonchada o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. O‘ynovchilar uchtadan bo‘lib bo‘linadilar. Ikki bola 2-2,5 m masofada bir-biriga qarab turib, to‘p tashlaydilar, uchinchi bola o‘zaro tashlagan to‘pni ushlab olishga yoki unga qo‘l tekizishga harakat qiladi. Agar boshlovchi to‘pga qo‘l tekiza olsa yoki uni ushlab olsa, o‘ynovchilar o‘zaro o‘rin almashadilar va o‘yin davom ettiriladi. O‘yin tarbiyachisining ishorasiga binoan to‘xtatiladi.

Tarbiyachi bolalarga bo‘ylari va o‘z harakatchanlik imkoniyatlarini tahminan tengligiga qarab bo‘linishlarini taklif qiladi.

“Chaqqon bo‘l”

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda yoki sport maydonchada o‘tkaziladi. Tarbiyachi keglilarni bir biridan 40 sm uzoqlikda ikki qator qilib qo‘yadi.

O‘yin tavsifi. O‘ynovchilar ikki qatorga saflanib, tarbiyachisining ishorasiga ko‘ra (bittadan) keglilar orasidan ikki oyoqlab sakraydilar. Bola marra chizig‘iga etib, borgach, o‘z safiga yurib keladi. Topshiriqni birinchi bo‘lib turgan ikkinchi o‘yinchini davom ettiriladi. U qo‘lini boshi uzra 2-3 marta ko‘taradi.

“Tanlangan rangni top”

O‘yinga tayyorlanish. Maydonchasining turli chekkalariga tarbiyachi turli rangdagi keglilar qo‘yadi. O‘ynovchilar uning atrofida zich bo‘lib turadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining birinchi ishorasiga ko‘ra bolalar maydon bo‘ylab tarqalib yuguradilar. Tarbiyachining ikkinchi “Tanlangan rangini top” degan ishorasiga binoan boalalr faqat o‘zlarini tanlagan rangini topish emas, balki keglilarni ag‘darib yubormasliklarni ham lozim. To‘g‘ri doira yasagan buyumlarga tegib ketmagan, doirada o‘z o‘rnini adashtirib yubormagan komanda o‘yinchilari g‘olib chiqadilar.

“Qushlar uchib o‘tmoqda haraktli o‘yini”

O‘yinga tayyorlanish. Zalning bir tomonida bolalar turadi – ular qushlar. Zalning ikkinchi tomonida jixozlar (gimnastika o‘rindiqlari, kubik va boshqalar) – bular daraxtlar, ularga uchib kelib ko‘nadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan: “Qushlar uchib ketmoqda”- bolalar qo‘llari bilan qanotlar singari harakat qilib, zal bo‘ylab yuradilar; keyingi “Bo‘ron!” ishorasiga binoan ular ko‘tarilib, “daraxtlar orasiga” bekinishiga harakat qiladilar. Tarbiyachi: “Bo‘ron tindi!” deyishi bilan bolalar tepalikdan tushadilar va yana zal bo‘ylab yugurib yuradilar (qushlar o‘yinda davom etadilar). O‘yin chog‘ida tarbiyachi majburiy tarzda ayniqla ular balandlikdan tushganlarida bolalarni asrab avaylaydi.

“Qo‘lga tushma” harakatlari o‘yin

O‘yinga tayyorlanish. O‘yinchilar doira shaklida tashlab qo‘yilgan chizimcha atrofida joylashadilar. O‘rtada ikkita boshlovchi bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan bolalar ikki oyoqda doira ichiga sakrab kiradilar. Bunda iloji boricha tutib oluvchilarga yaqinlashishga harakat qiladilar. Tutuvchi kimni ushlab olgan bo‘lsa unga jarima ochkosi beriladi. 40-50 soniyadan so‘ng o‘yin to‘xtatilib, yutkizganlar hisoblab chiqiladi va yangi tutuvchi tayinlanib, o‘yin boshqatdan boshlanadi.

“Polda qolib ketma” harakatlari o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda va sport maydonida o‘tkaziladi. Boalalar bilan birga zal yoki maydoncha bo‘ylab yuguradigan tutuvchi tayinlanadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachi “tutib ol!” deyishi bilan hamma bolalar tutqich bermay qochib narsalar (o‘rindiq, kubik va boshqalar) ustiga chiqib oladilar. Tutuvchi qochayotganlarni ushlab olishga intiladi. Tutib oluvchining qo‘li tekkan bola chetga chiqib turadi. O‘yin oxirida utilganlar hisoblab chiqiladi va yangi tutuvchi tayinlanadi. O‘yin qaytadan boshlanadi.

“To‘p boshlovchiga”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar ikki-uch komandaga bulinib doira bo‘lib turadilar, har bir doiraning o‘rtasida qo‘lda to‘p ushlagan boshlovchi turadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan boshlovchi to‘pni ikki qo‘llab ko‘krakdan o‘yinchilarga navbatma-navbat tashlaydi va qaytib oladi. To‘p

hammaga birma-bir tashlab chiqilgach, u to‘pni bosh uzra ko‘tarib “Tamom!” deydi.

“Bir-biriga oshirish o‘yini”

Tarbiyachi o‘g‘il bolalarga juft-juft bo‘lib olish hamda bittadan to‘p olishni va ularni bir-biriga oshirib mashq bajarishni taklif etadi (bolalar orasidagi masofa 3 m, o‘ng va chap oyoqda bir-biriga oshirish).

“Volanni urib qaytar o‘yini”

O‘yinga tayyorlanish. Qizlar tarbiyachisining rahbarligida shug‘ullanadilar. Ular ham juft-juft bo‘lib oladilar. Birinchining qo‘lida raketka, boshqasida raketka hamda volan bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachi volanni qanday tashlash, uni raketka bilan o‘rtog‘i tomoniga qanday urib yuborishni ko‘rsatadi. U esa uni raketka bilan o‘rtog‘i tomon yana qaytarib yuborishi kerak. Muhimi – volanni erga kam tushurishdir. Keyin tarbiyachining ishorasi bilan bolalar o‘rin almashadilar.

“Chaqqon bola estafetasи”

Dastlabki chiziq oldida o‘yinchilar ikki qator bo‘lib turadilar. Birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilar buyumlar (kegli, kubiklar) orasidan ikki oyoqda sakrab borib, marra chizig‘iga etadilar va yana orqaga qaytib kelib, qatorlarning oxiriga turadilar. Keyingi o‘yinchi sakrashni oldingi o‘yinchi qaytib start chizig‘ini bosib o‘tgach boshlaydi (masofa 5 m). O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“G‘ozlar va oqqushlar” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Zalning bir tomonidan g‘ozlar yashaydigan uy belgilanadi. Zalning ikkinchi tomonida cho‘pon turadi. Uning yonida bo‘ri uyasi bo‘lib, qolgan joy-o‘tloq bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. O‘ynovchilar orasidan bo‘ri va cho‘pon tanlanadi, qolganlar esa g‘ozlar bo‘lishadi. Cho‘pon g‘ozlarni o‘tloqqa haydaydi, ular o‘tlab, uchib boradilar.

Cho‘pon: G‘ozlar, g‘ozlar!

G‘ozlar (bir zum to‘xtab, xor bo‘lib javob beradilar). G‘oq, g‘oq, g‘oq!

Cho‘pon: Don eysizlarmi?

G‘ozlar: Xa, xa, xa!

Cho‘pon: Shunday ekan uchib keling!

G‘ozlar: Bunday qilish mumkin emas.

“Adirda bo‘ri nokas

Uyimizga o‘tkazmas

Cho‘pon: Baland, baland uching siz

Qanotingiz asrangiz!

G‘ozlar qanotlarini yozib (qo‘llarini yonga uzatib) o‘tloqdan uyga tomonni uchib o‘tadilar, bo‘ri esa uyasidan chiqib ularni ushlab tutib olishga harakat qiladi. Tutilgan g‘ozlar uyaga ketadi. Bir necha marta yugurib o‘tilgandan keyin, bo‘ri

tutib olgan g‘ozlar hisoblab chiqiladi. Shundan so‘ng yana yangi bo‘ri va cho‘pon tanlanadi. O‘yin ikki-uch marta takrorlanadi.

“Uchadi - uchmaydi” kam harakatli o‘yin

Bolalar doira bo‘ylab turadilar, o‘rtada tarbiyachi buladi. U jonli va jonsiz narsalarning nomini aytadi, bular yo uchadigan yo uchmaydigan narsalardir. Tarbiyachi narsani nomini aytib qo‘lini yuqoriga ko‘taradi. Masalan, tarbiyachi shunday deydi: “Qush uchadi, stul uchadi, samolyot uchadi” va boshqalar. Bolalar uchadigan narsaning nomi aytilganida qullarini ko‘tarishlari kerak.

“Kartoshka ekish”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar sport chizig‘i oldida uch-to‘rt qatorga saflanadilar. Safda birinchi bo‘lib turgan bolalar qo‘lida ichiga 5-6ti mayda narsa – kartoshka solingen bittadan xaltacha. Saflarning qarshisida sport chizig‘idan 10-12 metr narida kartoshkalarning soniga qarab doirachalar chiziladi, ya’ni 5-6 ta (doiracha o‘rniga, faner, kartondan qilingan) doirachani qo‘yish mumkin.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra birinchi bo‘lib turganlar o‘z doirachalari tomon yuguradilar va unga kartoshkani bittadan qo‘yib chiqadilar, so‘ngra orqaga bo‘shagan xalta bilan qaytadilar hamda uni o‘z qatoridagi keyingi o‘yinchiga uzatadilar. Keyingi o‘yinchi esa yugurib borib, doirachalardagi kartoshkani yig‘ib xaltasiga soladi va orqaga qaytib kelib uni o‘zidan keyingi turgan bolaga uzatadi. Shunday qilib birlari kartoshkani ekadilar, boshqalari uni yig‘ib oladi. Topshiriqni tez va xatosiz bajargan bolalar komandasini g‘olib keladi. O‘yin tarbiyachisining shartli ishorasi bilan boshlanadi; shulardan keyin o‘ynovchilar qo‘llariga to‘la yoki bo‘shagan xaltachani olguncha yuguradilar. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

“Savatga tushir” (basketbol varianti)

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar to‘p bilan savatcha atrofida yarim doira shaklida turadilar, tarbiyachi ularga to‘pni qanday tashlashni ko‘rsatadi: oyoqlar biroz bukilgan, to‘pni ikki qo‘llab ushlab, ko‘krak oldida tutiladi – bu dastlabki xolat qo‘lni oldinga biroz egib – yoy shakli xosil qilgan holda qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib bir yo‘la oyoqlarni ham to‘g‘rilab to‘p irg‘itiladi. Bunda barmoqlarning yumshoqqina turkisi bilan to‘p savatga tomon uzatiladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachisining ishorasi bilan bolalar qatorda bittadan (6-8 boladan) bo‘lib to‘pni navtba-navbat joyida turib savatchaga tashlaydilar. Ikkinchi guruh bolalari bu paytda boshqa (4-5-m masofaga bir qo‘llab “To‘pni olib yur!”) topshiriqni bajaradilar. Tarbiyachisining ishorasiga ko‘ra o‘yinchilar o‘rin almashadilar va navbatdagi topshiriqni bajarishga kirishadilar.

“O‘yin boshlovchilar kim” harakatli o‘yin

O‘yinga tayyorlanish. Boshlovchi saylanadi, u bolalar xosil qilgan doirani o‘rtasida turadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachisining ishorasi bilan bir-birlarining qo‘llaridan ushlab bolalar doira bo‘ylab o‘nga (chapga) yuradilar va shunday deydilar:

Davra kurib, izma-iz

To ‘xta! Birday barchamiz

Yuramiz quvnoq-quvnoq

Qilamiz endi mundoq... ”

Bolalar to‘xtab qo‘llarni pastga tushuradilar, boshlovchi biror-bir harakatni ko‘rsatadi, boalalrning hammasi u ko‘rsatgan harakatini takrorlashlari lozim. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

“O‘t o‘chiruvchilar” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar uch-to‘rt qator bo‘lib gimnastika narvoniga qarab saflanadilar – bular o‘t uchiruvchilar.

Safda birinchi bo‘lib turganlar gimnastika narvonidan 4-5 m berida chizilgan chiziq oldida turadi. Gimnastika narvonidan har birining yon yog‘ochiga bir xil balandlikda qo‘ng‘iroq ilib qo‘yiladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachisining ishorasiga binoan yoki “Marsh!” deyishi bilan qatorda birinchi bo‘lib turgan bolalar gimnastika o‘rindig‘iga yugurib boradilar va unga chiqib qo‘ng‘iroqni chalib turadilar hamda o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. Tarbiyachi topshiriqni kim hammadan tez, birinchi bo‘lib bajarganini ta’kidlaydi.

Keyin yana ishora qilishadi va boshqa guruh bolalari yugurib ketadilar va hokazo. O‘yin so‘ngida tarbiyachi topshiriqni yaxshi udallagan, ya’ni kungiroqqagacha epchil chiqib, uni chalib tushgan qatorning bolalrni alohida aytib o‘tadi. Bolalar gimnastikan narvoniga chiqib – tushayotganlarida tarbiyachi bolalar narvonning har bir pog‘onasiga albatta oyoq qo‘yib chiqishlari va tushishda oxirgi pog‘onaga sakrab turmasliklariga diqqatni jalg qiladi.

Bu o‘yinni o‘tkazayotganda bolalarni ehtiyyotlab turadi.

O‘yin mashqlari

“To‘pni devorga ur”. Bir guruh bolalar devor oldida saf bo‘lib turadilar, to‘pni devorga urib qaytishi bilan (devor orasidagi masofa 3 m) uni ilib oladilar.

“To‘pni ushlab ol”. Boshqa guruhdagi bolalar uchlikka bo‘linadilar. Ikkitasi bir-biridan 4 m oraliqda turadi uchinchisi esa ularning o‘rtasiga joylashadi. Ikkita o‘yinchilar to‘pni bir birlariga uzatadilar, uchinchisi esa o‘nga qo‘l tekkizishga yoki uni ushlab olishga harakat qiladi. Agar ushlab olsa, yutkazgan bilan o‘rin almashadi. Tarbiyachisining ishorasiga binoan bolalar mashqni tugatadilar va o‘rin almashadilar.

“Tegib ketma”. Tarbiyachi keglilarni 30 sm orqalatib ikki qator qilib qo‘yadi. Bolalar ikki qator bo‘lib turadilar va tarbiyachisining ishorasiga binoan oyoq uchida keglilar orasidan o‘tib yuradilar, bunda keglilarga tegib ketmaslikka va uni yiqitib yubormaslikni harakat qiladilar. Topshiriqni (2-3 marta) epchillik bilan yaxshi bajargan qator g‘olib keladi. Keglilar orasidan yurishni tugagach, keglilar orasidan engilgina yugurishni taklif qilish mumkin.

“To‘p boshlovchiga”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar uch-to‘rt qator bo‘lib saflanadilar. Birinchi o‘yinchilardan 2-2.5 m narida boshlovchi qo‘lida to‘p ushlab turadi. Tarbiyachi barcha qator o‘yinchilarni va boshlovchi uchun chiziq chizadi (chizimchani tashlab qo‘yadi).

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan boshlovchi qatorda birinchi bo‘lib turgan o‘yinchiga to‘p tashlaydi, ular esa boshlovchiga to‘pni qaytarib, yugurib o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar (qatordagilarning barchasi birin ketin dastlabki chiziqqa surilib keladilar). O‘yinni birinchi bo‘lib boshlagan bola birinchi bo‘lib qolsa, u qo‘lini ko‘taradi, demak komanda g‘alaba qilgan bo‘ladi. O‘yin takrorlanadi.

“Tashlab ber va ilib ol”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar ikki qtorga saflanadilar (3 m oraliqda). Ikki qatorda teng bo‘lgan masofada o‘rtasidan “yo‘lakchi” (kengligi 0.5 m) o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachisining ishorasiga ko‘ra qo‘llarida to‘p bo‘lgan komandaning o‘yinchilar o‘ng qo‘l bilan “yo‘lakchaga” to‘p tashlaydi, ikkinchi safdagi o‘yinchilar esa to‘pni erga urilib sakrab chiqqandan keyin ikki qo‘llab ushlab oladilar. Ushbu mashqda ko‘z bilan mo‘ljal olish, chaqqonlik shuningdek harakat muvofiqligi rivojlanadi.

“Tegib ketmay sakrab o‘t”

Bolalar ikki-uch qator bo‘lib saflanadilar. O‘yinchilar ikki oyoqda tinch yoki dam olmay, yonlamasiga goh o‘nga, goh chapga, oldinga harakatlanib chizimchaga (uzunligini 4 m) sakraydilar. O‘z qatorlarining oxiriga qadam tashlab yurib kelib turadilar.

“Juftingni tut”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar bir birlaridan 3-4 qadam narida ikki safga saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining “Yugur!” degan ishorasiga binoan birinchi safdagi bolalar qochib ketadilar, ikkinchi safdagi bolalar esa birinchi safdagi bolalar o‘z juftliklarini belgilagan finish chizig‘idan o‘tib olgunlaricha (masofa 12 m) tutib olish uchun quvlaydilar. Tarbiyachi tutilganlarni hisoblab chiqadi va o‘yin takrorlanadi. Bolalar qayta yugurib o‘tganlaridan so‘ng o‘zaro o‘rin almashadilar.

“Muvozanat saqlash”

Muvozanat saqlash - gimnastika o‘rindig‘idan boshga kopga qo‘llarini belga qo‘yib yurish.

Tarbiyachi ikkita xodacha qo‘yib, bir biriga (poldan 40 sm balandlikda) chiziqcha tortadi, zalning uzunasiga ikkita gimnastika o‘rindig‘i qo‘yadi. Bolalarga ko‘rsatib va tushuntirib berilgach, uch marta ketma-ket chiziqcha ostidan o‘tadilar, keyin esa ikki qator bo‘lib ketma ket usulda muvozanat saqlash mashqini bajarishga kirishadilar. Dastlab birinchi guruh bolalari bajaradilar, bu vaqtida

ikkinchi guruh bolalalri safda turib kuzatadilar, so‘ngra tarbiyachisining ishorasiga binoan topshiriqni keyingi guruh bolalari bajaradilar.

Bolalar tagidan o‘tish va muvozanat saqlash mashqlarini bajarib bo‘lganlaridan so‘ng jihozlar chetga olib qo‘yiladi va tarbiyachi dastlabki va sakrab borish kerak bo‘lgan chiziqni belgilaydi. Bolalar topshiriqni tarbiyachisining ishorasiga binoan ikki qator bo‘lib bajaradilar.

“Kim tezroq”

Bolalar uch-to‘rt qator bo‘lib dastlabki chiziq oldida saflanadilar. 5 m oraliqda keglilar (komandalarning soniga qarab) qo‘yiladi, shundan keyin yana bir chiziq (marra chizig‘i) chiziladi. Har bir o‘yinchida bittadan kichik to‘p bo‘ladi. Birinchi bo‘lib turganlar tarbiyachisining ishorasiga ko‘ra ikki oyoqda buyumgachan sakrab boradilar: so‘ngra to‘pni ergan urib-urib, ikkinchi finish chizig‘iga yurib boradilar, orqaga aylanib o‘yinchilarga yuz bilan turadilar. Ikkinchi o‘yinchi sakrashni boshlaydi va hokazo. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan bolalar (2 marta) o‘yinda yutib chiqadi.

“To‘pni devorga urib”

O‘yinchilarni bir guruhi devordan 3 m masofada turib to‘pni devorga uradi, to‘p erga tushib sakrab chiqqach, ikki yoki bir qo‘llab ushlab oladi. Har bir o‘yinchi topshiriqni erkin sur’atda bajaradi. Ikkinchi guruhdagi bolalar to‘pni o‘ng yoki chap qo‘l bilan urib yuradilar.

“Quvlashmachoq” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar maydonining bir tomonidan chiziq orqasida turadilar. Maydonning ikkinchi tomoniga ham chiziq chizilgan, maydonning yon tomonidan tutib oluvchi turadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining “Bir, ikki, uch – yugur!” degan so‘ziga ko‘ra, bolalar bir tomondan ikkinchi tomonga yugurib o‘ta boshlaydilar, tutib oluvchilar esa ularning chiziqni bosib o‘tgunlariga qadar tutishga (qo‘l tekizishga) harakat qiladi. Ushlaganlar hisoblab chiqiladi va o‘yin takrorlanadi. Bolalar ikki-uch marta yugurib o‘tganlaridan keyin epchil chiqqan, biron marta ham tutilmagan boshqa tutuvchi tayinlanadi.

“Bayroqchaga kim tez boradi”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar uch qatorga teng bo‘linadilar. Dastlabki chiziqdan 2 m nariga gardish qo‘yiladi, chizimcha ham tortishi mumkin (poldan 50 sm balandlikda), shundan yana 3 metr nariga taglikli bayroqcha qo‘yiladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan yoy yoki gardish tagidan o‘tish, yugurib kelib, o‘z qatorining oxiriga borib turib olish topshirig‘i beriladi. Tarbiyachi har bir qatordagi topshiriqni tez va to‘g‘ri uddallagan bolani hisobga olib boradi, o‘yin tugagach, ko‘p ochko to‘plagan komandani aytadi.

“Kim uzoqqa otadi”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar maydon bo‘ylab yoyilib bir nechta (4-5 dona) tennis koptokni oladilar. O‘yin sport zalda va maydonda o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra dastlab pozitsiyaga birinchi guruh bolalari turadilar. Quyidagi topshiriq beriladi: 3-4 m masofada turgan kegliga tennis koptokni otish, ikkinchi chiziq 5-6 m va uchinchi chiziq 8-10 m. Eng chaqqon o‘yinchilar ko‘rsatib o‘tiladi, shundan keyin ikkinchi guruh bolalar kelib turadilar. O‘yin takrorlanadi.

“Tegib ketma”

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda yoki sport maydonchada o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachi oldindan topshiriqni tushuntirib, bir qator qilib navbatma-navbat (3-4 dona) doiracha chiziladi yoki kegли qо‘yib chiqiladi, ularning oralig‘i 50 sm bo‘ladi (5 ta doira chiziladi yoki 5 ta kegли qо‘yiladi). O‘ynovchilar ikki komandaga bo‘linadilar, quyidagicha topshiriq beriladi: buyumlarga tegib ketmay, tez o‘tish. Avval birinchi komanda, keyin ikkinchi komanda bajaradi. Tegib ketilgan buyumlarning soni hisoblab chiqiladi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“Ayoz” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda yoki sport maydonida o‘tkaziladi. Maydonni qarama qarshi tomonidan ikkita uy belgilanadi, o‘yinchilar ularning biriga joylashadilar.

O‘yin tavsifi. Boshlovchi “Ayoz” maydonining o‘rtasida o‘yinchilar tomoniga qarab turadi va tarbiyachining ishorasidan keyin shunday deydi:

*“Qizil burun – Ayozman,
Qaysining buyruq qilasiz,
Yo ‘lga chiqib bilasiz?”
O‘yinchilar xur bo‘lib javob qaytaradilar:
“Hech qo‘rqlaymiz do‘kdan
Ayozni olmaymiz tan!”*

“Ayoz” so‘zi aytishi bilan bolalar maydonining ikkinchi tomonidan uyga yugurib o‘tadilar, boshlovchi esa ularga etib olib qo‘lini tekkizishga – muzlatib qo‘yishga harakat qiladi. Muzlatganlar boshlovchining qo‘li tekkan joyda to‘xtab qoladilar va yugurib o‘tish tugaguncha qimirlamay turadilar.

Tarbiyachi “Ayoz” bilan birgalikda “muzlatganlar”ni hisoblab chiqadi. Har bir yugurib o‘tish tugagandan so‘ng yangi “Ayoz” tanlanadi. O‘yin tugagach, qaysi boshlovchi “Ayoz” ko‘proq muzlatgani hisoblab chiqiladi.

Sakrash harakatlarini bajarish

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin zalda yoki sport maydonida o‘tkaziladi. Bolalar ikkiga bo‘linib, dastlabki chiziq oldida saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bilan birinchi guruhdagi bolalar ikki marta o‘ng oyoqda, ikki marta chap oyoqda va hokazo sakrashni bajaradilar. Har

bir bola o‘zi xoxlagan sura’tda sakraydi, bunda assosiysi tez emas, balki mashqni aniq, harakatlarni bir-biriga muvofiq bajarishdir. Topshiriqni oson bajarish uchun ichida 1-2 deb sanashi tavsiya etish mumkin. Bolalar belgilangan chiziqqacha sakrab borib, oldinga ikki qadam tashlaydilar va orqaga o‘girilib, boshqa guruh bolalari sakrashni qanday bajarayotganini kuzatadilar. So‘ngra tarbiyachi birinchi guruh bolalariga mashqni takrorlashni taklif etadi, bu vaqtida ikkinchi guruh bolalari dam oladi.

Varianti. Tarbiyachi keglilarni 1 m oraqliqda qilib qo‘yib chiqadi va birinchi guruhga bolalarni tegib ketmaslikni harakat qilib keglilar orasidan emaklashadilar. Ikkinchchi guruh bolalariga esa to‘p bilan mashq bajarishni: to‘pni yuqoriga otib chapak chalib ilib olishni taklif etadi. Bolalar to‘pni yuqoriga otib, ilib olishni ixtiyoriy sur’atda tarqalib yurib bajaradilar. Tarbiyachisining ishorasiga binoan boalalr o‘rin olmashadilar.

“Nishonga aniq otish”

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zal va sport maydonchada o‘tkaziladi. O‘ynovchilar saflanib turadilar, ulardan 4 m nariga tarbiyachi rang barang kegli qo‘yadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra bolalar tennis koptokni nishonga otib, uni yikitishga harakat qiladilar. Shundan so‘ng ikkinchi guruh bolalari kelib nishonga otish mashqini bajaradilar.

“Qo‘rqmas chumchuqlar o‘yini”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar doira hosil qilib turadilar, har birini oldida ikkitadan tennis koptoki turadi. O‘rtada mushuk turadi.

O‘yin tavsifi. Bolalar chumchuqcha bo‘lib, tarbiyachining ishorasiga binoan dumalatilgan tennis koptokni ustidan sakrab doiraga o‘tadilar. Mushuk yaqinlanishi bilan orqaga sakrab doiradan chiqadilar. Mushuk tekkan chumchuqqa jarima ochkosi oladi, ammo o‘yindan chiqmaydi. Bir qancha vaqtadan so‘ng tarbiyachi o‘yini to‘xtatadi, yutqizganlarni sanab chiqadi va boshqa boshlovchi saylanadi. O‘yin mashqlari tugagach, eng epchil mushuk hamda mushukning qo‘liga tushmagan qo‘rqmas chaqqon, chumchuqlar nomi aytib o‘tiladi.

“Ayyor tulki” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar bir-birlaridan bir qadam oralig‘idap doira xosil qilib turadilar. Doiradan nariroqda tulkingin uyi belgilanadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra bolalar ko‘zlarini yumib turadilar. U esa bolalarning atrofidan aylanib o‘tayotib o‘yinchilardan birontasiga qo‘l tekizadi, shundan keyin qo‘li tekkan bola boshlovchi – ayyor tulki bo‘ladi. Shundan keyin bolalar ko‘zlarini ochadilar, ho‘r bo‘lib uch marta (to‘xtatib, to‘xtatib). Ayyor tulki qayda sen!” deb so‘raydilar (dastaval sekin, so‘ngra qattiq). Ayyor tulki qilib tanlangan o‘yinchi uchinchi galdan keyin tezda doiranining o‘rtasiga tushib olib qo‘lini ko‘taradi va “Men bu erdaman!” deydi. Barcha

o‘ynovchilar maydon bo‘ylab yugurib ketadilar, tulki esa ularni tutishga harakat qiladi (qo‘lini tekgach), tarbiyachi “Doiraga!” deydi va o‘yin qaytadan boshlanadi.

“Ayiqlar va asalarilar” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar teng ikki komandaga bo‘linadilar: birlari asalarilar, ikkinchilari ayiqlar bo‘ladilar.

Zalning bir tomonidan asalari uyalari bo‘ladi, qarama qarshi tomonda esa o‘tzor. Chetroqda ayiqning uyasi joylashadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachi bilan kelishilgan ishoraga muvofiq asalarilar uyalaridan uchib chiqadilar (balandroq qilib joylashtirilgan gimnastika narvonlari va gimnastika o‘rindiqlaridan va boshqalardan pastga tushadilar, zilzilab asal uchun chamanzor tomon uchadilar. Asalarilar uchib ketishlari bilanoq ayiqlar inlaridan chiqib, uyalar oldiga (gimnastika o‘rindiqlariga chiqib olib mazza qilib asalni eya boshlaydilar). Tarbiyachi “Ayiqlar!” deyishi bilan asalarilar uyalari tomon uchib kelib ayiqlarni chaqib olishga (qo‘l tekizishga) intiladilar. Ular o‘z inlariga qocha boshlaydilar. Asalari chaqqon ayiqlar bir o‘yinini o‘tkazib yuboradilar. O‘yin qaytadan boshlanadi va takrorlanib bo‘lgach, bolalar o‘rin almashadilar.

“Keglini urib yiqit” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar tennis koptokni ushlab dastlabki chiziq oldida saf bo‘lib turadilar. Dastlabki chiziqdan 2-2.5 m oraliqda bir qator qilib, bir nechta har xil rangdagi kegli qo‘yiladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining “Otinglar!”-degan ishorasi bilan bolalar keglilarni urib yiqitishga harakat qiladilar. Nishonga tekkizgan bolalar aytilib o‘tiladi. Keyin urib yiqitishni ikkinchi safdagisi bolalar bajaradi (har bir bola 2 martadan koptok otadi)

“Juft bo‘lib turish” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar bir birlaridan 3-4 qadam narida ikki safda turadilar. Har bir bola o‘ziga juft tanlaydi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining “Yugur!”-degan ishorasi bilan birinchi safdagisi bolalar qochadilar, ikkinchi safdagisi bolalar esa ularni quvlaydilar. O‘yin takrorlanganda bolalar o‘rin almashadilar.

“Boyo‘g‘li” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Zalning bir tomonidan boyo‘g‘lining uyasi belgilanadi. Uyaga boshlovchi – boyo‘g‘li joylashadi, qolgan o‘ynovchilar qushlar, kapalaklar, qo‘ng‘iz va boshqalarni tasvirlaydilar, ular butun zal bo‘yilab uchib yuradilar.

O‘yin tavsifi. Bir qancha vaqt o‘tgach, tarbiyachi: “Tun!”-degan so‘zni aytadi. O‘ynovchilar “Tun!” so‘zni eshitishlari bilan qanday holatda bo‘lsalar, shundaligigicha to‘xtaydilar. Boyo‘g‘li o‘z uyasidan chiqib, kim qimirlayotgan bo‘lsa, shuni o‘z uyiga olib ketadi, tarbiyachi esa :”Kun!” deydi. Shundan so‘ng

kapalaklarga, qushlarga, qo‘ng‘izlarga jon kirib yana aylanib uchib yuradilar va ovga ikki marta uchib chiqqandan so‘ng tutilganlar soni hisoblanadi. Boshqa boyo‘g‘li saylanadi.

“Kim tezroq” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Doira atrofiga undan 1 m nariga tarbiyachi bolalar bilan birgalikda ular soniga etarli tennis koptogini qo‘yadilar. Shundan so‘ng bolalar 5 m narida doira bo‘ylab turadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra ular ikki oyoqda sakrab, tennis koptokni oldiga boradilar, ularni olib yuqoriga ko‘taradilar va yana orqaga sakrab qaytadilar va tennis koptokni boshlari uzra ko‘taradilar. Tarbiyachi g‘oliblarni ko‘rsatib o‘tadi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“Tegib ketmay tezroq o‘t” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda yoki sport maydonchada o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachi kubiklar yoki keglilardan yo‘lakcha yasaydi (buyumlar orasidagi masofa 50 sm). Bolalarga birinchi qatorda turgan buyumlar orasidan “ilon izi” bo‘lib o‘tishni, qaytishda esa ikkinchi qatordagi buyumlar orasidan, ularga tegib ketmay yugurib o‘tishni taklif etiladi.

O‘yin mashqi avval birinchi guruh, so‘ngra ikkinchi guruh bajaradi.

“Kim uzoqqa otadi” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Dastlabki chiziqdan 8-9 m nariga keglilarni (8-10 dona) bir qator qilib qo‘yadi. Birinchi guruh bolalari taklif qilinadi (har bir bolaning qo‘lida uchtadan tennis koptogi bo‘ladi).

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bilan tennis koptokni uzoqroqqa otishga intiladilar. Tarbiyachi eng uzoqqa otgan bolalarni ko‘rsatib o‘tadi. Shundan keyin ikkinchi guruh bolalari taklif qilinadi.

“Kim tezroq bajaradi” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilarning yarmi dastlabki chiziqda saf bo‘lib turadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra ular kubiklardan tez yugurib borishlari, aylanib, bir oyoqda ikki marta sakrashlari va dastlabki chiziqqa yugurib qaytib kelishlari lozim. Tarbiyachi topshiriqni tez bajargan bolalarni nomini aytib o‘tadi. Shundan so‘ng ikkinchi guruh bolalari taklif qilinadi.

“Doiraga aniq tushir” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Tarbiyachi erga uchta gardishni qo‘yadi yoki doira chizib qo‘yadi va bolalarga undan 2-3 m narida turib oyoqlarini oldiga tennis koptokni (har bir bolani oldida uchtadan tennis koptogi qo‘yadi) qo‘yishni taklif qiladi.

O'yin tavsifi. Tarbiyachisining ishorasi bilan ular koptokni bir qo'llab pastdan doiraga otadilar kimda kim aniq tushirsa g'olib bo'ladi. Keyinchalik koptokni sonini oshirish mumkin.

“Gorelki” harakatli o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin zalda yoki maydonda o‘ynaladi. O‘ynovchilar bir-birlarini qo‘llaridan ushlab ikki qator bo‘lib turadilar. Oldinda boshlovchi bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bo‘yicha bolalar xo‘r bo‘lib:

*“Yon, yon lovullab yon,
Sho ‘lang ketsin xaryon
Bir qaragin ko ‘kka
deydilar*

*Qushlar uchar tikka
Jaranglamoqda zang
Bir, ikki, uch-chopgin!”*

Ohirgi so‘z aytilishi bilan safning oxirida juft turganlar qo‘llarini qo‘yib yuborib, safning boshiga yuguradilar – biri chap tomondan, ikkinchisi o‘ng tomondan. Boshlovchi ulardan birini safga bir-birlarining qo‘llaridan ushlab turib olgunlariga qadar tushishga harakat qiladi. Agar boshlovchi shuning uddasidan chiqsa, ushlangan bola bilan safning oldiga kelib turadilar. Juftsiz qolgan bola esa boshlovchi bo‘lib qoladi. Bolalarning harakat faolligini oshirish uchun juft juft qilib, ularni ikki-uch qator qilib to‘r chizish mumkin.

“Kim tezroq” o‘yini

O'yinga tayyorlanish. O'ynovchilar ikki, uch, to'rt qator bo'lib dastlabki chiziq oldida saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan safda birinchi bo‘lib turgan bolalar o‘ng yoki chap oyoqda 4 m masofada joylashtirilgan kegli yoki bayroqchaga sakraydilar. Sakrab borib buyumni aylanib o‘tgach, bolalar o‘z komandlari tomon yuguradilar va chiziqni bosib o‘tishlari bilanoq o‘yinni safda keyingi bo‘lib turgan bola boshlaydi. Topshiriqni tez bajargan komanda g‘olib chiqadi.

“Karusel” o‘vini

O'yinga tayyorlanish. Bolalar chizimchani o'ng qo'llari bilan ushlab doira yasaydilar.

O'yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bo'yicha bolalar doira bo'ylab astasekin yura boshlaydilar, keyin sekin asta tezlashib, oxiri yugurib ketadilar. Harakat baralla avtijgan tekstga muvofiq bajarijadi:

*"Aylanmoqda arang, arang,
Ot o'yini bu, xay qarang,
Orqaga keskin buring,
Hammangiz chopib keling".*

Bolalar doirani 2-3 marta aylanib chiqqanlaridan so'ng, tarbiyachi ularni to'xtatadi va harakat yo'nalishini o'zgartirishga ishora qiladi. O'ynovchilar orqalariga aylanib, chizimchani boshqa qo'llari bilan ushlab oladilar va yurish

hamda yugurishni davom ettiradilar. Keyin tarbiyachi bolalar bilan birligida shunday deydi:

“Shoshmang, sekin, sekin!

O‘yinni to‘xtating!

Bir, ikki, ol orom,

O‘yin bo‘ldi tomom!”

Karusel harakatni asta sekinlashtiriladi. Mana, o‘yin ham tugadi” degan so‘z eshitilishi bilan bolalar to‘xtaydilar, chizimchani erga qo‘yib butun maydon bo‘ylab tarqalib ketadilar. O‘yin 2 marta takrorlanadi.

“Darbozlar” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida uch qator bo‘lib saflanadilar. Har bir qatorning qarshisiga 3 m nariga bittadan buyum kegli, kubik, tanglikka o‘rnatilgan bayroqcha qo‘yiladi. Har bir qatorda birinchi bo‘lib turgan o‘yinchining qo‘lida bittadan qumli xaltacha.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan kopchani boshlariga qo‘yib, qo‘llarini yon tomonga uzatib, belgilangan joygacha tezlik bilan yuradilar. Marraga etib kelgach qopchani qo‘llariga olib tezda o‘z komandalariga qaytadilar va qopchani keyingi o‘ynovchiga uzatib, o‘z qatorlarining ohirigacha borib turadilar. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan komanda g‘olib chiqadi.

“Qarmoq” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar bir-birlaridan bir-ikki qadam narida turib doira hosil qiladilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bilan o‘rtada tarbiyachi tomonga qumli qopchani bog‘langan chizimchani ushlab olib aylantiradi, qopchaga yaqinlashgan har bir bola, imkoniboricha oyog‘iga qopchani tegizmaslikni harakat qilib joyida sakraydi. Oyog‘iga qopcha tekkan bola orqaga bir qadam tashlaydi.

“Dumalatib urib yiqit”

O‘yinga tayyorlanish. Tarbiyachi bolalarning soniga qarab dastlabki chiziqdan 5 m nariga keglilar qo‘yadi. Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh saflanadi, bolalarning qo‘llarida bittadan katta to‘p bo‘ladi.

O‘yinni tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra bolalar to‘pni to‘g‘ri yo‘nalishi bo‘yicha dumalatib, keglini urib yiqitishga harakat qiladilar. Qaramaqarshida turgan bolalar to‘plarini ushlab birinchi guruhini o‘rniga o‘tadilar, ya’ni o‘rin almashadilar. Mashq 2-3 marta takrorlanadi.

“Tegib ketmay yugurib o‘t”

Tarbiyachi bir biridan 40 sm oraliqda bir qator qilib to‘ldirma to‘plar qo‘yadi. Bolalar bir qator bo‘lib to‘ldirma to‘plar orasidan ularga tegib ketmay yugurib o‘tishga harakat qiladilar. Mashq 2-3 marta takrorlanadi. Safni boshlovchi har safar o‘yini takrorlaganda almashirishi mumkin.

“To‘xta” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar doira hosil qilib turadilar, o‘rtada qo‘lida kichik to‘p ushlab boshlovchi turadi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bo‘yicha u to‘pni yuqoriga otadi va bolalardan kimnigdir nomini aytadi. Nomi aytilgan bola to‘pni ketidan, boshqalar esa turli tomonlarga yuguradilar. Bola to‘pni ushlab olishi bilanoq baland ovoz bilan “To‘xta!”-deydi. Barcha o‘ynovchilar buyruq yangrashi bilan joylarida tikka to‘xtaydilar. Boshlovchi to‘pni o‘ziga yaqin turgan bolaga tegizishga harakat qiladi. Agar boshlovchi tekkiza olmasa, u yana to‘p ketidan yugurib ketadi, o‘ynovchilar esa tarqalib yuguradilar. Boshlovchi to‘pni qo‘liga olgan zamonoq “To‘xta!” deb buyruq beradi va to‘pni kimgadir tekkizishga harakat qiladi. To‘p tekkan bola boshlovchi bo‘lib hisoblanadi va o‘yin davom ettiriladi.

“Safda turib to‘p uzatish”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar uch qator bo‘lib saflanadilar, safda birinchi bo‘lib turganlarning qo‘lida bittadan katta to‘p bo‘ladi.

O‘yinning tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan bolalar qo‘llardagi to‘pni ikki qo‘llab boshlari uzra orqaga uzatadilar. Safdagileng oxirgi o‘yinchisi to‘pni olishi bilan safning boshiga yuguradi, o‘yin shu tarzda to boshlovchi yana kayta safning boshiga kelmaguncha davom etaveradi. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan komanda g‘olib chiqadi.

“Gardishga etib ol”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar dastlabki chiziqqa ikki qator bo‘lib safalanadilar. Har birining qo‘lida bittadan gardish bo‘ladi.

O‘yinning tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan birinchi qator bolalarni gardishi bir qo‘llab dumalatib, maydonning ikkinchi tomoniga boradilar, so‘ng gardishni qo‘llariga olib ikkinchi qatordagilarga qarab turadilar. Endi topshiriqni keyingi guruh bajaradi. Tarbiyachi gardishni yiqitib yubormay, marra chizig‘ini tezroq bosib o‘tgan boalalni ko‘rsatib o‘tadi.

“Tashla va ilib ol”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar juft-juft bo‘lib guruhlarga bo‘linadilar, o‘ynovchilarning birida to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasidan keyin bolalar erkin joylashib olib bir birlariga ikki qo‘llab ko‘krakdan to‘pni otadilar va tanalariga bosmay ilib oladilar xuddi basketbol o‘yinidagidek.

“Kim tezroq” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘yin sport zalda yoki sport maydonchasida o‘tkaziladi. O‘ynovchilar uch qator bo‘lib saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan safda birinchi bo‘lib turgan o‘ynovchilar to‘p turgan o‘z gardishlarigacha ikki oyoqda sakrab boradi, gardishdagi to‘pni olib orqaga yugurib qaytadi. Qo‘lida to‘p bilan ikkinchi

o‘yinchi ikki oyoqda gardishgacha sakrab borib, o‘nga qo‘lidagi to‘pni qo‘yib orqaga yugurib qaytadi. Belgilangan chiziqa va hokazo. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan komanda g‘olib chiqadi.

Tarbiyachi oldindan o‘ynovchilarning soniga bog‘liq holda to‘p qayerda bo‘lishini o‘quvchilarning qo‘lidami yoki gardishdami hisoblab chiqib uni aytadi.

“To‘p doirada” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar 5-6 kishidan bo‘lib bir nechta guruhlarga bo‘linadilar va doira hosil qilib turadilar. Doiraning o‘rtasida boshlovchi turadi, uning oyog‘i oldida esa to‘ldirma yoki basketbol to‘pi bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bilan boshlovchi o‘ynovchilarga oyog‘i bilan to‘pni dumalatdi yoki oyoq bilan oshirish: kelgan to‘pni har bir bola bir necha soniya tutib turadi va yana boshlovchiga qaytaradi.

“Keglini urib yiqit” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida bir qator bo‘lib turadilar, bolalarning soniga qarab 4 m nariga keglilar qo‘yiladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasi bilan ikkala qo‘lning keskin harakati bilan to‘pni oldinga dumalatib yuborib keglini urib yiqitish topshirig‘i beriladi. Tarbiyachi topshiriqni uddalagan bolalarni ko‘rsatib o‘tadi. Dastlabki chiziqqa ikkinchi guruh chiqadi va xuddi ana shu mashqni takrorlanadi (2-3 marta).

“Do‘ngdan-do‘nga sakrash” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Tarbiyachi to‘ldirma to‘plarni shaxmat tartibida qo‘yib chiqadi (6-8 dona ikki chiziqqa). O‘ynovchilar ikki qator bo‘lib saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan birinchi o‘ynovchilar ikki oyoqda tupdan-tupga sakrashni boshlaydilar. Birinchi bo‘lim boshlagan o‘ynovchi oxirgi to‘pdan sakrab o‘tishi bilanok mashkni ikkinchi bo‘lib tez va to‘g‘ri narigi tomonga o‘tib olgan komanda g‘olib chiqadi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

“To‘pni olib yur” o‘yini

Tarbiyachi ikki qatorga 1.5 m oraliqda 5-6 dona keglilar qo‘yadi va to‘pni oyoq bilan o‘zidan uzoqlashtirmay olib yurish topshirig‘ini beradi. Bolalar ikkiga bo‘linib, o‘rtacha tezlikda mashqni bajaradilar.

“To‘pni bir-biriga oshirish” o‘yini

Bir guruhdagi bolalar juft-juft bo‘lib bo‘linadilar va bir-birlariga goh o‘ng, goh chap oyoq bilan to‘pni dumalatadilar (o‘ynovchilar orasidagi masofa 1.5-2m).

“Volanni urib qaytar”

Ikkinci guruh bolalarni ham ikkitadan bo‘lib olib, qo‘llariga bittadan raketka va ikki kishiga bitta volan oladilar. Bolalar volanni bir-birlariga urib otadilar, bunda uning havoda ko‘proq vaqt bo‘lishiga harakat qiladilar.

“Kim tezroq” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar ikki qatorga juft-juft bo‘lib turadilar. Bir-birining qo‘lidan ushlab (juft-juft bo‘lib) 4 m masofani sakrab bosib o‘tish topshirig‘i beriladi.

O‘yin tavsifi. Mashqni tarbiyachining ishorasiga binoan safda birinchi bo‘lib turgan o‘ynovchilar boshlaydilar. Topshiriqni tez bajargan juftlar ta’kidlab o‘tiladi. Keyin ikkinchi bo‘lib turgan juftliklarga ishora qilinadi va hokazo.

“Gardishga tashla”

Bolalar gardishdan 1.5 m masofada ikki qator bo‘lib turadilar va tarbiyachining ishorasiga ko‘ra ko‘krakdan ikki qo‘llab gardishga to‘p tashlaydilar, so‘ngra o‘z saflarining oxiriga borib turadilar.

“Tovonbalik va churtonbalik” o‘yini

O‘yinga tayyorlanish. Bir bola cho‘rton baliq bo‘lib tayinlanadi, qolganlari ikki guruhga bo‘linadilar. Ulardan biri doira xosil qilib turadi – bu toshchalar, boshkasi tovonbaliqlar doira ichida suzib yuradilar. Churtanbaliq doiradan tashqarida bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining “Cho‘rtanbaliq!” degan ishorasiga binoan tezda doira ichiga kirib tovonbaliqlarni ushlab olishga harakat qiladi. Tovon baliqlar o‘ynovchilarning birortasi ketidan joy egallab olishga harakat qiladi va o‘tirib toshcha orqasiga bekinadi. Tutilgan tovon baliqlar doira tashqarisiga chiqadi va ular hisoblab chiqiladi. O‘yin boshqa cho‘rtonbaliq saylanib takrolanadi.

O‘yin tugashi bilan (3-4 marta takrorlanadi) tarbiyachi ko‘p tovonbaliq tutib olgan boshlovchi alohida ta’kidlab o‘tadi.

“To‘p boshlovchiga”

O‘ynovchilar uch-to‘rt doira hosil qilib turadilar, doiraning o‘rtasida boshlovchi turib, o‘ynovchilarga navbatma-navbat to‘p tashlaydi. Xammalari o‘yinni bajarib bo‘lishlari bilan boshlovchi to‘pni boshi uzra ko‘taradi.

“Kim tezroq”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida uch-to‘rt qator bo‘lib saflanadilar. Har bir qatorning oldidan turli buyumlar – kubiklar, keglilar, to‘plar va boshqalar solingan katta gardish yoki savat bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan birinchi bo‘lib turganlar unga yugurib borib bittadan buyum oladilar va o‘z qatorlarining oxiriga kelib turadilar. Ular belgilab qo‘yilgan chiziqni bosib o‘tishlari bilanoq boshqa o‘yinchisi yugurishni boshlanadi va hokazo. Buyumlarni olib kelishni oldin tugatgan komanda g‘olib chiqadi.

“Quvlashmachoq”

O‘yinga tayyorlanish. Boshlovchi tanlanadi, u rangli bog‘ich olib o‘rnida turadi. O‘yin zalda yoki maydonda o‘tkaziladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachisining “Tutib ol!” ishorasi berilgach, bolalar butun maydon bo‘ylab tarqalib ketadilar, boshlovchi esa o‘ynovchilardan birini tutib olishga harakat qiladi. Boshlovchisining qo‘li tekkan bola chetga chiqib turadi. Bir qancha vaqt o‘tgach, tarbiyachi “To‘xta!” degan buyruqni beradi va o‘yin to‘xtatiladi, to‘xtatilganlar sanab chiqiladi va yangi boshlovchi tanlanadi.

“Safga to‘p uzatish”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar ikkita saf bo‘lib saflanadilar. Qatorlardagi birinchi bo‘lib turgan har bir o‘yinchida bittadan to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan ular yonlarida turgan bolalarga to‘pni uzatadilar. To‘pni eng oxiri turgan bola olishi bilan uni boshi uzra ko‘taradi.

“Uysiz quyon”

O‘yinga tayyorlanish. Ovchi va o‘ysiz quyon tayinlanadi, qolganlar esa quyonlar bo‘ladilar, ular o‘zlariga doiracha chizib oladilar va o‘z uylarida turadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachisining ishorasiga binoan uysiz quyon qochadi, ovchi uni quvib etishga intiladi. Ovchidan qutilish uchun quyon xoxlagan doiraga kirib olishi mumkin; o‘scha doirada turgan bola esa uysiz quyon bo‘lib qoladi va ovchi endi uni quvib turishga harakat qiladi. Ovchi quyonni tutib olishga (qo‘l tekkizishga) muvafaq bo‘lar ekan, ular rollarini almashadilar. Bolalarning harakat faolligini oshirish uchun bir uyda ikki-uchtadan quyonlar turishi mumkin.

“Tezda uzat”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar bir-birlaridan bir qadam narida ikki-uch qator bo‘lib saflanadilar, birinchi bo‘lib turgan o‘yinchining qo‘lida bittadan katta xajmdagi to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra bolalar to‘pni komandalaridagi o‘zlaridan keyin turgan bolaga oyoqlari orasidan oldiga engashib, joyidan qo‘zg‘almay uzatadilar. To‘pni oxirgi turgan o‘yinchchi olishi bilanoq, o‘z qatorini aylanib o‘tib, birinchi bo‘lib turadi. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan komanda g‘olib chiqadi.

“Volanni urib qaytar”

Birinchi guruhdagi bolalar juf-juft bo‘lib turadilar va bir birlariga raketka bilan volanni tashlaydilar, bunda uni uzoq vaqt erga tushirmaslikka intiladilar (bolalar orasidagi masofa hoxishiga qarab belgilanadi).

“Yurib oshirish”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar juft-juft bo‘lib oladilar, ularning birida to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan birichi saf yurayotgan bolalari yurayotib bir-birlariga to‘p tashlaydilar. Topshiriqni tez bajargan va tashlayotganda to‘pni erga tushirib yubormagan juftlar g‘olib chiqadilar. Shundan so‘ng ikkinchi safdagi bolalar taklif qilinadi.

“Bayroqqagacha kim tezroq”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida bir-birlaridan bir qadam narida ikki-uch qator bo‘lib saflanadilar.

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan ular ikki oyoqda chizimchaning goh o‘ng goh chap tomonidan sakraydilar, so‘ngra bayroqchani aylanib o‘tib, o‘z saflarining oxiriga kelib turadilar. Keyingi turgan bola sakrashni birinchi bola marra chizig‘ini bosib o‘tgandan keyin boshlaydi (masofa 4 m).

“Tashla va ilib ol”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar ikkita guruhga bo‘linib, to‘rning ikki tomonidan turadilar. Birinchi guruhdagi bolalar qo‘llarida to‘p bo‘ladi.

O‘yin tavsifi. Bolalar tarbiyachining ishorasi bilan to‘pni to‘rdan oshirib tashlaydilar, to‘rning ikkinchi tomonidan turgan bolalar esa to‘pni erga tushib sakrab chiqqandan so‘ng ilib oladilar.

“Qo‘lga tushma”

O‘yinga tayyorlanish. Bolalar doira hosil qilib turadilar, har bir o‘yinchini oldida qum solingan xaltacha bo‘ladi. O‘rtada ikki-uchta boshlovchi turadi.

O‘yin tavsifi. Bolalar tarbiyachining ishorasiga binoan doira ichiga qopcha ustidan sakrab o‘tadilar va tutuvchilar yaqinlashishi bilan orqaga sakrab doiradan chiqishga harakat qiladilar. Boshlovchisining qo‘li tekkan bola, bir qadam orqaga chekinib turadi. 30-40 sekund o‘tgach, o‘yin to‘xtatiladi va yutkizganlar hisoblab chiqiladi, yangi boshlovchi belgilanadi va o‘yin takrorlanadi.

“Uzatdingmi-o‘tir”

O‘yinga tayyorlanish. O‘ynovchilar uch-to‘rt qator bo‘lib saflanadilar. Har bir qator boshida qo‘lida to‘p ushlagan boshlovchi turadi (o‘ynovchilardan 1-1.5 metr masofada chiziq chiziladi).

O‘yin tavsifi. Tarbiyachining ishorasiga binoan boshlovchi navbatma-navbat o‘z o‘yinchilariga to‘p tashlaydi. O‘yinchini to‘pni olib, shu zaxotiyoy uni boshlovchisiga qaytaradi va (oyoqni chalishtirib) o‘tiradi. Komandaning barcha a‘zolari topshiriqni bajarib bo‘lgach boshlovchi boshi uzra to‘pni ko‘taradi. Tarbiyachi g‘olib komandani aytib o‘tadi.

SAYR VAQTIDA BAJARILADIGAN SPORT ELEMENRTLARI BO‘LGAN O‘YIN VA O‘YIN MASHQLARI.

To‘p bilan bajaradigan (futbol elementlari bo‘lgan) o‘yin mashqlari
“Chaqqon bolalar”

O‘ynovchilar juftliklariga bo‘linib maydon bo‘ylab bir-birlariga halaqit bermaydigan holda erkin joylashadilar. Har bir juftda bittadan tup bo‘ladi. To‘jni 3-m masofada turib bir-biriga o‘ng hamda chap oyoq bilan uzatish topshirig‘i beriladi.

“To‘pni olib yur”

Har bir o‘yinchida bittadan to‘p bo‘ladi. Bolalar tarbiyachining ishorasiga binoan (saf tortib) maydonning bir tomonidan ikkinchi tomonga harakatlanib to‘jni goh o‘ng, goh chap oyoq bilan o‘zlaridan olislatmay olib o‘tadilar. Birinchi bo‘lib marra chizig‘iga etib borgan o‘yinchining ismi aytib o‘tiladi. Shundan so‘ng ikkinchi saf topshiriqni bajarishga kirishadilar.

“To‘p devoriga”

O‘ynovchilar kichikroq guruhlarga bo‘linib devor yoki taxta devor oldida, undan 3-4 m masofadan joylashadilar. Har bir bola erkin turganida goh o‘ng, goh chap oyoq bilan to‘jni navbatma-navbat devorga tepish mashqini bajaradi.

“Aniq aylanib”

Tarbiyachi maydon bo‘ylab turli buyumlarni kubiklar, to‘ldirma tuplar, g‘o‘lachalarni tarqatib qo‘yib chiqadi. Bolalar to‘jni ular orasida oyoq bilan to‘p olib yuradilar.

“To‘p darvozaga”

Bir nechta buyumlar bilan darvoza belgilanadi. Dastlabki chiziq oldiga yoki darvozadan 4-5 masofaga o‘yinchilar kelib turadilar va aniq harakat bilan to‘jni darvoza kiritishi uchun tepadilar, so‘ngra mashqni boshqa guruh bolalari bajaradi.

“Buyumni urib yiqit”

Dastlabki chiziqdan narida yoki 4 m masofada bir qator kilib keglilar terib qo‘yiladi. Yaqinroq masofadan yugurib kelib to‘jni tepib, u bilan buyumni urib yiqitish topshirig‘i beriladi.

“Aniq oshirish”

O‘ynovchilar juftlarga bo‘linib har bir juftda bittadan to‘p va maydonning bir tomonidan ikkinchi tomonga bir biriga o‘ng hamda chap oyoq bilan navbatma-navbat to‘p oshirib o‘tadilar.

To‘p bilan bajariladigan (basketbol o‘yini elementlari bo‘lgan) o‘yin mashqlari

“To‘pni to‘rdan oshirib”

O‘ynovchilar tarang qilib tortilgan to‘rning ikki tomoniga yoki undan 2-2.5 m narida joylashadilar va to‘jni turli usullar bilan pastdan, bosh orqasidan yuqoridan tashlaydilar

“Yuqoriga otib ilib ol”

Bolalar maydon bo‘ylab jamlanadilar va to‘pni yuqoriga otib chapak chalib ilib oladilar. To‘pni shunday balandlikka otish kerakki, to to‘p tushguncha chapa chalib ilib olish mumkin bo‘lsin.

“To‘pni savatga”

O‘ynovchilar savat oldida kichikroq yarim doira hosil qilib joylashadilar va turli usullar bilan ko‘krakdan ikki qo‘llab, bosh orqasidan, pastdan to‘p tashlaydilar.

“To‘p uzatish”

Bolalar juftlarga bo‘linib, ko‘krakdan ikki qo‘llab bir-birlariga to‘p tashlaydilar. To‘pni qo‘l bilan barmoqlarining uchi bilan, ko‘kkarakka yopishtirmay ilib olishi kerak.

“Past-baland”

To‘pni turgan joydan o‘ng va chap qo‘lda urib turish, bunda to‘pning sakrash balandligini o‘zgartirish yoki past-baland qilish lozim.

“To‘pni o‘z atrofida”

Bolalar maydon bo‘ylab erkin joylashadilar. Ularga to‘pni turgan joylarida, keyin esa o‘z atrofida o‘ng hamda chap qo‘l bilan navbatma navbat urib yurish taklif qilinadi.

“To‘pni doira bo‘ylab”

To‘pni doira bo‘ylab ketma-ket o‘ng va chap qo‘lda oldiga hamda erga urib olib yurish.

“Keglini aylanib o‘t”

Bolalar uch qator bo‘lib turadilar, har bir qatorining ro‘parasiga bir qator qilib 5-6 kegli ko‘yiladi ular orasidagi masofa 1,5-2 m turgan keglilar orasidan yugurib o‘tadilar. Kim birinchi bo‘lib tugatsa yutgan hisoblanadi. Tarbiyachi eng yaxshi komandani ko‘rsatib o‘tadi.

VOLAN VA RAKETKA BILAN BAJARILADIGAN O‘YIN MASQLARI (badminton o‘yini elementlari bilan)

“Yuqoriga otib, ilib ol”

O‘ynovchilar volanni yuqoriga otib, uni ikki qo‘llab, so‘ngra bir qo‘llab ilib olishga harakat qiladilar.

Keyingi topshiriq – volanni yuqoriga o‘ng yoki chap qo‘l bilan otish va chap yoki o‘ng qo‘l bilan ilib olishdir. Volanni bir-biriga 2 m masofadan tashlash va ikki hamda bir qo‘l bilan ilib olish.

“Volanni oshir”

O‘ynovchilar maydon bo‘ylab erkin joylashadilar va volanni raketka bilan uzatib, maydonning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o‘tadilar.

“Volanni urib qaytar”

O‘ynovchilar bir-birlaridan 2 m uzoqlikda juft juft bo‘lib joylashadilar, ularning har birida bittadan raketka va ikki kishiga bittadan volan. O‘ynovchilardan biri volanni tashlaydi, ikkinchisi uni raketka bilan urib qaytaradi, so‘ngra ikkinchi o‘yinchi tashlaydi, birinchi o‘yinchi urib qaytaradi.

SUZISHGA OID O‘YINLAR

“Favvora”

O‘ynovchilar bir-birlarining qo‘llaridan ushlab (yuza joyda) doira hosil qilib turadilar. Bolalar tarbiyachining ishorasiga ko‘ra o‘tiradilar va qo‘llari bilan orqaga tayanib, oyoqlarini uzatadilar. Keyingi ishoraga binoan hamma bolalar baravariga oyoqlari bilan suv taratayotgan (favvoradek) oldinga – yuqoriga harakat qila boshlaydilar (bir maromda nafas olinadi). O‘yinda 5-6 bola qatnashadi.

“Qutiga”

Bolalar nafas olib o‘tiradilar va oyoqlari bilan suv tagida shiddat bilan itarilib boshni va tizzani ko‘krakka tomon olib boradilar (bunda qo‘l boldirdan o‘tkazib ushlanadi) va shu tariqa suv yuziga suzib chiqiladi.

“Dengiz to‘lqinlanayapti”

O‘ynovchilar bellariqacha suvgaga tushib doira xosil qilib turadilar. Tarbiyachining “Dengiz to‘lqinlanayapti!” degan ishorasiga ko‘ra qo‘llari bilan suvda pastga-yuqoriga harakat qilinadi (tizzalar biroz bukiladi). Keyin “Dengiz tinchlandi!” degan ishorasiga ko‘ra tik olinadi. Mashq shu zilda bir necha marta ketma-ket bajariladi.

“Arg‘imchoq”

Bolalar juft-juft bo‘lib olib, bir-birlariga qarab qo‘llarini o‘zaro ushlab turadilar. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra ular suvda navbatma-navbat cho‘qqayib o‘tiradilar (boshini suvgaga botirmay).

“Poezd er osti yo‘lida”

Ikki o‘ynovchi bir-birlarining qo‘llaridan ushlab er osti yo‘li yasaydilar (qo‘llarini yuqori ko‘tarib turadilar). O‘ynovchilar uning tagidan huddi poezd singari qator bo‘lib o‘tadilar. Boshlovchi avval poezdni biz tomonga keyin

ikkinchi tomonga boshlab boradi. O‘yin takrorlanganda boshqa boshlovchi tayinlanadi.

TO‘P BILAN BAJARILADIGAN O‘YIN MASHQLARI VA ESTAFETALAR (katta hamda kichik to‘p bilan)

“To‘p maktabi”

O‘ynovchilar uch-to‘rt qator bo‘lib bittadan katta xajmli to‘p bo‘ladi. Har bir qator oldiga gardish qo‘yiladi (hajmi 50 sm). Tarbiyachining ishorasiga binoan birinchi o‘ynovchi to‘pni gardish ichiga uradi va uni ikki qo‘lda ilib olish uchun o‘zidan keyingi bolaga uzatadi, o‘zi esa yugurib borib qatorning oxiriga borib turadi va hokazo. Qatorda birinchi bo‘lib turgan bola yana birinchi bo‘lib qolsa, qo‘liga to‘pni olib bosh uzra ko‘taradi.

“To‘p devorga”

Komanda uch-to‘rt qator bo‘lib 3 m berida devorga qarab turadilar. Ishoraga ko‘ra birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilar to‘pni devorga urib, uni erdan sakrab chiqqandan so‘ng ilib oladilar va ikkinchi turgan o‘yinchiga uzatadilar, o‘zlar esa yugurib o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar.

“To‘p ketidan tez yugur”

O‘ynovchilar tarang tortilgan to‘r (chizimcha) oldida (0.5 metr berida) saf tortib turadilar. To‘pni to‘r ustidan oshirib tashlab, o‘zlar uning ostidan tezgina o‘tadilar va to‘p erdan sakrab chiqqandan so‘ng ilib oladilar. Shundan keyin topshiriqni ikkinchi safdagilar bajaradilar. Mashqni bajarishda kam jarima olgan (to‘pni ushlay olingan) komanda g‘olib chiqadi.

“To‘pni boshlovchiga berma”

Doiraning o‘rtasida 2-3 ta boshlovchi turadi. Doiradan tashqarida turganlar bir-birlariga to‘pni turli yo‘nalishda tashlaydilar, boshlovchilar esa unga qo‘lini tekkizishga harakat qiladilar. Bunga muvofiq bo‘lgan boshlovchi esa doiradan chiqadi, uning o‘rniga to‘pni otgan bola boshlovchi bo‘ladi.

“To‘pni olib yur”

O‘ynovchilar ikki qator bo‘lib saflanadilar, har birining qo‘lida bittadan to‘p bo‘ladi. Maydonning uzunligi yoki bo‘linmasligi bir biriga parallel qilib 1.5 m masofaga kubiklar (5-6 ta) qo‘yiladi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra birinchi turgan o‘ynovchilar to‘pni buyumlar orasidan olib yura boshlaydilar. Ikki-uch buyumlar orasidan o‘tishlari bilanoq boshqa bolalar o‘yinga kirishadilar va hokazo. Topshiriqni bajarib bo‘lgan har bir bola o‘z qatorining oxiriga borib turadi.

“To‘p boshlovchiga”

O‘ynovchilar uch qator bo‘lib saflanadilar. Dastlabki chiziqdan 2 m narida qo‘lida bittadan katta hajmli to‘p ushlab boshlovchilar turadi. Ular to‘pni qatorda birinchi bo‘lib turgan o‘yinchiga otadilar, ular to‘pni ilib olib yana qaytaradilar va o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. Boshlovchi to‘pni keyingi o‘yinchiga otadi va hokazo. Topshiriqni birinchi bo‘lib bajargan qator g‘olib bo‘ladi.

O‘YIN MASQLARI VA SAKRASHI BO‘LGAN ESTAFETALAR

“Do‘ngdan-do‘nga”

O‘ynovchilar start chizig‘i oldida uch qator bo‘lib turadilar. Har bir qatordan 10 m masofada chiziq tortiladi yoki hajmi 25-30 smli tekis gardishlar (6-8 dona) tashlab qo‘yiladi. Tarbiyachining buyrug‘iga binoan o‘ynovchilar gardishdan gardishga sakray boshlaydilar. Marra chizig‘iga etib borgach, orqalariga yugurib qaytadilar. Sakrashni keyingi qatnashchi boshlaydi. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan (chetga chiqib ketmagan) qator g‘alaba qiladi.

“Pingvinlar”

O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida ikki qator bo‘lib saflanadilar. Birinchi bo‘lib turgan o‘ynovchilarda bittadan qum solingan xaltacha bo‘ladi. Tarbiyachining ishorasiga binoan xaltachani tizzalarini orasiga qisib olib ikki oyoqda gardishgacha sakrab boradilar, keyin uni qo‘llariga olib o‘z qatorlariga yugurib kelib xaltachani keyingi o‘yinchiga beradilar. O‘zları esa qatorning oxiriga kelib turadilar.

“Quyonlar polizda”

Maydon o‘rtasida ikkita-ichkisi diametri 3 m, tashqisi 7 mli doira chiziladi. Quyonlar katta doiraning tashqarisida joylashadilar, qorovul esa kichik-doira polizda joylashadi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra quyonlar ikki oyoqda katta doira ichiga sakrab turadilar. Qorovul polizda u yoqdan bu yoqqa katta doirada yugurib yuradi va ularni ushlab olishga intiladi. Qorovul tutib olgan quyonni poliziga (kichik doiraga) olib kirib ketadi. Qorovul 3-4 ta quyonni tutib olgandan keyin o‘yin to‘xtatiladi va yangi boshlovchi tayinlanadi.

“Bayroqqacha kim tezroq”

O‘ynovchilar ikki qator bo‘lib saflanadilar. Har bir qatorning to‘g‘risiga – 5 m nariga bittadan buyum (bayroqcha, kegli, kubiklar) qo‘yiladi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra, birinchi bo‘lib turgan bola buyumgacha ikki oyoqda sakrab boradi va uni muayyan tomonidan aylanib o‘tib, yugurib orqaga vaytadi, qo‘lini keyingi bolaning qo‘liga tekkizadi va o‘z qatorining oxiriga kelib turadi.

“Buyumga tegib ketma”

O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida ikki qator bo‘lib saflanadilar. Har bir qatorning qarshisida maydonning uzunasiga 0.5 m oraliqda buyumlar (kubik, kegli,

to‘plar) qo‘yiladi. Tarbiyachisining ishorasiga binoan bolalar ketma-ket (uncha katta bo‘lman oralidagi) ikki oyoqda (ilon izi) bo‘ylab sakraydilar va o‘z joylariga qaytadilar. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan qator bolalari g‘olib chiqadilar.

O‘yin mashqlari va yugurishi bo‘lgan estafetalar

“To‘plarni olib o‘tish”

O‘ynovchilar uch qator bo‘lib safalandilar. Maydonni o‘rtasiga katta hajmdagi gardishlar qo‘yiladi, uning ichiga bolalarning soniga qarab kichik to‘plar terib qo‘yiladi. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra qatorda birinchi bo‘lib turgan bolalar gardish tomon yuguradilar va bittadan to‘p olib o‘z qatorlarining oxiriga kelib turadilar. Ikkinci o‘yinchi esa yugurishni birinchi o‘yinchi shartlashilgan chiziqni (har bir komanda oldida belgilangan) bosib o‘tishi bilan boshlaydi. Topshiriqni tez bajarib bo‘lgan komanda g‘olib chiqadi.

“Yugurib chiqishga ulgur”

O‘ynovchilar doira hosil qilib turadilar, bolalarning uchdan biri o‘rtada turadi. Doira bo‘lib turgan bolalar bir birlarinig qo‘lidan ushlab goh o‘ng, goh chap tomonga yuradilar, so‘ngra tarbiyachining ishorasiga ko‘ra yugurishga o‘tadilar. O‘rtada turganlar bir maromda chapak chalib turadilar. Tarbiyachining “To‘xa!” degan ishorasiga ko‘ra bolalar to‘xtab, zanjir qilib ushlagan qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar. Tarbiyachi uchgachan sanaydi. Bu vaqtida doiraning ichini o‘rtasida turgan bolalar undan yugurib chiqishga ulgurishlari kerak. “Uch!” sanog‘i aytilishi bilan bolalar ko‘llarini pastga tushuradilar. O‘yin takrorlaganda o‘rtaga boshqa bolalar tushadi.

“Kim tezroq”

O‘ynovchilar maydon o‘rtasida ikki qator bo‘lib bir-birlariga orqa o‘girib 1-2 m narida turadilar. Bir tomonda “o‘yin”chilar, ikkiinchisi “nina”chilar bo‘lib hisoblanadilar. Tarbiyachi qaysi komandani masalan “ninachilarni” chaqiradi. Ular tezlik bilan belgilangan chiziq orqasiga qochib utishlari (10-12 m) kerak. Ikkinci komanda bolalari orqaga burilib, ularni ushlab olishga intiladi. Ular nechta o‘yinchi tutsalar, shuncha ochko oladilar.

“Dengiz to‘lqinlayapti”

O‘ynovchilardan boshlovchi tayinlanadi. Boshqa bolalar doira bo‘lib bir-birlaridan bir qadam narida turadilar va har biri o‘z atrofiga doira chizadi. Boshlovchi doira bo‘ylab yurib kimningdir yoniga borib to‘xtaydi va “Dengiz to‘lqinlayapti!” deydi. U bola orqasiga turadi, bolalar bir-birlarining qo‘llaridan ushlab oyoq uchida yuradilar, so‘ngra doirachilar oralab yugurishga o‘tadilar. Boshlovchi (yoki tarbiyachining): “Dengiz tinchlandi!”-degan so‘zidan keyin hamma qo‘lini pastga tushiradi va birorta doirachani egallahsga intiladi. Kimki doirani egallay olmasa, shu bola boshlovchi bo‘ladi.

“Gardish bilan estafeta”

O‘ynovchilar ikki qator bo‘lib saflanadilar (har bir qator oldidan chiziq tortiladi). Qatordan 6-8 m masofada bittadan gardish tashlab qo‘yiladi. Tarbiyachining “Yugur!” degan ishorasiga binoan qatorda birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilar gardishga yuguradilar, uni olib yuqoriga ko‘taradilar, so‘ngra uni ichidan o‘tib, joyiga qo‘yyadilar va o‘z qatorlari tomon yuguradilar, kelib keyinga bolaning qo‘liga qo‘l tekkizib, qatorning oxiriga borib turadilar. Qolgan har bir bola ham topshiriqni huddi shu tarzda bajaradi. Mashqni tez tamomlagan komanda bolalari g‘olib chiqadilar.

“Bo‘sh o‘rin”

O‘ynovchilar katta doira xosil qilib turadilar. Boshlovchi doira tashqarisidan yurib, qo‘lini birorta o‘yinchining elkasiga tegizadi, u esa doira bo‘ylab qarama qarshi tomonga yuguradi. Har bir o‘yinchi bo‘sh qolgan joyga borib, uni egallab olishga harakat qiladi. Yutqizgan boshlovchi etib tayinlanadi. O‘yinni yaxshisi kamroq bolalar bilan o‘tkazgan ma’qul.

“Ko‘z boylamachoq”

O‘ynovchilar butun maydon bo‘ylab joylashadilar, o‘rtada esa “ko‘zi boylanadigan” turadi. Uning ko‘zi boylanadi va unga bir necha marta aylanish taklif qilinadi. So‘ngra barcha bolalar tarqalib ketadilar. Ko‘zi boylangan va unga bir necha marta aylanish taklif qilinadi. So‘ngra bir necha marta aylanish taklif qilinadi. So‘ngra barcha bolalar tarqalib ketadilar, ko‘zi boylangan ulardan birortasini ushlashga harakat qiladi. Agar o‘yin katta maydonda o‘tkazilgan bo‘lsa, unda chegara belgilanadi, ya’ni undan tashqariga chiqish man etiladi (chegaradan chiqib ketgan bolaning ko‘zi boylanadi)

Uzoq muddat davomida hech kimni tuta olmagan boshlovchi o‘rniga boshqasi tayinlanadi.

“Ishorani eshit”

O‘yinchilar doira bo‘ylab yuradilar. Tarbiyachi shartlashilgan ishorani beradi (xushtak yoki chapak chaladi). Agar ishora bir marta berilsa, bolalar yurishni davom ettiraveradilar, agar ishora ikki marta berilsa, bolalar yugurishga o‘tishlari kerak. Bir qancha vaqt o‘tgandan keyin yutkizganlar hisoblab chiqiladi.

“To‘hta”

O‘ynovchilar maydonining bir tomoniga saf tortib turadilar. Qarama-qarshi tomonda ularga orqa o‘girib, boshlovchi turadi. U baland ovoz bilan: “Tez yur, anqayma, to‘xta!”. O‘ynovchilar har bir aytilgan so‘zda oldinga bir qadam tashlaydilar (aytilayotgan tekstga muvofiq bir maromda).

Ohirgi so‘z aytilganida hamma to‘xtaydi, boshlovchi tezda orqaga qaraydi. Kimki o‘z vaqtida to‘xtay olmagan bo‘lsa, orqaga bir qadam qo‘yadi. So‘ngra boshlovchi yana tez yur, sekinlash, to‘hta, so‘zini qaytara boshlaydi, bolalar esa

harakatni davom ettiradilar. Kimki boshlovchi “To‘xta!” degan so‘zni aytguncha marra chizig‘idan o‘tib ulgursa, u boshlovchi bo‘lib qoladi. O‘yin takrorlanadi.

Suvni qarshilagini engishga oid o‘yinlar

1. “Qo‘l baland” o‘yini. Cho‘qqayib utirish, suvni tagidan oyoqda depsinish va suvdna imkon boricha balandga sakrash.
2. “Kechib o‘tish”. Ma’lum masofaga qo‘lda eshkak eshish harakati yordami bilan yurish.
3. “Kim tezroq”. Qo‘lda o‘ziga yordam berishi bilan, berilgan masofani suvda yugurib o‘tish berilgan masofani suvda yugurib o‘tish.
4. “Dengiz to‘lqinlanmoqda”. Bolalar bitta safda turib qirg‘oqqa yuz bilan turadilar solni, shestni va boshqa buyumni qo‘llari bilan ushlab turadilar. “Dengiz to‘lqinlanmoqda” buyrug‘i bo‘yicha qo‘lda xoxlagan xarakatini bajarib xoxlagan yo‘nalishda tarqaladilar (“to‘lqinni shamol tarqatib yubordi”). Mashg‘ulotni o‘tkazayotganni buyrug‘i bo‘yicha “Dengiz tichlandi!” o‘ynovchilar tezda dastlabki holatni qabul qiladilar. O‘yin boshlovchi “Bir, ikki, uch – mana biz joyimizga kelib turdik deydilar. O‘yinda kechga qolganlar o‘yindan chiqariladi.
5. “Dengiz chayqalmoqda”. O‘ynovchilar bitta saf bo‘lib turadilar. Oyoqlar elka kengligida qo‘yilgan, qo‘llar suvda, panjalar birlashtirilgan. Suvni o‘zini yuzasi tagida, ikkala qo‘lda o‘nga-chapga harakat qilishni bajaradi.
6. “Baliq va to‘r”. Ikkita o‘yin boshidan tashqari barcha o‘ynovchilar, yugurib ketadilar. O‘yinboshilar qo‘llarini ushlashib, ulardan birortasini tutishga harakat qiladilar (to‘rga tushirishga), tutilganni qo‘lni ushlab tutilgan atrofida ularni suvni yuzasiga tushiriladi. Tutilgan o‘yinchisi o‘yinboshilarga qo‘shiladi, asta sekin to‘r kattalashib boradi. Barcha baliqlar tutib bo‘lgandan keyin o‘yin tugaydi.
7. Tovon baliq va zog‘orabaliklar. O‘ynovchilar teng ikkita safga bo‘linadilar va 1 m masofada bir-biriga orqalarini o‘girib turadilar. Bitta safdagisi o‘yinchilar – “tovonbaliq”, boshqa safdagisi “Zog‘orabaliqlar” bo‘ladi. O‘yinni boshlovchi quyidagi suzni aytgandan keyin: Tovonbaliqlar safi, zog‘orabaliqlar degandan so‘ng imkon boricha shartlangan joyga tezda etib borishga harakat qiladilar. Shundan so‘ng bir vaqtida “tovonbaliqlar” buriladilar va “zog‘orabaliqlarni” quvlab etishga harakat qiladilar (ularga qo‘llarini tekkizguncha). Shunday qilib ushlanganlarini “tovonbaliqlar” to‘xtaydilar. O‘yinboshni signali bo‘yicha hamma o‘z joyiga qaytib keladilar va o‘yin yana boshidan boshlanadi.
8. “Suvni ushlab ol”. O‘ynovchilar safga yoki doiraga turadilar. “Suvni ushlab ol” signali bo‘yicha ular qo‘llarini suvga tushiradilar, panjaralarini birlashtiradilar va suvni xovuzchlab olib, qo‘lidagi suv bilan yuzasiga ustiga chiqaradi. Uyinboshi kim suvni xovuzida ko‘proq olgani hisobga oladi va qayd qiladi.

Suvga bosh bilan sho‘ng‘ishga oid o‘yinlar

1. Suv ostiga kim tezroq bekinadi?”. Tarbiyachisini signali bo‘yicha o‘ynovchilar suv ostida o‘tiradilar.

2. “Xorovod”. Bolalar qo‘llarini ushlashib, doira bo‘ylab yurib, ovozlarini baland qilib o‘ngachan sanaydilar. Keyin nafas olishni bajaradilar va suvga sho‘ng‘iydilar. Shundan so‘ng, shuning o‘zini boshqa tomonga yurib bajaradilar.

3. “Poyozd va tunel”. O‘ynovchilar bittadan qator bo‘lib turadilar va oldida turgan o‘yinchilari qo‘li bilan ushlab turadilar, huddi poyozdni aks etiriladi. Ikkita shug‘ullanuvchi, bir biriga yuzma-yuz qarab turib, qo‘llarini ushlab turadilar, ushlangan qo‘llarini suvga tushiradilar va tunelni aks ettiriladi. Qachon birga poyozd tunel orqali o‘tib bo‘lganlardan keyin, tunel aks ettirgan ikkita bollalar bilan ya’ni poezdni aks etirgan bolalar bilan joy almashadilar.

4. “Suv tagida o‘tir”. Tarbiyachini buyrug‘i bo‘yicha suvni tagida, ya’ni suvga boshi bilan sho‘ng‘ib o‘tirishga harakat qiladilar.

5. “Nasos”. O‘ynovchilar juf-juft bo‘lib bir-biriga yuzma-yuz qarab turadilar va qo‘llarini ushlatib turadilar. Navbat bo‘yicha cho‘qqayib o‘tirib, ular suvga boshini sho‘ng‘iydi (qachonki bittasi suvdan chiqsa, boshqasi o‘tiradi va uni tagida bekinadi).

6. “Qurbaqa”. O‘ynovchilar doiraga turadilar. “Churton” baliq deb signal berishi bilan barcha “qurbaqalar” yuqoriga sakraydilar “Urdak!” signali berilganda suvni tagiga bekinadilar. Buyruqni noto‘g‘ri bajanganlar doirani o‘rtasiga kelib turadilar, o‘yin barchasi bilan birga davom etadi.

7. “Qo‘ng‘izcha-kichik o‘rgimchak”. O‘ynovchilar, bir birlarini qo‘llarini ushlashib, doira bo‘lib boradilar. Doirani o‘rtasida o‘yinboshi “Qo‘ng‘izcha-kichik o‘rgimchak” turadi. Bolalar kuylagandek qo‘yidagi so‘zlarni aytadilar: “Qo‘ng‘izcha-kichik o‘rgimchak ovga chiqdi, ovsarga o‘xshab turmasdan suvni tagiga bekinishga ulgur!”. Oxirgi so‘zni aytib bulishi bilan hamma suvni tagiga o‘tiradi, kimda kim bekinishga ulgura olmasa, unda “qo‘ng‘izcha-kichik o‘rgimchak” bilan rollarini almashadilar.

8. “Beshgachan”. O‘yinboshi buyrug‘i bo‘yicha o‘ynovchilar chuqur nafas oladi va suv ostiga sho‘ng‘iydilar. O‘yinboshi baland ovozda beshgachan sanaydi. Kim vaqtida oldin suvdan sho‘g‘ib chiqib, qirg‘oqqa chiqsa u boshqa tomonga o‘tadi, qirg‘oqqa chiqsa u boshqa tomonga o‘tadi, sanaguncha turib, qirg‘oqqa chiqadi.

9. “Birga qo‘shilmoq!”. O‘ynovchilar doiraga turadilar, doira o‘rtasida o‘yinboshi turadi. Qachonki u ularni boshidan qo‘lini o‘tkazganda ular tezda suvga boshlarini tushiradilar.

10. “Ovhilar va o‘rdaklar”. Bolalar ikkita komandaga bo‘linadilar – “ovhilar” va “o‘rdaklar”. Ovhilar doiraga turadilar, doira ichida “o‘rdaklar” turadilar. “Ovhilar” to‘pni o‘rdakka otadi, ular chap beradilar yoki berkinadilar. O‘yin 2-3 daqiqa davom etadi. Shundan so‘ng komandalar joylarini almashadilar. Ko‘proq to‘pni tekkizgan komanda o‘yinda g‘olib bo‘ladi.

11. Oldinga va orqaga umboloq oshish.

12. Kim to‘p yoki yo‘lakcha ustidan umboloq oshadi.

Suv yuziga va ko‘tarilish va yotishga oid o‘yinlar

1. O‘ynovchilar (guruhdan 6-8 kishidan bo‘lib) chuqur nafas olishni bajarib, suv tagida o‘tiradilar va tizzani quchoqlab o‘tirib (boshni tushirib, engakni ko‘krakka qo‘yib turadi, suvni yuzasiga kilqib chiqadi). Ikkita guruh yoki alohida suzuvchilar mashqni sifatli bajarishga musobaqalashadilar.

2. “Meduza”. O‘ynovchilar (guruh 6-8 kishidan bo‘ladi) chuqur nafas oladi, so‘ngra suv tagida o‘tiradi va oldinga engashib, suvni yuziga ko‘tariladi (bosh-suvda, oyoq va qo‘llar erkin osilib turadi). Ular o‘sha musobaqa qoidalari bo‘ycha musobaqalashadilar, huddi oldingi o‘yindagidek.

3. “Kim chalqancha yotgan holatdan, ko‘krakda yotish xolatiga o‘g‘iriladi!”.

4. Kimda kim tayangan chalqancha yotgan holatdan suvda 10-20 hisobigacha o‘zini ushlab tura oladi.

5. “Po‘kak bilan quvlashmachoq”. “Quvlovchi” o‘yinboshi birorta o‘yinchilarda bittasiga qo‘lini tekizishga harakat qiladi. Quvlovchidan qutilishlari uchun, o‘yinchilar “po‘kak” holatda turadilar. Agarda “quvlovchi” o‘yinchiga, u ushbu holatni qabul qilguncha, qo‘lini tekizishga ulgursa, bu o‘yinchi “quvlovchi” bilan joylarini almashadilar.

Suvga nafas chiqarish bilan o‘yinayladigan o‘yinlar

1. “Kimda ko‘p pufakchalar bo‘ladi!”. Shug‘ullanuvchilar suvga boshlari bilan sho‘ng‘iydilar va og‘iz orqali uzun nafas chiqarishni bajaradi.

2. Yotqizib qo‘ysa o‘zi turib keladigan qo‘g‘irchoq juft-juft bo‘lib bo‘linishib, shug‘ullanuvchilar bir birlarini qarshisida va qo‘llarini mahkam ushlab turadilar. Birinchi signal bo‘yicha o‘ng tomonida turganlar o‘tiradi, suv ostiga tushadilar va chuqur nafas chiqaradilar (qo‘zni ochiq holda). Ikkinci signal bo‘yicha suv ostiga chap tomonda turganlar sho‘ng‘iydilar, ularni sheriklari keskin ravishda sakrab chiqadilar nafas oladilar. Boshqalarga nisbatan mashqni yaxshi bajargan (signal bo‘yicha qat’iy va hammadan uzoq turgan, juftlik yutgan hisoblanadi).

3. “Poezd” ikkita o‘yingchi qo‘llarini ushlashib ularni suvni yuzasiga tushiradi. Bu tunel vazifasini bajaradi. Qolgan bolalar esa, poezdni aks ettiradilar, bitta qatorga turiladi va oldingan harakatlanadi. Tunelga yaqinlashib kelganlarida ular nafas olishni bajaradilar, undan o‘tib, suv tagiga sho‘ng‘iydilar va nafas chiqaradilar. (“poezd par chiqaradi”) qachonki barcha poezd tunel orqali o‘tganidan keyin, poezdni aks ettiradigan bolalar, poezdni oxiriga borib turadilar, poezdan birinchi ikkitasi yangi “tunelni” tashkil qiladi.

4. Kim 5, 10 metrga yoki suvda navbat bilan nafas chiqarish boshqa sonda bajaradi.

5. “Arg‘imchoq”. O‘ynovchilar juft juft bo‘lib bir biriga orqalarini o‘girib turadilar va bir birlarini qo‘li ostidan oladilar. Navbatma navbat oldinga engashib, suvga yuzini tekizguncha holatigachan engashadilar, ular o‘zlarini sheriklarini orqasida suv ustida ko‘taradi. Suvga yuzini tushirish vaqtida nafas chiqarishni

bajaradi, qarshisida nafas oladi. Ushbu mashqni boshqalardan ko‘proq ketma-ket bir necha marta bajargan, juftlik yutgan hisoblanadi.

6. Suvga nafas chiqarish bilan estafeta. O‘ynovchilar bitta safga saflanadilar va tarbiyachini buyrug‘i bo‘yicha suvni tagiga tushadilar. Bunda o‘ziga qo‘llari bilan yordam beradi va suv ustida tinimsiz nafas olishni va finishni chegarasigachan suvda nafas chiqarib boriladi. Kimda kim startdan to finishgacha mashqni to‘g‘ri bajarsa yutgan bo‘ladi.

Suvda ko‘zni ochish bilan o‘ynaladigan o‘yinlar

1. “Suv tagiga tushuvchilar”. O‘ynovchilar suv tagidan o‘sha erga maxsus tashlangan, birorta yaltirab turgan buyumni olib chiqadilar.

2. “Dengizdagi jang”. O‘ynovchilar ikkita safga 1 m masofada bir biriga yuzma-yuz qarab turadilar. Tarbiyachining signali bo‘yicha ikki safda turganlar bir birlarini yuziga suv sachratishini boshlaydi. Suvni sekin yoki sachratganda ular orqasini o‘girib olmasa, ko‘zlarini yumgan komanda yutgan hisoblanadi. Shunda saflar bir biriga yaqinlashmasligi va bir birlariga qo‘llarini tegizmasliklari kerak.

3. “Diqqat bilan qara” O‘ynovchilar juft-juft bo‘lib bir biriga yuzma yuz qarab turadilar. Har bir komandan dan bittadan juftlik suvni ostida va ko‘zlarini ochib o‘tiradilar, boshqa juftlik unga panjalarni har xil sonini ko‘rsatadi. Birinchi o‘yinchi suvni tagidan chiqqandan keyin, ikkinchi o‘yichi undan, u nechta barmoqni kursatishni suraydi.

4. “Adashmaslik”. O‘ynovchilar bitta yoki ikkita qatorga bittadan saflanadilar. Ular navbatma-navbat bilan topshirilgan orientir bo‘yicha suv tagidan harakatlanadi (bu suv tagiga qo‘ylgan maxsus yaltiroq buyumlar bo‘lishi mumkin). Chunki suvga tez-tez boshini tushirish ko‘zini ochish yo‘li bilan suvni tagidagi yotgan buyumga qarab harakatlanishi zarur.

Sirg‘anish va suzish bilan o‘ynaladigan o‘yinlar

1. “Kim uzoqqa sirg‘anib boradi?”. O‘ynovchilar bitta safda turadilar va ko‘krakda va chalqancha etgan holatdan sirg‘anish bajaradi.

2. “Strela yoki to‘g‘ri chiziq”. O‘yinni boshlovchi suvga tushib, bitta qo‘lida navbatma navbat har bir o‘ynovchini sirg‘anish holatini qabul qilganini oyog‘ini ushlaydi, boshqa qo‘li bilan uni qornini tagidan ushlab va suvni yuzidan qirg‘oqqa to‘g‘ri chiziq bo‘ylab turtadi eng yaxshi to‘g‘ri chiziq yoki strela hammadan uzoqqa sirg‘anib boradi.

3. “Poezd va tunnel”. Ikkita o‘yinchi bir biriga yuzma yuz turib, qo‘llarini ushlab turadilar, lekin qo‘llarini suvga tushirmaydi. Bu tunnel bo‘lib hisoblanadi. Qolgan barcha o‘ynovchilar, “poezdni” aks etirib, bittadan qator bo‘lib tunnelni oldiga keladi va ko‘krakda sirg‘anishni bajarib “tunnel” orqali o‘tadi.

4. “Torpedalar”. O‘ynovchilar bitta safga saflanadilar va krol uslubida suzishdagidek, oyoqni harakatlantirishi bilan ko‘krakda sirg‘anishni bajarish. Shuning o‘zini chalqancha yotgan holatda bajariladi.

5. “Kim tez suzadi?”. Doskada va ma’lum masofaga doskasiz oyojni harakatlantirish yordamida ko‘krakda va chalqancha yotgan holatda krol uslubida suzish.

6. “Kim g‘olib bo‘ladi?”. Ma’lum masofaga ko‘krakda va chalqancha yotgan holatdan krol ulsubidan suzish.

7. “Kimni rekordi?”. Ko‘krakda va chalqancha yotgan holatdan krol uslubida aytilgan masofaga to‘lik koordinatsiya bilan suzish.

8. “Fontan”. O‘ynovchilar doira hosil qiladilar va qo‘llarini ushlab turadilar. Tarbiyachini signali bo‘yicha hamma chalqancha holatda yotadilar, doiraga oyojni uzatadi va o‘zini gavdasi yonida qo‘lni eshkak eshish harakati bilan ushlab turadi. Signalar bo‘yicha oyoqda harakatlanishni bajaradilar, xuddi chalqancha yotgan holda krol uslubida suzishdagidek, xar xil tomonga suzadilar.

9. Estafetalar. Shug‘ullanuvchilar ikkita komandaga bo‘linadilar va to‘liq koordinatsiya bilan qo‘l va oyojni xarakatlantirish yordamida suzishda musobaqalashadilar (ularni tayyorgarligia bog‘liq holda). Agarda ular suzishni sport uslubalarini egallab olgan bo‘salar, unda kombinirovanniy yoki aralash estafetalar o‘tkazish mumkin unda o‘yin qatnashchilari to‘liq koordinatsiya harakati yoki oeni harakati yordamida suzadilar.

Suvga sakrash bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar

1. Barcha shug‘ullanuvchilar, solda yoki plonda o‘tirib, suvga osiltirib o‘tirishadi. Tarbiyachini signali bo‘yicha ular suvga sakraydilar, tezda soldga yuzlari bilan burilladilar va unga qo‘llarini tegizadilar. Buni hammadan oldinda kim qilsa, o‘sha yutgan hisoblanadi.

2. “Estafeta”. O‘yinda ikkita komanda qatnashadi, ularda soldga bittadan qator bo‘lib o‘tiradilar. Tarbiyachini signali bo‘yicha har bir komandani oxirida o‘tirgan oldinda o‘tirganni qo‘li bilan uradi va suvga sakraydi. Har bir o‘ynovchi xuddi shuning o‘zini bajaradilar, faqat orqada o‘tirgan uni elkasiga qo‘lini tekkizgandan keyin.

3. “Start”. Soyada o‘tirgan xolatdan pasayishni bajarib, buyruq bo‘yicha tizzada turib yoki cho‘kallab o‘tiradi va oyoq harakati yordamida (“kim tezroq”) yoki to‘liq koordinatsiya bilan ma’lum masofani suzib o‘tadi (shug‘ullanuvchilarning tayyorgarligiga bog‘liq bo‘ladi).

4. Tizzada turgan holatda, cho‘kkalab o‘tirganda, suvga orqasi o‘girib o‘tirganda, start holatidan sakrashda tushishni bajargandan keyin kim uzoqqa sirpanib boradi.

5. “Kim solda” usulida kim yaxshi sakraydi (ya’ni oyoqda pastga)?

6. “Kim uzoqqa sakraydi?” Oyoqda pastga sakrashni bajarib, xavoda imkon boricha uzoqqa uchib borish.

7. “Xamma birgalikda”. Shug‘ullanuvchilar bir birindan 1 m masofada bitta safga saflanadilar. Tarbiyachini buyrug‘i bo‘yicha ular bir vaqtida oyoqda pastga sakraydilar, birorta sakrash yoki engashgan holatdan tashash.

8.”Pog‘ikali sharshara” 7-mashqni bajarish kerak”, lekin sakrashni biri ikkinchisidan keyin bajaradi.

To‘p bilan o‘ynaladigan o‘yin

1. “To‘p uchun kurash”. O‘yin qatshchilari ikki komandaga bo‘linadilar. Ularda biri-yengil koptoq o‘ziga tez tortmandigan bo‘lishi kerak (yoki futbol kamerasi). O‘sha komandani o‘yinchilari, xoxlagan yo‘nalishda, bir biriga to‘pni otishib harakatlanadilar. Ikkinci komanda esa birinchidan uni olib qo‘yishga harakat qiladi.

2. “Doira bo‘ylab to‘pni uzatish”. O‘ynovchilar suvni tagida turadilar va bir biriga to‘pni otishni boshlaydilar.

3. “Suvda voleybol o‘yini”. O‘ynovchilar doira bo‘ylab turadilar, qo‘lda zarba berib to‘pni bir-biriga oshiradi, uni xavoda imkon boricha ko‘proq vaqt ushlab turishga harakat qiladi.

4. “To‘p o‘zini murabbiyiga”. O‘ynovchilar ikkita komandaga bo‘linadilar. Birinchi komanda bitta belgida safalanadilar, ikkinchi komanda boshqa belgida turadilar. Har bir komandada – murabbiy bo‘ladi, ular o‘yinda qatnashmaydilar. Ular komandani belgisini qarama qarshi tomonida turadilar. Tarbiyachini signali bo‘yicha ikkala tomonidan o‘yinchilari maydon o‘rtasida turgan to‘pni egallab olishga harakat qiladilar va uni bitta yoki ikkita qo‘lda otadi va uni o‘zini murabbiyiga to‘pni berishga harakat qiladilar. Buni eng ko‘p marta to‘p uzatishni uddasidan chiqqan komanda yutgan hisoblanadi.

5. “To‘p bilan petna qilish”. O‘ynovchilar erkin ravishda suvda harakatlanadilar. Ulardan biri-petnachi bo‘ladi. U engil rezini koptogi bilan o‘ynovchilardan birortasiga tegizishga harakat qiladilar. To‘p tekkan o‘yinchi “petnachi” bo‘ladi.

6. “Suv polosi”. O‘yinida ikkita komanda qatnashadi. Birinchi komanda bir tomonidan maydon chizig‘ini egallaydi, ikkinchi komanda – boshqa tomondagи komandaga chiziqni egallaydilar. Har bir komandani orqasida darvoza bo‘shliq bo‘ladi, u o‘rindiq bilan belgilangan bo‘ladi. Tarbiyachini signali bo‘yicha to‘pni maydon o‘rtasiga tashlanadi. O‘yinchilar tezda markaz tomon harakatlanib, to‘pni egallahsga harakat qiladilar va uni raqib darvozasiga otadilar. Raqib darvozasiga ko‘proq marta to‘pni tushirgan, komanda yutgan hisoblanadi. Bir birini suvga cho‘ktirishga ruxsat etilmaydi va qo‘lda to‘pni uzoq vaqt ushlab turish mumkin emas. O‘yini qoidasi buzilganda o‘yinboshi o‘yinni to‘xtatadi va komandani jazolaydi, o‘yinchi boshqa komandani o‘yinchilariga to‘pni uzatgan bo‘lsa aybdor bo‘ladi. O‘yin 5 daqiqa davom etadi.

Chumchuqlar va avtomobil

O‘yinning maqsadi bolalarni turli yo‘nalishda bir-birlariga urilmasdan harakat qilishga va yo‘lni o‘zgartirib, o‘z joyini topib olishga o‘rgatishdan iborat.

Bolalar maydoncha yoki xonaning bir tomoniga qo‘yilgan o‘rindiqlarda o‘tiradilar. Bolalar chumchuqlar bo‘ladi, o‘rindiqlar esa in vazifasini bajaradi.

Ikkinchi tomonida turgan tarbiyachi avtomobilni ifoda etadi. U “Qani chumchuqlar, yo‘lga uchib tushamiz”, deydi. Shunda bolalar maydoncha bo‘ylab huddi chumchuqqa o‘xshab qo‘llarini qanot qilib, qoqib yuguradilar. Oradan bir oz vaqt o‘tgach, tarbiyachi: “Ehtiyot bo‘linglar, avtomobil kelayapti. Qani qushchalar in-inlarizingizga qochinglar”, deydi (1-rasm). Avtomobil garajdan chiqib, chumchuqlarga qarab yuguradi. Chumchuqlar inlariga qarab uchadilar (ya’ni joylariga borib o‘tiradilar). Avtomobil esa garajga qaytadi.

Dastlab o‘yinda 10-12 bola, keyin butun guruh qatnashadi. Tarbiyachi oldin chumchuqlarning qanday uchishini, qanday don cho‘qishini ko‘rsatib beradi. Bolalar chumchuqlarga taqlid qilib tarbiyachining harakatlarini takrorlaydilar. Keyin o‘yinga avtomobilni tarbiyachining o‘zi ishga bog‘lab sudrab yuradi. Faqat o‘yinni bir necha marta takrorlangandan keyingina harakatchanroq bir bolaga avtomobilni olib chiqish va yurishni topshirish mumkin. Eslatib qo‘yish joizki, qushchalar o‘z inlariga etib olishlari uchun avtomobil juda tez yurmasligi kerak.

Poezd

O‘yiinning maqsadi bolalarni bir nechtada bo‘lib, avval bir-birining orqasidan ushlab, keyinchalik ushlamasdan yurishga va to‘xtatishga o‘rgatishdan iborat. Tarbiyachi bolalarga bir-birlarining orqasidan turishni taklif qiladi: “Sizlar vagonchalar, men parovoz bo‘laman”, deb o‘zi bolalarning oldiga borib turadi (2-rasm). Parovoz hushtak chaladi-da, dastlab asta harakatlanib, so‘ng tez yurib ketadi (tarbiyasi “du-du-du” deb ovoz chiqaradi, bolalar uning ketidan qadamlarini asta tezlatib, keyin yugurib ketadilar). So‘ngra tarbiyasi harakatini sekinlashtirib, asta-sekin to‘xtaydi va: “Poezd bekatga etib keldi. Mana, bekat”, deydi. U yana hushtak chalib yurib ketadi.

Dastlab besh-oltita bola ketma-ket turadi, qolganlari stulchalarda o‘tirib tomosha qilishadi. O‘yin takrorlanganda bolalar soni 12-15 kishiga etishi mumkin. O‘yin ko‘p marta takrorlangandan so‘ng, eng chaqqon bolaga pravoz bo‘lishni topshirish mumkin. Vagonlar bir-biridan uzilib qolmasligi uchun parovoz (ya’ni, parovoz vazifasini o‘tovchi kishi) juda tez yurmasligi kerak.

Samolyotlar

Bu o‘yinda bolalar bir-biriga tegmasdan, turli yo‘nalishda yugurishga o‘rgatiladi. Shunda ular ishorani darrov ilg‘ab olib, harakatni boshlashga odatlanadilar.

Bolalar samolyotda o‘tirgan yo‘lovchilarni ifoda etadilar. Ular maydonchaning har er-har erida turadilar. Tarbiyachi “Uchishga tayyorlaning!” deganda ular qo‘llarini tirsakdan bukib oldilaridan aylantiradilar, ya’ni motorni ishga soladilar. “Uchinglar!” deganda bolalar qo‘llarini yon tomonlariga uzatib, maydoncha bo‘ylab tarqalib yuguradilar. “Qo‘ning!” deganda esa samolyotlar to‘xtab, erga qo‘nadilar (bolalar bitta tizzalarini erga qo‘yib cho‘nqayadilar). O‘yni 5-6 marta takrorlanadi.

Mazkur o‘yini bir oz murakkablashtirish mumkin. Buning uchun bolalar 3-4 guruhga bo‘linadilar. “Qo‘ning!” deganda bolalar o‘z joylarini topib turadilar, tarbiyachi qaysi guruh samolyotlari bиринчи bo‘lib to‘planganini ta’kidlaydi. O‘yin o‘rtasiga va kichik guruhlarga bo‘lgan holda o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kichkintoylarga buy o‘yin qiyinchilik tug‘dirish mumkin.

PUFAK

O‘yinda bolalar doira bo‘lib goh keng, goh g‘uj bo‘lib turishga o‘rgatiladi, berilgan buyruqqa mos harakat qilishga odatlantiriladi.

Bolalar tarbiyachi bilan birga qo‘l ushlashib, kichkina doiracha yasab bir-birlariga yaqin turadilar. Tarbiyachi she‘r aytadi:

*Pufak, pufak aytaman,
Shishib yana katta bo‘l.
Doimo shunday qol,
Yorilmay qo‘ya qol.*

Shundan keyin bolalar bir-birlarining qo‘llarini qo‘yib yubormasdan, orqaga yura boshlaydilar. Tarbiyachi: “Pufak yorilib ketdi”, deyishi bilanoq bolalar yurishdan to‘xtab, qo‘llarini tushirib cho‘qqayib o‘tiradilar va “paq”, “paq”, deydilar.

“Pufak yorilib ketdi”, degandan keyin bolalarga qo‘llarini qo‘yib yubormasdan doira markazi tomon yurishni taklif qilish mumkin. Ular doira markaziga qarab “sh-sh-sh-sh” deydilar (havo chiqib ketadi). Keyin yana “pufak shishiriladi”.

O‘yinda dastlab 6-8, keyin 15-16 ta bola ishtirok etadi. So‘zlarni shoshilmasdan aniq aytish, bolalarni tarbiyachi bilan birga so‘zlarni takrorlashga jalb qilish lozim.

Koptokni quvib et

Bu o‘yinda bolalar chaqqonlikka va koptokni yumalatib, tutib olishga o‘rgatiladi.

Bolalar maydonchada o‘ynab yurganda, tarbiyachi bir nechta bolani chaqirib, koptokni yumalatishni va uni tutib kelishni taklif qiladi. Keyin birin-ketin koptokni turli tomonga yumalatadi. Bola koptok ketidan yugurib, uni tutib oladi va tarbiyachiga keltirib beradi. Tarbiyachi koptokni bir gal boshqa tomonga otadi, lekin uni endi boshqa bola olib keladi.

Uch yashar bolalar tarbiyachi otgan koptokning orqasidan yuguradilar. Shundan keyin o‘yinga bolalarning boshqa guruhi jalb qilinadi. O‘yinda bir yo‘la 8-10 nafar bola ishtirok etishi mumkin. Bolalarning baravar yugurishni uchun hamma koptoklarni birdan otish kerak. Koptok o‘rniga rezina halqacha, qum solingan xaltachalardan ham foydalanish mumkin.

So‘qmoq bo‘ylab

O‘yindan maqsad bolalarni ko‘pchilik bo‘lib yurishga, chiziq orqasidan chiqib ketmaslikka o‘rgatishdir.

Tarbiyachi polga ikkita yonma-yon chiziq chizadi (yoki orasini 20-25 sm qilib ikkita 2,5-3 metrli arqon tashlaydi). Va bolalarga hozir o‘rmonga o‘ynagani borishlarini aytadi. Bolalar o‘rmonga uzun so‘qmoq yo‘ldan ehtiyyot bo‘lib boradilar, ya’ni bir-birlarining orqalaridan ikki chiziq orasidan sekin yuradilar. Keyin shu yo‘ldan qaytib keladilar.

Tarbiyachi bolalarning chiziqnini bosmasliklarini, bir-biriga xalaqit bermasliklarini, oldinda borayotganlarga urilib ketmasliklarini kuzatib, ular bilan o‘yin oxirigacha birga bo‘lish kerak.

Kim sekinroq

Bu o‘yinda bolalar diqqatni rivojlantirishga, aytilgan so‘zlarga mos harakat qilishga odatlantiriladi.

Bolalar tarbiyachilar bilan birga boradilar. Kutilmaganda tarbiyachi bunday deydi: “Qani, kim sekin-sekin yurishni yaxshi bilar ekan, oyoq uchlarida mana bunday yuring” (ko‘rsatadi). Bolalar oyoq uchlariga ko‘taradilar va mumkin qadar sekin yurishga harakat qiladilar. Qaysi tomonga qarab ketayotgan bo‘lsalar, o‘sha yo‘nalishda yo‘lni davom ettiradilar. Keyin tarbiyachi bildirmasdan chetga chiqib oladi-da: “Endi esa hamma mening oldimga yugurib kelsin”, deydi. Bolalar tarbiyachining oldiga yugurib kelib, uni o‘rab olishadi. Tarbiyachi bolalar bilan gaplashadi mashqni g‘ayrat bilan yaxshi bajargaliklarini ta’kidlab o‘tadi.

Uch yoshdagi ayrim bolalar oyoq uchida yurgan vaqtlarida boshlarini g‘ayritabiyy engashtirib, uni elka tomonga qisib yuradilar. Bunday holatda ular sekinroq yurayotganga o‘xshaydilar. Bolalarga bunday harakatlarni ko‘rsatib, ularni tuzatishga harakat qilish kerak. Oyoq uchida yurish tovon-to‘piqlarni mustahkamlaydi, shu sababli u bolaning jismoniy rivojlanishi uchun juda foydalı mashq hisoblanadi. Biroq bolalarni bu mashqni uzoq vaqt bajarishga majbur qilib, ularni toliqtirib qo‘ymaslik kerak. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

Tayoqchadan hatlab o‘t

O‘yindan maqsad bolalarni chaqqon harakat qilishga o‘rgatish, ularda sakrash, yugurish kabi harakatlarni mustahkamlash va shu orqali chaqqonlikka o‘rgatishdan iborat.

Xonaning o‘rtasida ikkita tayoqcha orasi 1 m qilib yonma-yon qo‘yladi.

Xonaning bir tomonida bolalar turishadi, ikkinchi tomonida stul o‘rindig‘ida bayroqcha bo‘ladi. Tarbiyachining ko‘rsatmasiga binoan tayoqchadan 2-3 qadam nariga bayroqchaga qarab turgan bola birinchi tayoqcha tomon yurib boradi va undan hatlab o‘tadi. So‘ngra ikkinchi tayoqchadan ham xuddi shunday hatlaydi. Stulga yaqishlashib boradi, bayroqchani qo‘lga oladi, uni boshidan yuqori ko‘tarib hilpiratadi, keyin bayroqchani yana stulga qo‘yadi, yon tomonga, chetroqqa chiqib ketadi va qaytib kelib, o‘z joyiga turadi. Shundan so‘ng topshiriqni keyingi bola bajaradi.

Agar bu mashq bir necha marta takrorlangandan keyin bolalarga juda osonga o‘xshab tuyulsa va ular bu topshiriqni tez hamda ishonch bilan bajara boshlasalar, mashqni biroz murakkablashtirish kerak bo‘ladi. Masalan, polga 4-6 tayoqchani bir-biriga yonma-yon qilib qo‘yib chiqib yoki bir necha chambarakni polga tashlab qo‘yib, bolalarga ana shularning ustidan hatlab o‘tish taklif qilinadi.

Qaldirg‘och va asalarilar

Maydon bo‘ylab uchib yurgan o‘ynovchi bolalar - asalarilar qo‘sinq aytib chopishadi:

Biz asalarilarimiz,

Asalimiz teramiz!

Viz, viz, viz!

Viz, viz, viz!

Bir ishtirokchi qaldirg‘och bo‘ladi va o‘z inida o‘tirgan bo‘ladi. U asalarilarga qarab: “Qaldirg‘och turadi va arilarni tutadi!” deb aytadi. Shundan keyin, o‘z joyidan turib, asalarilarni tutishga harakat qiladi. Tutilgan ari o‘rtaga turadi va qaldirg‘och bo‘ladi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

O‘yin qoidalari. Asalarilar butun maydon bo‘ylab uchishlari lozim. Qaldirg‘och asalariga qo‘lini tekkizsa kifoya.

Otma tayoq

Maydonga diametri 1,5 m bo‘lgan aylana chiziladi. Aylana ichiga uzunligi 50 sm li tayoq qo‘yiladi. Sanash orqali bir kishini o‘rtaboshi qilib tayinlashadi. Bir o‘yinchini to‘pni uzoqroqqa otadi. O‘rtaboshi otilgan to‘pga qarab yuguradi. Bu paytda esa o‘yinchilar berkinishadi. O‘rtaboshi tayoqni olib o‘z joyiga qaytib keladi va uni joyiga (markazga) qo‘yib, bolalarni qidira boshlaydi.

Berkinganlardan kimnidir sezib qolsa, uning ismini aytadi. Aytib bo‘lib, darrov tayoqcha oldiga yuguradi, ketidan nomi aytilgan bola ham. Agar o‘yinchini o‘rtaboshidan oldin etib kelsa, tayoqni yana olib, uzoqroqqa otadi va yana berkinadi. Agar o‘rtaboshi birinchi kelsa, o‘yinchini uning o‘rniga o‘rtaboshi bo‘lib turadi.

Hamma o‘yinchilar topib bo‘lingandan keyin, o‘yin yana boshidan boshlanadi.

O‘yin qoidalari. Tayoq doira markaziga olib kelib qo‘yilmaguniga qadar o‘yinchilarni qidirsh mumkin emas. Ismi aytilgan bola o‘sha zahoti chiqishi kerak, joyida chiqmay o‘tirish yoki aldamchi harakatlar mumkin emas.

Tayoqcha atrofidan

Yerga o‘rtaga aylana chizilib, uning markaziga o‘rtacha tayoq qoqishadi. Qur’aga ko‘ra o‘yinchilardan biri o‘ng qo‘lida tayoqni ushlab turadi, chap qo‘li bilan esa o‘ng qo‘l orasidan chap qulog‘ini ushlab qo‘yib yubormaslikka harakat qiladi va soat strelkasi bo‘yicha aylanadi. O‘yin bolalardan chaqqonlik, epchillik va irodani talab qiladi. Qulog‘ni qo‘yib yubormasdan eng ko‘p aylagan o‘yinchi g‘olib sanaladi.

Kiyikni ovlash

Barcha ishtirokchilar teng ikki guruhga bo‘linishadi. O‘yinda o‘g‘il bolalar ham, qizlar ham ishtirok etadilar. Ishtirokchilar qator bo‘ylab chiziq yoniga turishadi. Chiziqdan taxminan 1,5 m oldinda kiyik shoxchalari singari bir nechta daraxt shoxlari ko‘yilgan bo‘ladi (ularning soni o‘yinchilar soni bilan teng bo‘ladi). Har bir o‘yinchi qo‘lida arqon bo‘lib, u tuguncha qilib ochilgan bo‘lib. Bolalar arqonni kiyik shoxlariga tashlab ushlab olishga harakat qilishadi. Har bir bolaga 5 martadan imkoniyat beriladi. Shu imkoniyatlardan eng ko‘p shoxcha tutgan o‘yinchi yutgan hisoblanadi. O‘yin oxirida umumiy jamoaviy ballar hisolanib, bir jamoa g‘olib deb topiladi.

O‘yin qoidalari. O‘yin qoidalari. O‘yin tarbiyachi yoki o‘yinboshi ishorasi bilan boshlanadi. Chiziqni bosish yoki undan ichkariga kirish mumkin emas.

Hayvonlar qiroli

Barcha o‘yin ishtirokchilari turli hayvonlar rolini bajaradilar. Qur’aga ko‘ra bir o‘yinchi ularning qiroli hisoblanadi. Har bir hayvon qiroqla hech kim eshitmaydigan qilib o‘z nomiga aytadi (masalan, sher, quyon, bo‘ri va h.q.). Barcha hayvonlar bir chiziqqa chizilib turishadi, ulardan bir necha qadam narida qirol turadi. Qirol oyoqlari tagida to‘p turadi. Qirol bir hayvonning nomini aytib chaqiradi va o‘sha bola chiqishi bilan chiziq bo‘ylab yuguradi, qirol esa unga qarata to‘pni tepib poylashga harakat qiladi. Agar to‘p o‘yinchiga tegsa, u qirol oldiga yordamchi bo‘lib turadi (to‘pni olib kelib turadi va h.k.). Qirol birdaniga bir nechta hayvonning nomini aytishi ham mumkin va ular yugurayotganlarida to‘pni tepib ulardan birini poylashi mumkin.

O‘yin qoidalari. To‘pni juda kuchli tepish kerak emas, o‘yinchilarga shikast etkazib qo‘yish mumkin. Yangi qirol o‘yinda uchta-to‘rtta hayvon tutilgandan so‘ng saylanadi.

To‘pni hayda

Maydonchaning ikki qarama-qarshi tomonlarida ikkita chiziq tortiladi. Ular orasidagi masofa 5-10 metr bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilar ikki guruhga bo‘linishadi, chiziqqa qarama-qarshi qarab chizilib turishadi. Qur’aga ko‘ra ularning biri o‘yinni boshlaydi. Bolalar ketma-ketlikda oyoqda to‘pni kuchli tepib, uni raqiblar tomoniga yo‘naltirishadi. Ular esa o‘z navbatida to‘p chiziqdan tashqariga o‘tib ketmasligi uchun to‘pni tepib yuboradilar. Agar to‘p chiziqqacha etib bormasa, o‘yin ishtirokchilari uni qo‘llari

bilan uzatishlari mumkin. Shu yo‘sinda o‘yin to‘p to chiziqdan tashqariga chiqib ketmaguniga qadar davom etadi. To‘pni qo‘yib yuborgan o‘yinchiga jarima belgilanadi (u o‘yinchilar safidan chiqadi). Eng ko‘p o‘yinchisi qolgan jamoa yakunda g‘olib chiqadi.

O‘yin qoidalari. To‘pni qabul qilayotgan o‘yinchi chiziqdan 1 qadam tashqariga chiqib turishi mumkin. Agar to‘p juda sekin yo‘naltirilgan bo‘lsa va raqib tomonga etib bormasa ham o‘sha o‘yinchiga jarima belgilanadi.

Mergan bola

Bir-biridan 10-15 m masofa orlag‘ida ikkita parallel chiziq tortiladi. Ular o‘rtasida diametri 2 m bo‘lgan aylana chiziladi. Unda bir bola (mergan) turadi. Uning qo‘lida to‘p bo‘ladi. Boshqa o‘yinchilar bir chiziqdan ikkinchisiga yugurib o‘tib harakatlanishadi. Mergan ularga qarab to‘p otib, tekkizishga harakat qiladi. To‘p kimga tegsa, o‘sha o‘yinchi mergan bo‘lib turadi.

O‘yin qoidalari. O‘yin boshida mergan qilib bir bolani tanlashadi. Ya’ni, tarbiyachining “O‘tiring!” degan buyrug‘idan keyin oxirgi o‘tirgan bola mergan bo‘ladi. Agar mergan otgan to‘pni yugurayotgan o‘yinchi ilib olsa, undan hisobga kirmaydi.

Kiyikni ur

Ishtirokchilar orasidan ikki kishi o‘qchi bo‘ladi. Qolgan o‘yinchilar esa kiyik rolini o‘ynab, ular katta doira ichida turishadi. O‘qchilar doira tashqarisida, bir-birlariga ro‘parama-ro‘para turishadi. Tarbiyachining “Bir, ikki, uch-tut!” degan ishorasidan keyin o‘qchilar kiyiklarga qarata to‘p otishadi, ular esa to‘pdan qochishga urinadilar. Qaysi kiyikka to‘p tegsa o‘sha bola tutilgan hisoblanadi.

O‘yin qoidalari. O‘yinni faqat boshlovchining ishorasidan so‘ng boshlash lozim. To‘pni faqat o‘yinchilarning oyog‘iga otish kerak.

Baliqlar va nahang

O‘yinda 7-8 tagacha bola qatnashadi. O‘ynovchilardan biri nahang bo‘lib tanlanadi, qolganlar esa – baliqlar. O‘yin uchun 2-3 m keladigan ip kerak. Uning bir uchi katta tayoqchaga mahkam bog‘lanadi. Ikkinchi uchini nahang rolini bajaruvchi bola tizza balandligida tarang tortib ushlab turadi. Arqonni tarang ushlab turgan holda aylana bo‘ylab yuguradi. Arqon yaqinlashayotganda baliqchalar (bolalar) ustidan sakrab o‘tishadi. Arqon kimning oyog‘iga tegsa o‘sha baliq eyilgan hisoblanadi (ya’ni bola o‘yindan chiqadi).

O‘yin qoidalari. Bolalar o‘yinni tarbiyachining ishorasiga qarab boshlashadi. Arqon doim tarang tortilib turishi kerak.

Doiradan chiqar

O‘yinda bir nechta bola ishtirok etishi mumkin. Aylana bo‘ylab bir-biridan 40-50 sm oraliqdagi kichik doirachalar chiziladi va o‘yinchilar shu doirachaga o‘tirishadi. Bir bola turgan holda, bir oyoqlab ular atrofida sakrab turadi.

O‘tirganlardan kimnidir doiradan chiqarib yuborishga harakat qiladi. O‘yinchining bitta oyog‘i ham tashqariga chiqib ketsa, u o‘yindan chiqadi.

O‘yin qoidalari. O‘tirgan o‘yinchilar goh-gohida qo‘llari bilan polga (yoki erga) tegishlari mumkin. Turgan o‘yinchi o‘tirganlarni kuchli turtishi kerak emas. O‘yinchi sakrayotgan oyog‘ini o‘zgartirib turishi mumkin.

O‘rmonchi

Yerga diametri 8-10 m bo‘lgan katta aylana chiziladi. Bu o‘rmon hisoblanadi, o‘rtasida kvadrat bo‘lib, bu o‘rmonchining uyi vazifasini o‘taydi. Kvadrat ichiga bir bola qo‘yiladi va o‘rmonchi tanlanadi. Qolgan ishtirokchilar oqqush bo‘ladilar.

Oqqushlar o‘rmonga uchib kirib, o‘rtadagi bolani olib chiqishga urinadilar, o‘rmonchi esa – ularni tutib olishga, qo‘l bilan tegishga harakat qiladi. Bolani kvadratdan olib chiqqan oqqush o‘rmonchi bo‘lib oladi va o‘yin qaytadan boshlanadi.

O‘yin qoidalari. O‘rmonchining uyiga kirish mumkin emas. Tutilgan oqqushlar o‘yindan chiqadi. O‘rmonchi o‘rmon tashqarisiga chiqib ketishi mumkin emas. Undan tashqari u bitta joyda ham turishi kerak emas, u doimiy ravishda aylana ichida harakatlanib turishi lozim.

Tegirmonda to‘p

Bir nechta ishtirokchilar katta aylana bo‘ylab turishadi, ular bir-biridan kamida 2-3 qadam oraliqda bo‘lishlari kerak. O‘yinchilardan biri tarbiyachidan to‘pni olib yonidagi sherigiga otib uzatadi, unisi yonidagiga, keyin shu tariqa to‘p aylana bo‘ylab uzatilaveradi. Sekin-sekin to‘p tezligi oshib boradi.

O‘yin qoidalari. To‘pni qo‘lidan chiqarib yuborgan yoki noto‘g‘ri uzatgan bola o‘yindan chiqadi. Shu tariqa o‘yinda qolgan oxirgi o‘yinchi g‘olib hisoblanadi.

Oqsoq turna

Barcha o‘ynovchilar ikki jamoaga bo‘linadilar. 3-5 metr masofali maydonga ikkita 5-6 metrli parallel chiziq o‘tkaziladi. Har bir jamoa o‘zining belgilangan chizig‘i orqasida turadilar. Barcha ishtirokchilar bir oyog‘ini orqaga tizzadan bukib, qo‘li bilan uni ushlab (o‘ng oyojni o‘ng qo‘li, chap qo‘li bilan) turadilar.

Hushtak chalinishi bilan ikka guruh bir-birlariga qarama-qarshi sakrab-sakrab yaqinlashgan chog‘da bo‘sh qo‘li va gavdasi bilan qarshi guruhdagi o‘yinchini turtib, uni ikkala oyoqqa turishiga harakat qiladilar. Shunda ikkala oyog‘iga turgan bola o‘yindan chiqadi.

O‘yin qoidalari. O‘yinchilar bir-biriga qarab sakrashni faqat hushtak chalinishi bilan boshlashadi. O‘yinchida charchash holati bo‘lsa, unga tezda oyog‘ini almashtirib olishga ruxsa beriladi.

Dumini ushla



Barcha ishtirokchilar aylana bo'ylab turishadi. O'rtada "sher" o'tiradi. Qolgan ishtirokchilar – "qo'y" hisoblanishadi. Sher o'zini uxlayotganga solib o'tiradi. Qo'ylar uning atrofida qo'shiqlar aytib aylanishadi va ora-orada sherni qo'llari bilan turtib qo'yishadi. Sher kutilmaganda uyg'onib darhol qo'ylarni tutishga urinadi (qo'li bilan tegadi). Tutilgan qo'y sherga yordamchi bo'lib o'rtaga o'tiradi.

O'yin qoidalari. Sher hohlagan paytda qo'ylarni tutishi mumkin, lekin unga kimdir birinchi marta tegmaguniga qadar o'rnidan turmaydi.

Oqlar va qoralar

Bir necha kishilik ikki jamoa bir-biriga qarama-qarshi bo'lib turadilar. Boshlovchi bir tomoni qora, boshqa tomoni oq karton diskni otadi. Karton diskning qora yoki oq tarafi tushishiga qarab, birinchi jamoa ikkinchi jamoani tuta boshlaydi. Qochayotganlar chizib qo'yilgan chiziqdandan o'tib ketishga harakat qiladilar. Qaysi guruhning hisobida tutib olingan raqiblarning soni ko'p bo'lsa, shu jamoa g'olib hisoblanadi.

O'yin qoidalari. Raqiblarni faqat boshlovchining "Oqlar!" yoki "Qoralar!" deyishi bilan tuta boshlash kerak. Qochayotganlarni faqatgina chizilgan chiziq ichida tutish mumkin. Chiziqning tashqarisidagilar hisobga olinmaydi.



Toshlarni yig'

O'yinchilar ikki jamoaga bo'linishadi. Ikki tomonda ikkita krusicha turadi, ularning ustida toshlar turadi, ikkalasida ham toshlar soni bir xil bo'lishi kerak. Ikkala jamoadan bittadan bola chiqib to'pni qo'liga oladi va bir vaqtida kuchi boricha tepaga otadi, to'p to erga kelib tushgunicha kursicha ustidagi toshlarni yig'ishi lozim. Kim ko'p tosh yig'sa o'sha g'olib chiqadi va navbat boshqa ikki o'yinchiga beriladi. Yakunda umumjamoa yutug'i hisoblanib, bir jamoaga g'oliblik beriladi.

Tayoqni otish

Maydonchaga chiziq tortiladi. Ikkita o'yinchchi qo'llarida o'rtacha tayoqcha bilan chiziqqa orqa bilan turishadi. Tayoqni tepasidan ushlab, bir uchini oyoqlari ustiga qo'yishadi, oyoq erda turadi. Keyin oyoqning kuchli sultanma harakati bilan tayoqni iloji boricha uzoqroqqa irg'itishadiyu Kimning tayog'i uzoqroqqa borsa, shu bola o'sha joyga borib turadi va yutqizgan bola tayog'ini otga o'xshab minib oladi va uzoqroqda turgan bolani quvlaydi.



O'yin qoidalari. Yugurishni faqat tarbiyachi ishorasiga binoan boshlash kerak.

Rigu-ragu

Bir nechta bola bir joyga to‘planib turadi. Ulardan biri o‘yinboshi bo‘ladi. Qolgan bolalar qo‘lini mushtum qilib turadi. O‘yinboshi qo‘lini bir-ikki marta silkitib: “Rigu-ragu, rigu-ragu...” deb aytadi. Keyin bosh barmoqlarini chiqarib

shoxni ifodalaydi va shoxli narsalarning nomini aytadi, masalan: «Shoxli echki» yoki “Shoxli uy, shoxli ko‘ylak” deb chalg‘itadi. Agar shoxi bor hayvon aytilsa, hamma bolalar qo‘llarini bosh barmog‘ini chiqarishlari kerak bo‘ladi. Agar o‘yinboshi bolalarni chalg‘itib shoxi bo‘Imagan hayvonni yoki boshqa bir buyumni aytса, bolalar shohni ko‘rsatmasliklari kerak. Xato qilgan o‘yinchi o‘yindan chiqadi.

O‘yin qoidalari. Bolalar ikkala qo‘llarini bosh barmog‘ini chiqarishlari shart, bittasi hisoblanmaydi. O‘yindan xato qilib, chiqib ketgan bola o‘ynab beradi yoki qo‘shiq aytadi.



Gullar

Har bir o‘yinchi o‘ziga gullardan ism tanlaydi (atirgul, liliya, nargiz va hokazo). Bolalar orasida bir xil ismli o‘yinchi bo‘lishi mumkin emas. Qur‘a tashlash yo‘li bilan tanlangan gul (masalan atirgul) o‘yinni boshlaydi. Atirgul o‘ziga lola gulini chaqirib uni quva boshlaydi. Agar lolada tutilish xavfi tug‘ilsa, u boshqa bir gulni o‘rniga chaqiradi. Navbatdagi o‘yinchi qocha boshlaydi.

O‘yinchilar faqatgina gullar nomi bilan emas, balki hayvonlar va baliqlar nomi bilan ham atalishi mumkin.

O‘yin qoidalari. Tutilgan o‘yinchi ismini o‘zgartirib o‘yinda qayta ishtirok etishi mumkin. O‘yin davomida bir xil ism qaytarilishi mumkin emas. O‘yin davomida biror marta tutilmagan o‘yinchi g‘olib hisoblanadi.



Quyon tongi

Bir nechta o‘yinchilar – quyonlar, ulardan biri – quyonlar murabbiyi. Maydoncha o‘rtasiga kichkina aylanachalar chiziladi. Bu ularning uychasi vazifasini bajaradi. Murabbiyning bunday uychasi yo‘q. Murabbiy quyonchalarga qarab: “Hamma tursin!” (quyonchalar harakatlar bilan buyruqni bajaradilar). Hamma yuvinadi, gimnastika qiladi, o‘rin yig‘ishtiradi, nonushta qiladi, maktabga ketadi, maktabda o‘qiydi, uyga qaytadi, dars tayyorlaydi, hovliga chiqib o‘ynaydi” deydi. “Hovliga chiqib o‘ynaydi” degan buyruqdan so‘ng quyonchalar uychalaridan chiqib, chopib yuradilar.

Murabbiy birdaniga: “Tun” deydi. Shunda hamma o‘z uychasiga yugurib qaytishi kerak. Oxirida qolgan bola yutqizgan hisoblanadi.

O‘yin qoidalari. Barcha harakatlar murabbiy buyrug‘idan so‘ng bajariladi. Bolalar hovlida yugurayotganda uychasidan kamida 10 qadam tashqarida bo‘lish kerak.

Baliq ovi

Bir necha o‘yinchilardan ikki guruhga bo‘linadi. Guruhlar bir-biriga qarama-qarshi bir necha qadam oralig‘ida turishadi. Birinchi guruh-baliqchilar (ularning soni kamroq), qolganlar – baliqlar. Baliqchilar:

- Biz baliq tutamiz.
- Qanday baliq?
- Laqqa baliq.
- Tutinglar!- deb baliqlar javob qaytarishadi.

Baliqlar o‘girilib belgilangan chegaracha qochadilar. Har bir tutilgan baliq o‘yindan chiqadi.



O‘yin qoidalari. Baliqlarni faqat chegaragacha tutish mumkin. Baliqchining qo‘li tekkan baliq tutilgan hisoblanadi.

Qo‘lingni ko‘tar



O‘yinda ishtirokchilar turgan yoki o‘tirgan holda aylana bo‘lib bir-birlariga xalaqit bermaydigan oraliqda turishlari kerak. Quraga ko‘ra markazda turishga bir o‘yinboshi tayinlanadi. U doira atrofinidan sekin-asta yurib, bir o‘yinchilardan oldida to‘xtaydi va baland ovozda: “Qo‘lingni ko‘tar!” deydi. O‘yinboshi aytgan bola holatini o‘zgartirmasdan turishni davom ettiradi. Lekin uning ikki chekkasida turgan qo‘shnilari o‘scha zahotiyoq bir qo‘llarini ko‘tarishlari kerak: o‘ng tomondagi qo‘shni chap qo‘lini, chap tomondagi qo‘shni esa o‘ng qo‘lini ko‘taradi. Agar bolalardan biri noto‘g‘ri qo‘lini ko‘tarsa, umuman ko‘tarishi esidan chiqib qolsa yoki boshqa bir xatoga yo‘l qo‘ysa, bu bola o‘yinboshi bilan o‘rnini almashib o‘rtaga turadi.

O‘yin belgilangan vaqtgacha o‘ynaladi (masalan 10 daqiqa). Qaysi o‘yinchilardan biri xo‘roz rolida. Xo‘roz o‘yidan chiqib, maydoncha bo‘ylab chopadi va uch marta qichqiradi. Bolalar unga javoban:

Xo‘roz, xo‘roz,

Bolalar va xo‘roz

O‘yinchilardan biri xo‘roz rolida. Xo‘roz o‘yidan chiqib, maydoncha bo‘ylab chopadi va uch marta qichqiradi. Bolalar unga javoban:

*Boboxo 'roz,
Muncha erta turding-
Bolalarni uyg 'otding?*

Shundan so'ng xo'roz inidan chiqib, qanotlarini qoqib, bolalarning ketidan yuguradi. Agar bolalarni tuta olmasa iniga qaytadi.

O'yin qoidalari. Xo'roz qanotlarini qoqqandan so'ng bolalar yuguradilar. Bolalar o'z uylariga kirib ketishlari mumkin.



Qovoqni urish

Uyinda bir nechta bola ishtirok etadi. Yerda diametri 1-1,5 m bo'lgan aylana chiziladi. Undan 6-8 qadam nariroqda erga tayoq qadaladi (tayoqnning balandligi 1m dan ortiq bo'lmasligi kerak), uning ustiga esa quruq ko'rgazmali (dekorativ) qovoq kiygiziladi. Qur'aga ko'ra bir yo'inchi aylana ichidagi qovoqqa orqasi bilan turadi. Uning qo'liga uzunligi 1 m li tayoqcha beriladi, ko'zi esa

ro'molcha bilan bog'lab qo'yiladi. Turgan joyida bir necha marta atrofga aylanib to'xtaydi va qo'lidagi tayog'i bilan aylanadan chiqib, qovoqni qidirishni boshlaydi va uni urishga harakat qiladi. O'yinchilarga talabni bajarishga ma'lum bir vaqt beriladi. Shu vaqt ichida vazifani to'g'ri bajargan o'yinchiga ochko beriladi.

O'yin qoidalari. Faqat qovoqni urish kerak, tayog'ini mumkin emas. Aylana atrofidagi boshqa o'yinchilar ishtirokchiga umuman xalaqit qilmasliklari lozim.



Ro'molchani ber

Ishtirokchilar bir-biriga qarama-qarshi turgan holda ikki guruhga bo'linishadi. Hamma qo'lini orqasiga qo'yadi. Markazda bitta o'yinchi turadi. Har ikkala jamoadan bittadan o'yinboshi tanlanadi va unga ro'molcha beriladi. O'yinboshi o'z jamoasi o'yinchilari orqasidan sekin o'tib, bildirmasdan o'yinchilardan birining qo'liga dastro'molni tutqazadi.

Shundan so'ng, o'rtada turgan o'yinchi buyruq beradi: "Ro'molni ber!". Bolalar qo'lidagi ro'molchani yugurib borib o'rtadagi o'yinchiga ro'molchani qo'liga berishlari kerak. Ro'molchani birinchi bo'lib bergen o'yinchi g'olib bo'ladi. Yakunda eng ko'p ochko yiqqan jamoa g'olib sanaladi.

O'yin qoidalari. Ro'molchani faqat buyruqdan keyin olib borish kerak. Ro'molchani qo'lga berolmagan yoki tushirib yuborgan o'yinchi birinchi etib borganiga qaramay yuqazadi.

Tangani ko‘tar

Maydonning ikkita tomoniga start chizig‘idan finishgacha bo‘lgan ikkita parallel chiziq chiziladi. Maydon bo‘ylab bir nechta tangalar sochib yuboriladi. O‘yinchilar chiziq bo‘ylab saf tortib turishadi. Tarbiyachi buyrug‘i bilan bolalar otni minganday finish chizig‘i tomon chopishadi va ortga huddi shu tarzda qaytishadi. Yuugura turib, ular to‘xtamasdan engashib, erdag‘i tangalarni terib olishadi. Kim ko‘p tanga yig‘sа, o‘sha bola g‘olib hisoblanadi.



O‘yin qoidalari. O‘yinni faqat tarbiyachi buyrug‘i bilan boshlash kerak. O‘yin davomida bolalar bir-birlarini turtmasdan yugurishlari shart. Tangani ko‘tarayotganda joydan turish mumkin emas.

Ayoz

Tarbiyachi sanoq bilan o‘rtaga Ayoz boboni tayinlaydi. U markazda, qolganlar atrof bo‘ylab turadilar. Tarbiyachining : “Ayoz kelayapti!” degan ogohlantirishidan so‘ng barcha bolalar turli tomonlarga qarab qochishadi. Ayoz esa ularni quvib etishga va qo‘li bilan tegib ularni muzlatib ko‘yishga harakat qiladi. Muzlatilgan bola o‘sha joyida qotib turadi.



O‘yin qoidalari. Faqatgina tarbiyachining gapidan so‘nggina turli tomonlarga qochish mumkin. Qotib turgan bolalar o‘yin yana boshidan boshlanmaguncha qaytadan o‘yinga tushmaydi.

Sayohatchi



O‘yin ochiq havoda ham, zalda ham o‘tkazilishi mumkin. Barcha ishtirokchildar doira bo‘lib o‘tiradilar. Faqat bir ishtirokchi – sayohatchi doira markazida turadi. O‘tirgan o‘yinchilar sayohatchi eshitmaydigan qilib sekingina yurtimizdagi tanish bir shahar yoki joy nomini o‘zlariga tanlashadi. Sayohatchi bir shahardan boshlab bir nechta shahargacha hammaga eshittirib aytib chiqadi. Masalan: “Men Toshkentdan Jizzaxgacha yoki Samarqandgacha sayohat qilib chiqaman”. Atrofda o‘tirgan o‘yinchilardan kimningdir shahri chiqsa shu o‘yinchi sayohatchi bilan joy

almashadi. Agar bir aytishning o‘zida bir nechta joyning nomini topa olsa, sayohatchiga bir ochko beriladi. O‘yin shu tarzda davom etadi. Eng ko‘p ochko jamg‘argan o‘yinch o‘yin g‘oilib bo‘ladi.

Sholg‘om tortish

Bu o‘yinda 20 ta bola qatnashib, ular ikki guruhgaga bo‘linadilar.

Guruhlar o‘ziga “Bulbul”, “Sa’va” deb nom qo‘yib, oladilar. Keyin o‘rtaga to‘g‘ri chiziq chiziladi va bir tomonda “Bulbul” guruhi, ikkinchi tomonda esa “Sa’va” guruhi turishadi.

Sardorlar chiziqning ikki tomonida turib: “Sholg‘om tortish!” deb buyruq berishgandan so‘ng bolalar bir-birlarining qo‘llarini o‘z tomoniga tortishadi. Chiziqdan bolalarni ko‘proq o‘tib ketgan guruh engiladi.

Nimaning pati

O‘yinda qatnashadigan 10 ta bola doira hosil qilib o‘tiradi. O‘yinboshi bivor qushning patini (o‘rdak, g‘oz, qarg‘a va hokazo) olib, bolalardan biriga ko‘rsatib, bu nimaning pati deb so‘raydi. Patning nomini aytadi, boshqa boladan so‘raladi, boshqa bola ham javob beradi. O‘yin qoidasida bir qushning nomi ikki marta takrorlanmasligi kerak. Bir bolaning aytganini ikkinchisi aytib qo‘ysa, o‘yinboshining aytgan buyrug‘ini bajaradi: o‘yinga tushadi, qo‘sinq aytadi va hokazo. Kim qushlar nomini ko‘p bilsa, o‘sha “bilag‘on” hisoblanadi.

Epchil quyon

Bu o‘yinda 14-15 nafar bola qatnashadi. Maydonning o‘rtasidan orasi 60-70 sm bo‘lgan ikkita chiziq chiziladi. Ikki bola bo‘ri vazifasini o‘taydi, qolgan bolalar quyon bo‘lib shu chiziqdan o‘tishi kerak. Bo‘ri chiziqchada turadi. Bo‘rilarga tutilmay o‘tgan quyon “epchil quyon” hisoblanadi.

Yalt etdi

O‘yinda bir necha bola ishtirok etishi mumkni. Ular chordona qurib aylana bo‘lib o‘tiradilar. Ikkita o‘yinboshi saylanadi. O‘yinni qaysi o‘yinboshi birinchi bo‘lib boshlashi kerakligi chek tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Birinchi o‘yinboshining qo‘lida tugma yoki munchoq bo‘ladi. Bolalar qo‘llarini hovuch qilib oldinga uzatib turadilar. O‘yinboshi ularning qo‘liga qo‘lini tekkizib, tanlagan bolaga o‘sha narsani tashlab ketadi. Bolalar qo‘llarini berkitadilar. Ikkinchi o‘yinboshi shu narsaning kimda ekanligini topishi kerak. Narsa shuning qo‘lida deb gumonlagan bolaning yoniga borib “yalt etdi” deydi. Agar unda bo‘lmasa, o‘yinboshilikni o‘sha bola bilan almashadi. O‘yin davom etadi. Ikkinchi o‘yinboshi berkitilgan narsaning kimsaligini topsa, birinchi o‘yinboshi o‘rin almashadi. O‘yinboshi bergan narsa shu bolada saqlanishi kerak. Ikkinchi bolaga uzatib yuborish o‘yin qoidasini buzish hisoblanadi.

Murojaat bola kaftini ochib darhol ko‘rsatishi shart.

Tosh qo‘ydi

Tosh qo‘ydi o‘yini asosan yoz oylarida o‘ynaladi. Bolalar uzun o‘rindiqda tizilib o‘tiradilar. Xohishga qarab ikki o‘yinchi saylab olinadi. Biri topuvchi, ikkinchisi toshni yashiruvchi bo‘ladi. Topuvchi teskari qarab, ko‘zlarini berkitib turadi. Yashiruvchi toshni o‘tirganlardan biriga beradi. Shu payt hamma bir xil vaziyatda: kulib yoki jiddiyroq bo‘lib o‘tiradi. Tosh yashiruvchi topuvchiga qarab: “Oy pishdi, pashsha tushdi!” deb aytadi. Topuvchi o‘tirganlardan birini ko‘rsatadi. Agar toshcha topuvchi ko‘rsatgan bolada bo‘lsa, chiqarib beradi, agar boshqa bola qo‘lida bo‘lsa, u yashiruvchiga beradi.

Soloy-soloy

O‘yinda qatnashadigan bolalar doira shaklida qo‘lini orqasiga qilib o‘tiradilar. Ulardan biri qo‘liga ro‘molcha olib: “Soloy, soloy, kimga soloy, sochi uzun qizga soloy!” deb atrofida aylanadi va o‘tirganlardan birining orqasiga tashlab ketadi. Orqasiga ro‘molcha tushganini bilmay qolgan bola davra o‘rtasiga tushib o‘ynab beradi. Agar bilib qolsa, ro‘mol tashlagan bolaning orqasidan quvadi. Qochgan bola quvganning o‘z joyiga kelib o‘tirishiga ulgurmasdan etib olib ro‘mol bilan urishi kerak.

Aylana o‘rtasini kesib o‘tish mumkin emas.

Sho‘x koptokcham

Bolalar xonaning yoki maydonchaning bir tomoniga qo‘yilgan stullarda o‘tirishadi. Tarbiyachi ulardan sal nariroqda turadi, koptokni qo‘l bilan urib, uning qanday engil va baland uchini ko‘rsatib beradi. Shu paytda u Zafar Diyorning quyidagi qo‘shig‘ini aytadi:

*To ‘pim to ‘p-to ‘p etasan,
Ursam uchib ketasan.
Hakkalanib nariga-
Do ‘stlarimga etasan.*

Keyin 2-3 ta bolani chaqirib koptokni ushlab turgan holda irgishlab sakrashni taklif qiladi. Tarbiyachi boyagi qo‘shiqni aytib, koptok bilan yana mashqni takrorlaydi. Qo‘shiqni aytib bo‘lgach, bolalarga qarab, “Hozir sizlarga etib olaman!” deydi. Bolalar sakrashdan to‘xtab, turib olmoqchiga o‘xshab harakat qilayotgan tarbiyachidan nariroqqa qochib ketadilar.

O‘yinni takrorlash paytida tarbiyachi ko‘proq bolalarni chaqiradi. O‘yinni yakunlar ekan, tarbiyachi hamma bolalarga barvardan koptokka o‘xshab sakrashni taklif qiladi. Bunda tarbiyachi qo‘shiqni bolalarning sakrash sur’atiga qarab tez aytadi (bu sur’at ancha tezdir). Agar bolalar koptokka o‘xshab sakrashni bilmasalar, ularga buning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishi zarur.

Oq quyonim alomat

Bolalar xonaning yoki maydonchaning bir tomonga qo‘yilgan stullarda yoki skameykalarda o‘tirdailar. Tarbiyachi ularga “hozir hammangiz quyon bo‘lasizlar”, deydi va “o‘tloqqa” yugurib chiqishni taklif qiladi. Bolalar xonaning o‘rtasiga

chiqadilar va tarbiyachining yonida davra qurib turadilar. Keyin cho'qqayib o'tiradilar. Tarbiyachi shunday she'r o'qiydi:

*Oq quyonim alomat,
Otini qo'ydim Salomat.
Shalpanqulloq quyonim,
Juda-juda alomat.*

Bolalar qo'llarini boshlariga ko'tarib, quyonning qulog'iga o'xshatib, barmoqlarini qimirlatadilar. Tarbiyachi she'r o'qishda davom etadi:

*Quyonim qotib qopti,
Oyoq-qo'li isitsin,
Tap-tap-tap-tap,
Tap-tap-tap
Oyoq qo'lim isitsin.*

O'rta barmoqni top

Bu o'yinni istalgan erda o'ynash mumkin. O'yinda 5-6 ta bola qatnashadi va uning boshlanishidan oldin bir bola chiqib, qolgan bolalarni doiraga tizadi, keyin

*Men o'tirdim gap tikdim,
Ikkita igna yo'qotdim,
La-la-la chiqib ketsin bir bola,
Uning oti Nargiza*

Deb birma-bir bolalarni chaqiradi. Hamma bolalar chiqib, eng oxirida qolgan bola o'yinni boshlaydi. U chap qo'lni orqasiga qilib, barmoqlarning uchlarinigina ko'rsatib turadi. O'ng qo'li bilan chap qo'lini mahkam qisib turadi. Keyin o'rtoqlariga "O'rta barmog'imni top", deydi. Bolalar diqqat bilan uning qo'liga qarab, o'rta barmog'ini qidira boshlaydi. Bolalardan bittasi bir barmoqning uchini mahkam ushlaydi. Agar tortuvchi to'g'ri topsa, barmoq yashirgan bola shartga binoan qo'shiq yoki she'r aytib berishi mumkin. Agarda topuvchi bola barmoqni to'g'ri topa olmasa, o'zi yutqazgan hisoblanadi va o'yin shartini bajaradi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Qo'g'irchoqlarnikiga mehmonga

O'yindan maqsad bolalarni birga yurish, yugurish, o'zlarini tutishga o'rgatishdir.

Bolalar xonadagi devor tagiga qo'yilgan stillarga o'tirib, tarbiyachidan qo'g'irchoqlarning qayerda yashashini so'rashadi.

U qo'g'irchoqlar turgan burchakni ko'rsatib: «Yuringlar, birga qo'g'irchoqlarni ko'rgani boramiz». «Yuringlar, bolalar, o'ynab kelamiz, faqat yulda tarqalmay, tug'ri yuringlar», deydi. Bolalar o'rinlaridan turib, tarbiyachi bilan birga qo'g'irchoqlar oldiga jo'nashadi. Tarbiyachi: «Kech bo'lib qoldi, uyga ketadigan vaqtimiz bo'ldi, endi keta qolaylik», degandan keyin bolalar o'z joylariga borib o'tiradilar.

O‘yin boshlanishi oldidan bir nechta qo‘g‘irchoqni xonaning boshqa joyiga olib borib qo‘yish kerak. O‘yinni takrorlaganda bolalar shu qo‘g‘irchoqlarni ko‘rgani boradi.

Koptokni quvib et

Bu o‘yinda bolalar chaqqonlikka va koptokni yumalatib, tutib olishga o‘rgatiladi.

Bolalar maydonchada o‘ynab yurganda, tarbiyachi bir nechta bolani chaqirib, koptokni yumalatishni va uni tutib kelishni taklif qiladi. Keyin birin-kechin koptokni turli tomonga yumalatadi. Bola koptok ketidan yugurib, uni tutib oladi va tarbiyachiga keltirib beradi. Tarbiyachi koptokni bir gal boshqa tomonga otadi, lekin endi boshqa bola olib keladi (3-rasm).

Uch yashar bolalar tarbiyachi otgan koptokning orqasidan yuguradilar. Shundan keyin o‘yinga bolalarning boshqa guruhi jalb qilinadi. O‘yinda bir yo‘la 8—10 bola ishtirok etishi mumkin. Bolalarning baravar yugurishi uchun hamma koptoklarni birdan otish kerak. Koptok o‘rniga rezina halqacha, qum solingan xaltachalardan ham foydalanish mumkin

Ariqdan sakrab o‘tish

O‘yindan maqsad bolalarni qoidaga amal qilishga, chaqqonlikka o‘rgatish, sakrash va yugurish kabi harakatlarni mustahkamlash, muskullarini rivojlantirishdir.

Polga taxta tashlab qo‘yiladi (eni 25—30 sm, uzunligi 2—2,5 m). Bu ariqning ko‘prigi bo‘ladi. Ariqning narigi qirg‘og‘ida lolaqizg‘aldoqlar, bo‘tako‘zlar, moychechaklar va bog‘da rang-barang gullar ochilib yotibdi (gilam ustiga har xil rangdagi laxtak qiyiqlari tashlab qo‘yiladi). Bolalar ariqning narigi qirg‘og‘iga ko‘prikan o‘gadilar, gul teradilar (chuqqayib o‘tiradilar, engashadilar), keyin uyga qaytib keladilar. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Tarbiyachi bolalarning faqat ko‘prikan o‘tishlarini kuzatib: «Ariqda suv tez oqadi, chuqur, ehtirot bo‘lib o‘tinglar, oyoqlaringizni ho‘l qilib qo‘ymanglar», deb turadi.

Menga etib olinglar

O‘yindan maqsad bolalarni qoidaga amal qilishga o‘rgatish, ularda yugurish kabi harakatlarni mustahamlash va chidamlilikni tarbiyalashdir.

Bolalar maydoncha yoki xonaning bir tomonidagi stullarda yoki skameykalarda o‘tiradilar. «Menga etib olinglar», deydi tarbiyachi va maydonchaning ikkinchi tomoniga qarab yuguradi. Bolalar tarbiyachining ketidan uni tutmoqchi bo‘lib yuguradilar. Bolalar tarbiyachiga yaqinlashib qolganlarida u to‘xtaydi-da: «Qochib ketinglar, qochib ketinglar. Endi men sizlarga etib olaman!» — deydi. Bolalar o‘z joylariga qarab yuguradilar.

Bu o‘yinni dastlab bolalarning kichik bir guruhi bilan o‘tkazgan ma’qul. So‘ng bolalar sonini 10—12 kishigacha ko‘paytirish mumkin. Tarbiyachi bolalardan qochib, juda tez yugurmasligi kerak. Bolalar tarbiyachiga etib olganlaridan keyin yaxshi yugurar ekansizlar, deb ularni maqtab qo‘yish kerak.

Shiqildoqqacha emaklab kel

Bu o‘yinda bolalar diqqatini rivojlantirish, aytilgan so‘zlarga mos ravishda emaklab yurish harakatini o‘rgatishdan iborat bo‘ladi.

Bolalar xonaniga bir tomoniga qo‘yilgan stullarda o‘tirishadi. To‘rt metr nariga polga bayroqcha yoki shiqildoqlar terib qo‘yiladi. Tarbiyachi biror bolaning nomini aytib chaqiradi va unga shiqildoqqacha emaklab borishni, uni olib o‘rnidan turishni va shiqildoqni (yoki bayroqchani) boshdan yuqori ko‘tarishni (bayroqchani hilpiratishni) taklif qiladi. Shiqildoqni (yoki bayroqchani) polga, o‘z joyiga qo‘yib qaytib keladi. Bolalar topshiriqni navbat bilan bajaradilar.

O‘yin-mashqda bir vaqtning o‘zida bir necha bola (3—5 ta) yoki birdan hamma baravar ishtirok etishi mumkin. Unda bolalarning har biriga alohida-alohida o‘yinchoqlar topib qo‘yish kerak. Bunday topshiriqning tashkil etilishi bolalarda mo‘ljalga tezroq borib kelish istagini uyg‘otadi. O‘yin juda jonli o‘tadi. Biroq bunda emaklash sifati ancha pasayib ketadi. Bola shoshilib, harakat uyg‘unligi qoidasini buzadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar e’tiborini tezroq harakat qilishga atayin qaratmasligi kerak. Mashqda band bo‘limgan boshqa hamma bolalar baravariga: «Bir, ikki, uch — emakla!» deb qichqirib shodlanishadi. O‘yin tamom bo‘lganda esa quvonchdan chapak chalishadi. Shunday qilib, o‘yinda bolalarning hammasi faol qatnashadi.

Darvoza

Bu o‘yinda bolalarda emaklab borish malakasi takomillashtiriladi.

Bolalar xonaniga bir tomoniga terib qo‘yilgan stullarda o‘tiradilar. 4—5 metr narida bolaning bo‘yiga teng keladigan to‘r osilgan ustun turadi. Ustunning tagida, polda koptok yotadi. Bolalar bilan ustun orasida — taxminan masofaning o‘rtasida yoy—darvoza bo‘ladi. Tarbiyachi bolalardan birining ismini aytib chaqiradi va unga darvozaga qadar emaklab borishni, keyin uning ostidan emaklab o‘tib, koptokni olishni, oldinga emaklab o‘rnidan turib, koptokni ikki qo‘llab ko‘tarishni va uni to‘rga tashlashni taklif qiladi.

Darvoza o‘rnida stul, skameykalardan (oyoqlari orasidan emaklab o‘tish uchun), chambaraklardan foydalanish mumkin. 3 yashar bolalarni narsalar tagidan emaklab o‘tish va narsalarga tirmashib chiqishning turli usullarini, to‘silalar ostidan engashib o‘tishni o‘rgatish kerak. To‘silalar ostidan engashib o‘tganda qo‘llarni erga tegizmaslik kerak. Bunda bolalar emaklash va engashib o‘tish degan tushunchalarni bir-biridan farq qilishga o‘rganadilar.

Chiziqni bosma

O‘yindan maqsad bolalarni qoidaga amal qilgan holda harakatlarni mustaqil bajarishga va muvozanatni saqlashga o‘rgatishdir.

Tarbiyachi nolga ikkita yonma-yon chizik chizadi. Ularning uzunligi 1 -4 metr bo‘lib, bir-birlaridan 40—50 sm uzoqlikda bo‘ladi. O‘yinda qatnashuvchilar navbat bilan chiziqni bosib olmaslikga harakat qiladilar. “Yo‘lak”ning oxirida bola

o‘rnidan turadi, ikkala qo‘llarini yuqori ko‘tarib kerishadi, keyin dastlabki holatga, o‘z joyiga qaytib keladi.

Bu o‘yinda polga qo‘yilgan taxtadan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Ehtiyyot bo‘l

O‘yining maqsadi bolalarni muvozanatni saqlab yurishga o‘rgatish, ularni qo‘rqmas qilib tarbiyalashdan iborat bo‘ladi.

Bolalar gimnastika skameykasi yoni bo‘ylab terib qo‘yilgan stullarda o‘tiradilar. Bolalar bitta-bittadan skameykaning oxiriga kelib, tizzalariga tayangan holda skameyka chetidan qo‘llari bilan ushlab ustidan emaklagancha uning narigi boshigacha boradilar. Skameykaning oxiriga etgach, bola o‘rnidan turadi va undan tushadi.

Tarbiyachi bolaga yordam berib, uni ushlab boradi. Mashqni qiya qilib qo‘yilgan taxta ustida o‘tkazish ham mumkin, bunda yuqoriga ham, pastga ham emaklasa bo‘ladi.

To‘p doirada

O‘yindan maqsad bolalarga to‘pni bir-birlariga yumalatishni o‘rgatishdir.

Bolalar polda doira bo‘lib o‘tiradilar va koptokni bir- birlariga yumalatadilar.

Tarbiyachi doiradan tashqarida turib, o‘yinni kuzatadi, to‘pni ikki qo‘llab itarish kerakligini tushuntiradi, buni qanday bajarish zarurligini ko‘rsatib beradi; agar to‘p doiradan chiqib ketsa, uni olib berib turadi va hokazo.

To‘pni ilib ol

Bu o‘yinda bolalarga to‘pni ikki qo‘llab pastdan irg‘itish va uni erga tushirmsandan ilib olish o‘rgatiladi. Masofani ko‘z bilan chamalash mashq qildiriladi.

Bolalar davra qurib turadilar. Tarbiyachi o‘rtada turib oladi.

U kichikroq to‘pni qo‘lida pastlatib ushlab turadi. Tarbiyachi «Yusuf, to‘pni ilib ol», deydi va bolaga to‘pni otadi. Bola to‘pni ilib olib, uni tarbiyachiga irg‘itadi.

Tarbiyachi bolalar to‘pni ikki qo‘llab past tomonidan shaxt bilan irg‘itishlarini, ilayotganda qo‘llarini sal oldinga uzatib, to‘pni ko‘kraklariga bosmay, barmoqlari bilan ilishlarini kuzatib turadi.

To‘pni yumalat

Bu o‘yinda bolalarga to‘pni yumalatish va ilib olish o‘rgatiladi, ularda harakatchanlik xususiyatlari tarbiyalanadi.

Bolalar polda doira bo‘lib o‘tiradilar (oyoqlarini kerib, oldinga uzatadilar yoki chordana qurib o‘tirib oladilar). Tarbiyachi qo‘lida to‘p ko‘tarib doiraning o‘rtasida o‘tiradi. U to‘pni navbat bilan har bir bolaga qarab yumalatadi. Bolalar to‘pni ilib olib, uni yana tarbiyachiga yumalatadilar.

Bolalar mana shu harakatlarni o‘zlashtirib olganlaridan so‘ng doira markazida tarbiyachining o‘rniga bolalardan birontasi o‘tirishi mumkin.

Nishonga tushir

O‘yindan maqsad bolalarga koptokni yumalatishni va darvozaga tushirishni o‘rgatish, chaqqonlikni mashq qildirishdir.

Bolalar skameykada o‘tirishadi, ulardan nariroqda chiziq tortilgan bo‘ladi, chiziqdan ikki-uch qadam uzoqlikda darvoza (yoy) lar turadi. Bola o‘rnidan turib chiziqqa yaqinlashib keladi, engashib, erda yotgan to‘plardan birini qo‘liga oladi. Uni darvozaga tushirishni mo‘ljallab, yumalatadi. Uch-to‘rtta to‘pni darvozaga tushirgach, to‘plarni terib keladi. Keyin topshiriqni navbatdagi bola bajaradi.

To‘pni bir qo‘l bilan ham, ikki qo‘l bilan ham itarish mumkin. Bolalar uni darvozaga tushirishni o‘rganib olganlaridan keyin, ularga keglini urib yiqitish singari murakkabroq topshiriqlar berish mumkin.

Nishonni aniqroq mo‘ljalga ol

O‘yindan maqsad bolalarni chaqqon harakat qilishga o‘rgatish va mo‘ljalni aniq olib, to‘pni masofaga etkazishni mashq qildirishdan iborat.

Bolalar doira bo‘lib turishadi, har birining qo‘lida kichkina koptok yoki qum to‘ldirilgan xaltacha bo‘ladi. Doiraning o‘rtasiga yashik yoki katta savat qo‘yiladi (nishondan bolalargacha bo‘lgan masofa 1,5—2 m dan oshmasligi kerak). Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar koptokni qulochkashlab yashikka otadilar, keyin yashikning oldiga kelib bittadan koptok oladilar, qaytib joylariga borib turadilar va koptokni yana nishonga tashlaydilar.

O‘yinda bir yo‘la ko‘pi bilan sakkiz — o‘nta bola qatnashadi. Agar bola koptokni nishonga tushira olmasa, u borib faqat o‘z koptogini olib keladi. Koptokni nishonga tashlashda ko‘pchilik bolalar uni bir qo‘llab elkadan uloqtiradilar. Bolalarga koptokni bir qo‘llab pastdan otish usulini ham ko‘rsatish kerak, chunki shu usul bilan bolalar koptokni nishonga osonroq tushiradilar. Koptokni nishonga otishda bu yoshdagi bolalarga mashq-o‘yinlar ko‘proq yoqadi. Bunday mashqlarda koptok, qum to‘ldirilgan xaltacha, shartli nishonga emas, haqiqiy nishonga tegadi. Otilgan narsa ushlanib qoladigan nishon (savat, to‘r) bo‘lsa yana ham yaxshi. Tarbiyachi mo‘ljalga olish o‘yinlarini tashkil etayotganida mana shu holatni hisobga olishi kerak.

Indagi qushchalar

Bu o‘yinda bolalar har xil yunalishda harakatlarni o‘zgartirnb, o‘z joylarini topib olishga o‘rganadilar.

Bolalar sal teparoq joyga — taxta, kubik, xodacha (balandligi 10 sm) ustiga chiqib turadilar. Bu narsalar xonaning yoki maydonchaning bir tomoniga qo‘yilgan bo‘ladi. Tarbiyachi: “Ko‘chada quyosh charaqlab turibdi, hamma qushlar inlaridan uchib chiqib, don-dun, non-ushoq qidirishyapti”, — deydi. Bolalar tepalikdan sakrab tushib, qo‘llarini qanot qilib, lipillatib yugurib ketadilar — uchadilar. Ular cho‘qqayib o‘tirib, don cho‘qilaydilar (barmoq uchlari bilan tizzalarining ko‘ziga uradilar). Tarbiyachining: “Yomg‘ir yog‘ib ketdi. Hamma qushlar inlariga yashirinib olishdi”, deyishi bilan bolalar yugurib borib, joy-joylariga turib olishadi.

O‘yinni o‘tkazishdan oldin bolalarning hammasiga etarli miqdorda taxtacha, kubiklar tayyorlab ko‘yish kerak. Bolalar bir- birlariga xalaqit bermasdan joylarini egallab olishlari uchun bu narsalarni oralatib, maydonning yoki xonaning bir tomoniga qo‘yish lozim. Tarbiyachi qanday qilib engil sakrab tushish mumkinligini ko‘rsatib beradi: agar zarur bo‘lib qolsa, tarbiyachi yugurib kelgan bolalarga ular tepalikka chiqib olishlari uchun yordam beradi. O‘yinni takrorlash vaqtida signal bir so‘z bilan “Quyosh!”, “Yomg‘ir!”—deb berilishi mumkin.

Tovush qayerdan kelyapti!

Bolalar xonaning bir tomonida guruh bulib o‘tiradilar yoki tik turadilar. Tarbiyachi ularga devorga qarab turishni va o‘girmaslikni taklif qiladi. Shu payt enaga qo‘liga qo‘ng‘iroq olib, xonadagi shkaf orqasiga yashirinadi. Tarbiyachi bolalardan qo‘ng‘iroq qayerda jiringlayapti, deb so‘raydi. Bolalar buni qidirib, tovush kelayotgan tomonga yugurib ketadilar. Topganlaridan keyin yana tarbiyachi yoniga qaytib keladilar. Enaga boshqa joyga yashirinadi. O‘yin takrorlanadi.

Enaga qayerga yashirinayotganini sezib qolmasliklari uchun tarbiyachi bolalarni chalg‘itib turadi. U bolalarni o‘ziga yaqinroq kelishga undaydi. Qo‘ng‘iroqni avvaliga sekinroq, keyin qattiqroq jiringlatish kerak. O‘yin bir necha marta takrorlangandan keyin enaganing o‘rniga biror bolani qo‘yish mumkin.

Bayroqchani top

Bolalar xonaning bir tomoniga qo‘yilgan stullarda o‘tirishadi. Tarbiyachi ularga ko‘zlarini yumishni taklif qiladi. Shu payt u bolalarning hammasiga etadigan bayroqchalarni xonaning turli joylariga qo‘yib chiqadi. Shundan so‘ng, u: “Berkitilgan bayroqchalarni toping”,— deydi. Bolalar ko‘zlarini ochib, bayroqchalarni qidiradilar. Kim bayroqchani topsa, tarbiyachiga keltirib beradi. Bayroqchalarni hamma bolalar topganlaridan keyin tarbiyachi ana shu bayroqchalarni ko‘tarib, xona bo‘ylab yurishni va keyin esa o‘z joylariga kelib o‘tirishni taklif qiladi. O‘yin takrorlanadi.

Bayroqchalar bir xil rangda bo‘lishi kerak. Aks holda bolalar o‘rtasida janjal chiqishi mumkin. Bayroqchalarni shunday joyga qo‘yish kerakki, bolalar ularni tez topa olsinlar va tez olib kelsinlar.

Mening quvnoq sho‘x koptokcham

Bolalar xonaning yoki maydonchaning bir tomoniga qo‘yilgan stullarda o‘tirishadi. Tarbiyachi ulardan sal nariroqda turadi, koptokni qo‘l bilan urib, uning qanday engil va baland uchishini ko‘rsatib beradi. Shu paytda u Zafar Diyorning quyidagi qo‘shig‘ini aytadi:

*To ‘pim to ‘p-to ‘p etasan,
Ursam uchib ketasan.
Hakkalanib nariga
Do ‘stlarimga etasan.*

Keyin 2—3 ta bolani chaqirib, koptokni ushlab turgan holda irg‘ishlab sakrashni taklif qiladi. Tarbiyachi boyagi qo‘shiqni aytib, koptok bilan yana mashqni takrorlaydi. Qo‘shiqni aytib bo‘lgach, bolalarga qarab, “Hozir sizlarga

etib olaman!” — deydi. Bolalar sakrashdan to‘xtab, turib olmoqchiga o‘xshab harakat qilayotgan tarbiyachidan nariroqqa qochib ketadilar.

O‘yinni takrorlash paytida tarbiyachi ko‘proq bolalarni chaqiradi. O‘yinni yakunlar ekan, tarbiyachi hamma bolalarga baravardan koptokka o‘xshab sakrashni taklif qiladi. Bunda tarbiyachi qo‘sishni bolalarning sakrash sur’atiga qarab tez aytadi (bu sur’at ancha tezdir). Agar bolalar koptokka o‘xshab sakrashni bilmasalar, ularga buning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berish zarur.

Oq quyonim alomat

Bolalar xonaning yoki maydonchaning bir tomoniga qo‘yilgan stullarda yoki skameykalarda o‘tiradilar. Tarbiyachi ularga hozir hammangiz quyon bo‘lasiz, deydi va “o‘tloqqa” yugurib chiqishni taklif qiladi. Bolalar xonaning o‘rtasiga chiqadilar va tarbiyachining yonida davra qurib turadilar. Keyin cho‘qqayib o‘tiradilar. Tarbiyachi shunday she’r o‘qiydi:

*Oq quyoim alomat,
Otini quydim Salomat.
Shal pangquloq quyonim
Juda-juda alomat.*

Bolalar qo‘llarini boshlariga ko‘tarib, quyon qulog‘iga o‘xshatib, Barmoqlarini qimirlatadilar. Tarbiyachi she’r o‘qishda davom etadi:

*Quyonim qotib qopti,
Oyoq-qulini isitsin.
Tap-tap-tap-tap,
Tap-tap-tap
Oyoq qo‘lini isitsin.*

Bolalar “tap-tap” so‘zini eshitishlari bilan chapak chala boshlaydilar va sher tugaguncha chapak chalib turadilar.

Tarbiyachi yana she’r o‘qiydi:

*Bir joyda turaverib,
Quyon titrar sovuq eb.
Endi sakrab o‘ynasin,
Sakrab- sakrab quvnasin.*

Bolalar “sakrab-sakrab” so‘zini eshitishlari bilan ikki oyoqlab, irg‘ishlab sakray boshlaydilar. Sakrashni she’r tamom bo‘lguncha davom ettiradilar. Tarbiyachi:

*Kim dandir cho ‘chib ketdi
Kuyonjon qochib ketdi,—*

deydi va ayiq polvonni ko‘rsatadi, bolalar qochib borib, o‘z joylariga turib oladilar.

O‘yinni bolalar bilan istagancha o‘tkazish mumkin. O‘yin (boshlanishidan oldin quyonlar yashirinadigan joyni albatta tayyorlab qo‘yish kerak. O‘yin boshida she’rga binoan mashqni hamma bolalar baravar bajaradilar. O‘yin ko‘p marta takrorlangandan keyin bironta bolani quyoncha qilib tayinlash va uni doira o‘rtasiga turg‘izib qo‘yish mumkin. She’r tamom bo‘lgandan so‘ng bolalar

orqasidan tez yugurmaslik, ularga o‘z joylarini topib olishlari uchun imkon berish kerak. Kichkintoylardan albatta o‘zining joyini topib olish talab qilinmaydi, ularning har biri bo‘sh joyni topib o‘tirishi mumkin. O‘yin muntazam o‘tkazib turilganda ular o‘z joylarini yaxshi eslab qoladilar. Bolalarning bu ishini qo‘llab-quvvatlab, rag‘batlantirib turish kerak.

Ko‘prikcha ustidan

Tarbiyachi erga ikkita chiziq chizadi (xona ichida esa arqonchadan foydalanish mumkin), chiziqlar anhor vazifasini o‘taydi. So‘ngra uning ustidan uzunligi 2—3 m, kengligi 25—30 sm keladigan taxta qo‘yadi, bu esa ko‘prik bo‘ladi. Bolalar anhorning bir tomonidan ikkinchi tomoniga ko‘prik orqali o‘tishlari shart.

Tarbiyachi bolalarga ko‘prik ustidan asta-sekin yuring, bir- biringizning oyog‘ingizni bosib olmang va oyoqlaringizni «ho‘l» qilmasdan yuring, deydi. Hamma bolalar anhorning ikkinchi tomoniga o‘tib bo‘lganlaridan keyin ularga shu erda o‘ynab, sayr qilishni, gullar terishni, erga yoki pol ustiga sochib tashlangan har xil rangdagi qiyqimlarni terib olishni taklif qiladi. Tarbiyachining signali byicha kichkintoylar ko‘prik orqali yana o‘z joylariga qaytib keladilar.

Mashqlarni takrorlash vaqtida uni bir oz murakkablashtirish mumkin. Buning uchun taxtaning tagiga 2—3 ta taxta qo‘yib, 10 sm baland ko‘tariladi. Shundan so‘ng bolalar ko‘prik ustidan yugurib o‘tishlari mumkin.

Uzun ilon izi bo‘ylab

Tarbiyachi erga yoki polga uzunligi 5—6 metrli arg‘amchini cho‘zib qo‘yadi, bu yo‘lakchadan bolalar oxirigacha yurib o‘tishlari mumkin.

Agar yo‘lakchaning boshqa tomoniga bolalarni jalb qiladigan narsalar: ayiqcha, qo‘g‘irchoq, shiqildoq, qushcha va boshqalar qo‘yilsa, bolalar mashqlarni qiziqib bajaradilar. Yo‘lakchaning oxirida nima yotganligiga qarab, vazifa beriladi: masalan, ayiqchaning oldiga borib uni silash, qushchaga don berish, shiqildoqni shiqillatish.

Tarbiyachi bolalarning arqonchani bosishga harakat qilayotganlarini kuzatishi kerak. Agar biror bola arqonchani bosishga qiynalayotgan bo‘lsa, tarbiyachi uning qo‘lidan ushlab, yordamlashishi mumkin. Bolalar osoyishta, shoshilmasdan yurib borishlari kerak.

Yugurib keling oldimga

Bolalar maydon yoki xonaning bir tomoniga qator terib quyilgan stullarda o‘tiradilar. Tarbiyachi qarama-qarshi tomonda turadi. U: “Yugurib keling oldimga, hammangiz-hammangiz, yugurib keling oldimga!” — deydi. Bolalar tarbiyachiga qarab yugurishadi. Tarbiyachi ularni quchib olmoqchi bo‘lganday qulochini keng yozib kutib oladi. Hamma bolalar tarbiyachi yoniga to‘planadi. So‘ng tarbiyachi maydonchaning narigi tomoniga ketadi va yana: “Yugurib keling oldimga!” — deydi. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi. Tarbiyachining: “O‘yingizga yuguring!” degan so‘zlarini zshitgan bolalar shu zahoti o‘z stullariga qarab yuguradilar va

o‘tirib, dam oladilar. O‘yin qoidasiga binoan tarbiyachining “Yugurib keling oldimga!” degan so‘zlaridan keyingina uning oldiga yugurib borish mumkin. Yugurganda bir-biriga urilib, xalaqit bermaslik kerak.

O‘yinda qatnashishni istagan bolalarni ikkita kichkina guruhga bo‘lish mumkin: birinchi guruh o‘ynayotgan vaqtida ikkinchisi tomosha qilib turadi. Keyin ular vazifalarni almashadilar. Dastlab bolalar xohlagan stulni egallashlari mumkin, so‘ngra esa asta-sekin o‘z joylarini topishni o‘rganib oladilar. O‘yinni takrorlash vaqtida stullarni xonaning turli tomonlariga qo‘yib chiqish mumkin.

Qush va uning bolalari

Bolalar 5-6 kishidan bo‘lib ikki guruhgb/bo‘linadilar. Har bir guruh o‘z uychasiga - iniga ega bo‘ladi (bo‘r bilan chizilgan doira, polga tashlab qo‘yilgan katta chambarak yoki uchlari bir-biriga bog‘langan arqoncha va hokazolar in bo‘lishi mumkin). Bolalar cho‘nqayib o‘tirib, indagi qush bolalarini ifoda etadilar. Tarbiyachi qush vazifasini bajaradi. Tarbiyachining “Qani uchdik, uchaylik”,— degan so‘zlarini eshitishlari bilan qush bolalari inlaridan uchib chiqadilar va don qidirib uzoqroq ketishga harakat qiladilar. Tarbiyachining “Endi uyga uchamiz”,— degan so‘zlaridan keyin qush bolalari o‘z inlariga qaytib keladilar. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Tarbiyachi bolalar — qush bolalarining ishoraga qarab harakat qilishini kuzatib boradi. Begona inga uchib kirish mumkin emasligini eslatib turadi. Uyidan uzoqroqqa uchishga da’vat etib, u erda qushchalar uchun don mo‘l ekanini aytib turadi.

Quyosh va yomg‘ir

Bolalar xona yoki maydonda qator turgan stullar orqasiga o‘tib, cho‘qqayib o‘tiradilar va darchadan (stul suyanchig‘i orasidan) qaraydilar. Tarbiyachi: “Quyosh chiqadi! Boringlar, o‘ynanglar!” deydi. Bolalar xona (maydoncha) bo‘ylab yuguradilar. “Yomg‘ir yog‘ib ketadi. Tezroq uyga kiringlar!” — degan ovozdan so‘ng bolalar o‘z joylariga qarab yugurishadi va stullarning orqa tomoniga borib cho‘qqayib o‘tirishadi va darchadan (stul suyanchig‘i orasidan) qarashadi. Tarbiyachi: “Quyosh chiqadi! Boringlar, o‘ychanglar!” — deydi.

Bolalar maydoncha bo‘ylab yuguradilar. “Yomg‘ir yog‘ib ketdi. Tezroq uyga kiringlar!” — degan ovozdan so‘ng bolalar o‘z joylariga qarab yugurishadi va stullarning orqa tomoniga borib cho‘qqayib o‘tirishadi.

O‘yinchoqni olib kel

Xonaning, maydonchaning qarama-qarshi tomoniga o‘yinchoqlar (shiqildoqlar, kubiklar) terib qo‘yiladi. Tarbiyachi bolalarni o‘z oldiga chaqirib, o‘yinchoq keltirishni so‘raydi. Uning ko‘rsatmasi bo‘yicha bolalar yo yurib, yoki yugurib o‘yinchoqpar tomon ketadilar va ularni tarbiyachiga olib keladilar. Tarbiyachi bolalarni maqtab, o‘yinchoqlarni joylariga eltib qo‘yishni so‘raydi.

O‘yinni qo‘sishimcha topshiriqlar qo‘sish yo‘li bilan murakkablashtirish mumkin. Bolalarga o‘yinchoqlar oldiga tor yo‘lka (taxta) dan yurib borish yoki uncha baland bo‘lмаган narsalardan hatlab borish topshiriladi.

Kech qolma

Polga kubiklar yoki shiqildoqlar doira shaklida terib qo‘yiladi. Bolalar kubiklar yonida turishadi. Tarbiyachining ishorasi bilan ular butun xona bo‘ylab yuguradilar. Bunda ular bir-birlariga urilib ketmasliklari va kubiklarni tepib o‘tmasliklari kerak, “Kech qolma!” degan ovozni eshitgan bolalar darrov o‘z kubiklariga qarab yuguradilar.

O‘z rangini top

Tarbiyachi bolalarga 3-4 xil rangdagi qizil, ko‘k, sariq, yashil bayroqchalar tarqatadi. Bayroqchalari bir xil bo‘lgan bolalar “omlming turli burchaklarida tarbiyachi oldindan belgilab qo‘yilgan o‘z bayroqchalari rangidagi tegishli bayroq oldida to‘planadilar. Tarbiyachining: “O‘ynab kelinglar” signali buyicha bolalar maydoncha (xona) ning turli tomonlariga tarqalib ketadilar. Tarbiyachi: “O‘z rangingni top” degan vaqtida bolalar tegishli rangdagi bayroq yonida to‘planadilar. Tarbiyachi qaysi guruh oldinroq to‘planganini ta’kidlab o‘tadi. O‘yin yana 5—6 marta takrorlanadi.

O‘yin bir necha marta takrorlanib, bolalar uni yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan keyin tarbiyachi sayr vaqtida ularga to‘xtashni va ko‘zlarini yumishni taklif qilishi mumkin. O‘zi esa bu vaqt ichida xona burchaklarida turgan bayroqlarni almashtirib qo‘yadi.

Kurk tovuq va jo‘jalar

O‘yinda qatnashayotgan bolalar jo‘jalarni, tarbiyachi esa tovuqni ifoda etadi. Kurk tovuq va jo‘jalar uyda bo‘lishadi (ustun yoki stullar orasida 35—40 sm balandlikda arqoncha tortiladi, bu joy uy vazifasini o‘taydi). Bir chekkada tasavvur qilinadigan katta qush yashaydi. Kurk tovuq arqonchaning tagidan engashib o‘tadi va bolalarga don qidirib ketadi. Keyin “qu-qu-qu-qu” deb jo‘jalarini chaqiradi. Uning ovozini eshitib, jo‘jalar ham arqoncha tagidan o‘rmalab o‘tishadi va yugurib yuvuqning oldiga borishadi. Hammalari birga o‘ynaydilar, engashadilar, cho‘qqayib o‘tiradilar, don-dun qidiradilar. Tarbiyachining: “Katta qush uchib kelyapti”—degan so‘zlarini eshitgach, hamma jo‘jalar tez qochib ketadilar va uylariga yashirinadilar. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Jo‘jalar katta qushdan qo‘rqib uylariga qochib ketayotganlarida bolalar arqonchaga urilib ketmasliklari uchun tarbiyachi uni ko‘tarib turishi mumkin. Oradan birmuncha vaqt o‘tgandan so‘ng bolalarining o‘zlari ham tovuq rolini o‘ynashlari mumkin.

Quyonlar

Maydonchaning bir tomoniga bo‘r bilan (5—6 ta) doirachalar chizib quyiladi. Bular quyonlar uchun inlar bo‘ladi. Ularning oldiga stulchalar qo‘yiladi. Qarama-

qarshi tomonda qorovulning uyi bo‘ladi (tarbiyachi o‘tirgan stul). Uy bilan quyonlar ini o‘rtasida o‘tloq bo‘lib, quyonlar shu erga chiqib o‘ynashadi. Tarbiyachi ishtirok etuvchi bolalarni 3—4 tadan qilib guruhga bo‘lib chiqadi. Har bir guruh polga chizilgan doirachalarning bittasini egallaydi. Bolalar tarbiyachining ko‘rsatmasi bo‘yicha cho‘qqayib o‘tiradilar (quyonlar inida o‘tiradi). Tarbiyachi navbat bilan inlar oldiga kelib, quyonlarni o‘tloqqa qo‘yib yuboradi. Quyonlar birin-ketin qo‘l tagidan emaklab chiqadilar, so‘ng yugurib ketadilar va o‘tloqda irg‘ishlab sakrab o‘ynaydilar, Oradan bir minutcha vaqt o‘tgandan keyin tarbiyachi: “Kataklaringizga yuguring”,— deydi. Quyonlar uylariga shoshiladilar. Har biri o‘z qafasiga qaytib, yana stul ostidan emaklab o‘tadi. Quyonlar qorovul ularni yana o‘ynagani chiqarib yubormaguncha kataklarida o‘tiraveradilar. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi.

Stullar o‘rnida yoylardan foydalanim, ularning tagidan emaklab o‘tish mumkin. Yeylar o‘rnida ustunga o‘rnatilgan tekis yog‘och yoki tarang qilib tortilgan chilvir tagidan o‘tish ham mumkin.

Maymunchalar

Tarbiyachi bolalarga bittadan yoki ikkitadan bo‘lib gimnastika narvonchasiga yaqinlashishni taklif qiladi. Bular maymunchalar bo‘ladi. Boshqa bolalar maymunchalarning daraxtlardan qanday qilib meva terishayotganini o‘tirib yoki tik turib tomosha qiladilar. So‘ngra daraxtga boshqa maymunchalar chiqishadi.

Bolalar narvonchaga qo‘rqmasdan chiqib-tushishni o‘rganib olganlaridan keyin gopshiriqni murakkablashtirish kerak. Buning uchun gimnastika narvonchasing bir qismidan ikkinchi qismiga, ya’ni daraxtdan-daraxtga o‘tish taklif qilinadi.

Xaltachani kim uzoqqa irg‘ita oladi!

Bolalar zal yoki maydonchaning bir tomonida polga chizilgan to‘g‘ri chiziq yoki tashlab qo‘yilgan arqonchaning narigi tomonida turadilar.

O‘yinda qatnashayotgan har bir bola bittadan xaltacha oladi. Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar xaltachalarini uzoqqa otadilar. Har bir bola o‘z xaltachasi qayerga tushishini diqqat bilan kuzatib turadi. Navbatdagi signal berilishi bilan bolalar yugurib borib, xaltachalarini qo‘lga oladilar va xaltacha yotgan joyga o‘zları turib oladilar. Ular xaltachalarini ikki qo‘llab boshlaridan yuqoriga ko‘taradilar. Tarbiyachi xaltachani hammadan ko‘ra uzoqroqqa irg‘itgan bolani ta’kidlab o‘tadi. Bolalar dastlabki joylariga qaytib keladilar. O‘yin 6—7 marta takrorlanadi.

O‘yinni bolalar guruhining yarmi bilan o‘tkazgan ma’qul. Xaltachalarni tarbiyachining topshirig‘i asosida ham o‘ng qul bilan, ham chap qo‘l bilan irg‘itish kerak.

Doiraga tushir

Bolalar davra qurib turadilar. O‘rtaga katta chambarak qo‘yiiladi yoki doira chiziladi (arqonchadan yasalgan yoki polga chizilgan doira diametri 1—1,5 m

bo‘ladi). Doiradan 2—3 qadam masofada davra qurib turgan bolalar qo‘lida ichiga qum to‘ldirilgan xaltachalar bo‘ladi. Tarbiyachining “Tashla!” degan signali bilan barcha bolalar xaltachalarni doiraga tashlaydilar. So‘ngra tarbiyachi: “Xaltachalarni ko‘tarib oling”,— deydi. Bolalar xaltachalarni olib, o‘z joylariga kelib turadilar. O‘yin 6 marta takrorlanadi.

Xaltachalarni ikki qo‘llab tashlash kerak.

Balandroq irg‘it

Bola qo‘lidagi koptokni mumkin qadar balandroq irg‘itishga nntiladi. Bunda u koptokni o‘z boshi ustidan yuqoriga tikka otib va yana ilib oladi. Agar bunday qilolmasa, koptokni poldan ko‘tarib oladi va yana mumkin qadar balandroq otishga intiladi.

Bola koptokni ham bir qo‘llab, ham ikki qo‘llab irg‘itishi mumkin.

Koptokni ilib ol

Boladan 1,5—2 m narida katta kishi turadi. U koptokni bolaga irg‘itadi, u esa orqaga qaytaradi. Bu paytda katta kishi: “Ilib ol, menga tashla, tushirib yuborma!” — deydi. Har bir so‘zni aytganda bir martadan koptok irg‘itiladi. Kichkintoy koptokni bemalol ilib olishga va uni shoshilmasdan irg‘itishga ulgurishi uchun so‘zlarni shoshilmasdan, cho‘zib aytish kerak.

Koptokni ilib olib va irg‘itish malakasini egallab olishiga qarab bola bilan katta kishi orasidagi masofani uzaytirish mumkin. Agar ikkita bola o‘ynayotgan bo‘lsa, katta kishi ular yaxshiroq irg‘itishlarini va ilayotganda uni ko‘kraklariga bosib olmasliklarini kuzatib turadi.

Toping-chi, nima qichqiryapti!

Bolalar doira markaziga orqa o‘girib davra qurib turadilar. Tarbiyachi doira ichida bo‘ladi. U o‘yinda bir bolani etakchi qilib tayinlaydi. Boshlovchi ham doiraning o‘rtasiga turib oladi va qandaydir biron ta uy hayvoni yoki quyon ovoziga taqlid qilib qichqiradi. Shundan keyin hamma bolalar doira ichiga tomon o‘giriladilar. Tarbiyachi kimga taklif qilsa, o‘scha bola hozir nima qichqirganligini topadi. So‘ngra yangi boshlovchi tayinlanadi. O‘yin 5—6 marta takrorlanadi.

Agar bola qanday hayvon yoki qush ovoziga taqlid qilishni bilmay qiynalsa, tarbiyachi unga yordam beradi, aytib turadi.

Yashirilgan narsa nima?

Bolalar davra qurib yoki bir qator bo‘lib saf tortib turadilar. Tarbiyachi polga bolalar ko‘z o‘ngida 3—5 buyum (kubcha, bayroqcha, shiqildoq, koptok va boshqalar) qo‘yadi va ularni eslab qolishni taklif qiladi. Keyin tarbiyachining ishorasiga qarab bolalar doira markaziga orqa o‘girib buriladilar yoki devorga qarab turadilar. Tarbiyachi bitta yoki ikkita buyumni olib, yashirib qo‘yadi va: «Qaranglar»,— deydi. Bolalar burilib doira markaziga qaraydilar va buyumlarni diqqat bilan ko‘zdan kechiradilar, ular orasida nima yo‘qligini o‘ylaydilar. Tarbiyachi navbat bilan ayrim bolalar oldiga keladi. Ular qanday narsalar yashirilganini shivirlab aytadilar. O‘yinda qatnashayotgan bolalarning ko‘pchiligi

yashirilgan narsalarni to‘g‘ri topgandan keyin tarbiyachi ularni hammaga eshittirib aytadi. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi.

Agar o‘yinda o‘yinchoqlardan foydalanilayotgan bo‘lsa, yaxshisi bir xil o‘yinchoqlarni—yo hayvonlarni, yoki qushlarni, yohud daraxtlarni aks ettirgan bir xil o‘yinchoqlarni tanlagan ma’qul. O‘yinda asosiy ranglarni (qizil, sariq, ko‘k, yashil) bir-biridan farqlash malakasini mustahkamlash mumkin. Buning uchun har xil rangdagi kubchalar, bayroqchalar, halqalar tanlanadi. O‘yinni quyidagi tartibda ham o‘tkazish mumkin: tarbiyachi buyumlarni yashirayotganda faqat bir bola yuzini o‘girib turadi. Keyin shu bolaning o‘zi qanday buyum yashirganligini topadi. Boshqa bolalar unga aytib bermasliklari kerak.

Sekin yur

Tarbiyachi ko‘zini bog‘lab, zal eshigi oldida turadi. Bolalar qator bo‘lib ketma-ket saflanadilar-da, uning oldidan oyog‘ uchlarida, sekin-sekin o‘tishga harakat qiladilar. Agar bola lardan qaysi biri etarli darajada sekin yurmayotgan bo‘lsa, tarbiyachi uni qo‘li bilan ushlab oladi. Bu bola chetga chiqib turadi va hamma o‘tib bo‘lgandan keyin yana sekin yurib o‘tadi. Qatornin oxirida turgan bola tarbiyachiga qarab: “Hamma o‘tib bo‘ldi”,— deydi. Tarbiyachi ko‘zini ochadi.

Tarbiyachining yonidan faqat yurib emas, hatto sekin yugurib o‘tib ketish ham mumkin.

Uchuvchilar

Bolalar 3—4 zvenoga bo‘linadilar. Ular zveno komandirining orqasida qator bo‘lib ketma-ket turadilar. Zvenolar may donchaning turli joylarida turadi. Bu joylar rangli bayroqchalar bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, aerodrom deb tasavvur etiladi. Tarbiyachining: “Uchuvchilar, samolyotlaringizni uchishga tayyorlangiz!”—degan buyrug‘iga binoan bolalar maydonchaning turli tomonlariga tarqalib yugurishadi, ularning har biri o‘z samolyotining oldida to‘xtaydi, benzin quyadi (engashadi), motorni ishga tushiradi (qo‘llarini ko‘kraklari oldida aylantiradi), qanotlarini to‘g‘rilaydi (qo‘llarini yon tomonga uzatadi) va uchib ketadi (bolalar maydoncha bo‘ylab turli tomonlarga yugurib ketadilar). Samolyotlar tarbiyachining “Qo‘nishga shaylaning!” degan ishorasiga qadar havoda bo‘ladi. Mana shu ishoradan keyin komandirlar o‘z zvenolarini to‘playdilar (bolalar yugurib kelib, zvenolarga bo‘linib saflanadilar) hamda ularni aerodromga qo‘nish uchun olib ketadilar. Birinchi bo‘lib qo‘ngan zveno yutib chiqadi. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi.

O‘yinda har xil holatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi uchuvchilarga bildirmasdan aerodromlarga belgilab qo‘yilgan bayroqchalarni almashtirib qo‘yishi ham mumkin. Komandirlar zvenolarni o‘z aerodromlariga adashmasdan qo‘ndirishlari kerak.

Rangli avtomobillar

Bolalar xona devori bo‘ylab turadilar. Bu garajdagи avtomobillar bo‘ladi. O‘yinda ishtirok etayotgan har bir bolaning qo‘lida bayroqcha (koptok, kartondan

yasalgan kuk, sariq yoki yashil rangdagi doira) bo‘ladi. Tarbiyachi xonaning markazida o‘ynovchi-larga qarab turadi. Uning qo‘lida tegishli rangdagi uchta bayroqcha bo‘ladi. U bayroqchalardan birini ko‘taradi (ba’zan ikkita yoki har uchala bayroqchani ham ko‘tarish mumkin). Ana shu rangdagi narsasi bo‘lgan bolalar maydon bo‘ylab yugurib ketadilar, yurib borayotgan avtomobilga taqlid qiladilar, di-ditlatadilar. Tarbiyachi bayroqchani tushirgandan keyin avtomobillar to‘xtaydi, aylanib buriladi va o‘z garajlariga qarab jo‘naydi. O‘yin 6 marta takrorlanadi.

Tarbiyachining qo‘lida qizil bayroqcha bo‘lishi ham mumkin. U kutilmaganda qizil bayroqchani ko‘taradi, bunda avtomobillar bu signalga ko‘ra to‘xtashi kerak.

Qushlar va mushuk

Yerga doira shakli chizib quyiladi (diametri 5—6m). Doiraning markazida tarbiyachi tanlagan bola— mushuk turadi. Qolgan bolalar doiradan tashqarida turishadi — ular qushchalar bo‘lishadi. Mushuk uxlab qoladi. Qushchalar doira ichiga kirib don cho‘qilashadi. Mushuk uyg‘onib qoladi, qushchalarni quvadi va ularni tuta boshlaydi. Qushchalar doiradan uchib chiqishga shoshiladilar. Mushukka qo‘li tekkan bola tutilgan hisoblanadi va doiraning o‘rtasiga borib turadi. Mushuk 2—3 qushchani tutgandan keyin tarbiyachi yangi mushuk tayinlaydi. Tutilgan qushchalar barcha o‘ynovchilarga qushilib ketadi. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi.

Mushuk qushchalarni ehtiyyot bo‘lib tutadi (ularni changallab olmay, faqat qo‘lini sal tekkizib quyadi). Agar mushuk ancha vaqtgacha hech kimni tuta olmasa, tarbiyachi unga yordam berish uchun yana bitta mushuk tayinlaydi.

O‘rmondagи ayiq

Maydonchaning bir tomoniga ayiq ini chizib quyiladi. Ikkinci tomonida bolalar yashaydigan uy aks ettiriladi. Tarbiyachi inida o‘tiradigan ayiqni tanlaydi. Tarbiyachi: “Bolalar, boringlar, o‘ynab kelinglar!” — deyishi bilan bolalar uylaridan chiqib, o‘rmonga o‘ynagani ketadilar, qo‘ziqorin teradilar, kapalak tutadilar va hokazo (engashadilar, rostlanadilar va shu singari boshqa taqlidiy harakatlarni bajaradilar). Ular baravariga shunday deydilar:

*Ayiq ini oldida
Qo‘ziqorin teramiz.
Ayiqvoy o‘kirganda
Bizlar qochib ketamiz*

“O‘kirganda” so‘zidan so‘ng ayiq uylariga qochib ketayotgan bolalarni tuta boshlaydi. Ayiqning qo‘li tekkan bola tutilgan hisoblanadi: ayiq uni o‘z iniga olib borib qo‘yadi.

O‘z chegarasidan o‘tgandan keyin bolalarni ushslash mumkin emas. Ayiq bir necha o‘yinchini olgandan keyin o‘yin yana boshqatdan boshlanadi. Endi ayiq vazifasiga boshqa bola tayinlanadi. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

O‘yining boshqacha turi — ikkita ayiq bilan o‘ynaladigan turi ham bo‘lishi mumkin.

O‘z juftingni top

Tarbiyachi bolalarga asosiy rangdagi bayroqchaldan bittadan tarqatib chiqadi. Ishora bo‘yicha — childirma ovozi chiqishi bilan yoki chapak chalinishi bilan bolalar bayroqchalarini boshlaridan yuqorida ko‘tarib, hilpiratib yugurib ketadilar. Keyingi signal bo‘yicha, ya’ni childirma bir necha zarb berib urilganda yoki ketma-ket chapak chalinganda yoki “o‘z juftingni top” degan so‘zlar aytilishi bilan bir xil rangdagi bayroqchali bolalar juft-juft bo‘lib, o‘zlariga sherik topib oladilar. Har bir juft erkin holda qandaydir shaklni aks ettirib turadi. O‘z juftini topolmay qolgan bolaga boshqa hamma bolalar baravariga shunday deb murojaat qiladilar:

Ha, bo‘l Ahmad anqayma

Sherik tanla, lalayman.

Shundan keyin bolalar maydon bo‘ylab yana yugurib ketadilar. O‘yin 5—6 marta takrorlanadi.

O‘yinda o‘yinchilar soni toq bo‘lishi mumkin, u holda tarbiyachi ham o‘yinda ishtirok etadi. Tarbiyachining qo‘lida hamma rangdagi bayroqchaldan bo‘lishi kerak; o‘yin takrorlangan vaqtda u bir necha bolaning bayroqchasini almashtirib beradi. O‘yinda ishtirok etayotgan bolalar signal bo‘yicha o‘zlariga har xil sheriklar tanlashlari kerak.

Toychalar

Bolalar teng ikki guruhga bo‘linadilar. Bir xillari toychalarni ifoda etsalar, boshqalari otboqar vazifasini bajaradilar (otboqlarning qo‘lida jilov bo‘ladi).

Maydonchaning bir tomoniga otxona chizilib, toychalar o‘sha erda turadi. Ikki tomonda otboqarlar uchun joy belgilab qo‘yiladi: maydon—bu o‘tloq bo‘ladi. Tarbiyachi: “Otboqarlar, tezroq o‘rningizdan turingiz, otlarni, egarlangiz”, - deydi. Mana shu signal bo‘yicha otboqarlar otxonaga qarab yuguradilar va otlarni egarlaydilar (har biri otni o‘z istagi bo‘yicha tanlaydi yoki tarbiyachining ko‘rsatmasi bo‘yicha harakat qiladi).

Egarlangan otlar bir-birining orqasidan ketma-ket turadi va signal bo‘yicha sekin yurib ketadi, yuguradi yoki lo‘killab chopadi. Tarbiyachining: “Yetib keldik, otlarni bo‘shatinglar!” — degan so‘zları bo‘yicha otboqarlar to‘xtaydilar, otlarning egar-jabduqlarini echib oladilar va uni o‘tloqqa qo‘yib yuboradilar-da, qaytib o‘z joylariga kelib turadilar. Otlar o‘tloqda sokin o‘tlab yuradilar, kirt-kirt qilib o‘tni eydilar. “Otboqarlar, otlarni egarlangiz!” degan signal bo‘yicha har bir otboqar o‘z otni tutib keladi (ot qochishga harakat qiladi, uning qo‘lidan chiqib ketmoqchi bo‘ladi). Barcha otlar tutib kelingach va egarlangach, bir-birining ketidan saf bo‘lib turadilar va o‘yin qaytadan tiklanadi. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi. Shundan keyin tarbiyachi: “Otlarni otxonaga olib borib qo‘yingiz, endi dam olishsin”, — deydi. Otboqarlar otlarni otxonaga olib boradilar va egar-jabduqlarini echib oladilar.

O‘yinda yugurishni yurish bilan va boshqa har xil sakrash harakatlari bilan, almashtirib turish kerak. O‘yinni poyga o‘tkazish, o‘rmonga o‘tin kesgani borish va hokazolar bilan rang-barang qilish mumkin. Agar otlardan birortasi otboqarga hadeb tutqich beravermasa, tarbiyachi va boshqa otboqarlar unga otni tutishda yordam beradilar.

Quyonlar bilan bo‘ri

Bolalar quyonlarni, ulardan biri bo‘rini aks ettiradi. Maydonchaning bir tomonida quyonchalar o‘z uylarini belgilashadi. Qarama-qarshi tomonda bo‘ri jarlikka yashirinadi.

Tarbiyachi quyidagi she’rni aytadi
*O‘tloqda quyonchalar,
Dikir-dikir uynashar.
Buri yuqmikin deya,
Asta qarab quyishar.*

Quyonchalar ana shu so‘zlarga muvofiq harakat qilib, uychalaridan sakrab-sakrab chiqadilar, maydoncha bo‘ylab yugurib, goh ikki oyoqlab sakraydilar, goh chuqqayib o‘tirib, o‘tni eydilar. Tarbiyachi «Bo‘ri» so‘zini aytishi bilan bo‘ri jarlikdan sakrab chiqadi va quyonlarni quvlab ketadi. Bo‘ri ularni tutishga (qo‘lni tekkizishga) harakat qiladi. Quyonlar o‘z uylariga qochib ketadilar. Bu erda endi bo‘ri ularni tutishi mumkin emas. Tutilgan quyonlarni buri o‘zining iniga — jarlikka olib ketadi. O‘yin qaytadan tiklanadi. Kelishib olinganiga muvofiq, bo‘ri 2—3 quyoini tutgandan keyin uning vazifasiga boshqa o‘yinchi tayinlanadi. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Har bir quyon o‘z inini egallaydi. Kuyonlarning umumiy uychasi ham bo‘lishi mumkin. Dastlab bo‘ri vazifasini tarbiyachi ifoda etishi ham mumkin.

Tulki tovuqxonada

Tovuqlar tovuqxonadagi qo‘noqdan joy oladilar (bolalar maydonchaning biror tomoniga quyilgan stillarda o‘tirishadi). Maydonchaning qarama-qarshi tomonida in bo‘ladi. Maydonchaning qolgan barcha qismi hovli bo‘ladi. Tulki o‘z inida o‘tiradi, tovuqlar esa hovli bo‘ylab yuradilar, yuguradilar, qanot qoqadilar, don cho‘qiydilar. Tarbiyachining “Tulki!”—degan signali buyicha tovuqlar qochib ketadilar, o‘z inlariga berkinib oladilar va qo‘noqqa uchib chiqadilar, tulki esa qo‘noqqa chiqib ulgurmagan tovuqlarni tutib olishga va o‘z iniga olib qochishga harakat qiladi (sekin-asta qo‘lini tekkizadi). Tutgan tovuqni iniga olib ketadi. O‘yin qaytadan tiklanadi. Tulki belgilangan miqdordagi tovuqlarni tutib bo‘lgach, o‘yin tamom bo‘ladi. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Stullar, kublar va boshqa shu kabi buyumlar qo‘noq o‘rnida xizmat qilishi mumkin.

Artindi toza

Quyon ana shu so‘zlarga yarasha harakatlar qiladi. Keyin u bolalardan birortasining oldiga ikki oyoqlab sakrab-sakrab keladi. Quyon kimning oldiga

kelib to‘xtagan bo‘lsa, o‘sha bola doiraning o‘rtasiga kelib turadi. O‘yin 5-6 marta takrorlanadi.

Doirada bir vaqtning o‘zida bir necha quyon 4-5 bola turishi ham mumkin. Ular o‘yin topshiriqlarini baravar bajaraveradilar. Bu bolalar faoliyatini oshiradi.

Podachi bilan poda

Bolalar podani ifoda etishadi (sigirlar, buzoqlar). Podachi tayinlanadi. Unga podachi kiyadigan telpak, qo‘liga tayoq va qo‘bizcha beriladi. Poda molxonada to‘planadi. Podachi uzoqroqda turadi. Tarbiyachi bunday deydi:

*Cho ‘lpon ertalab turib
Nay chalar: “Tu-tu-ru-ru”
Sigir-buzoq jo ‘r bo ‘lib
Ma ’rashar “Mu-mu-mu”*

“Tu-tu-ru-ru” so‘zlarini eshitil bilan podachi qo‘liga nayni olib, chala boshlaydi. “Mu-mu-mu” so‘zlaridan keyin buzoqlar ma’rashadi. Keyin bolalar cho‘kkalab turishadi va podachi tomon emaklab borishadi. U sigir-buzoqlarni dalaga (maydonchaning nariga tomoniga) haydaydi. U erda poda bir oz boqilgach, podachi ularni yana molxonaga qaytaradi. Keyin yangi podachi ularni yana molxonaga qaytaradi. Keyin yangi podachi saylanadi. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

O‘yin uchun keng joy zarur. Bolalar bir joyda g‘uj bo‘lib turmasliklari kerak.

Qushlar uchib o‘tadi

Bir gala qushlar-bolalar maydoncha chekkasidagi bir necha zinapoyasi bo‘lgan gimnastika devorchasi qarshisida to‘planib(tarqalibroq) turishadi. Tarbiyachining “Qani, uchaylik!” degan signali bilan qushlar qanot qoqadilar va madoncha bo‘ylab uchib ketadilar. “Bo‘ron” degan signal berilib, qushlar daraxtlarga tomon uchadilar(devorchalarga chiqadilar) Tarbiyachi: “Bo‘ron tindi” deyishi bilan qushlar daraxtlardan sekin tushib, yana ucha boshlaydilar. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Gimnastika narvonchasidan tushayotganda sakrash mumkin emas. Agar narvoncha zinapoyalari kamroq bo‘lsa, o‘yinga barcha bolalarni baravar jalb qilmaslik kerak. Narvoncha o‘rniga stul, skameyka va boshqa buyumlardan foydalanish mumkin.

To‘pni irg‘it

Bolalarning har biri qo‘liga bittadan koptok ushlab, xona yoki maydoncha bo‘ylab erkin qolda tarqalib turishadi. Tarbiyachining «Boshlang!» — degan ishorasi bo‘yicha bolalar qo‘llaridagi koptokni tepaga irg‘itib, uni yana ilib ola boshlaydilar. Har bir bola koptokni necha marta erga tushirmsandan ilib olishini sanaydi.

Bolalarni ikkita-ikkita qilib turg‘izish ham mumkin. Biri koptokni otib, ilib tursa, boshqasi sanab turadi yoki bolalardan bir-ikkitasi davra o‘rtasiga chiqib,

koptokni tashlab, berib turadi. Hamma bolalar topshiriqning to‘g‘ri bajarilishini kuzatib turadilar. Bunda musobaqa o‘ynash ham mumkin: koptokni kim ko‘p otib, ko‘p ilib olish musobaqasiga bolalar juda qiziqishadi. Quyidagi mashqlarni kiritish ham mumkin: koptokni tepaga irg‘itgach, uning erga tushishini kutib turish, erga urilib qaytib chiqqandan so‘ng ilib olish, koptokni erga urib ilib olish, uni tepaga balandroq otib, chapak chalish va koptokni ilib olish, koptokni tepaga otish, tezda gir aylanish va koptok erga urilib chiqqach, uni ilib olish.

Bulavani urib yiqit

Bolalar chiziqning narigi tomonida turadilar. Chiziqdan 2-3 metr nariga har bir bola qarshisiga bulava qo‘yiladi. Bolalarning qo‘lida koptok bo‘ladi. Bolalar signal bo‘yicha qo‘llaridagi koptokni bulavaga qaratib yumalatib, uni urib yiqitishga harakat qiladilar. Navbatdagi signal berilishi bilan ular yugurib borib koptoklarni olib keladilar, yiqitilgan bulavalarni turg‘izib qo‘yadilar. O‘yin takrorlanadi. Har kim o‘zi bulavani necha marta urib yiqitganini hisoblab boradi. (5-rasm).

O‘yin topshirig‘ini har xil qilib bajarish kerak. Koptokni o‘ng qo‘l bilan, chap qo‘l bilan, ikki qo‘llab yumalatish lozim. Koptokni oyoq bilan yumalatib yuborish ham mumkin

Koptokni to‘rdan oshir

Bolalarning bir guruhi (2—8 ta bola) ularning qo‘li etadigan balandlikda tortilgan to‘rning ikki tomonida, to‘rdan kamida 1—1,5 m masofada turadi. Keyin bolalar koptokni bir- birlariga ota boshlaydilar. Agar o‘yinda to‘rt va undan ortiq bola qatnashayotgan bo‘lsa, bir bola koptokni to‘rdan oshirib irg‘itadi, koptokni tutib (ilib) olgan bola uni o‘z yonidagi sheringiga tashlaydi, u esa koptokni yana to‘rdan oshirib otadi.

Bolalar koptokni o‘yin sharti bo‘yicha to‘rdan muayyan usulda — ikki qo‘llab pastdan yoki oshirib tashlaydipar. Komandalar o‘zaro bir-birlari bilan musobaqalashadi: tarbiyachi yoki bolalardan birortasi turning qaysi tomonida koptok ko‘proq erga tushganligini hisoblab boradi.

To‘p maktabi

Koptokni tepaga otish va ilib olish. Koptokni erga urish, chapak chalish va ikki qo‘llab ilib olish. Koptokni devorga urish, chapak chalish va ikki qo‘llab ilib olish. Ikki kishi bitta koptokni devorga o‘rtog‘i tomon qaytib boradigan burchak ostida uradi, ikkinchi koptok polga tushib, sakrab chiqqanidan keyin uni ilib oladi.

Kegli

Keglilar muayyan tartibda teriladi: eng baland kegli o‘rtaga, qolganlari bir-biriga zinch qilib qo‘yiladi, keyin yana bir qator, lekin orasini sal (5—10 sm) ochiq qoldirib terib chiqiladi; kichik doira shaklida terib, o‘rtaga katta kegli qo‘yiladi; ikki qator terib, katta kegli qatorlari orasiga qo‘yiladi; uch qator qilib, katta kegli ikkinchi qatorga teriladi; kvadrat shaklida terib, katta kegli markazga qo‘yiladi va hokazo. Keglilar terib qo‘yilgan chiziqdan 2—3 m nariga 2—3 ta chiziq chizib,

bolalar shu erdan turib keglilarni urib tushiradilar. Bolalar navbat bilan koptokni avval eng yaqin chiziqdandan turib uradilar. Keglini eng ko‘p urib yiqitgan bola g‘olib chiqadi. Uning o‘zi koptokni ikkinchi chiziqdandan boshlab yumalatadi va hokazo.

Bir o‘yinda keglilarni bir-ikki martadan ortiq terib chiqmaslik tavsiya etiladi. Ochkolarni sanab chiqish ham mumkin, unda katta kegli eng yuqori ochko bilan hisoblanadi.

Halqa tashlash

O‘yin diametri 15—20 sm halqa tashlashdan iborat bo‘ladi. Halqalar turli xil (kvadrat, uchburchak va boshqa) shaklda joylashtirilgan, uzunligi 30-40 sm bo‘lgan tayoqchalarga o‘ng va chap qo‘llar bilan tashlanadi. Vazifa shundan iborat bo‘ladiki berilgan 1,5—2 m masofadan turib tayoqchalarga iloji boricha ko‘proq (3—5) halqa tushirish lozim. O‘yinda bir vaqtning o‘zida 2-3 bola baravar qatnashadi. Ular baravar miqdorda halqa tashlaydilar, kim ko‘proq halqa tashlaganligi sanab chiqiladi.

Halqalar har xil rangda bo‘lgani ma’qul. Har bir bola bir xil rangdagi halqa bilan harakat qiladi. Bunday hollarda bolalar halqalarni baravar tashlashlari ham mumkin.

Qayerga yashirilganini top

Bolalar xona devori bo‘ylab turadilar. Tarbiyachi bolalarga bayroqchani ko‘rsatib, tezda uni yashiradi va “Bo‘ldi”, deydi. Bolalar yashirilgan bayroqchani qidiradilar. Bayroqchani birinchi bo‘lib topgan bola o‘yin takrorlanganda bayroqchani yashiruvchi bo‘ladi. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Agar bolalar bayroqchani uzoq vaqtgacha topa olmasalar, tarbiyachi bayroqcha yashirilgan joyga kelib turadi-da, shu atrofni qidirib ko‘rishni taklif qiladi. Bayroqchani bola yashiradigan bo‘lsa, tegishli joy topishda unga yordam berish kerak.

Top, lekin aytma

Bolalar maydonchaning bir tomonida yuzlarini tarbiyachi tomonga qaratib turadilar. Tarbiyachining signali bilan ular o‘girilib, devorga qarab turadilar. Shu paytda tarbiyachi ro‘molchani yashirib qo‘yadi. Keyin bolalar ko‘zlarini ochishadida, tarbiyachi tomon burilishadi va ro‘molchani qidira boshlashadi.

Ro‘molchani topgan bola uni topganligini bildirmasdan sekin tarbiyachining yoniga keladi va uning qulog‘iga ro‘molchaning qayerdaligini aytadi-da, qatordagi o‘z joyiga kelib turadi (yoki stulchaga, skameykaga kelib o‘tiradi). Bolalarning ko‘pchiligi ro‘molchani topmaguncha o‘yin davom etaveradi. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Bolalarga kim ro‘molchani topsa, uni turgan joyidan olmaslik kerakligini va hatto uni topmaganligini hech kimga bildirmaslikka harakat qilish zarurligini tushuntirish kerak.

Ketgan kim?

Bolalar davra qurib yoki yarim doira shaklida turadilar. Tarbiyachi o‘yinda qatnashayotgan bolalardan biriga o‘z yonida turgan 5—6 ta bolani eslab qolishni, keyin xonadan chiqib turishni yoki burilib, ko‘zini yumib turishni taklif qiladi. Bolalardan biri yashirinib oladi. Keyin tarbiyachi: “Qani, top-chi, kim yo‘q?”-deydi. Agar bola topsa, uning o‘rniga boshqa bola tayinlanadi. Agar topa olmasa, yana o‘girilib turadi va yashiringan bola joyiga qaytib kelib turadi. Keyin topuvchi bola uning nomini aytishi lozim. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi.

Bolalar safdan chiqib, yashiringan kim ekanligini aytib bermasliklari kerak. Hech kim yashirinmasligi ham mumkin. U holda qidirib topuvchi bola hamma joy-joyida turganligini aytishi kerak.

Qopqon

O‘ynovchilar teng bulmagan ikki guruhga bo‘linadilar. Kichik guruh bolalari qo‘l ushlashib, doira hosil qiladilar. Ular qopqon vazifasini o‘taydilar. Qolgan bolalar (sichqonlar) doiradan tashqarida bo‘ladilar. Qopqon vazifasini bajarayotgan bolalar doira bo‘ylab boradilar va:

Narsalarni kemirib, Jonga tegdi sichqonlar. Ehtiyyot buling makkorlar, Sizni quvib etamiz, Hammangizni tutamiz... deb aytadilar.

Bolalar to‘xtab, darvoza hosil qilib, bir-birlari qo‘llarini ushlab olgan holda yuqoriga ko‘taradilar. Sichqonlar qopqon ichiga yugurib kiradilar va undan yugurib chiqadilar. Tarbiyachi “Qo‘lingizni tushiring” deyishi bilan doira bo‘lib turgan bolalar qo‘llarini tushiradilar, cho‘qqayib o‘tirib qopqon atrofini bekitadilar. Doira (qopqon) ichidan yugurib chiqsa olmagan bolalar tutilgan hisoblanadilar. Tutilganlar doiraga qo‘silib, uni kengaytiradilar. Qo‘pchilik bolalar tutilgach, bolalar vazifalarini almashtiradilar va o‘yin qaytadan boshlanadi.

Qopqon bekilgach, sichqonlar doira bo‘ylab turgan bolalarning qo‘llari tagidan chiqib ketishi yoki orani yorib chiqishi mumkin emas. Juda chaqqon, biror marta qopqonga tushmagan bolalarning nomini aytib, rag‘batlantirish kerak.

Tutuvchilar

Bolalar maydon bo‘ylab tarqaladilar. Tarbiyachi yoki bolalar tomonidan tayinlangan boshlovchi — tutuvchi maydon o‘rtasida turadi.

Tarbiyachi “Bir, ikki, uch — tush!” deydi. Tarbiyachining ana shu signaliga binoan hamma bolalar maydon bo‘ylab yuguradilar, tutmoqchi bo‘lib qo‘l tekkizishga harakat qilayotgan boshlovchiga chap berib qochadilar. Tutuvchining qo‘li tekkan bolalar chetga chiqadilar. U 3—4 o‘yinchini tutgach, o‘yin tugallanadi, so‘ngra yangi tutuvchi tayinlanadi. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi. Bolalar mo‘ljalni to‘g‘ri olib harakat qilishlari uchun tutuvchi boshqalardan ajralib turish maqsadida unga biror belgi quyish — qo‘liga lenta bog‘lab qo‘yish, shokildali qalpoqcha kiydirish mumkin va hokazo. Agar tutuvchi chaqqon

bo‘lmay, uzoq vaqtgacha hech kimni tuta olmasa, tarbiyachi o‘yinni to‘xtatib, boshqa tutuvchi tayinlaydi.

Karousel

Bolalar uchi bir-biriga bog‘langan tizimchani o‘ng qo‘lda ushlab, doira hosil qilib turadilar. Ular avval doira bo‘ypab asta- sekin, so‘ngra tezroq yuguradilar. Bolalar harakatni quyidagi she’rga muvofiqlashtirib bajaradilar:

*Arang, arang, arang, arang
Karusellar aylanadi.
Aylanadi, aylanadi—
Hech tuxtamay aylanadi.*

Yugurish vaqtida tarbiyachi: “Qani yugurdik, yugurdik”, deb turadi. Bolalar doira bo‘ylab 2—3 marta yugurib chiqqanlaridan keyin harakat yo‘nalishini o‘zgartirishlari uchun “Aylanish” degan signalni beradi. Bolalar aylanib, tizimchani chap qo‘llariga oladilar va teskari tomon yuguradilar. So‘ngra tarbiyachi bolalar bilan birgalikda:

*Sekin, sekin shashilmdng!
Karuselni tuxtating!
Bir, ikki, bir, ikki
Mana, o ‘yin tugadi,—deydi.*

Karousel harakati asta sekinlashadi. “Mana, o‘yin tugadi”,— degan gapdan so‘ng bolalar tizimchani erga qo‘yib, maydon bo‘ylab tarqaladilar. Bolalar bir oz dam olganlaridan so‘ng tarbiyachi signal beradi (qo‘ng‘iroq, hushtak, chapak, childirma ovozi), shunda bolalar yana doira bo‘lib, qo‘llariga, tizimchani oladilar, yangi karusel o‘z o‘rnini egallaydi. O‘yin qaytadan boshlanadi va 2-4 marta takrorlanadi.

Tarbiyachi o‘yinni takrorlashda bir necha shartli signal berib, bolalarga tez doira bo‘lib turing, deb topshiriq berishi mumkin. Uchinchi signalgacha o‘z o‘rniga tura olmagan o‘yinchilari bu karuselda qatnasha olmaydi va keyingi galgacha kutib turadi.

G‘ozlar

Maydonchaning bir tomonida - chiziq bilan ajratilgan joyda g‘ozlar yashaydi. Qarama-qarshi tomonda chupon turadi. O‘yining chap tomonida bo‘rining uyi bo‘ladi. Qolgan joy o‘tloq. Bo‘ri va cho‘pon vazifasini bajaruvchi bolalarni tarbiyachi tayinlaydi, qolgan bolalar g‘oz bo‘ladilar. Cho‘pon g‘ozlarni o‘tloqqa olib chiqadi, ular o‘tloqda yurib, uchadilar.

*Cho ‘pon: G‘ozlar, g‘ozlar!
G‘ozlar (to ‘xtab, javob beradilar); G‘a, g‘a, g‘a!
Cho ‘pon: Don eysizmi?
G‘ozlar: Ha, ha, ha!
Cho ‘pon: Qani, uchib kelinglar!
G‘ozlar: Ucha olmaymiz!
Tog‘ ostidagi bo‘ri*

*Bizni uyg'a qo'ymaydi.
Cho 'pon: Qanotlardan ajralmay,
Uyga tomon uchinglar!*

G'ozlar qanotlarini yozib (qo'llarini yon tomonga uzatib) o'tloqdan uy tomon uchadilar, bo'ri esa uyasidan chiqib, ularni tutishga (qo'l tekkizishga) harakat qiladi. Tutilgan g'ozlar burining uyasiga kiradilar. Bir necha marta yugurib o'tgandan so'ng (o'yin tartibiga ko'ra) tutilgan g'ozlar sanab chiqiladi. So'ngra yangi bo'ri va cho'pon tayinlanadi. O'yin 3—4 marta takrorlanadi. O'yinning boshida bo'ri vazifasini tarbiyachi bajaradi.

Qiziqchilar

O'yinchilardan biri qiziqchi qilib tayinlanadi va u davra o'rtasida turadi. Qolgan bolalar qo'l ushlashib, doira bo'ylab (tarbiyachi ko'rsatmasiga binoan o'ngga va chapga) yuradilar va:

*Doira buylab,
Qetma-ket,
Boramiz qadam-baqada,
Joyingizda to 'xtangiz
Birgalikda hammamiz
Mana... bunday qilamiz,—deyishadi.*

Bolalar to'xtab, qo'llarini tushiradilar. Qiziqchi biror harakatni qilib ko'rsatadi, qolgan hamma bolalar bu harakatni takrorlashlari kerak. O'yin 2—3 marta takrorlanadi, qiziqchi o'yinchilardan birini o'z o'rniga tayinlaydi, so'ngra o'yin yana davom ettiriladi. O'yin 3—4 marta takrorlanadi.

Qiziqchilar bir harakatni hadeb takrorlamay, xilma-xil harakatlarni ko'rsatishi kerak.

Holatni bajar

Bolalar maydon bo'ylab yugurib yuradilar. Tarbiyachining signaliga binoan joylarida tez to'xtab, biror holatni (cho'qqayib, qo'llarni yon tomonlarga ko'tarib va hokazo holatni) egallab turadilar, eng ifodali bo'lib turgan holatni tarbiyachi ayтиб, ularni rag'batlantiradi

Yil oxiriga borib o'yii murakkablashtiriladi, unda bolalar guruh guruh, juft-juft, uchtadan bo'lib turishlari mumkin. Bundan tashqari, bolalarga aniq holatda, faqpt tik turib, cho'qqayib turib, o'tirib va hokazoda figura hosil qilish taklif etiladi.

Tovonbaliqlar va cho'rtanbaliq

O'yinda qatnashuvchi bolalar bir- birlaridan uch qadam masofada turib, doira qosil qiladilar. Atrofida shag'al toshlar yotgan hovuz. Tarbiyachi bir bolani cho'rtanbaliq qilib tayinlaydi, u doiradan tashqarida turadi. Qolgan o'yinchilar-tovonbaliqlar doira ichida (hovuzda) suzib (yugurib) yuradilar. Tarbiyachining «Cho'rtanbaliq» degan signali bo'yicha cho'rtanbaliq hovuzga tez suzib kirib, tovonbaliqlarni tutishga harakat qiladi. Tovonbaliqlar doira bo'ylab shag'allarni

tasvirlab turuvchi o‘yinchilar orasiga yashirinishga shoshiladilar. Cho‘rtanbalik, yashirinib ulgurmaganlarpi tutib oladi va o‘z uyiga olib ketadi. O‘yin 2-3 marta takrorlangach, cho‘rtanbaliq tutib olgap tovonbaliqlar soni sanab chiqiladi. So‘ngra cho‘rtaibalnq vazifggini boshqa bola bajaradi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi.

O‘yinni davom ettirish uchun yangi cho‘rtanbaliqn ni tayinlashda tovonbaliqlar vazifasini o‘ynayotgan bolalar shag‘al toshlar vazifasini o‘ynayotgan bolalar bilan vazifa almashadilar.

Kim kamroq qadam tashlaydi?

Maydonchada oralig‘i 6-8 metr keladigan ikkita chiziq o‘tkaziladi. O‘yinchilardan bir nechta birinchi chiziqd a turadilar va ikkinchi chiziqqa tomon iloji boricha katta qadam tashlab o‘tadilar yoki yugura boshlaydilar. Kam qadam tashlab o‘tgan bola g‘olib chiqadi.

Ovoz chiqarmay yugurib o‘t

Bolalardan biri maydoncha o‘rtasida o‘tirib, ko‘zini yumadi. Qolgan bolalar maydonchaning bir tomonida turadilar; ulardan 6-8 kishi maydonchaning ikkinchi tomoniga o‘rtada o‘tirgan bolaning yonidan yugurib o‘tadilar. Agar bolalar ovoz chiqarmay yugurib o‘tsalar, ularni onaboshi to‘xtatmaydi. Agarda u qadamlar tovushini eshitsa, to‘xta deydi va ko‘zini ochmay ovoz eshitilgan tomonni ko‘rsatadi. Agar onaboshi ovoz eshitilgan tomonni to‘g‘ri ko‘rsatsa, bolalar o‘z joylariga qaytib boradilar. So‘nra keyingi guruh bolalar yugurib o‘tadilar.

Tezroq, meni tushirib yuborma

Bolalar 6—10 tadan bo‘lib qum solingan xaltani boshga yoki qo‘llarni oldinga uzatib, kaft ustiga qo‘yib, u yoqdan bu yoqqa yugurib o‘tadilar, bunda bir-birlaridan o‘zib o‘tishga harakat qiladilar.

Juft-juft bo‘lib yugurish

Bolalar o‘z zvenolaridan juft-juft bo‘lib chiziq orqasida turadilar. Maydonchaning ikkinchi tomoniga zvenolar soniga qarab keglilar (stullar, to‘ldirma to‘p) quyiladi. Tarbiyachining signali bo‘yicha zvenoda turgan birinchi juft qo‘l ushlashib oldinda turgan narsa oldigacha boradi va uni aylanib o‘tib, yugurib o‘z zvenosining oxiriga kelib turadi. Keyingi signal bo‘yicha ikkinchi juft yugurib chiqadi va hokazo.

Qo‘llarini yonga tushirib turgan bolalar g‘olib hisoblanadi.

Qarama-qarshi tomonga yugurib o‘tish

Guruh teng ikkiga bo‘linadi, O‘yinchilar maydonning qarama-qarshi tomonga chizilgan chiziq orqasida oralarida nomiga bir qadam joy qoldirib, qatorga saflanadilar. Har bir guruhda alohida rangli sariq, ko‘k lenta bo‘ladi. Tarbiyachining “ko‘k” degan signaliga binoan ko‘k lenta ushlagan bolalar qarama-qarshi tomonga yugurib o‘tadilar. U tomonda turgan bolalar qo‘llarini oldinga

uzatib, ularning kelib qo‘lga tegishlarini kutib turadilar. Qo‘liga tegilgan bola orqasiga o‘tadi va aylanib qo‘lini yuqoriga ko‘taradi va hokazo.

Ayyor tulki

O‘yinchilar oraliqda bir qadam joy qoldirib doira bo‘lib turadilar. Chetda, doiradan tashqarida tulkining uyi belgilanadi. Tarbiyachining signaliga binoan bolalar ko‘zlarini yumadilar, tarbiyachi esa bolalar orqasidan doirani aylanib, bolalardan birortasiga bilintirmay tegib o‘tadi. Tarbiyachi qo‘l tekkizgan bola ayyor tulki bo‘ladi. Tarbiyachi bolalarga ko‘zlarini ochishni aytadi va kim ayyor tulki ekanligini topib olishni taklif etadi. Ayyor tulki o‘zini bildirmay turadi. O‘yinchilar uch marta baravariga (oldin oyoqni, keyin qattiqroq ovoz chiqarib): “Qayerdasan, ayyor tulki?”—deb chaqiradilar, Bunda hammalari bir-birlariga diqqat bilan qaraydilar. Uchinchi bor “Qayerdasan, ayyor tulki?” deyilishi bilan ayyor tulki qilib tayinlangan bola doira o‘rtasiga tez yugurib chiqadi, qo‘lini yuqoriga ko‘tarib: “Men bu erdamon!” —deydi. Hamma o‘yinchilar maydon bo‘ylab yugurib ketadilar, tulki esa ularni tutadi (qo‘l tekkizadi). Tutilgan bolani tulki uyiga olib ketadi. Tulki 2—3 ta bolani tutgach, tarbiyachi baland ovoz bilan “Doiraga” deydi. O‘yinchilar doira bo‘lib turadilar, o‘yin qaytadan boshlanadi. O‘yin 4—5 marta takrorlanadi.

Agar tulki o‘zini sezdirib qo‘ysa, tarbiyachi boshqa tulki tayinlaydi. Tulkini o‘ynovchilar ham tayinlashi mumkin. Agar tulki ancha vaqtgacha bitta ham bolani tuta olmasa, o‘rniga boshqasini tayinlash mumkin. Maydon juda katta bo‘lsa, unda chegara ajratiladi.

Polda qolma

Tutuvchi tayinlanadi. Bolalar maydonchaning har erida turadilar. Tarbiyachining topshirig‘iga binoan ular tutuvchi bilan birqalikda shartli musiqa jo‘rligida: childirma, chapak ovozi va hokazo ostida ma’lum tezlikda va maromda yuradilar, yuguradi- lar, sakraydilar. Tarbiyachining «Tut» degan signali berilishi bilan hammalari tutuvchidan qochib, maydonda qo‘yilgan narsalar ustiga chiqib oladilar. Tutuvchi qochuvchilarni tutishga harakat qiladi. Tutuvchining qo‘li tekkan bola shu zahotiyoy chetga chiqadi. O‘yin 2—3 marta qaytarilgach, tutilganlar sanaladi va yana tutuvchi tayinlanadi. O‘yin qaytadan boshlanadi.

Tarbiyachi balandlikdan bolalarning ikki oyoqda sakrab tushishlarini kuzatib turadi, ularni maydon bo‘ylab har tomonda, ustiga chiqib olish kerak bo‘lgan narsalardan yugurib borishga o‘rgatadi.

Qarmoq

Bolalar oralarida bir oz joy qoldirib, doira bo‘lib turadilar. Tarbiyachi doira o‘rtasida turadi. U uchiga qumli xaltacha bog‘langan chilvirni doira bo‘ylab aylantiradi. Bolalar xaltachani kuzatib boradilar va yaqin kelishi bilan oyoqlariga tegib ketmasligi uchun yuqoriga sakraydilar. Oyog‘iga xaltacha tekkan bola orqaga bir qadam tashlaydi va vaqtincha o‘yindan chiqadi. Tezda tanaffus qilinadi va o‘yin qaytadan boshlanadi, unda hamma bolalar qatnashadi.

Chilvir uchiga bog‘langan xaltacha erda sudralib aylantirilishi kerak. Agar bolalar bu vazifani osonlikcha bajarsalar, xaltachani poldan bir oz ko‘tarish mumkin. Chilvirni soat mili aylanishiga qarab emas, teskari tomonga ham aylantirish mumkin.

O‘yinni murakkablashtirish uchun ikki sakrash o‘rtasida bolalarga qo‘sishimcha topshiriq: o‘tirib turish, 1—3 marta aylanish na hokazo vazifalarni buyurish mumkin. Yuqoriga sakrash urniga «qarmoqdan» orqaga sakrash mumkin.

Do‘ngdan-do‘ngga

Bolalar ikki guruhga bo‘linib, maydonning qarama-qarshi gtomonida turadilar. Ular o‘rtasiga, butun maydon bo‘ylab doirachalar — do‘nglar chiziladi (ular orasidagi masofa har xil: 10, 20, 30, 40 sm bo‘ladi). Tarbiyachi goh u, goh bu tomondagi bolalardan bir nechtasini chaqiradi. Ular do‘ngdan-do‘ngga sakrab, maydonning ikkinchi tomoniga o‘tadilar. Sakrayotganlar mashqni qanday bajarayotganini hamma kuzatib turadi. So‘ngra navbatdagilar sakraydilar.

O‘yinda har xil topshiriqlar: do‘ngdan-do‘ngga ikki oyoqda, u oyoqdan bu oyoqqa, bir oyoqda sakrash beriladi. Bolalarni komandalarga bo‘lish va qaysi komanda yaxshi va tez sakrashini aniqlash mumkin.

Bayroqchaga kim tezroq etib boradi?

Bolalar 3—4 ta teng guruhlarga bo‘linadilar va chiqib ketishlari mumkin bo‘lмаган chiziq oldida oralarida bir necha joy qoldirib, qatorga saflanadilar. Bu chiziqdan 4—5 m narida har bir qator ro‘parasida darvozachalar o‘rnataladi. Undan nariga chiziq chizilib, bayroqcha qo‘yiladi. Shartli signal buyicha qatorda birinchi bo‘lib turgan bolalar darvoza tomon yuguradilar, uning tagidan emaklab o‘tadilar. Bayroqchaga qarab yuguradilar, bayroqchani olib, yuqoriga ko‘taradilar va hilpiratadilar. So‘ngra bayroqchani asta polga qo‘yib, yugurib orqaga qaytadilar va o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. Birinchi bo‘lib yugurib kelgan bola yutgan hisoblanadi. Navbatdagilar bayroqcha gomon yuguradilar.

O‘yinni boshqacharoq o‘tkazish, bolalarga darvozagacha yugurib emas, balki cho‘kkalab emaklab yoki tirsak va tizzalarga tayanib sudralib borishni topshirish mumkin. Bayroqchani polga tashlash man etiladi. Engashib tayoqchani malum tomona sekin qo‘yish kerak.

Ayiqlar va asalarilar

Maydonchaning bir tomonida uya (gimnastika devori yoki minora) bo‘ladi. Qarama-qarshi tomonda o‘tloq. Bir chekkada ayiqlar ini bo‘ladi. O‘yinda bir yo‘la 12—15 tadan ortiq bola qatnashadi. O‘ynovchilar teng bo‘lмаган ikki guruhga bo‘linadilar. Ularning ko‘philik qismi uyada yashovchi asalarilar bo‘ladi. Ayiqlar esa inida. Shartli signalga binoan asalarilar uyalaridan chiqib (gimnastika devoridan tushadilar), asal uchun yaylov tomon vizillab, uchadilar. Asalarilar uchib ketishi bilan ayiqlar inidan chiqib, asalarilar uyasiga kirib (devorga chiqib), maza qilib asal eydilar. Tarbiyachi “Ayiqlar” deb signal berishi bilan asalarilar uya tomon uchadilar, ayiqlar o‘z inlariga qochadilar. Yashirinishga ulgurmagan

ayiqlarga asalarilar nish tiqadilar (qo‘l tekkizadilar). So‘ngra o‘yin qaytadan boshlanadi. Nish sanchilgan ayiqlar navbatdagi o‘yinda qatnashmaydilar.

O‘yin ikki marta takrorlanadi, bolalar vazifalarini almashtiradilar. Tarbiyachi bolalarni devordan sakramay tushishlarini kuzatib turadi, kerak bo‘lib qolsa ularga yordamlashadi.

O‘t o‘chiruvchilar mashqda

Bolalar 3—4 qator (oraliq soniga qarab) bo‘lib, gimnastika devorchasiga qarab turadilar. Qatordagi birinchilar chiziqdagi turadilar. Gimnastika devorchasining har bir oralig‘iga, bir xil balandlikdagi reykalarga qo‘ng‘iroq ilinadi. Tarbiyachining “Bir, ikki, uch — Yuguring”, degan signali bo‘yicha qatorda birinchi bo‘lib turgan bolalar gimnastika devorchasi tomon yuguradilar va unga chiqib, qo‘ng‘iroq chaladilar. So‘ngra undan tushadilar va qaytib, o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. Tarbiyachi birinchi bo‘lib qo‘ng‘iroq chalgan bolaning nomini aytadi. O‘yin davom etadi. Topshiriqni hamma bolalar bajarishi shart. Qaysi komanda o‘yinchilari birinchi bo‘lib ko‘proq qo‘ng‘iroq chalsa, o‘sha komanda g‘olib chiqadi.

Tarbiyachi bolalarning sakramay tushishlarini kuzatib turadi, lozim bo‘lsa, ularga yordam beradi. Qoidani buzgan bola yutqizadi.

Ovchilar va quyonlar

Maydonchaning bir tomonida ovchilar uchun joy ajratiladi. Ikkinci tomonida quyonchalar uchun uychalar ajratiladi. Har bir uychada 2—3 tadan quyon bo‘ladi. Ovchi maydonchada yurib, quyon izini qidirayotgandek harakat qiladi, so‘ngra o‘z iniga qaytadi. Signal bo‘yicha quyonlar inidan chiqib, oldingi tomonga siljib, ikki oyoqda sakraydilar. Tarbiyachi “Ovchi” deyishi bilan quyonlar iniga qochadi, ovchi esa ularga koptok otadi. Koptok tekkan quyon otilgan hisoblanadi. Ovchi uni uyiga olib ketadi. O‘yin birinchi marta takrorlangandan keyin boshqa ovchi tayinlanadi.

Ovchining qo‘lida bir nechta koptok bo‘lishi mumkin. Iniga kirib olgan quyonlarni otish mumkin emas.

Bayroqchadan oshirib otish

Bolalar ikki qatorda ketma-ket bo‘lib turadilar, birinchi qatordagilarning qo‘lida koptoklar, qum solingan xaltachalar bo‘ladi. Ro‘paraga 4—5 masofada bir tekis qilib bayroqchalar qo‘yiladi. Tarbiyachi nechta bola xaltachani bayroqchadan oshirib otganini hisoblab chiqadi. So‘ngra bolalar xaltachalarni olib, yugurib borib o‘z juftlariga beradilar. Navbatdagi qatordagi bolalar otadi, so‘ngra natijalar solishtiriladi.

Xaltachani o‘z juftiga oshirib otish yo‘li bilan ham uni berish mumkin. Xaltacha tushgan joyni kuzatib turish kerak, chunki xaltacha tushgach, yana oldinga sirg‘anib ketishi mumkin. Xaltacha tushgan joy otish natijasi bo‘ladi.

Halqaga tushir

Bolalar diametri 8—10 m li doirada turadilar, bir bola oralatib, ikkinchi bola qo‘lida qum solingan xaltacha, doira o‘rtasida halqa bo‘ladi. Tarbiyachining signaliga binoan bolalar qo‘llaridagi xaltachani o‘ng yoki chap tomonidagi (shartga muvofiq) o‘rtog‘iga uzatadi. Xaltachani olgan bola uni halqachaga tushirishga harakat qilib, ikki qo‘llab (yoki bir qo‘lda) pastdan otadi.

Tarbiyachi birinchi turgan bolalarning nechta xaltachasi halqaga tushganini hisoblab chiqadi. Bolalar xaltachalarni olib, doiradagi o‘z o‘rinlariga qaytadilar. Yana signal beriladi, bolalar xaltachani ikkinchi bolaga — qo‘sniisiga uzatadi va hokazo. Tarbiyachi qaysi bola aniqroq otganini solishtiradi. O‘yin yana qaytadan boshlanadi.

Xaltachani boshqacha usulda ham otish mumkin: ikki va bir qo‘llab o‘tirib, bosh orqasidan, tizzalarda turib otish va hokazo.

Keglini urib yiqit

O‘yinchilar (bolalar guruhining yarmi) chiziq orqasida qatorga saflanadilar. Bu chiziqdan 3—5 m narida byulalar soniga teng keglilar bo‘ladi (har bir o‘yinchida 2 tadan urtacha kattalikdagi koptok bo‘ladi). Koptokni poldan dumalatib, keglini yiqitish kerak. Birinchi dumalatilgan koptok bilan keglini urib yiqita olmagan bola ikkinchi marta koptok dumalatadi. So‘ngra signal bo‘yicha bolalar yugurib borib keglilarni turg‘izib quyadilar, koptoklarni yig‘ib, dastlabki holatga qaytadilar. O‘yin davom etadi. Har bir o‘yinchi nechta kegli yiqitganini sanab boradi.

Koptokni oyoq va hokazolar bilan tepib dumalatish mumkin. Qar bir bolani yiqitishi uchun 2—3 tadan kegli qo‘yilsa, o‘yin murakkablashadi.

Koptokni urib tushir

Chiziqqa uncha katta bo‘lmagan halqalar, masalan, sersodagi halqa ustiga katta koptoklar quyiladi. O‘yinchilar koptok soniga qarab 5—6 m narida qator bulib turadilar. Signal bo‘yicha qum solingan xalgacha bilan koptokni urib tushiradilar. Xdr bir qatordan bigtadan kuzatib turuvchi tayinlanadi. U urib tushirilgan koptoklarni yig‘ib, sanaydi. So‘ngra ular yugurib kelib, o‘z xaltachalarini oladilar va orqalarida turgan o‘yinchiga uzatadilar. Ular qatorda birinchi bo‘lib turadilar va koptokni urib tushiradilar. Har bir komanda urib tushirilgan koptoklarni sanab boradi. Ko‘p ochko to‘plagan komanda g‘olib chiqadi. Yangi kuzatib turuvchilar belgilanadi, o‘yin davom ettiriladi.

Koptoklarni gimnastika skameykasiga, taburetkalarga qo‘yish mumkin. O‘ynayotganlarni komandalarga bo‘lib, quyidagicha taqsimlash mumkin: hamma birinchilar bir komandaga, hamma ikkinchilar ikkinchi komandaga taqsimlanadi va hokazo.

Tarbiyachi koptokni otish vaqtida bolalarning chiziqdan chiqib ketmasliklarini kuzatib turadi. Koptokni faqat o‘ng yoki chap qo‘lda urib tushirish mumkin.

Koptok maktabi

Koptokni yuqoriga otib, uni bir qo‘lda ilib olish, koptokni erga urib, uni bir qo‘lda ushlab olish. Koptokni yuqoriga otib chapak chalish (1—3 marta) va uni ikki qo‘llab ilib olish. Koptokni devorga urish va chapak chalish, uni bir qo‘lda ilib olish. Juft- juft bo‘lib o‘ynash: koptokni devor yonidagi sherik ilib olishi uchun burchak hosil qiladigan qilib urish. Koptokni devorga past tomondan urib, yuqoridan ilib olish. Koptokni devorga orqadan: bosh orqasidan, oyoq tagidan, qo‘l ostidan otib, uni ilib olish.

Koptok onaboshiga

Ikkita chiziq o‘tkaziladi, ular orasidagi masofa 2—3 m. O‘yinchilar birinchi chiziq orqasida ketma-ket turadilar. Ularga qarama-qarshi chiziqdida onaboshi turadi. U qatorda birinchi bulib turgan bolaga koptokni otadi, u esa koptokni boshqaruvchiga qaytarib otadi va qatorning oxiriga borib turadi, butun qator oldinga siljiydi, navbatdagi bola chiziq oldiga kelib turadi. Hamma bolalar koptok otishgach, yangi onaboshi tayinlanadi.

O‘yinda musobaqa o‘tkazish ham mumkin. Bunda bolalar bir necha qator bo‘lib turadilar va har bir qatorga onaboshi tayinlanadi. O‘yinchi koptokni tushirib yuborsa, onaboshi qaytadan unga koptok otadi, lekin shu qatorda turganlar vaqtan yutqizadi.

Serso

Ikki kishidan bo‘lib o‘ynaladi. Bir kishi tayoq (billiard tayog‘i) yordamida yog‘och halqani otadi, ikkinchisi esa uni tayoq bilan ilib oladi. O‘yinchilar orasidagi masofa 3—4 m. Agar bolalar o t i l g a n qalqani tayoqqa ilib ololmasalar, unda oldin qo‘l bilan otib, qo‘l bilan ilib oladilar, so‘ngra tayoqdan foydalananadilar. Kim qalqani ko‘proq ilib olgan bo‘lsa, o‘sha yutgan hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalar halqalarni muntazam irg‘itib turishlarini kuzatib boradi.

Kim uchadi!

Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda doirada turadilar. Tarbiyachi uchadigan va uchmaydigan jonli va jonsiz narsalarning nomini aytadi. Ular nomini aytish bilan tarbiyachi qo‘lini yuqoriga ko‘taradi. Masalan, tarbiyachi: “Qarg‘a uchadi, stol uchadi, samolyot uchadi” va hokazo deydi. Tarbiyachi haqiqatda uchadigan narsalarning nomini aytgandagina, bolalar qo‘llarini yuqoriga mo‘tarib “Uchadi” deydilar.

Onaboshi vazifasiga bolalar ham tayinlanadi. O‘yin oldin sekin, so‘ngra tezroq o‘tkaziladi.

Bo‘sh o‘rin

Bolalar polda, oyoqlarini chalishtirgan holda doira qurib o‘tiradilar. Tarbiyachi yonma-yon o‘tirgan ikkita bolani chaqiradi. Ular doiradan tashqarida bir-birlariga orqa o‘girib turadilar. “Bir, ikki, uch — yugur” signaliga binoan har tomonga

yugurib, o‘z joylariga borib o‘tiradilar. O‘yinchilar kim birinchi bo‘lib bo‘sh o‘ringa kelib o‘tirganligini aytadilar. Tarbiyachi yana ikkita bolani chaqiradi. O‘yin davom ettiriladi.

Har xil joyda utirgan bolalarni ham yugurib kelib o‘tirish uchun chaqirish mumkin.

Badminton

Ikki o‘yinchi bir-birining volanini erga tushirib yubormaslikka harakat qiladi — raketka bilan uradi. Katta gruppaga bolalariga raketkani to‘g‘ri ushslash usuli ko‘rsatiladi, volanni kerakli tomonga yunaltirishga o‘rgatiladi. Tarbiyachi bilan ham o‘ynash mumkin.

Qarqara

Bolalar tizzalariga qadar suvga tushib, oyoqlarni baland baland ko‘tarib yuradilar.

O‘tinchi suvda

Bolalar doira bo‘lib tizzalariga qadar suvda turadilar, oyoqlarini kengroq ochib, qo‘llarini bir-biriga chalishtirib, boshlaridan yuqori ko‘taradilar, keyin tez, keskin engashadilar, qo‘llarini tez suvga urib, “o‘tin yoradilar”, ya’ni qo‘llari bilan suvni kesib, uni har tomonga sachratadilar.

Charxpalak

Suvning chuqurligi dastlab tizzagacha, songacha, undan keyin belgacha bo‘ladi. Bolalar qo‘1 ushlashib davra qurib turishadi. Tarbiyachining signalini bo‘yicha ular davra bo‘ylab harakat qilib, asta-sekin qadamlarini tezlata boshlaydilar. Ular baravariga bunday deydilar: “Sekin, sekin, sekin — boshlanadi ot o‘yin, keyin, keyin, keyin — qizib ketadi o‘yin!”. Shundan keyin bolalar doira bo‘ylab yugurib ketadilar.

So‘ngra tarbiyachi bunday deydi: “Sekin, sekinroq yuring— charxpalakni to‘xtating!” Bolalar asta-sekin qadamlarini sekinlashtiradilar-da: “Mana, o‘yin tugadi — biz to‘xtatdik; bir, ikki...!” — deydilar va to‘xtaydilar. O‘yin qaramaqarshi tomonga qarab davom ettiriladi. Yurishdan to‘xtagach, qo‘llarni qo‘yib yuborish va suvga yiqilish ham mumkin.

Qo‘rkma

Hovuzning sayoz joyida bolalar yarim doira bo‘lib turadilar, birinchi yurib borayotgan bola tizzasi bilan suvni sachratadi. Hovuzning sayoz joyida bola qo‘llarini erga tirab yotadi. Tarbiyachi “Tovoningni ko‘rsat!” deyishi bilan u suvdan oyog‘ini ko‘tarib, tovonlarini ko‘rsatadi.

Koptok ketidan yugur

O‘yinda qatnashuvchilar sohilda yuzlarini suv tomonga burib, bir qator bo‘lib turadilar. Suv bolalarning belidan keladigan joyda—suv ustida koptok (doira)lar

bo‘ladi. Ularning soni o‘ynovchilar soniga baravar bo‘lishi kerak. Tarbiyachining signali bilan bolalar suvga yugurib tushadilar va buyumlar bilan qirg‘oqqa qaytib chiqadilar. Qirg‘oqqa birinchi bo‘lib qaytib chiqib, o‘z o‘rnini egallab olgan bola g‘olib chiqadi. Belgilangan joydan uzoqlashib ketish, bir-biriga xalaqit berish, turtishish mumkin emas.

Doirada suzish

Bola havo to‘ldirilgan rezina doira ustiga o‘tiradi yoki yotadi (uni kiyib olishi ham mumkin) va undaxuddi qayiqda o‘tirganday harakat qilib, suvni qo‘llari bilan eshkak singari eshib suzib yuradi.

Favvor

Uch-to‘rt o‘yinchis sayoz joyda suvga tushib, bir-birlarini qo‘llaridan ushlab, doira hosil qiladi. So‘ngra bolalar qo‘llarini qo‘yib yuborib, orqaga qo‘llari bilan tayangan holda oyoqlarini uzatib suvda o‘tiradilar. Katta kishining signali bo‘yicha uzatilgan oyoqlari bilan suvga urib, suvni favvora misoli har tomonga sachratadilar. Bu o‘yinda bolalar sachragan suvdan qo‘rmaslikka o‘rganadilar.

Quticha

Bola suvda chuqqayib, qo‘li bilan tizzalarini quchoqlaydi dahani suv ustida bo‘ladi. Chuqur nafas olib, uni tutib turadi boshini suvga tiqadi-“qutichaning qopqog‘i bekildi”, so‘ngra boshini tezda suvdan chiqaradi.

Daryo to‘lqinlanmoqda

Bolalar suvga bellarigacha tushib, qatorda bittadan yoki doira bo‘lib turadilar. «Daryo to‘lqinlanmoqda», degan signalga binoan bolalar har tomonga tarqalib suvga sho‘ng‘iydilar, qo‘llari bilan “to‘lqin” ko‘taradilar. Katta kishining «Shamol tindi, daryo tinchlandi» degan so‘zidai keyin bolalar qator (doira) bo‘lib turadilar.

O‘tir va tur

Bolalar tizzalarigacha yoki bellarigacha suvga tushadilar. Qo‘llar yordamisiz (qo‘llarga tayanmay) o‘tirish va so‘ngra turish kerak.

Chumchuqlar suvda

Bolalar sayoz suvda turib, ikki oyoqda sakraydilar, bunda ularning Oyoqlari suv yuzasidan balandga ko‘tarilishi kerak.

Arg‘imchoq

Bolalar juft-juft bo‘lib, qo‘l ushlashib, bir-birlariga qarab suvda turadilar. Navbat bilan o‘tirib suvga sho‘ng‘iydilar va suv ostida nafas chiqaradilar. Tarbiyachi vazifaning bajarilishini nazorat qilib turadi.

Poezdlarning er osti yulidan o‘tishi

Bolalar qo‘llarini bellariga quyib, bir qator bo‘lib poezdni aks ettirgan holda saflanadilar. Qator qadam tashlab ilgari siljiydi. Bir-biriga qarab qo‘l ushlagan ikki

bola er osti yo‘lini tasvirlaydi. Ular qo‘llarini suv yuzasiga tushiradilar. Bu yuldan o‘tish uchun poezdni aks ettirib turgan bolalar navbat bilan suvga sho‘ng‘iydilar. Poezd er osti yo‘lidan o‘tib bo‘lgach, uni tasvirlab turgan bolalar qator oxiriga borib turadilar. Qatorda birinchi bo‘lib turgan ikki bola esa poezddan ajrab, er osti yulini tasvirlab turadi. Tarbiyachi er osti yo‘li bo‘lib turgan bolalarni suv tagida tutilib qolmasliklarini kuzatib turadi.

Suvni tutib ol

O‘yinda qatnashuvchi bolalar turgan joylarida bittadan yoki doira bo‘lib turadilar. Tarbiyachining “Suvni tutib ol” komandasiga binoan bolalar qo‘llarini suvga tushiradilar va suv ostida kaftlarini birlashtirib va suv olib, qo‘llarini suv ustiga chiqaradilar. Tarbiyachi bolalar kaftidagi suvni ko‘rib chiqadi. Agar kaftdan suv tomchilayotgan bo‘lsa, tarbiyachi “Voy, qo‘ling namuncha teshik, qani yana suv ol-chi”, - deydi.

Dengizdagи to‘lqinlar

Bolalar bir-birlariga qarab, uzatilgan qo‘l masofasini qoldirib turadilar; qo‘llar o‘ng (chap) tomonga uzatilib, suv yuzasida turadi. Gavdani o‘ng tomonga aylantirish bilan birga bolalar qo‘llarini suv yuzasidan qarama-qarshi tomonga olib o‘tadilar (kaftlar qo‘l harakati yo‘nalishi tomon aylanadi) — to‘lqin hosil qiladilar. Harakat har bir tomonga to‘xtovsiz davom zttiriladi.

Botir bolalar

Bolalar qo‘l ushlashib, davra qurib turishadi va xor bo‘lib bunday deyishadi:

Biz botir bolalarmiz,

Biz jasur bolalarmiz.

Mana, qaranglar-a sizlar

Suvda ham ochiq ko‘zlar.

Shunday deb bolalar qo‘llarini pastga tushiradilar va hammalari ko‘zlarini yummasdan baravar suvga sho‘ng‘iydilar. O‘yin 3—4 marta takrorlanadi.

Ko‘rsatmalar. Mashqning to‘g‘ri bajarilganligini tekshirish uchun tarbiyachi suv ichiga qanday buyum qo‘yilganligini bolalardan so‘rashi mumkin.

Shatak

Katta yoshdagи kishi bolaning qo‘lidan ushlab, o‘zi orqasi bi lan yurib suvga tushadi, keyin esa suvda yotgan bolani tortib yuguradi — «yuk shatakka olinadi». Bu topshiriqni bolalarning o‘zлari ham juft-juft bo‘lib bajarishlari mumkin.

Qurbaqa

Cho‘qqayib o‘tirgan holatdan turib (suvning chuqurligi tizza bo‘yi) sakrab, oldinga qarab suvga yotiladi, qo‘llar oldinga uzatilib, keyin hovuz tubiga tushiriladi. Orqlarni g‘ujanak qilib ko‘krakka tortiladi, shu harakat yana takrorlanadi.

Meduza

Chuqur nafas olib, birmuncha vaqt nafas olmay turiladi, oldinga engashib, erkin holda suvga yotiladi. Bolaning gavdasi bir oz suv ichiga tushib, yana qaytib suv yuzasiga chiqadi. Suvda harakatsiz yotib ko‘riladi.

Po‘kak

Chuqur nafas olib va nafasni tutib turib, ko‘zni yummashdan suvga sho‘ng‘iladi. Oyoqlarni mumkin qadar ko‘proq burib, boldir quchoqlab olinadi va tizzalarni ko‘krakka tortib, boshni iloji boricha tizzalarga yaqinlashtirib engashtiladi. Xuddi shu holatda po‘kak singari suv betiga qalqib chiqiladi. Holatni o‘zgartirmashdan suv sathida suzib, 8—10 gacha sanaladi. Shundan keyin asta-sekin o‘rindan turib, havza tubiga oyoq quyiladi. Po‘kak bo‘lib suzayotganda asta-sekin suv ichida nafas chiqarish ham mumkin.

Tyulenlar

Qo‘llar oldinga uzatib yotiladi. Qo‘llar bilan sekin itarilib, qo‘llar orqaga to belga qadar uzatiladi, oldinga suzishga intilish kerak bo‘ladi, shu paytda bosh suvda bo‘lishi zarur.

To‘pni uzat

Ikki bola bir-birining orqasidan 0,7—0,8 m masofada turadi. Har ikkovining oyoqlari elka kengligida turadi. Suvning chuqurligi belgacha yoki ko‘krakkacha keladi. Bola qo‘lida to‘p ushlab turadi. U oldinga engashib, boshini suvga tiqib sho‘ng‘iydi va to‘pni o‘z orqasida turgan bolaga uzatadi.

Kechuv

Sayoz suv tagiga 4—5 ta buyum (toshlar, metall tarelkalar va boshqa shu singari narsalar) qo‘yiladi. Narsalar orasidagi masofa 60—70 sm bo‘ladi. Bu «daryo» dan kechib o‘tiladigan joy bo‘ladi. Bola suvda haligi buyumlar ustida emaklab yuradi. Bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish yo‘nalishi to‘g‘riligini aniqlash uchun bola boshini bir necha marta suvga tiqib sho‘ng‘iydi. Suvda ko‘zlarini ochib, navbatdagi mo‘ljalni qidiradi. Bu o‘yinni toza va tiniq suvdagina o‘tkazish mumkin.

Vint

Suv ustida sirpanib suzayotgan paytda bola ko‘kragidan orqaga yoki orqadan ko‘kragiga aylanib buriladi.

Torpeda

Ikki bola bir-biriga qarab suvga tushadi, qo‘l ushlashib turishadi, oyoqlarini bukib, oyoq taglarini bir-biriga tirab turadilar. Shundan keyin ikkalasi ham

qo‘llarini qo‘yib yuboradilar va bir vaqtning o‘zida oyoqlari bilan itarilib, suv ustida orqalari bilan sirpanib suzib ketadilar (8-rasm)

Toycha

Bolalar o‘z xohishlari bo‘yicha juftlarini tanlab oladilar: biri toycha, ikkinchisi —aravakash bo‘ladi. Aravakash otni qo‘sib, jilovini kiydirib va to‘g‘ri yo‘nalishda maydonchaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga boradi va orqaga yoki maydonchaning yon tomoniga qaytib keladi. So‘ngra tarbiyachining ko‘rsatmasi buyicha bolalar o‘rinlarini almashadilar va o‘yinni davom ettiradilar.

Oqliq askarlar (suvorilar)

4-6 ta bola maydonchaning bir chekkasida turadilar, tarbiyachi har birining qo‘liga uzunligi 50—60 sm li tayoqcha beradi. Bolalar tayoqchaning ustiga minib olib, maydonchani qarama-qarshi tomoniga, otliq askarlarni aks ettirib (otda) yuguradilar. Bir- birlariga urilib ketmasdan tez-tez yugurish kerak.

Chambarakni quvib et

Bolalar chambarakni dumalatishni o‘zları mustaqil o‘rganib olmagunlaricha, tarbiyachining o‘zi chambarakni dumalatadi va biror bolaning ismini aytib, uni quvlab etishni taklif qiladi. Chambarak dumalab ketayotganda ushlash kerak, bunda chaqqonlikni namoyon qilib, tez yugurish kerak.

Pirpirak bilan yugurish

Pirpirakni quyidagicha yasash mumkin: qalin to‘rburchak qog‘ozni olib (tomonlari 10 sm qog‘ozni to‘rt buklab), burchagidan diagonal bo‘ylab o‘rtasiga etkazmasdan qirqiladi. So‘ngra to‘rtta uchini o‘rtaga bukib, uni tayoqchaning uchiga juda ham zich qilmasdan qoqiladi. Pirpirak tayyor.

Bola tayoqchani ushlab qanchalik tez yugursa, u shuncha tez aylanadi.

Kapalakni tut

Kichikroq tayoqcha uchiga ip bog‘lanadi va ip uchiga qog‘ozdan qirqilgan kapalak yopishtirib quyiladi. Tarbiyachi tayoqchani shunday ushlaydiki, kapalak bolalar boshi ustidan “uchishi” kerak. Ular sakrab, qakkalab, uni tutib olishga harakat qiladilar.

Ariqcha orqali

Maydonchaga biri ikkinchisidan 1,5—2 m masofada ikkita chiziq chiziladi - bu ariqcha bo‘ladi. Bolalar (6—8 ta bola) ariqchaning chetida — chiziq oldida turadilar, ular toshlarning ustidan (doiracha chizilgan) oyoqlarini ho‘l qilmasdan o‘tishlari shart. Doirachaning orasidagi masofa shunday bo‘lishi kerakki (taxminan 25—30 sm) bolalar birinchisidan ikkinchisi ustiga engil sakrab o‘ta olsin. Ariqchaning ustidan bir vaqtning o‘zidi bir necha bola o‘tishi mumkin, qolganlari esa tarbiyachi bilan ular orqasidan kuzatib turadilar. Kimda kim doirani bosib olsa yoki oyog‘ini ho‘l qilsa, u skameykaga borib o‘tirib, oftobda oyog‘ini quritadi.

O‘yin qaytadan davom ettirilganda u o‘yinga kiritiladi. Tarbiyachi ayrimlariga qirg‘oqqa o‘tishga yordam beradi va bolalarni rag‘batlantiradi.

Tovuqlar polizda

Bolalar — tovuqlar xodaning orqasida joylashadilar. Xodaning boshqa tomonida maydonchaga katta to‘g‘ri chiziq chizilgan - bu Poliz bo‘ladi. Tarbiyachi — qorovul poliz bo‘ylab yurib, tovuqlar polizdami yoki yo‘qmi, shunga qaraydi, so‘ngra borib skameykaga o‘tiradi. Tovuqlar shu zahoti devor (xoda)ning ustiga sakrab chiqib oladilar, so‘ngra u erdan polizga sakrab tushadilar va yugurib, ekilgan sabzavotlarni cho‘qiy boshlaydilar, Qorovul — tarbiyachi tovuqlarni sezib qolib, chapak chalib va «kish, kish!» deb ularni poliz ichidan haydaydi.

O‘yin bir necha marta qaytarilgandan keyin bolalardan qorovul saylash mumkin.

Kegli

O‘yinda plastmassa keglidan foydalanish mumkin. Ular bir- birlaridan 10—15 sm masofada o‘rnatiladi. Bolalar 1—1,5 masofadan bittadan soqqa (shar) dumalatadilar. Tarbiyachi kegliga soqqani tekkizgan bolani rag‘batlantiradi, yutqizgan bolalarga esa vazifani bajarishda yordam beradi.

To‘pni dumalat

Bolalarga har xil rangdagi to‘plar yoki kichikroq soqqalar (diametri 6—8 sm sharlar) beriladi va ularni bolalardan 1,5—2 m ga dumalatishni taklif qiladi. Tarbiyachi berilgan vazifani kim yaxshi uddalagan bo‘lsa, uni rag‘batlantirib, yana bir marta dumalatishga ruxsat beradi. Bolalar to‘pni 2—3 martadan dumalatganlardan keyin, to‘plarni savatchaga terib oladilar.

Chambarakni dumalat

Uch-to‘rt bola 1,5—2 m masofada tarbiyachiga yuzma-yuz guradilar. Tarbiyachi har bir bolaga navbat bilan chambarakni dumalatadi, ular uni ushlab olib va yana orqaga — tarbiyachiga dumalatadilar. Bolalar chambarakni yaxshi dumalatib va ushlab olishni o‘rganganlardan keyin, endi bir-birlari bilan o‘ynashlari mumkin bo‘ladi.

Buyumni saqla

Bolalar doira hosil qilib turadilar. Ular oyoqlarini yon gomonlarga kerib, qo‘llarini orqalariga qo‘yib turadilar. Har bir bolaning oyog‘i oldida kubik yoki boshqa narsa bo‘ladi. Onaboshi (bola) doiraning o‘rtasida turadi. U kubikni olishga harakat qiladi. Onaboshi qaysi o‘yinchi tomonga borsa, shu o‘yinchi tezda o‘tirib oladi, kubiklarni qo‘llari bilan berkitadi va unga tegishga imkon bermaydi. Onaboshi u erdan ketishi bilan o‘yinchi o‘rnidan turadi. Kimda-kim o‘zining kubiklarini himoya qilishga ulgura olmasa (onaboshi qo‘lini kubikka tekkizsa), u doiradan chiqadi va o‘yinda vaqtincha qatnashmaydi.

Onaboshi 2—3 ta kubikni olganidan keyin yangi onaboshi tayinlanadi. O‘yin hamma bolalar bilan yana davom ettiriladi.

Sharlarni uzatish

Bolalar stulchada doira bo‘ylab (yoki o‘t ustida) o‘tiradilar. Tarbiyachi ikki o‘yinchiga bittadan shar beradi va uni yonida o‘tirgan bolalarga uzatishni taklif qiladi (bittadan o‘ng, ikkinchisi chap tomondan uzatadi). Sharlar qo‘lma-qo‘l uzatilib, bir joyda uchrashgandan keyin bolalar uni bir-biriga urib, “Urildilar”, deyishadi va o‘rinlaridan turib, doira bo‘ylab orqaga yugurishadi. Qolgan o‘yinchilar “Yugurdik, yugurdik”, deb aytib turadilar. Bolalar o‘z joylariga qaytib kelib, “Uchrashdik”, deydilar va tezda sharni tarbiyachiga beradilar. Tarbiyachi esa sharni boshqa bolalarga beradi. O‘yin yana takrorlanadi.

Darvozaga tushir

Bolalar skameykada o‘tiradi. Ular tarbiyachi belgilagan joyga navbatma-navbat borib turadilar. Undan 2—3 kadam masofada yoy shaklida darvoza chizilgan bo‘ladi. Bola oldinga engashib, erda yotgan koptokdan bittasini oladi va uni darvozaga tushirish uchun dumalatadi. 3—4 koptokni dumalatgandan keyin bolalar ularni terib oladilar.

Tepalikdan dumalat

Kubik yoki bolalar stulchasi o‘rindig‘iga taxtaning bir uchi qo‘yiladi-bu tepalik bo‘ladi. Taxtaning ko‘tarib qo‘yilgan uchiga (polga yoki stul o‘rindig‘iga)3-4 ta shar yoki kichikroq koptok qo‘yilgan bo‘ladi. Bolalar uni olib, tepalikdan navbatma-navbat birin-ketin dumalatadilar, so‘ngra ular borib sharlarni terib oladilar. O‘yin yana davom ettiriladi.

Kaftgacha irg‘ishlab sakrash

Tarbiyachi bolalarning gox, birini, goh ikkinchisiga yoniga chaqirib oladi va balandroq sakrab, boshini uning kafti tekkizishni taklif qiladi.

Ehtiyyot bo‘l

Bolalar stulda o‘tiradilar. Ularning oldida gymnastika skameykasi quyilgan bo‘ladi. Tarbiyachi bolalardan birorta skameykaning oxiriga kelib turishni taklif qiladi. Bola skameyka ustiga chiqib, ikki qirrasidan ushlab, emaklab uning oxiriga boradi. So‘ngra o‘rnidan turib, pastga tushadi.

Koridor bo‘ylab

Polga ikki qator kegli quyiladi (qator orqasi koridor bo‘ladi). Qatorlar orasi 35—40 sm, keglilar orasi esa 15—20 sm bo‘ladi. Tarbiyachi signalidan keyin bolalar koridor bo‘ylab, kegliga tegmasdan yurib o‘tishi yoki yugurib o‘tishi kerak.

To‘pga qo‘lingni tekkiz

Tarbiyachi to‘pni to‘rga solib ushlab turadi. U bolalarga sapchib sakrab, ikkala qo‘lni to‘pga tekkizishni taklif qiladi. Bitta bola to‘pga 3—4 marta sakraydi, so‘ngra tarbiyachi boshqa bolalarini sakrashga chaqiradi.

Ilonni dumidan ushlab ol!

O‘yinda o‘n kishi qatnashadi. Ularning har biri o‘ng qo‘lini oldinda turgan bolaning elkasiga qo‘yib ketma-ket turadilar. Qator boshida turgan o‘yinchi — ilonning boshi, oxirida turgani dumi bo‘ladi. Ilonning boshi esa dumini ya’ni oxirgi o‘yinchini ushlab olishga harakat qiladi. Qatorning dum qismidan o‘yinchilar har xil usullar bilan ilonning boshiga tutqich bermaslikga harakat qiladilar. Agar ilonning boshi qator oxiridagi o‘yinchini (dumini) ushlab olsa, ular joylarini almashadilar.

Doirachaning ichiga sakrab tush

Tarbiyachi balandligi 10—12 sm keladigan skameyka oldida erga diametri 30—35 sm doirachalar chizadi. Doirachalar nechta bo‘lsa, shuncha bolani skameyka ustiga chiqishni va u erdan doira ichiga sakrab tushishni taklif qiladi. Bu bolalar sakrab bo‘lgach, boshqa bolalar chiqadi, uning kubigini himoya qilishga ulgura npmasa (onaboshi qo‘lini kubikka tekkizsa), u doiradan chiqadi va o‘yinda vaqtincha qatnashmaydi.

Onaboshi 2—3 ta kubikni olganidan keyin yangi onaboshi tayinlanadi. O‘yin hamma bolalar bilan yana davom ettiriladi.

Arqon ustidan

Tarbiyachi birorta kattaroq bolalardan arg‘amchi yoki qisqaroq arqon uchlaridan ushlab turishni, uning o‘rtasini erga tekkizib turishni taklif qiladi. Bir nechta bolaga arqon ustidan sakrab o‘ting, deydi. Ular navbatma-navbat kelib arqon ustidan ikki oyoqda depsinib, sakrab o‘tadilar. Keyin esa hamma xohlovchilar erda yotgan arqon ustidan o‘tishlari mumkin. Keyinchalik arqonmi 2—3 sm ga, so‘ngra esa bundan balandroq ko‘tarish mumkin.

Bir oyoqda yulakcha buylab sakrash

Tarbiyachi maydonga uzunligi 2—3 m bo‘lgan bir-biridan 50—60 sm masofada ikkita chiziq chizadi. Bu yo‘lakcha bo‘ladi. Xonaning ichida o‘ynash uchun polga ikkita tayoq yoki arqonni xuddi shu masofada qo‘yish mumkin. Tarbiyachi bir necha bolaga yo‘lakcha bo‘ylab bir oyoqda sakrashni taklif qiladi. Bolalar navbatma- navbat yo‘lakchaning boshidan oxirigacha bitta oyoqda sakrab borishga harakat qiladilar.

Kuyonchaga sabzi ber

Bolalar ayvonda yoki maydonchada skameykada o‘tiradilar. Tarbiyachi bolalarning biriga sabzi beradi, u esa sabzini o‘yinchoq quyonga berishi kerak. Buning uchun bolaning ko‘zi bog‘lanadi va quyondan 3 m nariga turg‘izib qo‘yiladi. Tarbiyachi-ning signalidan keyin bola quyonchaning oldiga boradi va unga sabzini beradi (sabzini og‘ziga olib borishi kerak).

Otni sug‘or

Bolalar ayvonda yoki maydonchada skameykada o‘tiradilar. Bitta bola qo‘liga chelakcha beriladi, u o‘yinchoq otni sug‘orishi kerak. Bola o‘yinchoq otidan 2—3 m masofada chiziq orqasida turadi. Tarbiyachi uning qo‘liga chelakcha beradi va ko‘zini bog‘lab qo‘yadi. Tarbiyachi signalidan so‘ng bola otning oldiga boradi va unga suv ichiradi (chelakni otning og‘ziga olib borishi kerak).

Kech qolma

Tarbiyachi doira bo‘ylab polga kubiklar (yoki doirachalar, shiqildoqlar) qo‘yib chiqadi. Bolalar kubiklarning oldida turadilar. Tarbiyachining singalidan keyin ular xona bo‘ylab yugurib ketadilar. “Kech qolma”!—degan signaldan keyin kubiklar tomon yugurib keladilar.

Yuringlar, o‘ynab kelamiz

Tarbiyachi yoniga kichikroq guruhdagi bolalarni to‘playdi va qo‘liga yorqin rangli ro‘mol yoki bayroqchani olib, silkitadi, bolalarga maydon bo‘ylab orqamdan yuringlar, deydi.

Bolalar bir-birlariga urilib ketmasdan, o‘tib va qolib ketmasdan, hammalari birga yurishga xarakat qilishlari kerak.

O‘yinni murakkablashtirish uchun bolalarga bir-birlarining orqasidan yurish taklif etiladi.

Yuringlar, sayrga chiqamiz

Bolalar maydoncha chetida skameykalarda o‘tiradilar. Tarbiyachi 5—6 ta bolani galma-galdan chaqiradi, ular ketma-ket turib, tarbiyachi bilan birga maydonchani aylanadilar va o‘z joylariga qaytib keladilar. So‘ngra tarbiyachi keyingi guruh bolalarni chaqiradi.

O‘yinning qoidasi shuki, bolalar bir-biridan qolmasdan va oshib ketmasdan, ko‘rsatilgan yo‘nalishda yurishlari kerak.

Bizning dimog‘imiz chog‘

Bolalarga ro‘molcha (lenta, shiqaldoq) tarqatiladi. Tarbiyachi butun maydoncha bo‘ylab har xil yo‘nalishda ro‘molchani yoki lentani silkitib yurishni taklif qiladi.

Bolalar bir-birlariga urilmasdan, yo‘l berib, bo‘sh joyga o‘tirishga harakat qiladi. Boshni egmasdan, ro‘molchaga qarab yuriladi.

O‘yinni murakkablashtirish uchun bolalar kema-ket bo‘lib qatorda yurishlari mumkin.

Bosib olma

Maydonchadan uzunligi 8—10 m tug‘ri yoki ilon izi chiziq o‘tkaziladi (arqon, tayoqcha, kubiklar quyish mumkin). Keyin bolalar o‘zlarining mashinalarini chiziq bo‘ylab olib boradilar.

Chiziqnı bosmaslik yoki undan o‘tib ketmaslik kerak.

O‘yinni murakkablashtirish uchun ikkita parallel chiziq o‘tkaziladi va bir vaqtida bir necha bolaga, yo‘l bo‘ylab chiziqni bosmasdan, birin-ketin mashinani olib o‘tish taklif qilinadi.

Juft-juft bo‘lib sayrga chiqish

Maydonchaning bir tomonidan arg‘amchi yoki chilvirdan (stullar yoki ustunlarga bog‘lab) darvoza yasaladi. Bolalar tarbiyachi yordamida qo‘llarini ushlashib juft-juft bo‘lib turadilar. Tarbiyachining “O‘ynagani ketdik” degan signalidan keyin bolalar juft-juft bo‘lib darvoza orqali o‘tib, so‘ngra maydoncha bo‘ylab tarqaladilar. Ular bu erda irg‘ishlab sakrashi cho‘qqayib o‘tirishi — “meva, gullar terishi mumkin”. Tarbiyachining “Uyga ketamiz” degan signalidan so‘ng bolalar yana juft-juft bo‘lib turadilar va darvoza orqali o‘tadilar.

Bolalar qo‘llarini ushlashib, juft-juft bo‘lib, bir-birlaridan o‘tib va qolib ketmasdan, o‘zlarining harakatlarini moslashtirib yuradilar; darvozadan o‘tayotganda bir-birlariga yo‘l beradilar.

O‘yinni murakkablashtirish uchun yana bitta darvoza qo‘yib, undan o‘tishni taklif qilish mumkin.

Predmetni ko‘tar

Maydoncha bo‘ylab koptok, bayroqchalar qo‘yiladi. Bolalar ularning orasidan bosmasdan aylanib o‘tishga harakat qiladilar. Tarbiyachining: “Ol!” degan signalidan keyin to‘xtab, yaqindagi koptokni yoki bayroqchani olib yuqoriga ko‘taradilar. So‘ngra erga qo‘yib, yana yura boshlaydilar.

Bolalar boshni pastga tushirmasdan, oldinga qarab, bir-birlariga yo‘l berib yurishlari kerak. Signal berilgan vaqtida o‘zlariga yaqin bo‘lgan faqatgina bitta predmetni olishlari mumkin.

O‘yinchoqlarni olib kel

O‘ynovchilardan 6—7 m masofada turli o‘yinchoqlar — rangli kubiklar, piramidalar, shiqildoqlar, kichikroq koptoklar quyilgan bo‘ladi. Har bir boladan to o‘yinchoqlargacha 30 sm kenglikda yo‘l chiziladi. Tarbiyachining taklifi bo‘yicha bolalar o‘yinchoqlardan olib, yukoriga ko‘tarib va yana joyiga qo‘yadi.

Signal bo‘yicha boriladi, yo‘lakchaning chetini bosmasdan, to‘g‘ri chiziq yo‘nalishini saqlab yurish lozim.

O‘yinni murakkablashtirish uchun o‘yinchoqlarga yo‘l bo‘ylab boriladi, lekin yo‘lning o‘rtasida 50 sm balandlikda osilgan arqon tagidan emaklab o‘tiladi va arqonga yugurib qaytib kelinadi.

Toycha

Bolalar kichikroq guruh yoki qatorda, tizzalarni baland ko‘tarib yuradilar, so‘ngra signal bo‘yicha oyoqni balandroq ko‘tarib qadam tashlab yuradilar.

Tizzani baland ko‘tarib yurishda oyoq uchida, tapillatmasdan yuriladi.

Sichqonlar

Bolalar kichikroq guruhda yoki qatorda tizzalarini baland ko‘tarib, lekin faqat oyoq uchlarida, oddiy yurish bilan almashlab yuradilar. Bolalar o‘zlarini to‘g‘ri ushlashga harakat qilishlari, oyoq uchida tovushsiz yurishlari kerak.

Tegib ketma

Bolalar bir-birlarining orkalaridan borib, tegishli predmetlar (kubiklar, toshlar, bayroqchalar, kichik chambaraklar) qatorini aylanib o‘tadilar. Bolalar bir-birlari oralaridagi masofani saqlagan holda ularga tegmasdan, predmetlarni aylanib o‘tishlari kerak.

Kim tezroq tosh yig‘ib oladi

Maydonchaga toshlar qo‘yiladi. Bolalar maydon bo‘ylab yurib, ularga tegib ketmaslikka harakat qiladilar. Tarbiyachining “Olinglar” signalidan keyin bolalar tezda toshlarni terib olishga harakat qiladilar. Ko‘proq tosh terib olgan bolalr rag‘batlantiriladi.

Toshlar signal berilgandan keyin terib olinadi. Toshni yonidagi o‘rtog‘idan tortib olish mumkin emas.

Bog‘ qovliga sayohat

Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar: birinchi guruh bolalari oldindan belgilab qo‘yilgan poezd stansiyasida kutib turadilar, ikkinchi gurux, bolalari esa poezdni aks ettiradilar (bolalar maydon bo‘ylab bir-birlarini yoki arqonni ushlab slrakat qiladilar). Signal bo‘yicha poezd stansiyaga yaqinlashib ielib, to‘xtaydi. Bolalar joylashib olganlaridan keyin hammalari birgalikda harakat qiladilar. Agar guruhda turli yoshdagи bolapar bo‘lsa, kattalari uzun tayoqchaning ikki tomonidan ushlab, poezdni aks ettiradilar. Kichiklari esa ularning o‘rtasiga kirib oladilar.

Signal bo‘yicha ahil harakat qilinadi.

Yuqoriga va pastga

Tepalikka chiqiladi va u erdan pastga erkin tushiladi yoki qator bo‘lib tushiladi. Qadamning uzun-qisqaligidan maqsadga muvofiq foydalanish mumkin (tepalikka mayda qadam bilan chiqiladi).

Bolalar bir-birini turtmasdan borishlari kerak.

Bolalarda qat’iy tartib

Bolalar bir kishilik qatorda turadilar. Tarbiyachining: “Tarqaling!” — degan signalidan keyin maydoncha bo‘ylab xohlagan yo‘nalishga tarqalib, tarbiyachining orqasidan quyidagi so‘zlarni qaytaradilar:

*Bolalar, tartib qat’iy,
Hamma uz joyin biladi.
Qani, chaling quvnoq kuyni,
Tra-ta-ta, ta-ta-ta!*

Tarbiyachining: “To‘xtang!” signalidan keyin bolalar yana qatorda bo‘ylariga binoan turadilar.

Bolalar bir maromda yurib boradilar, so‘zlarni aniq, ahillik bilan aytadilar, bir-birlarini turtmasdan qatorda saf tortadilar.

Mexmonga borish

Bolalar ikki guruhga bo‘linib, maydonchaning turli tomonlarida joylashadilar. Tarbiyachi bitta guruhdagilarni boshqa guruh bolalariga “mehmonga borishga” taklif qiladi. Bolalar maydonchaning qarama-qarshi tomoniga o‘tib, har biri o‘zi xohlagani oldiga borib turadi. Ular juft bo‘lib, irg‘ishlab sakrashadi, aylanib, o‘yinga tushishadi. Keyin birinchi guruh bolalari joyiga qaytib keladi. Endi ularning oldiga ikkinchi guruh bolalari boradilar.

O‘yin qoiydasi shuki, maydonchadan to‘g‘ri yo‘nalishda, qaddi- qomatni to‘g‘ri tutib, engil qadam tashlab o‘tiladi.

Birinchi bo‘lib tur

Bolalar boshlovchi orqasidan qator bo‘lib boradilar. Tarbiyachi bolalardan bittasining ismini aytib chaqiradi. Hamma to‘xtaydi, nomi aytilgan bola qatorni quvlab o‘tib, birinchi bo‘lib turadi, yurish davom etadi.

Qator bosh tomoniga qisqa yo‘l bilan o‘tiladi.

Signalni eshit

Bolalar qatorda odatdagicha yurishadi, tarbiyachining signali bo‘yicha oyoqning tashqi tomoni bilan yurishadi, almashlab yurishadi. Singal bo‘yicha yurish texnikasi o‘zgartiriladi.

Ulkanlar, pakanalar

Bolalar tarbiyachining “Ulkanlar”—degan signaliga binoan qatorda katta qadam bilan, “Pakanalar” — deganda esa mayda qadam tashlab yuradilar.

Goh katta qadam tashlab, goh mayda qadam tashlab yuriladi.

O‘z joyingga qaytib kel

Bolalar ikkita qatorda turadilar. Har bir bola orasidagi masofa kamida 1 m bo‘ladi. Har bir bola o‘z joyini toshlar (barglar, bayroqchalar) bilan belgilab qo‘yadi. Tarbiyachi bir- ikki deb sanaganidan keyin bolalar o‘ngga, so‘ngra chap tomonga 3—4 ta qo‘srimcha qadam qo‘yadilar va o‘z joylarini topib olishga harakat qiladilar.

O‘yinda oldinga va orqaga qo‘srimcha qadam qo‘yib yurish ham mumkin.

Darvoza

Bolalar maydon bo‘ylab qo‘llarini ushlashib juft-juft bo‘lib yurishadi. Tarbiyachining “Darvoza” signali bo‘yicha bolalar joylarida to‘xtaydi va qo‘llarini yuqoriga ko‘taradi. Qator oxiridagi juft bola darvoza tagidan oldinga o‘tadi va birinchi bo‘lib turadi. Yurish davom etadi

O‘yin qoidasi shuki, bolalar qo‘llarini ushlashib, juft-juft bulib yuradilar, birqalikda harakat qiladilar.

O‘yinni murakkablashtirish uchun bolalar qo‘llarini ushlamasdan, juft-juft bo‘lib yuradilar. «Darvoza» signali berilishi bilan qo‘llarini ushlashib, tezda yuqoriga ko‘taradilar. Oxirgi juft uning tagidan o‘tadi.

Sovg‘a

Bolalar qo‘llarini ushlashib, doira hosil qiladilar. Bitta bola doiraning o‘rtasida turadi. Bolalar doira bo‘ylab yurib, quyidagi she’rni aytadilar:

Biz hammaga sovg‘a, sovg‘a keltirdik,

Kim nimani xohlasa, o‘shani oladi.

*Mana sizga yarqiragan lenta bilan qo‘g‘irchoq, Ot,
pildiroq va samolyot.*

Bolalar she’rni aytib bo‘lish bilan to‘xtaydilar. Doira o‘rtasidagi bola yuqorida nomlari aytilgan sovg‘adan qaysi birini olishini aytadi. Agar u ot nomini aytса, irg‘ishlab sakraydilar, qo‘g‘irchoq desа—o‘ynaydilar, pildiroq desа — aylanadilar.

Bir-ikki kishi bo‘lib turish

Bolalar bir kishidan bo‘lib qatorda yuradilar va tarbiyachining signali bo‘yicha ikki kishilik qatorga qayta saflanadilar va yana bir kishilik qatorga aylanadilar.

Qayta saflanayotganda yurish tezligi pasaytirilmaydi, o‘rtadagi masofa o‘zgartirilmaydi.

Issiq-sovuuq

Bolalar maydon bo‘ylab har xil yo‘nalishda tarbiyachi bir- ikki deb sanab yoki doiraga urib turganda odatdagicha yuradilar. Tarbiyachi «Issiq» deganda bolalar — oyoq uchida, «Sovuq» deganda esa, yarim cho‘qqayib yuradilar.

Yurishning hamma turida ham qomatni yaxshi tutish kerak.

Koptok — tosh

Bolalar qatorda yuradilar. Qatorda birinchi bo‘lib turgan bolaning qo‘lida koptok, oxirisida esa tosh bo‘ladi. Tarbiyachi “Koptok” deyishi bilan bolalar birinchi bolaning orqasidan oldinga yura boshlaydilar. “Tosh” deganda esa orqaga burilib oxirgi bolaning orqasidan yuradilar.

Bolalar aniq va tez burilishlari kerak.

To‘xtovsiz harakatda

Bolalar o‘rmon yoki dala bo‘ylab juft-juft bo‘lib, o‘rtacha qadam tashlab bir tekis yuradilar. Tarbiyachining signalidan keyin oxirgi juft bo‘linadi: biri qatorning chap, ikkinchisi esa o‘ng tomonidan boradi. Ular hamma bolalarni quvlab o‘tib, qatorning oldiga borib turadilar. Quvlab o‘tuvchilar yugurib emas, balki tez yurib o‘tadilar.

Qorovul

Bolalarning bittasi qorovul bo‘lib, doiraning o‘rtasida o‘tiradi. Uning ko‘zi bog‘lab qo‘yiladi. Qolgan bolalar esa doira chizig‘i orqasida turadilar. Tarbiyachi bolalardan birini qo‘li bilan imlaydi. U asta-sekin qorovulga yaqinlashib keladi. Qorovul qadam tovushini eshitib, uning qaysi tomondan kelayotganini qo‘li bilan ko‘rsatadi. Agar buni to‘g‘ri ko‘rsatsa, kelayotgan bola bilan joyini almashadi. Agar to‘g‘ri ko‘rsata olmasa, yana o‘zi joyida qoladi. Biror marta ham qo‘lga tushmagan bola o‘yinda yutgan hisoblanadi.

Qorovulga mayda qadam bilan yaqinlashish kerak, qolgan o‘yinchilar esa to‘polon qilmasliklari lozim.

Doirani yoz

Bolalar qo‘llarini ushlamasdan, doira bo‘ylab yuradilar. Tarbiyachi, masalan, “Nargiza, doirani yoz”, deganidan so‘ng bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlaydilar, nomi aytilgan bola esa tez buriladi va qarama-qarshi yo‘nalishda yurib boradi. Bolalar yangi doira hosil bo‘lguncha yurib boradilar. Shundan so‘ng bolalar qo‘llarini yana qo‘yib yuboradilar. Doira bo‘ylab yurganda uning shakliga va bir-birlari orasidagi masofaga rioya qilish kerak.

Merganchasiga yurish

Maydoncha markaziga nishon — 5 ta doira chiziladi. Har bir doiraning orasi 25 sm bo‘ladi. Doira markazidan tashqariga 5, 4, 3, 2, 1 raqamlari belgi qilib yozib qo‘yiladi. Bular ochkolar sonini ko‘rsatadi. Nishon markazidan 10 m masofada start chizig‘i bo‘ladi. Bolalar ko‘zlarini yumib, galma-galdan nishon o‘rtasiga kirishga harakat qiladilar. O‘yinchi to‘xtagach, ko‘zini ochishi mumkin. To‘xtash joyi — aniq nishonga tushishdir. O‘yin 3 marta o‘ynaladi. Kim ko‘p ochko to‘plasa, o‘sha yutgan hisoblanadi.

O‘yinni murakkablashtirish uchun bolalar soniga qarab nishon tayyorlanadi, bolalar komandalarga bo‘linadi. Bir vaqtda bir necha komandalar bilan o‘ynash mumkin.

Nishonga ko‘zni yumib boriladi, faqat to‘xtagandagina ko‘zni ochish mumkin.

Chig‘anoq

Bolalar qatorda saf tortib turib, qo‘llarini ushlashib, o‘ngga (chapga) burilib, onaboshi orqasidan doira bo‘ylab, keyin chig‘anoqqa o‘xshab turadilar. Ular spiralsimon doira hosil qiladilar. Bu doiralar orasidagi masofa kamida 1 m bo‘lishi kerak.

Ilon izi

Bolalar qator bo‘lib maydonchaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga burilib, qarama-qarshi tomonga bir necha marta (maydoncha imkoniyatiga qarab) yuradilar.

Nina va ip

Bolalar ikki kishidan bo‘lib, bittadan qo‘llarini ushlab, zanjir hosil qiladilar. Onaboshi bu bolalarni maydon atrofidan aylantirib chiqib, qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib, qator darvoza hosil qilishlarini taklif qiladi. Bolalar qarama-qarshi tomonga navbatma-navbat darvoza ichidan o‘tadilar. Darvozadan o‘tgan bolalar yana qo‘llarini ko‘tarib ushlab darvoza hosil qilishadi. O‘yin shu taxlitda davom etadi.

Bolalar ko‘rsatilgan qoida bo‘yicha saflanadilar, yurishda bir-birlari orasidagi masofalarni saqlab qoladilar.

Tovush chiqarmasdan

Bir necha bolaning ko‘zi bog‘lanadi. Ular juft-juft bo‘lib bir-birlaridan qo‘llarini uzatganda tegmaydigan masofada turadilar. Ikkita bola qo‘lini ko‘tarib ushlab, darvoza hosil qilib turadi. Ko‘zi bog‘langan bolalar bittadan bo‘lib ovozlarini chiqarmasdan, ehtiyyotlik bilan, engashib yoki emaklab darvoza orqali o‘tadilar. O‘tayotgan vaqtida biror shitirlagan ovoz chiqib qolsa, ularni ushslash uchun darvozada Turganlar qo‘llarini ko‘taradilar. Darvozadan bilintirmay o‘tgan bola yutgan hisob-lanadi.

Doirada tezroq saf tortib tur

Bolalar maydonda har xil yo‘nalishda erkin yuradilar. Tarbiyachining singaliga binoan tezda doiraga borib, saf tortib turadilar. Buning uchun tarbiyachi avval ularning qatorda saf tortib turishini oldindan ko‘rsatadi. Doirani iloji boricha birorta belgili joyda (tepalik, to‘nka, daraxt atrofida va hokazo joyda) qurish mumkin

Bolalar doirani o‘z joylarini topib, bir-birlarini turtmasdan tezda hosil qiladilar. Ular qatorda saf tortib turish qoydasiga rioya qilishlari kerak.

O‘yinni murakkablashtirish uchun bolalar 3—4 ta guruhlarga bo‘linadi. Signal bo‘yicha qaysi guruh yaxshi saf tortsa, o‘sha guruh bolalari yutgan hisoblanadi.

Uchlik

Bolalar qo‘llarini ushlashib, uchtadan bo‘lib turadilar. Har bir uchlik orasidagi masofa kamida 1 m bo‘ladi. Shu uchta bolaning o‘rtadagisi harakat yo‘nalishi tomon qarab turadi, qolgan ikkita bola orqa tomonga qarab turadi. Tarbiyachi signali bilan uchala bola maydon bo‘ylab harakat qiladi. «To‘xta» — degan signal berilishi bilan joylarida to‘xtaydilar va bolalar tezda joy al mashadilar.

Bolalar harakatlarni kelishilgan holda, bir-birlariga yordam berib, uch kishilashib yurishadi; oralaridagi masofaga rioya qilishlari kerak.

Shar (soqqani) tushirma

2—3 ta bola bir vaqtning o‘zida tartib bilan qoshiqdagi soqqa (shar)ni 8—10 m masofaga tushirib yubormasdan olib borish kerak. Soqqani qo‘l bilan ushslash mumkin emas. Agar bola soqqani tushirib yuborsa, uni qoshiqqa kaytadan solib, yurishda davom etadi.

Paqildoq

Shishirilgan qog‘oz paket — paqildoq arqon uchiga bog‘lab, daraxt shoxiga bolalar qo‘li etadigan qilib ilib quyiladi. Bolalar paqildoqdan 5 m masofada turadilar, tarbiyachi bitta bolaning ko‘zini bog‘lab qo‘yadi. Tarbiyachi «Boshla» deyishi bilan ko‘zi bog‘langan bola 5 qadam yurib to‘xtaydi va tezda qo‘llarini ko‘tarib, kaftlarini paqildoqqa tekkizishga harakat qiladi. Agar paqildoq kaftlari o‘rtasida bo‘lsa, u chapak chaladi.

Faqat 5 qadam qo‘ygandan so‘ng paqildoqqa tegish mumkin.

Tayoqcha bo‘ylab kim yuqori chiqadi

Bolalar erda o‘tirib, tayoqchani oyoq kaftlari orasiga olib, qo‘llarida tikka ushlab turadilar. Tarbiyachi “Kim baland va tez” deganidan so‘ng bolalar tizzalarni bukib, oyoqni galma-gal yuqoriga ko‘taradilar. Tayoqni erga mahkam qo‘yib, tikka ushlab turiladi.

Baliqchalar

Bir vaqtning o‘zida 2—3 komanda musobaqlashadi, ularda bolalar soni teng bo‘ladi. Har bir bolaga bittadan uzunligi 25 sm, eni 6—7 sm keladigan “baliq” beriladi. “Baliq” dumiga 1 m ip bog‘lanadi. Bolalar ipning bir uchini belbog‘iga bog‘lab quyishadi. “Baliq” bemalol polga tegib, erkin suzib yuradigan bo‘lsin. Har bir komanda o‘yinchilari aniq belgilangan rangda bo‘ladilar. Tarbiyachi signalidan keyin komandalar raqibining balig‘ini oyog‘i bilan bosib olishga harakat qiladi (baliqni qo‘l bilan ushlab turish mumkin emas), biroq raqibga tutqich bermaslik kerak. Baliqchasi uzib olingan bola o‘yindan chiqadi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin tarbiyachi har bir komandadan chiqib ketgan o‘yinchilar sonini hisoblaydi. Qaysi komandada kuproq tutilmagan baliqchalar qolsa, o‘sha komanda yutgan hisoblanadi. Baliqchasini yo‘qotgan bola o‘yindan chiqadi.

Mashinalar

Har bir bola bittadan chambarak oladi. Bolalar maydoncha bo‘ylab yugurib, chambarakni goh o‘ng, goh chap tomonga burib, bir-birlariga xalaqit bermasdan mashina haydaydilar.

Qo‘ng‘izlar

Tarbiyachining “qo‘ng‘izlar uchdi” degan signali buyicha bolalar xona bo‘ylab har xil yo‘nalishda yuguradrlar. Tarbiyachining “Qo‘ng‘izlar yiqilib tushdi” degan signali bo‘yicha bolalar polga chalqancha yotadilar va qo‘l-oyoqlarni erkin harakatlantirib, tipir-tipir qiladilar.

Tez olib, tez qo‘y

Xonaning bir tomonidagi savatchada bayroqchalar bo‘ladi, xonaning qarama-qarshi tomoniga esa bo‘s sh savatcha qo‘yib qo‘yiladi. Bolalar bir-birlarini

ushlamasdan yugurib borib savatchadan bayroqchani tez oladi va orqaga tez qaytib, bayroqchani bo'sh savatchaga eltid qo'yadi.

Narsani o'zgartirib qo'y

Maydonchaning bir tomonida 5—6 ta bola qo'lida shiqildoq ushlab turadi. Maydonchaning boshqa tomonidagi qator stullar ustiga bittadan kubik qo'yib qo'yiladi. Tarbiyachi "Yuguring!" deyishi bilan bolalar yugurib borib qo'llaridagi shiqildoqlarni stulga qo'yib, kubikni olib, tezda o'z joylariga qaytadilar. Tarbiyachi birinchi bo'lib yugurib kelgan bolani rag'batlantiradi. So'ngra keyingi 5—6 ta bola yuguradi

Qopqon (tuzoq)

Tarbiyachi bir bolani qopqon qilib tayinlaydi. Qopqon maydonchaning o'rtasiga chiqib baland ovoz bilan: "Men qopkonman", — deydi va qochib ketayotgan bolalarii quvlab, etib oladi. Uning qo'li kimga tegsa, o'sha bola qopqon bo'ladi. Yangi bulgan qopqon tez to'xtab, qo'lini ko'tarib, baland ovozda "Men qopqonman!" — deydi. O'yin shu tarzda davom etadi.

Lentani ol!

Bolalar doira bo'ylab saf tortib turadilar. Har bir bola beliga rangli lentadan bog'lab, osiltirib qo'yiladi. Doira o'rtasida tarbiyachi saylagan "tutuvchi" turadi. Tarbiyachining "Yuguring!" signali bo'yicha bolalar har tomonga yugurib ketadilar. "Tutuvchi" esa ularning orqasidan yugurib, birortasining lentasini tortib olishga harakat qiladi. Lentasini oldirib qo'yan bolalar vaqtincha chetga chiqib turadilar. Tarbiyachining: "Bir, ikki, uch — doiraga tez turing!" signalidan keyin hamma bolalar doiraga saflanadilar. "Tutuvchi" olgan lentalari sonini hisoblab chiqqandan so'ng, ularni bolalarga qaytaradi. Endi yangi "tutuvchi" saylanadi va o'yin davom ettiriladi.

Chambarakni kim bayroqqacha tez dumalatadi!

Maydonchaga ma'lum masofada ikkita chiziq chiziladi. Bitta chiziqdida bolalar chambarak ushlab turadilar. Qarshi tomonidagi ikkinchi chiziqqa esa orasini kamida 50 sm qilib bayroqchalar terib quyiladi. Tarbiyachi signal berishi bilan bolalar chambarakni bayroqchalarga tomon dumalatib boradilar. Birinchi bo'lib bayroqchaga etgan bola taqdirlanadi.

O'yining boshqa turlari. Bolalar 3—4 zvenoga bo'linadilar. Start chizig'iga har bir zvenoda chambarak bilan bittadan bola chiqadi. Chambarakni birinchi bo'lib dumalatib kelgan bola bayroqcha yoki znachok (nishon) oladi. So'ngra keyingi bolalar bittadan chiqadilar. Bayroqcha yoki nishonni ko'p olgan zveno o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Ko'zboylag'ich

Tarbiyachi bitta bolani ko'zboylag'ich qilib tayinlaydi. U xona yoki maydonchaning o'rtasida turadi, ko'zi esa biror gazlama bilan bog'lab quyiladi,

so'ngra atrofga bir necha marta o'girilib qarash taklif qilinadi. Shundan sung hamma bolalar xona yoki maydoncha bo'ylab yuguradilar, ko'zi bog'langan bola esa biror o'rtog'ini tutishga harakat qiladi. Bolalar biror xavf tug'ilib qolganda «Alanga!» deb ko'zi bog'langan bolani ogohlantirib qo'yishlari shart.

Agar o'yin ochiq havoda o'tkaziladigan bo'lsa, buning uchun albatta tekis maydoncha tanlab olinadi va chegara chizig'i chiziladi. O'yin paytida bolalar shu chegaradan chiqishlari mumkin emas.

Ko'zi bog'langan bola birorta o'rtog'ini tutib olsa, unda ular joylarini almashadilar. O'ynovchi belgilangan chegaradan chiqib ketmasligi uchun chiziqqa yaqinlashganda bolalar «Alanga!» deb uni ogohlantiradilar.

Ko'zi boyloq ushlandi

Har bir o'yinchi (onaboshidan tashqari) birorta narsa tanlab, o'shaning yoniga turio oladi. Shundan keyin tarbiyachi onaboshining ko'zini bog'lab, uni xona yoki maydonchaning o'rtasiga olib borib qo'yadi va atrofga bir necha marta qaragin, deydi unga (bu erga o'yin chegarasi chizib qo'yilgan bo'ladi). Shundan sung ko'zi bog'langan bola o'yinchilarni qidira boshlaydi. Bolalar esa stol, stul yonida (maydonchada bo'lsa skameyka, daraxtlar yonida) turadilar. Onaboshiga chap berish uchun bolalar holatlarini o'zgartirishlari mumkin, ular engashishlari, cho'qqayib o'tirishlari va yotishlari ham mumkin, lekin o'zlari tanlab olgan usha narsaga oyoqlari tegib turishi shart. Agarda onaboshi maydon chegarasidan chiqib ketsa yoki xavfli joyga yaqinlashib qolsa (masalan, devorga), bolalar baravariga «Alanga» deb, uni ogohlantiradilar.

Bolalar o'z joylarini almashtirishlari mumkin. O'z joyini onaboshiga berib qo'ygan bola yutqazgan hisoblanadi va onaboshi bo'ladi.

Ko'zi boyloq bola va shiqildoq

Bolalar doira bo'lib qo'llarini ushlab turadilar. Doiraning markazida ikkita o'yinchi turadi. Bittasining ko'zi bog'lanadi (bu onaboshi bo'ladi), ikkinchisiga esa shiqildoq beriladi. Tarbiyachining signali bo'yicha ikkinchi bola doira bo'ylab shiqildoqni shiqillatib yugura boshlaydi, ko'zi bog'langan bola esa uni quvlab tutadi. Onaboshi shiqildoq bilan «yugurayotgan bolani tutgandan keyin yangi onaboshi saylanadi. O'yin davom ettiriladi. Agar onaboshi uzoq vaqtgacha shiqildoqli bolani tuta olmasa, unda ikkala o'yinchi ham almashtiriladi.

O'yinning turlari: 1. Tutuvchi va yugurib ketuvchining ko'zi bog'lanadi: 2. Onaboshi maydonchaning o'rtasida ko'zi bog'langan holda turadi, uning orqasida erga shiqildoq qo'yib quyiladi. Bolalar doira bo'ylab yuradilar va quyidagi she'rni aytadilar:

Biz boramiz, boramiz, boramiz

Shiqildoqni olmaymiz.

Onaboshi, onaboshi, sen yugur,

Shiqildoqni quvib et

Shundan so‘ng tarbiyachining ko‘rsatmasi bilan bolalardan biri onaboshining oldiga asta-sekin borib, shiqildoqni oladi va uni shiqillatib qochadi. Onaboshi esa uni tutishga harakat qiladi.

O‘z sheringingga etib ol!

Bolalar juft-juft bo‘lib, biri ikkinchisining orqasidan 3—4 masofada turadi. Tarbiyachining ishorasi bilan oldingi qatorda turgan bolalar tez yugurib, maydonchaning narigi tomoniga o‘tadilar, orqada to‘rgan bolalar esa maydonchaning narigi tomoniga tez yuguradilar va o‘z sheriklarini tutadilar. O‘yin takrorlangan paytda bolalar rollarini almashadilar, o‘yin tamom bo‘lgach, har kim o‘z sherigini necha martalab tutib olishga muvaffaq bo‘lganligi hisoblab chiqiladi.

Gulxonim

O‘yinda ishtirok etuvchilar juft-juft bo‘lib qatorga saflanadilar. Qatordan 2-3 m masofada chiziq o‘tkazadilar. O‘yinchilardan biri—tutuvchi shu chiziqda turadi. Hamma bolalar baravariga quyidagi she’rni o‘qiydilar:

*Yon, gurilla, gulxanim
O‘chma sira gulxanim!
Ko‘kdagi qushlarga boq,
Tinmay chalar qo‘ng‘iroq.
Bir, ikki, uch — yugur!*

“Yugur” degan so‘zdan keyin qator oxiridagi bolalardan boshlab hamma qo‘llarini qo‘yib yuboradi va qator bo‘ylab yugurib ketadi. Ularning biri chap tomondan, ikkinchisi o‘ng tomondan yuguradi. Ular qator oldiga yugurib chiqadilar va yana qo‘l ushlashib olishga hamda tutuvchining oldiga turishga harakat qiladilar. Tutuvchi bola yugurib kelgan bolalar hali qo‘l ushlashib olmaslaridan ilgari ulardan birini tutib olishga harakat qiladi. Agarda tutuvchi bola buning uddasidan chiqsa, o‘zi tutgan bola bilan qo‘l ushlashib, juft bo‘lib, qator oldida turishadi. Sheriksiz qolgan bola tutuvchi bo‘ladi. O‘yin barcha bolalar bir martadan yugurib chiqqanlaridan so‘ng tugaydi. Shundan keyin yangi tutuvchi saylanadi. O‘yin yana davom ettiriladi.

Tutuvchi kelyapti! Oyog‘ingni erdan ol!

Bu o‘yinda tutuvchi kelayotganidan xabardor bola kubik, taxta va yoki boshqa biror buyum ustiga chiqib olishga ulgurishi kerak, ana shunda uni tutish mumkin bo‘lmaydi

Tutuvchi davrada

Yerga diametri 3—5 m doira chiziladi. O‘yinda qatnashuvchilar sanoq yordamida tutuvchi bolani tayinlaydilar. Tutuvchi doiraning markazida, qolgan bolalar esa uning tashqarisida turadilar. Tarbiyachining “Bir ikki, uch — tut!”— degan so‘zlaridan keyin bolalar doirani kesib o‘tmoqchi bo‘lib yuguradilar, tutuvchi ularni tutadi. Faqat doira ichidagina tutish mumkin. Nechta bola tutish kerakligi belgilab qo‘yiladi. Belgilangan miqdorda bolalar tutilgandan keyin yangi tutuvchi saylanadi.

Oyog‘ingni ho‘l qilma

Maydonchaning bir tomonidagi stul yoki skameykalarda bolalar o‘tiradilar. Ulardan 2—3 qadam narida chiziq chizib qo‘yiladi. Chiziq oldida 4—5 ta o‘yinchi turadi. Maydonchaning qarama-qarshi tomonidagi har bir bolaga mo‘ljallangan stillarga bittadan bayroqcha qo‘yiladi. Chiziqdan 4—5 m nariga chiziq chiziladi. Bu botqoqlik bo‘ladi. Bolalar ikkitadan taxtacha oladilar. Bolalar taxtachalar ustidan asta-sekin, oyoqlarini xo‘l qilmasdan (taxtachalardan tashqariga oyoq bosmay) botqoqlikdan o‘tib, bayroqchalargacha borishlari kerak.

Tarbiyachining signalidan keyin bolalar botqoqlikning yoniga yugurib kelib, bиринчи taxtacha ustiga chiqadilar, keyin ikkinchi taxtacha ustiga hatlab o‘tadilar, so‘ngra orqada qolgan bиринчи taxtachani yana oldinga qo‘yib, ustidan o‘tadilar va hokazo. Botqoqlikdan o‘tgach, o‘z bayroqchasiga bиринчи bo‘lib etib borgan va uni boshi ustida bиринчи bo‘lib ko‘targan bola o‘yinda g‘olib hisoblanadi.

Shundan keyin bu bolalar bayroqchani yana stillarga qo‘yib, ooqaga qaytib botqoqlikdan o‘tgach, taxtachalarni navbatdagi o‘rtoqlariga beradilar. O‘yin hamma bolalar botqoqlikdan o‘tib bo‘limguncha davom etadi.

O‘rgimchak va pashsha

O‘rgimchak yashaydigan in xonaning bir burchagida bo‘ladi, o‘rgimchak ini doira shaklida chizib qo‘yiladi. Tarbiyachi bolalardan bittasini o‘rgimchak qilib saylaydi, u inida turadi. Qolgan bolalar pashsha bo‘ladilar. Tarbiyachi signali bo‘yicha bolalar pashshaning uchishiga taqlid qilgan holda g‘uvillab yugurib, qo‘llarini silkitadilar. Tarbiyachi “O‘rgimchak”—deyi- shi bilan pashshalar o‘z joylarida qimirlamay qotib qoladilar, o‘rgimchak o‘z inidan chiqadi, agar biror bola qimirlasa, uni o‘z iniga olib kiradi.

O‘rgimchak tarbiyachining signali bo‘yicha inidan 2—3 marta chiqadi. Shundan keyin tutilganlar sonini aniqlagach, tarbiyachi yangi o‘rgimchakni saylaydi. O‘yin yana davom ettiriladi.

Pashshalar faqat tarbiyachining signalidan keyin uchishlari mumkin. «O‘rgimchak!» signalidan keyin pashshalar qimirlashi mumkin emas.

Eslatma. O‘rgimchakning har bir chiqishi 10 sekunddan oshmasligi kerak, chunki bolalar bundan uzoq vaqt harakatsiz turishlari qiyin. O‘rgimchak hamma o‘yinchilarga e‘tibor berishi kerak. O‘yinni yakunlashda biror marta ham o‘rgimchak iniga tushmagan bolalarni rag‘batlantirish kerak.

Quvlab etishga ulgur

Maydonchaning yoki xonaning biror tomonidan chiziq o‘tkaziladi. Bolalar saf tortib turadilar. Ular orqasida 1—2 qadam narida 2—3 tutuvchi bola turadi. Tarbiyachi «Tuting!» deyishi bilan bolalar qochadilar, tutuvchilar ularni quvlay boshlaydilar. Tutilganlar chetga chiqib turadi. O‘yin qaytarilganda tarbiyachi tutuvchini endi boshqa bolalardan saylaydi. Biror marta qo‘lga tushmagan, shuningdek tez va chaqqon harakat qilgan tutuvchi bolalar maqtab quyiladi.

Chambarakni kim uzoqqa dumalatadi!

Tarbiyachi bolalarni 4—5 ta zvenoga buladi. Har bir zveno bittadan chambarak bilan start chizig‘i oldida turadilar. Har bir zvenodagi bittadan bola chambarakni iloji boricha uzoqqa yumalatadi, chambarak yiqilay degan paytda uni ushlab qoladi. Agar bola chambarakni orqasidan quvib etolmasa, ya’ni chambarak yiqilsa, uni erdan ko‘tarmasligi kerak. Chiziqdan hammadan uzoqda qo‘lida chambarak bilan turgan o‘yinchi yutgan hisoblanadi. Keyin bola chambarakni o‘z zvenosidagi keyingi o‘yinchiga uzatadi. O‘yin davom etadi.

Kim buyumni tez olib o‘tadi!

Tarbiyachi guruhni 3—4 ta zvenoga bo‘ladi. Bolalar xonada uzunasiga qo‘yilgan stulchalarda yoki skameykalarda, zvenolarga bo‘lingan holda utiradilar. Xonaning yoki maydonchaning bir tomoniga (zvenolar soniga qarab) 3—4 ta stul qo‘yiladi, ularda 5—6 tadan biror narsa: koptok, kubiklar, qum to‘ldirilgan xaltachalar, bayroqchalar va hokazolar bo‘ladi. Bu narsalar turgan stullarning qarama-qarshi tomoniga 6—8 m nariga o‘shancha bo‘sh stullar quyiladi. Tarbiyachi har bir zvenodan bittadan bolani chaqiradi. Bolalar, narsalar qo‘yilgan stullar yonida turadilar va “Bir, ikki, uch—ol!” degan signaldan keyin bo‘sh stullarga o‘sha narsalarni olib o‘tadilar. Hamma narsalarni birinchi bo‘lib olib o‘tgan bolalar yutgan bo‘ladi, ularga nishon beriladi. So‘ngra zvenodagi boshqa bolalar musobaqalashadilar. Qaysi zveno ko‘proq nishon (znachok) olgan bo‘lsa, o‘sha zveno yutgan hisoblanadi. “Bir, ikki, uch —ol!” — so‘zini hamma o‘ynovchilar baravariga aytishlari mumkin.

Chambarakni bayroqchagacha kim tezroq yumalatadi?

O‘yinda ishtirok etuvchilar zvenolarga bulinib, chiziqning narigi tomonida bir-birlarining ketida turishadi. Qatorda birinchi bo‘lib turgan bolalar qo‘lida chambarak va tayoqcha bo‘ladi. oldinda ulardan 10—15 m nariga bayroqchalar va keglilar qo‘yilgan bo‘ladi. Tarbiyachining “Yumalat!” — degan signali bilan qatorda birinchi bo‘lib turgan bolalar chambarakni bayroqchalar tomon yumalatib borib, tayoqchalar yordamida chambarakni bayroqchalarga tekkizmasdan uning atrofidan aylanib utib, o‘z qatorlariga qaytib keladilar. Shundan keyin chambarak bilan tayoqchalarni navbatdagi o‘rtoqlariga beradilar va o‘yin davom etadi. Qator oxirida turgan bola topshiriqni bajargandan keyin o‘yin tamom bo‘ladi. O‘yinni oldinroq tugatgan zveno yutib chiqadi.

Chambarak bilan tayoqchani olgan bola signalga qadar joyida turishi, chambarakni o‘zidan nariga qochirib yubormasligi kerak. Chambarakni chap qo‘l bilan yumalatish to‘g‘risida topshiriq berish mumkin. O‘yinni murakkablashtirish uchun chambarakni butun qator bolalari bayroqchaga qadar 3—4 martadan tuxtovsiz olib borib kelishi, shundan keyin o‘yinni tugatish mumkin.

Polizda

Tarbiyachi bolalarni 4—5 ta zvenoga bo‘ladi. Maydonchaning bir tomoniga start chizig‘i chiziladi. Start chizig‘ining qarama- qarshi tomonida unga parallel

holda zvenolar soniga qarab kattaroq chuqurcha qaziladi. Chuqurchalar orasidagi masofa 50—60 sm bo‘ladi. Tarbiyachi har bir zvenodan bittadan bolani start chizig‘iga chaqirib, ularning qo‘llariga dastali savatcha tutqizadi (savatchada sabzavot — lavlagi, sabzi, turp bo‘lishi mumkin). Tarbiyachi “Yugur” deyishi bilan savatchali bolalar chuqurcha tomon yuguradilar. Tarbiyachi yugurish vaqtida bolalarga chuqurchaga savatchadagi birorta sabzavotni, masalan, lavlagini solishni taklif qiladi. Kim vazifani to‘g‘ri bajarib, o‘z joyiga birinchi bulib qaytib kelsa, o‘sha yutgan bo‘ladi. O‘yin yangi o‘yinchilar bilan davom ettiriladi. O‘yin tamom bo‘lishi bilan har bir zvenodagi yutgan bolalar soni hisoblab chiqiladi. Qaysi zvenoda yutganlar ko‘p bo‘lsa, usha zveno g‘olib bo‘ladi.

O‘yin turlari. Sabzavotlar chuqurchada yotadi (polizda o‘sadi). Bolalar chuqurchaga qarab bo‘sh savatcha bilan yuguradilar va polizdan sabzi, lavlagi yoki turpni yilib opib sayaatchaga solib, uz joylariga qaytib keladilar. Bolalar poliz tomonga savatchadagi sabzavotlar (sabzi, kartoshka va boshqalar) bilan yugurib boradilar. Chuqurchaga sabzavotni chiroyli qilib qo‘yadilar (ekadilar) va uyga — start chizig‘iga qaytib keladilar. Keyin boshqa bolalar hosilni yig‘ib olish uchun yugurib boradilar va savatchani to‘ldirib, start chizig‘iga qaytib keladilar.

Yugurib chiqib ketishga ulgur

Bolalar doira qilib turadilar. Doiraning o‘rtasida 7-8 ta bola turadi. Doira atrofida turgan bolalar qo‘llarini ushlashib, o‘ng yoki chap tomonga doira bo‘ylab yuguradilar. Tarbiyachining “To‘xta!”—degan signalidan keyin bolalar joylarida to‘xtab, qo‘llarni chirmashtirib, yuqoriga ko‘taradilar. Tarbiyachi tezda “Bir, ikki, uch”. deydi. Doira o‘rtasida turgan bolalar bu vaqt ichida doira ichidan yugurib chiqib ketishga ulgurishi shart. Uch soni aytilgandan keyin bolalar qo‘llarini tezda pastga tushiradilar. Doira o‘rtasiga endi boshqa bolalar keladi va o‘yin davom ettiriladi.

Doira ichidagi tutuvchi

Bolalar qo‘llarini ushlashib, doira bo‘ylab turadilar. Tarbiyachi tayinlagan tutuvchi doira o‘rtasida turadi. Bolalar tarbiyachining ko‘rsatmasi bo‘yicha doira bo‘ylab o‘ng yoki chap tomonga harakat qiladilar va quyidagi so‘zlarni aytadilar:

*Biz quvnoq bolalarmiz,
Yugurishni sevamiz.
Qani, bizni quvib ko ‘r!
Bir, ikki, uch — tutib ko ‘r!—*

deydilar. Oxirgi so‘zni aytib bo‘lishlari bilan hamma Yugura boshlaydi, tutuvchi ularni quvlab, birortasini ushlab oladi. Tutilganlar vaqtincha chetga chiqib turadi. 2—3 ta bola tutilmaguncha o‘yin davom etadi.

Tarbiyachi “Doiraga” deyishi bilan hamma bolalar yana doiraga turadilar. O‘yin yangi tutuvchi saylash bilan davom etadi. Tarbiyachi “Tut!” degandan keyingina yugurish mumkin.

O‘yinning boshqa turi. “Biz quvnoq petrushkalar”. Bolalar doira bo‘ylab oyoqdan-oyoqqa sakrab yuradilar va shunday deydilar:

*Biz quvnoq petrushkalarmiz,
Yugurishni sevamiz.
Qani o'rtoq, quvib ko'r!
Bir, ikki, uch — tutib kur!—*

deydarlar. Oxirgi so'z aytilishi bilan bolalar doiradan orqaga bir qadam qo'yadilar. Tarbiyachi "Tut!" deyishi bilan doira ichida turgan tutuvchi qochuvchilarni tuta boshlaydi. Tarbiyachi "bir, ikki, uch — tezda doiraga yugur!" deganidan so'ng bolalar doiraga saf tortadilar

Qo'lingni orqaga bekit

Tarbiyachi bolalarning ichidan bittasini tutuvchi qilib tayinlaydi. U maydoncha o'rtasida turadi. Qolgan o'ynovchilar maydonchaning turli joylarida qo'llarini orqalariga qo'yib turadilar. Tarbiyachining "Boshla!"—degan so'zidan keyin bolalar qo'llarini tushiradilar va tutuvchidan qochib ketadilar. Tutuvchining vazifasi—bolalardan birortasiga (qo'lini tekkizish)dir. Lekin faqat qo'lini tushirib turgan bolaga qo'l tekkizish mumkin. Agar bola qo'lini orqasiga qo'yishga ulgurib va men "qo'rqlmayman" deb aytsa, tutuvchi unga qo'l tekkizishi mumkin emas. Agar tutuvchi 30—40 sekund davomida birorta ham bolani tuta olmasa, unda tarbiyachi uning o'rniga yangisini saylaydi. O'yin yana davom ettiriladi.

Qo'lini orqasiga qo'yib turgan bolani tutish mumkin emas.

O'yinning boshqa turi. Tutuvchi qanday holatda turishni bolalar bilan avvaldan kelishib olishi mumkin. Masalan, bir oyoqda, oyoqni yon tomonga ko'tarib turgan, qo'lni belga qo'yib, cho'qqayib o'tirgan bolalarga tegish mumkin emas.

Qushlar parvozi

Qushlar (bolalar) qanotlarini yozib, butun maydoncha bo'ylab uchib yuradilar. "Bo'ron boshlandi!" degan signal berilishi bilan ular daraxtlarga chiqib, yashirinadilar (ya'ni gimnastika devorchasiga tirmashib chiqadilar). Tarbiyachi: "Bo'ron bosildi"—deyishi bilan qushlar shoxlardan pastga uchib tushadilar (ya'ni gimnastika devorchasidan pog'onama-pog'ona pastga tushadilar) va uchishni davom ettiradilar.

Agar gimnastika devorchasi, minora bo'lmasa, skameykalar, yashiklar va boshqa buyumlardan foydalilanadi. Bolalar shu buyumlar ustiga chiqib o'ynaydilar.

Maymun tutish

Maymunni aks ettirayotgan bolalar maydonchaning bir chetiga quyilgan jihozlarga yaqin turadilar. Qarama-qarshi tomonda maymun tutuvchilar turishadi (4—6 ta bola). Ular maymunlarni aldar, daraxtdan pastga tushirish va tutib olishga harakat qilishadi. Tutuvchilar qaysi biri qanday harakat qilishni o'zaro kelishib oladilar. Ular maydonchaning o'rtasiga chiqib, o'zlarini uylab qo'ygan harakatlarni bajaradilar va ko'rsata boshlaydilar. Maymunlar o'z vaqtida tezlik bilan devorchalarga chiqib oladilarda, o'sha erda turuvchilar harakatini kuzatadilar. Tutuvchilar harakatlarni bajarib bo'lganlaridan keyin maydonchaning oxiriga

ketadilar. Maymunlar daraxtlardan tushib, tutuvchilar harakat qilgan joyga yaqinlashib keladilar va ularning harakatiga o‘xshatib o‘zлari ham taqlidiy harakatlar qila boshlaydilar. Tarbiyachining “Ovchilar!” — degan signali bilan maymunlar yugurib qochadilar va daraxtlarga chiqib oladilar. Tutuvchilar daraxtga chiqishga ulgurolmay qolgan maymunlarni tutadilar. Tutilganlarni o‘zлari bilan birga olib ketadilar. O‘yin 2—3 marta takrorlangach, bolalar vazifalarini almashadilar.

Bolalar gimnastika devorchasidan sakrab tushmasdan, balki uning oxirgi pog‘onasigacha pog‘onama-pog‘ona tushishlari zarurligini kuzatib turish kerak. O‘yin takrorlangan vaqtda tutuvchilarning harakatlari yangilanishi kerak.

Kimning nomi aytysa, usha tutadi

Bolalar maydoncha bo‘ylab yuradilar, yuguradilar, sakraydilar va shunga o‘xhash harakatlarni bajaradilar. Tarbiyachi katta to‘pni qo‘lida ushlab turadi. U bolalardan birining nomini aytib chaqiradi va to‘pni yuqoriga irg‘itadi. Nomi aytilgan bola yugurib kelib to‘pni ilib oladi va uni yana yuqoriga otib boshqa biror bolaning nomini aytadi.

O‘yinda qatnashuvchi bola to‘pni qayerda ilib olgan bo‘lsa, o‘sha erda turib uni yuqoriga irg‘itadi. Nomi aytilgan bola yugurib kelib, to‘pni ilib olishga ulgurishi uchun uni balandroq irg‘itadi. To‘p yuqoridan pastga tushib kelayotganda havoning o‘zida yoki erga bir tushib chiqqandan keyin uni tutib olishga harakat qilish kerak.

Qo‘lingni ber!

Bolalar maydonchada yoki zalda yoyilib turadilar. Tarbiyachi onaboshi saylaydi. U zalninig o‘rtasiga chiqib: “Men tutuvchiman!” — deydi va bolalarni quvlay boshlaydi. Agar o‘ynovchilardan birortasi qo‘lini uzatsa, unda qochib ketayotganga qo‘l tekkizishi mumkin emas. Faqat kimda-kim tutuvchidan qochib ketmayotgan bo‘lsa, qo‘lini uzatishi mumkin (juft-juft bo‘lib yugurish mumkin emas). Onaboshi kimga qo‘lini tegizsa, o‘sha onaboshi bo‘ladi. U darrov joyida to‘xtab, qo‘lini yuqoriga ko‘tarib: “Men tutuvchiman!” — deydi. Yangi tutuvchi oldingi tutuvchiga birdaniga qo‘l tekkizishi mumkin emas.

Juft-juft bulib tutuvchilar

Bolalar juft-juft bo‘lib, qo‘llarini ushlashib turadilar. Tarbiyachi tutuvchini va kochib ketuvchini tayinlaydi, ular esa tarbiyachining yonida, bir-birlaridan 2—3 qadam masofada turadilar. Tarbiyachi “Yugur!” — deyishi bilanoq bolalar xona bo‘ylab yugura ketadilar, tutuvchi esa ularni ushlashga harakat qiladi. Bola tutuvchidan qutulish uchun biror bolaning qo‘lidan ushlab oladi, kimda-kim uchinchi bo‘lib qolsa, unda u qochuvchi bo‘lib qoladi. O‘yin “Uchinchisi ortiqcha” o‘yini prinsipi asosida o‘tkaziladi. O‘yinda “juft-juft tutuvchilar” juft-juft bo‘lib turishmaydi, balki yugurishadi. Qochib ketayotgan biror bolaga tutuvchi qo‘lini tegizsa, o‘sha bola tutuvchi bo‘lib qoladi. U joyida to‘xtab, qo‘lini yuqoriga

ko‘tarib “men tutuvchiman!” — deydi. Yangi tutuvchi oldingi onaboshiga bordaniga qo‘l tekkizishi mumkin emas.

To‘p ko‘targan tutuvchi

Bolalar davra qurib turadilar. Tutuvchi doiraning markazida turadi. Uning oyoqlari ostida ikkita to‘p turadi. Tutuvchi irg‘ishlab sakrash, engashish, cho‘qqayib o‘tirish, chapak chalish singari bir qancha harakatlarni bajaradi. O‘yinda qatnashayotgan boshqa bolalar uning ketidan bu harakatlarni takrorlaydilar. Tarbiyachi “Davradan qoch!” — deyishi bilan bolalar turli tomonga yugurib ketadilar, tutuvchi esa tezlik bilan erdagи to‘plarni oladi va ularni qochib ketayotgan bolalarga tegizishga harakat qilib, uloqtiradi. Tarbiyachining: “Bir, ikki, uch — tezroq, davraga yugur!”—degan signalidan keyin bolalar yana davra qurib turadilar, Yangi tutuvchi saylanadi va o‘yin davom ettiriladi. Tarbiyachi o‘yinning oxirida yakun yasab, tutuvchilardan kim aniqroq harakat qilganini aytadi.

Tutuvchi yugurib ketayotgan bolalarga har ikkala to‘pni ham tekkiza olsa, u holda tutuvchi o‘z vazifasida qoladi.

To‘pni ilib ol

O‘yinda uch bola qatnashadi. Ularning ikkitasi bir-biridan kamida 3 m uzoqlikda turib olib, bir-birlariga to‘p irg‘itishadi. Uchinchi bola o‘rtada turib irg‘itilgan to‘pni tutib olishga harakat qiladi. Agar u to‘pni ilib olsa, to‘pni otgan bolaning o‘rniga turadi. U esa onaboshining o‘rnini egallaydi.

Oyoqni poldan ko‘tar!

Bolalar davra yasab turadilar. Doiraning o‘rtasida tarbiyachi tayinlagan tutuvchi turadi. Tarbiyachi “Yugur”! deyishi bilan bolalar xona bo‘ylab yuguradilar. Tutuvchi bolalarning orqasidan yugurib, ularning birortasiga qo‘l tekkizishga harakat qiladi. Qochib borib gimnastika skameykasida turib olgan yoki oyog‘ini ko‘tarib, polga o‘tirib olgan bo‘lsa, unga qo‘l tekkizish mumkin emas. Tutuvchi kimga qo‘lini tegizsa, u tutuvchi bo‘ladi. U tezda joyida to‘xtab, qo‘lini yuqoriga ko‘tarib “Men tutuvchiman!” — deydi. Yangi tutuvchi oldingi tutuvchiga bordaniga qo‘lini gekkizishi mumkin emas. Agar tutuvchi uzoq vaqtgacha birorta bolaga qo‘l tekkiza olmasa, unda tarbiyachi: “Bir, ikki, uch tezroq doiraga yugur!” deydi. Bolalar doiraga turadi, tarbiyachi yangi tutuvchini tayinlaydi. O‘yin yana davom ettiriladi.

Chug‘urchuq uyasi

Bolalar maydonchaning turli joylariga aylana chizadilar yoki ular arg‘amchilardan qilinadi. Bu chug‘urchuq uyasi bo‘lad bir chug‘urchuq inida esa bir juft qush turadi. O‘ynaydigan bolalar soni toq bo‘ladi. Bitta qush insiz qoladi.

Bolalar chug‘urchuqlarni aks ettirib, maydoncha bo‘ylab xil yo‘nalishda yuguradilar (uchadilar). Tarbiyachi “Chug‘urchuqlao uchib keldilar!” deyishi bilan ular inga qarab yugurishadi. Bolalar xohlagan aylanani egallashi mumkin. Bitta

o‘yinchi kechikib qolsa, u joysiz qoladi va yutqizgan hisoblanadi. Hamma chug‘urchuqlar aylanaga (har bir doiraga ikki kishidan) joylashib olganlaridan keyin tarbiyachi: “Chug‘urchuqlar ketadi!” deydi. Shunda hamma o‘yinchilar doiradan chiqib va yana maydon bo‘ylab yugurishadi. O‘yin yana ettiriladi.

O‘yinning qoidasiga ko‘ra tarbiyachi “Chug‘urchuqlar uchib keldilar!” deganidan keyin bolalar faqat chug‘urchuq inidan egallashi mumkin. Indan faqatgina tarbiyachi “Chug‘urchuqlar ketyapti!” deganidan keyin uchib chiqish mumkin. Bitta faqatgina ikkita o‘yinchi turishi mumkin.

Kapalak tutish

Tarbiyachi to‘rtta o‘yinchini tanlab oladi, bu bolalar kapalak tutqichni ushlab turadilar. Qolgan o‘yinchilar — kapalaklar bo‘ladi. Bolalar qo‘llarida kapalak tutqich bilan chetda turadi. Tarbiyachi ularning yoniga tutilgan kapalaklar uchun joy tortadi. Tarbiyachi “Uchinglar!” deyishi bilan hamma kapalaklar maydon bo‘ylab yugurib ketadilar “Tut!” signali bo‘yicha bolalar qo‘llaridagi kapalak tutqich bilan kapalakni tutadi, ya’ni ikkita bola qo‘llarini kapalak atrofida birlashtirib va so‘ngra uni kelishib olingan joyga olib boradi. Ular tutilgan kapalakni olib borayotgan vaqtida tarbiyachi: “Kapalaklar, gullarga qo‘ning” — deydi. Kapalaklar tezda cho‘qqayib o‘tiradilar. “Uchib keting!”—signalni bo‘yicha kapalaklar qaytadan uchib ketadilar. 3-5 ta kapalak tutilgandan so‘ng ko‘p kapalak tutgan bolalar rag‘batlantiriladi. Keyin esa boshqa bolalarga kapalak beriladi. O‘yin yana davom ettiriladi.

Baqalar va qarqaralar

Qurbaqalar yashaydigan botqoqlik chegarasi (to‘g‘ri burchak, kvadrat yoki doira) 20 sm li kubiklar bilan belgilab qo‘yiladi, ular orasiga arqonlar tortiladi. Arqonlarning uchlariga ichiga qum solingan xaltachalar qo‘yiladi. Chetroqda qarqaraning uyasi bo‘ladi. Baqalar botqoqlikda irg‘ishlab sakrab, qurillab yuradilar. Qarqara (onaboshi) o‘z uyida turadi. Tarbiyachining ishorasi bilan u oyog‘ini baland-baland ko‘tarib, botqoqlik tomon boradi va arqonlardan hatlab o‘tib, baqalarni tutadi. Baqalar qarqaradan qochadilar, undan qutulish uchun botqoqlikdan sakrab chiqadilar. Tutilgan baqalarni qarqara o‘z uyiga olib ketadi (ular yangi qarqara saylanmaguncha o‘sha erda qolaveradilar) Agar barcha qurbaqalar botqoqlikdan sakrab chiqishga ulgursalar ularning hech birini tuta olmasa, qarqara uyiga bir o‘zi qaytib keladi. O‘yin 2—3 marta takrorlangandan keyin yangi qarqara taynilanadi.

Qarqara qurbaqani faqatgina botqoqlikda ushlashi mumkin. Qurbaqlar arqon ustidan qadamlab emas, balki sakrab o‘tishlari shart. Agar qurbaqa arqon ustidan qadamlab o‘tsa, tutilgan hisoblanadi.

Eslatma. O‘yinni murakkablashtirish uchun unda ikkita qarqara ishtirot etishi mumkin.

Badminton

Bu o‘yinni ikki o‘rtoq o‘ynaydi. Bolalar volanni raketa bilan bir-biriga uloqtirib, maydoncha bo‘ylab erkin harakat qilib yuradilar. Volanni havoda ushlab turish uchun ular volanga tomon yuguradilar. Cho‘qqayib o‘tiradilar, irg‘ishlab sakraydilar va uni raketa bilan urib qaytaradilar. Shuningdek, bolalar volani birlariga to‘rdan oshirib uloqtirishni ham o‘rganadilar.

Arg‘amchi bilan yugurish

Bolalar ikki komandaga bo‘lingan holda start chizig‘i opuldida turadilar. O‘yinchilarning har birida bittadan arg‘amchi bo‘ladi.

Tarbiyachining signalidan so‘ng bolalar 30 m masofaga arg‘amchini aylantirib yugurib borib, qaytib keladilar. Berilgan vazifani xatosiz aniq bajargan komanda g‘olib hisoblanadi.

Bolalar bu o‘yinni yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan keyin ikki kishilab yugurish mumkin.

Doirada tur

Maydonchaning o‘rtasiga ikkita ustuncha qo‘yib, tizimcha torti ladi. O‘yinchilar teppa-teng ikki komandaga bo‘linadilar, ularning qo‘llarida tennis to‘pi bo‘ladi. Birinchi turgan bolalar doira o‘rtasida bo‘ladilar.

Tarbiyachining signalidan so‘ng to‘pni tizimcha ustidan otib erga tushirmasdan ilib olish kerak. So‘ngra to‘pni ikkinchi, uchinchi o‘yinchiga va hokazoga otiladi. Xatosiz, tez bajargan komanda g‘olib hisoblanadi.

Kimning to‘pi uzoqqa tushadi

Devordan 3—4 m masofa nariga chiziq chiziladi, so‘ngra har bir metrdan keyin chiziq chizib borilaveradi.

Tarbiyachining signalidan keyin o‘yinchilardan biri chiqib, to‘pni qo‘liga olib, devorga kuch bilan uradi, devordan sapchib chiqqan to‘pning erga tushgan joyi aniqlanadi. Keyin ikkinchi, uchinchi marta urilgan to‘pning tushgan joyi aniqlanadi va hokazo. Nihoyat kimning urgan to‘pi uzoqqa borib tushsa, usha o‘yinchi yutgan hisoblanadi.

O‘yinni komandalarga bo‘lib o‘tkazish ham mumkin.

Kim balandga otadi

Bolalar ikki komandaga bo‘linadi, ular maydonda turishadi. To‘pni ushlab turgan bola uni balandga otadi, qolgan o‘yinchilar esa uni ilib olishi kerak. Endi to‘pni ilib olgan boshqa bola to‘pni yuqoriga otadi. Agar to‘pni hech kim ilib ololmasa, yana o‘scha o‘yinchining o‘zi yuqoriga otishi kerak.

O‘yinda kam xatoga yo‘l qo‘ygan komanda g‘olib hisoblanadi.

Bayroqchaga qarab tur

Bolalar 2 kishidan bir qatorga saflanadilar. Maydonchaning o‘rtasiga 10—15 qadam nariga bayroqchalar quyiladi, ularning o‘rtasida esa uzunligi 1-1,5 m

keladigan arqon yotadi. Ikkala tomondan bittadan o‘yinchi arqon uchlari yonida turib, o‘zlarining bayroqchalariga qarab turadilar.

O‘qituvchining «Diqqat! «Marsh!» komandasidan keyin haligi nkkala bola tezda o‘z bayroqchalari tomon yugurib boradilar, uning atrofidan aylanib, orqaga yugurib qaytib kelib, arqonchani uchidai ushlab o‘z tomoniga qarab tortib oladilar. Birinchi bo‘lib tortib olgan o‘yinchiga bir ochko beriladi. O‘yin oxirida eng ko‘p to‘plagan komanda g‘olib hisoblanadi.

Bo‘ri o‘yini

“Bo‘ri” yoki “Boshlovchi” daraxt yoki o‘tlarning orqasiga berkinishi shart. Bolalar maydoncha bo‘ylab quyidagi so‘zlarni aytib: “Bo‘ri, sendan qo‘rqmaymiz!” deb qichqirishadi. Bo‘ri qulay vaqtini poylab, bekinib yotgan joyidan sakrab chiqadida, bolalarni quvlab, ushlab olishga harakat qiladi. Har bir bolaning qo‘lida bir qism o‘t bo‘ladi. Bo‘rini ushlab olish xavfi tug‘ilgan paytda bolalar qo‘lidagi o‘tni erga tashlab, “Bu sening o‘ting!” deydi. Shundan so‘ng bo‘ri o‘tlarni erdan terib olishi kerak. Bo‘ri o‘tni terayotib bolalardan uzoqlashib ketadi. O‘tni bir marta tashlash mumkin. Bo‘ri tutib olgan o‘yinchi o‘yindan chiqadi. Oxirida qaysi bola tutib olingan bo‘lsa, o‘sha bola keyingi o‘yinda bo‘ri bo‘ladi.

O‘yinda qagnashadigan bolalarning soni ko‘p bo‘lsa, unda ikkita bo‘ri bo‘lishi mumkin. O‘yin davomida biror marta ham qo‘lga tushmagan o‘yinchi g‘olib hisoblanadi.

Kim uzoqqa otadi

Bolalar 4 ta komandaga 5—8 kishidan bo‘linib, qatorda saf tortib turadilar. Har bir komanda orasidagi masofa 3-4 metrni tashkil qiladi. To‘pni otuvchilar oldidan to‘g‘ri chiziq chiziladi va har bir komandaning o‘yinchilari uchun alohida joy ajratilgan bo‘ladi. Shu chiziqdan 3 metr naridagi voleybol ustunchasiga tizimcha tortiladi. Tizimchadan 5 metr narida 4-5ta chiziq chiziladi va hokazo.

O‘qituvchining signalidan so‘ng birinchi turganlar to‘pni otadilar. Eng uzoq chiziqdan — 5-chiziqdan to‘pni oshirgan komanda o‘yinchisi 3 ochko, to‘rtinchi chiziqqa etkazganga — 2 ochko, uchinchi chiziqqa etkazganga — 1 ochko beriladi. To‘p yaqindagi chiziqlarga tushsa, ochko berilmaydi. Shundan keyin to‘pni olib kelish uchun komanda beriladi, to‘pni otgan bolalar uni olib kelib, keyingi o‘yinchilarga beradilar. Shunday ketma-ketlikda komandaning hamma o‘yinchilari otadilar. O‘yin 2-3 marta qaytariladi. O‘yinda ko‘p ochko to‘plagan komanda yutgan hisoblanadi.

O‘yin qoidasi shuki, to‘pni tizimcha ustidan oshirib otish kerak. Tizimcha tagidan o‘tgan to‘p hisoblanmaydi.

Bir doiradan ikkinchi doiraga sakrash

Bolalar maydoncha atrofida turadilar. Maydonchaning o‘rtasiga 10—12 ta doira chiziladi yoki kichik chambaraklar qo‘yilgan bo‘ladi.

O‘qituvchining signalidan so‘ng o‘yinchilar ketma-ket birinchi doiradan ikkinchisiga, uchinchisiga va hokazoga sakrab, oxirgi doiradan sakrab o‘tishlari

kerak. Har bir doiraning ichidan to‘xtamasdan to‘g‘ri o‘tgan bola bitta ochko oladi. Vazifani xatosiz bajarib, ko‘p ochko to‘plagan o‘yinchi yutgan hisoblanadi.

Yo‘lakchalar bo‘ylab sakrash

Maydonchaga bir necha yo‘lakchalar chiziladi. Start chizig‘i bilan birinchi yulakcha orasidagi masofa 30 sm, ikkinchisi 60 sm, uchinchisi 80 sm, to‘rtinchisi 90 sm, beshinchisi 100 sm, 110 sm va hokazo uzoqlashib boradi.

O‘qituvchining signalidan keyin bolalar yo‘llar ustidan ketma-ket sakrab o‘ta boshlaydi. Birinchi yo‘lakchadan sakrab o‘tsa 1 ochko, ikkinchisidan o‘tsa — 2 ochko va hokazo oladi. Kimda kim oltita yo‘lakchadan sakrab o‘tsa, 6 ochko oladi. Ko‘p ochko to‘plagan o‘yinchi yutgan hisoblanadi.

Kapalakcha

Bolalarning (onaboshidan tashqari) qo‘llarida elimdan kartondan yoki qog‘ozdan yasalgan kapalaklar bo‘ladi. Onaboshi ning qo‘lida esa kapalak tutqich bo‘ladi.

Tarbiyachining signalidan keyin kapalaklar maydon bo‘ylab qocha boshlaydilar. Onaboshi esa ularni orqasidan quvlab kapalaklarni ushlash uchun qo‘lidagi kapalak tutqichni ularning boshiga kiygizadi. Tutilgan kapalak onaboshi bilan joy almashadi. O‘yin yana davom etadi.

Qum to‘ldirilgan xaltachani otish

Maydonchada ikkita chiziq bir-biridan 20—30 m masofada chiziladi. O‘ynovchilarning hammasi birinchi chiziq oldida saf tortib turadilar. O‘qituvchining signalidan keyin bolalar qo‘llarida ushlab turgan qumli xaltachani orqadan, boshdan oshirib, iloji boricha uzoqqa otadilar. So‘ngra xaltachalarning yoniga kelib, ularni erdan oladilar. Hammaga “Marsh” komandasini berilishi bilan ikkinchi chiziq tomonga yugurib ketadilar. Chiziqdandan kim birinchi bo‘lib o‘tsa, o‘sha o‘yinchi yutgan hisoblanadi. Xaltachani uzoqqa otgan o‘yinchilarni aniqlash o‘ng‘ayroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag‘i PQ-4312-son Qarori “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 13-maydag‘i 391-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 18-maydag‘i 418-sonli Qarori.
4. T.S.Usmonxo‘jaev, F.Xo‘jayev “1001 o‘yin”.
5. F.Xo‘jayev “Milliy o‘yinlar”. T-2015.
6. F.Xo‘jayev, O.Shodiyev “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 4 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni suzishga o‘rgatish”. T-2018.
7. I.G‘ulomova, K.M.Maxkamjonov “Bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotlarida xalq o‘yinlari”. T-1991.
8. L.I.Penzulaeva “5-6 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari”. T-1992.
9. “Детские подвижные игры народов СССР”. М. “Просвещение”-1988.
10. Е.А.Тимофеева “Подвижные игры с детьми младшего дошкольного возраста”. М. “Просвещение”-1989.

MUNDARIJA

Kirish	
Harakatli o‘yinlarni kelib chiqishi tarixi	
Bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish	
Harakatli o‘yinlarni bolalarni yoshiga mos holda o‘tkazish	
Harakatli o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati va mazmuni	
Bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotlarda o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar	
Sayr vaqtida bajariladigan sport elementlari bo‘lgan o‘yin va o‘yin mashqlari	
Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati	